

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSITUTI**

KARIMOVA A.M., TURSUNOV F.M.

BANK SERVISI

O‘quv qo‘llanma

Samarqand – 2024

UO'K: 336.717(075)

K 25

KBK: 65.9(2)262ya73

Karimova A.M., Tursunov F.M.

Bank servisi [Matn]: O'quv qo'llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand: "STEP-SEL" MChJ nashriyoti, 2024 - 278 bet.

O'quv qo'llanmada tijorat banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan bank servisning nazariy, metodologik va huquqiy-me'yoriy asoslari, bank servisini amalga oshirish borasida foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar yoritilgan. Tijorat banklari servisini transformatsiyalash jarayonlari, tijorat banklarida innovatsion bank servisini tashkil etish infratuzilmasini ishlab chiqishi, raqamli bank servisini tashkil etish yo'llari, masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning servisini tashkil etish, tijorat banklarida chakana bank xizmatlari servisini tashkil etish kabi savollar batafsil yoritib berilgan. Har bir bobdan so'ng tayanch so'zlar va iboralar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar keltirilgan.

O'quv qo'llanma 60410500 – "Bank ishi va auditi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun majburiy fan sifatida kiritilgan. Ushbu qo'llanmadan soha professor-o'qituvchilari, magistr, tadqiqotchi va amaliyot xodimlari, shuningdek bankirning xizmat ko'rsatish masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasini foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Z.D. Niyozov - SamISI "Bank ishi" kafedrasini dotsenti, i.f.n.

S.B. Sharipov - SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasini dotsenti, i.f.f.d.

O'quv qo'llanma institut Kengashining 2024 - yil 27 - noyabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (4-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-702-57-0

© A.M.Karimova , F.M. Tursunov, 2024

© "STEP-SEL" MChJ nashriyoti. 2024

MUNDARIJA

KIRISH	7
I bob. “BANK SERVISI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI	10
1.1 “Bank servisi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	10
1.2. Bank xizmatlari bozori va uning tarkibiy tuzilishi.....	15
1.3. Bank servisini tashkil etish va amalga oshirish borasidagi xalqaro va milliy darajadagi me’yor va mezonlar	18
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	24
II bob. TIJORAT BANKLARI SERVISINI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARI.....	26
2.1 Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar	26
2.2. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning bank servisi ta’ siri.....	32
2.3.Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning bank servisini tashkil etishdagi ahamiyati.....	36
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	38
III bob. TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK SERVISINI TASHKIL ETISH INFRATUZILMASINI ISHLAB CHIQUISH	39
3.1. Innovatsion bank servisini tashkil etish asoslari	39
3.2. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini rivojlantirishda innovatsion servis turlarini joriy etish yo‘llari	41
3.3 Tijorat banklarida innovatsion servis ko‘rsatishda marketing infratuzilmasini ishlab chiqish	46
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	50
IV bob. RAQAMLI BANK SERVISINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	51
4.1 Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari	51
4.2. Raqamli bank faoliyatini tahlili va undan kutilayotgan natijalar ..	55
4.3. Raqamli bank servisini tashkil etish yo‘llari	59
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	61

V bob. MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISHNING SERVISINI TASHKIL ETISH	62
5.1. Masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o‘rni	62
5.2. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari.....	73
5.3. Masofaviy bank xizmatlarini raqamlashtirishning mijozlarning moliyaviy savodxonlik darajasiga ta’siri.....	83
5.4. Masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning xorij tajribasi	87
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	94
VI bob. TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI SERVISINI TASHKIL ETISH.....	95
6.1. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishda chakana bank xizmatlarining ahamiyati	95
6.2. Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini tashkil etish yo‘llari	99
6.3. Raqamli transformatiya jarayonida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ilg‘or xorij tajribasi.....	101
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	108
VII bob. AN‘ANAVIY VA INNOVATSION XUSUSIYATLI DEPOZITLARNI SERVISINI TASHKIL ETISH	108
7.1. Bankning depozit siyosati, uning elementlari va mezonlari.....	109
7.2. Bank depozitlarini boshqarishning servisini tashkil etish	113
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	115
VIII bob. TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA KREDIT BERISHNING SERVISINI TASHKIL ETISH	116
8.1. Jismoniy shaxslarni kreditlashning servisini tashkil etish.....	116
8.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni kreditlashning servisini tashkil etish.....	123
8.3. Korporativ mijozlarni kreditlashning servisini tashkil etish	132
Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar.....	138
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	138

IX bob. TIJORAT BANKLARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN VALYUTA OPERATSIYALARINI SERVISINI TASHKIL ETISH	140
9.1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari	140
9.2. Ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi	143
9.3. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutadagi hisob raqamini yuritish servisi.....	145
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	161
X bob. INVESTITSION XARAKTERDAGI BANK SERVISINI TASHKIL ETISH	162
10.1. Investitsion xarakterdagi bank servisi.....	162
10.2. Banklarning investitsion mahsulotlarini yaratish.....	164
va joriy etish.....	164
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	173
XI bob. XALQARO VA MILLIY TO‘LOV TIZIMLARI ORQALI BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISH	174
11.1 To‘lov tizimining mazmuni va uning elementlari.....	174
11.2. Respublika to‘lov tizimi va uning tashkil etilishi	179
11.3. SWIFT xalqaro to‘lovlar tizimining mazmuni va uni tashkil etilishi	185
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	186
XII bob. TIJORAT BANKLARINING NAQD PULSIZ HISOB–KITOB OPERATSIYALARINI TASHKIL ETISH.....	188
12.1. Naqd pulsiz hisob–kitoblarning mazmuni va ahamiyati.....	188
12.2. Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimi va uning elementlari	192
12.3. Plastik kartochkalar bilan operatsiyalar va ularning milliy to‘lov tizimidagi o‘rni.....	195
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	198
XIII bob. TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALAR BAJARISHNING SERVISINI TASHKIL ETISH	200
13.1. Qimmatli qog‘ozlar, ularning turlari va ahamiyati.....	200

13.2. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatida tutgan o‘rni.....	205
13.3. Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar bajarishning servisini tashkil etish	207
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	209
XIV BOB. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATSIYALARI.....	210
14.1. Faktoring operatsiyalari mohiyati, maqsadi va belgilari	210
14.2. Faktoring xizmati bo‘yicha shartnoma va uning tarkibi	212
14.3. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va ularning o‘tkazilish tartibi	215
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	218
XV BOB. TIJORAT BANKLARINING LIZING OPERATSIYALARI.....	219
15.1. Lizing operatsiyalari va uning asosiy elementlari	219
15.2. Lizingning turlari va uning servisi	225
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	228
XVI BOB. TIJORAT BANKLARINING TRAST VA FORFEYTING OPERATSIYALARI.....	229
16.1. Tijorat banklarining trast operatsiyalari	229
16.2. Banklarning forfeyting operatsiyalari.....	234
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:	241
GLOSSARIY	242
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	273

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatida boshqaruvni samarali tashkil etish, banklarning xizmatlarini kengaytirish va uni realizatsiya qilish masalasi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Har qanday bank hozirgi moliyaviy bozorning yuqori darajada rivojlanishi bilan iqtisodiy barqarorlik bo‘lganda ham ma’lum jiddiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bozor munosabatlari sharoitida bank–moliya tizimining ahamiyati tubdan o‘zgarib, boshqarish sohasi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat bilan uyg‘unlashgan holda ko‘proq bank–moliya tizimiga yuklatiladi. O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish, uni erkinlashtirish va jahon andozalari talablariga mos holda shakllantirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun respublikamiz bank tizimini har tomonlama mukammal rivojlantirishga asos yaratildi va islohotlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari faoliyatida boshqaruvning to‘g‘ri tashkil etilishi, banklar faoliyatining samaradorligini oshiribgina qolmay kelajakda bank, banklararo raqobat sharoitida mahsulot va xizmatlar bozorida yetakchi bo‘lishni ta’minlaydi.

Bank servisi–bu bank faoliyatida mavjud bo‘lgan xizmatlar majmuasini aholi va moliyaviy hamkorlarga ko‘rsatishdir. Bank servisi mijozlarning bank faoliyatiga bo‘lgan talablarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar majmuasidir. Bank servisdagi eng katta tendensiyalaridan biri bu zamonaviy texnologiyalar yordamida xizmatlardan foydalanishni soddalashtirishdir.

Mijozlar o‘z mablag‘larini 24/7 rejimda uydan chiqmasdan boshqarishlari mumkin. Mobil ilovalar nafaqat balansni tekshirish, balki pul o‘tkazmalarini amalga oshirish, to‘lovlarni to‘lash va hatto turli xil moliyaviy vositalarga sarmoya kiritish imkoniyatini beradi, bu esa foydalanuvchilar uchun qulaylik va erkinlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, texnologiyaning rivojlanishi bilan yangi muammolar paydo bo‘ladi. Tranzaksiyalar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish banklar uchun ustuvor vazifalarga aylanmoqda. Shu sababli, moliya institutlari mijozlarning ishonchini saqlab qolish va kibr

tahdidlarning oldini olish uchun ko‘p darajali autentifikatsiya va shifrlash texnologiyalarini faol ravishda joriy qilmoqdalar. Samarali bank servisi jamiyatda barqaror iqtisodiy o‘sish va moliyaviy barqarorlik uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, zamonaviy bank servisining muhim jihati xizmatlarni xususiylashtirishdir. Banklar mijozlarning xatti-harakatlarini o‘rganish va ularning ehtiyojlariga mos keladigan maxsus yechimlarni taklif qilish uchun analitik vositalar va sun‘iy intellektdan tobora ko‘proq foydalanmoqdalar. Bu nafaqat mijozlar tajribasini yaxshilashga, balki xizmatning o‘ziga xosligini his qilish orqali foydalanuvchilarning sodiqligini oshirishga imkon beradi.

Moliyaviy xizmatlar sanoatiga yangi standartlarni joriy etayotgan FinTech kompaniyalarining ta‘sirini ham ta‘kidlash kerak. Moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlar bilan bunday kompaniyalar an‘anaviy banklarni yangi texnologiyalarni modernizatsiya qilish va joriy etishga undaydigan muqobil moliyaviy boshqaruv yechimlarini taqdim etadilar. Bu sog‘lom raqobatni yaratadi va mijozlarga xizmat ko‘rsatishning eng yaxshi amaliyotlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quv qo‘llanmada bank servisini tashkil etish va amalga oshirish borasidagi xalqaro va milliy darajadagi me‘yor va mezonlar yoritilgan. Tijorat banklari servisini transformatsiyalash jarayonlari, tijorat banklarida innovatsion bank servisini tashkil etish infratuzilmasini ishlab chiqishi, raqamli bank servisini tashkil etish yo‘llari, masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishning servisini tashkil etish, tijorat banklarida chakana bank xizmatlari servisini tashkil etish, an‘anaviy va innovatsion xususiyatli depozitlarni servisini tashkil etish, tijorat banklarida mijozlarga kredit berishning servisini tashkil etish, tijorat banklarida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini servisini tashkil etish, investitsion xarakterdagi bank servisini tashkil etish, xalqaro va milliy to‘lov tizimlari orqali bank xizmatlarini ko‘rsatish, tijorat banklarining naqd pulsiz hisob–kitob operatsiyalarini tashkil etish, tijorat banklarining faktoring, lizing, trast va forfeiting operatsiyalari yoritilgan.

O'quv qo'llanmani o'rganish natijasida talabalar bank servisini tashkil etish hamda amalga oshirish jarayonlariga oid barcha nazariy va amaliy tajribalarni o'rganishi, talabalarni tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish hamda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Zamonaviy dunyoda bank servisi moliya tizimida muhim rol o'ynaydi va foydalanuvchilarga o'z mablag'larini boshqarish uchun qulay vositalarni taqdim etadi. Tez texnologik taraqqiyot va moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish sharoitida banklar an'anaviy operatsiyalardan tortib, joriy hisobvarag'larni yuritish va kreditlar berish kabi innovatsion yechimlarga, shu jumladan mobil ilovalar va onlayn banklarga qadar turli xil xizmatlarni taklif qilmoqdalar.

I bob. “BANK SERVI SI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1 “Bank servisi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

1.2 Bank xizmatlari bozori va uning tarkibiy tuzilishi.

1.3 Bank servisini tashkil etish va amalga oshirish borasidagi xalqaro va milliy darajadagi me’yor va mezonlar.

1.1 “Bank servisi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari o‘z xizmatlarini yetarli darajada shakllantirishga erishdi. Biroq, banklar o‘rtasidagi raqobat kurashi ularni qo‘shimcha mijozlar jalb etish hamda ko‘rsatilayotgan xizmatlar doirasi va sifatini kengaytirish uchun yangicha yondashishga undamoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirish dolzarb vazifadir. Bu maqsadga erishish uchun tijorat banklari tomonidan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Zamonaviy bank tizimi yetarli darajada mablag‘lar bilan ta’minlangan bo‘lib, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlanishiga o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun yangi mijozlarni jalb qilishi muhimdir. Hozirgi kunda barqaror bank tizimini rivojlanishi ko‘proq uni mos ravishda modernizatsiyalash iqtisodiyot va mijozlarni talablariga javob beradigan samarali hamda sifatli xizmatlarni joriy etishni talab etadi. Tijorat banklarining faoliyati va bank xizmatlari xususida iqtisodchi olimlar tomonidan xilma-xil fikrlar bildirilgan, ilmiy–nazariy xulosalar shakllantirilgan. O. Lavrushin tahriri ostida chop etilgan “Bank ishi” darsligida “Mamlakat bank tizimini qayta tarkiblashda asosiy e’tibor xususiy banklar faoliyatidagi xizmatlar majmuasini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlashga qaratilishi kerak” degan fikr bildirilgan. Bank servisi fanining predmeti bank mutaxassislariga mijozlarning bank faoliyatiga bo‘lgan talablarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar hamda bank servisini shakllantirish mexanizmidan foydalanishni va bankning servisi bilan bog‘liq masalalarni tahlil etishni o‘rgatishdan iborat.

Bank servisi fanining maqsadi–talabalarni bank servisini tashkil etish hamda amalga oshirish jarayonlariga oid barcha nazariy va amaliy tajribalarni o‘rganishi, talabalarni tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o‘zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o‘rgatish hamda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa banklar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatlarining o‘sib borishi sharoitida bank servisini tashkil etish, asoslari va tamoyillarini bilishdan iborat. Bank servisi fanining vazifasi–bank servisini tashkil etish asoslari va tamoyillarini, bank servisini amalga oshirishda nazorat va tartibga solish borasidagi mezon va me‘yorlarni, bank servisini shakllantirish mexanizmidan foydalanishni va bankning servisi bilan bog‘liq masalalarni tahlil etishni o‘rgatishdan iborat. Bank servisi–bu bank faoliyatida mavjud bo‘lgan xizmatlar majmuasini aholi va moliyaviy hamkorlarga ko‘rsatishdan iborat.

Bank servisi - bu bank faoliyatida mavjud bo‘lgan xizmatlar majmuasini aholi va moliyaviy hamkorlarga ko‘rsatishdir. Bank servisi mijozlarning bank faoliyatiga bo‘lgan talablarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar majmuasidir. Bank servisdagi eng katta tendensiyalaridan biri bu zamonaviy texnologiyalar yordamida xizmatlardan foydalanishni soddalashtirishdir.

Shu bilan bir qatorda bank servisi tushunchasiga bank operatsiyalarini optimallashtirishni ham muhim element sifatida kiritildi, chunki banklar servisining u yoki bu turini tanlashda ushbu operatsiyaning samaradorligi, qulayligi va sifatliigi darajasiga e‘tibor berishlari va ushbu ko‘rsatkichlar uning raqobatbardoshligini ta‘minlash asosi hisoblanishini his etmoqlari lozim. Bank servisi tushunchasi bank xizmati, bank mahsuloti va bank operatsiyasini o‘z ichiga oluvchi umumiy tushuncha hisoblanadi. Bu tushunchalarga to‘xtalib o‘tsak.

Bank xizmatlari - bu banklar tomonidan faqat mijozning xohishi bo‘yicha va uning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladigan harakatlar yoki ularning majmuidir. Bank xizmatlari ko‘rsatish bank tomonidan moliyaviy, kasbiy, texnologik, texnik, intellektual va boshqa faoliyat turlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Eng umumiy shaklda bank

xizmatlari pul mablag‘lari aylanmasi bo‘yicha harakatlar bo‘lib, ular turli sifat va shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Bank xizmatlari moliyaviy boshqaruvning qulay va xilma-xil yechimlarini taqdim etish orqali zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu xizmatlarga hisobvarag‘lar, kreditlar, onlayn–banking, shuningdek turli xil investitsiya mahsulotlarini ochish va yuritish kiradi. So‘nggi yillarda mijozlarga istalgan vaqtda va istalgan joydan operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi raqamli bank xizmatlarining ahamiyati keskin oshdi. Texnologiyalarning rivojlanishi bilan banklar mobil ilovalarni joriy qila boshladilar, xizmatlardan foydalanishni soddalashtirdilar va foydalanuvchilarga qulaylikni oshirdilar. Mobil–banking moliyaviy hayotning ajralmas qismiga aylandi, bu tezkor pul o‘tkazmalarini amalga oshirish, to‘lovlarni to‘lash va hisob holati to‘g‘risida dolzarb ma‘lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Raqamli yechimlar, shuningdek, turli xil kreditlar va investitsiya mahsulotlarining shartlarini tezda taqqoslash imkonini beradi, bu esa mijozlarga ko‘proq ma‘lumotli tanlov qilish imkonini beradi. Biroq, raqamli xizmatlarning o‘sishi bilan ma‘lumotlar xavfsizligi va moliyaviy operatsiyalarni himoya qilish bilan bog‘liq yangi muammolar paydo bo‘ladi. Banklar mijozlarning manfaatlarini himoya qilish va ularning xizmatlariga ishonchni oshirish uchun biometrik autentifikatsiya va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga intilmoqda. Natijada, bank xizmatlari mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga va vaqtning texnologik talablariga moslashib, rivojlanishda davom etmoqda.


Bank mahsuloti – alohida ko‘rinishdagi bank faoliyatining mijozlar talabini qondirishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bank xizmatlari va operatsiyalarining majmui.¹ Bizga ma‘lumki mahsulot – bu faoliyat natijasidir. Shunday ekan, mijozlar talabini qondirishga yo‘naltirilgan xizmatlar va operatsiyalar natijasi bank mahsulotini tashkil etadi.

¹ Ortiqov A.O. Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisod fanlari

nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati – Toshkent, 2009. 19 b.

Bank mahsuloti zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Bu mahsulotlar banklar tomonidan taqdim etiladigan turli xizmatlarni o‘z ichiga oladi, jumladan, omonat hisoblari, kreditlar, investitsiya va to‘lov xizmatlari. Bank mahsulotlari insonlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda va ularning moliyaviy rejalashtirishini yaxshilashda yordam beradi.

Omonat hisoblari-bank mahsulotlarining eng keng tarqalgan turi. Ular mijozlarga o‘z pullarini saqlashda, mahalliy va xalqaro tranzaksiyalarni amalga oshirishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, omonat hisoblariga beriladigan foizlar investitsiya imkoniyatlarini



kengaytiradi va mijozlarning moliyaviy ahvolini yaxshilaydi. Kreditlar esa iste‘molchilar va bizneslar uchun turli xil imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida odamlar maqsadlariga erishish uchun zarur mablag‘ni olishlari mumkin. Masalan, uy sotib olish, biznes ochish yoki ta‘lim olish kabi maqsadlar

uchun kreditlar muhim ahamiyatga ega. Banklar, shuningdek, turli xil kreditlar imkoniyatlarini taklif etish orqali raqobatni kuchaytiradi va mijozlarga eng qulay shartlarni taqdim etishga intiladi. Umuman olganda, bank mahsuloti faqat moliyaviy xizmatlar emas, balki har bir insonning hayoti va faoliyatida to‘g‘ridan–to‘g‘ri ta‘sirga ega bo‘lgan vositadir. Ularning to‘g‘ri tanlovi va boshqaruvi moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi va kelajak rejalashtirishida muhim ahamiyatga ega.

Bank operatsiyasi – bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag‘larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bank va mijoz harakatlari majmuasi hisoblanadi.

Bank operatsiyasi moliya tizimining asosiy yo‘nalishi bo‘lib, iqtisodiyotning mahalliy va global darajada ishlashiga yordam beradi. Ushbu operatsiyalar depozit va kredit operatsiyalari, pul o‘tkazmalari, valyuta operatsiyalari va investitsiya xizmatlari kabi keng ko‘lamli

xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu funksiyalarning har biri iqtisodiy jarayonning likvidligi, barqarorligi va o‘shini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Asosiy bank operatsiyalaridan biri bu kredit berish bo‘lib, u yuridik va jismoniy shaxslarga loyihalarni ishlab chiqish yoki amalga oshirish uchun zarur mablag‘larni olish imkonini beradi. Qaytarilmaslik xavfini minimallashtirish uchun banklar qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini diqqat bilan baholaydilar. Ushbu jarayon mijozlarning kredit tarixi va obro‘yini shakllantirishga yordam beradi, bu esa uzoq muddatda ularning yanada qulay shartlarni olish imkoniyatlarini oshiradi. Kredit berishdan tashqari, banklar mijozlarga o‘z aktivlarini boshqarish va kapitalni ko‘paytirishga yordam beradigan turli xil investitsiya mahsulotlarini taklif qilishadi. Bu aksiyalar va obligatsiyalarga an‘anaviy sarmoya yoki derivativlar kabi murakkab moliyaviy vositalar bo‘lishi mumkin. Aktivlarni samarali boshqarish chuqur bilim va bozor tahlilini talab qiladi, bu esa bank mutaxassislarining professionalligini oshiradi. Shunday qilib, bank operatsiyalari iqtisodiy ekotizimning ajralmas qismi bo‘lib, nafaqat daromad olish imkoniyatini ta‘minlaydi, balki biznes barqarorligi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Tijorat banklari xizmatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga va ko‘zlangan maqsadga ko‘ra ikki yirik guruhga bo‘lish mumkin:

1. Ma‘lum darajada bankning likvidligini saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar.

2. Daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlar. Ushbu ikki xizmatlar guruhi o‘rtasida ma‘lum nisbat mavjud bo‘lib, ular bank faoliyatini sifat jihatdan ma‘lum darajada ta‘minlab turish imkonini beradi.

Bank likvidligini ta‘minlash maqsadida bajariladigan xizmatlarning ba‘zi birlari bankka daromad keltirsa-da, ular mavjudligini sababi bank umumiy likvidligini ma‘lum darajada ushlab turishdan iboratdir. Yuqorida “bank servisi”, “bank xizmati”, “bank operatsiyasi” va “bank mahsuloti” atamalarini tadqiq qilishdan ma‘lum bo‘ldiki, xorijlik iqtisodchi olimlarining tijorat banklari xizmatlari turlarini tasniflash bo‘yicha ham turli xil yondashuvlar keltirishgan. Darhaqiqat,

iqtisodchi olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari tijorat banklari xizmatlarini tavsiflash va ularning turlarini tasniflash bo'yicha turli qarashlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Xususan, iqtisodchi olim T.M.Qoraliyev bank operatsiyalarini depozit–ssuda, schetlarni yuritish, hisob–kitoblarni amalga oshirish, maslahat va vositachilik, faktoring va lizing operatsiyalariga bo'lib o'rganadi.

Xuddi shu fikrni A.S.Neshitoy ham tasdiqlab, ularni noan'anaviy bank operatsiyalari deb nomlagan va ular sirasiga trast operatsiyalari, kafolat berish va inkassatsiya operatsiyalarini kiritgan. Iqtisodchi olim M.I.Yo'ldoshov bank xizmatlari turlarini ikki guruhga: asosiy xizmatlar – omonat, hisob–kitob va kredit xizmatlari va qo'shimcha xizmatlar – kafolat, sug'urta va lizing turlariga bo'lib o'rganadi.

O.A.Ortiqov esa bank xizmatlarini iqtisodiy mazmuni va ko'zlangan maqsadiga ko'ra ikki yirik guruhga: ma'lum darajada bankning likvidligini saqlab turish uchun bajariladigan va daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlarga ajratadi.

U “ushbu ikki xizmatlar guruhi o'rtasida ma'lum nisbat mavjud va bu bank faoliyatini sifat jihatdan ma'lum darajada ta'minlab turish imkonini beradi” deb hisoblaydi. Shunday qilib, turli qarashlar mavjudligi bois amaliyotda tijorat banklari xizmatlari, operatsiyalari va mahsulotlarining turlarini tasniflash borasida yagona yondashuv mavjud emas. Shu bois ularni zamonaviy nuqtai–nazardan turlarini tasniflab, sifatleri va sifat mezonlarining mohiyatini ochib beramiz.

Shu o'rinda bank servisi tushunchasi ostida ikki narsa tushunilishini aytib o'tmoqchimiz. Birinchisi, bank tomonidan mijozlar ehtiyojini qondirish yakuni bo'lsa, ikkinchisi, bank operatsiyalarini bajarilish natijasidir.²

1.2. Bank xizmatlari bozori va uning tarkibiy tuzilishi

Bugungi kunda Respublikamiz tijorat banklari tomonidan mijozlarga 100 dan ortiq bank xizmat turlari taklif etilmoqda. Banklarimiz taklif etilayotgan xizmatlar bo'yicha to'lovlar miqdorini

² Г.Н.Белоглазова, Л.П.Кроливейская. «Банковское дело». Москва: ПИТЕР, 2016. 28-стр.

ham belgilab berishgan va ular xilma–xildir. Odatda, tijorat banklarini ko‘rsatadigan xizmatlarining turlari bo‘yicha quyidagilar kiradi:

- iqtisodiyotning real sektorini kreditlash;
- jismoniy shaxslarni kreditlash;
- davlat qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshiriladigan xizmatlar;
- korxonalar va tashkilotlarning qimmatli qog‘ozlari bilan oshiriladigan xizmatlar;
- milliy va xalqaro valyuta bozorlaridagi xizmatlar, mijozlarga hisob–kitob va kassa xizmati ko‘rsatish;
- tijorat banklarining trust xizmatlari;
- banklarning konsalting xizmatlari;
- lizing, faktoring, forfeiting xizmatlari.

Bank xizmati bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga egadir:

- mavhumlik;
- xizmatning manbadan ajratilmasligi;
- xizmatlar sifatining nobarqarorligi;
- bank xizmatlarining saqlanmasligi;
- bank xizmat ko‘rsatishining shartnomali xarakteri;
- bank xizmat ko‘rsatishining pullar bilan bog‘liqligi;
- xizmat ko‘rsatishning vaqt bo‘yicha davomiyligi;
- bank xizmatlari bilan kondiriladigan extiyojlarning ikkilamchiligi.

Jahon bozori rivojlanish an‘analarini o‘rganish asosida bank xizmatlari sifati darajasining mijozlarga ko‘rsatilayotgan telekommunikatsion xizmatlar rivojlanishi darajasiga bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘lib qolmoqda. Xususiy va korporativ mijozlarga konsalting xizmatlarini ko‘rsatish dolzarblik kasb etdi.

Shu bilan birga xizmat ko‘rsatish tizimining diversifikatsiya yo‘nalishi bo‘yicha filiallar va bo‘limlarni restrukturalash kelajakda xorijiy banklar muammosi bo‘lib qolishi mumkin. Yevro qabul qilishi bilan tezkor va yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish kabi imtiyozli takliflarni taklif qilish imkoniyati tufayli yirik G‘arbiy Yevropa banklari raqobatbardoshlik xususiyatlariga ega bo‘ladilar.

Quyida biz bank xizmatlarining unga mos mahsulotlari bilan keltirilgan jadvalni e'tiboringizga taqdim etamiz (1.2.1–jadval).

1.2.1–jadval

Bank xizmatlarining unga mos mahsulotlari

Bank xizmatlari turlari	Bank mahsulotlari
1. O'z moliyaviy resurslarini ko'paytirishga bo'lgan ehtiyoj	
1.1. Depozit xizmatlari	Jamg'arma omonat; muddatli omonat; talab qilib olinguncha depozit; qimmatbaho toshlarda depozit
1.2. Ishonchli boshqaruv xizmatlari	Individual ishonchli boshqaruv; bank boshqaruvi umumiy fondida ulushli ishtirok sertifikat
1.3. Brokerlik vositachiligi xizmati	Brokerlik xizmati; qimmatli qog'oz oldi–sotdisi; internet–broker; qimmatbaho metallar, naqd va naqdsiz chet el valyutasi oldi–sotdisida vositachilik
1.4. Bank qimmatli qog'ozlari asosida resurslarni ko'paytirish xizmati	Obligatsiya, aksiya, veksel, sertifikat
2. Mijozlarning qo'shimcha resurslarini mobilizatsiya qilishga ehtiyoj	
2.1. Kredit xizmati	Bir martalik kredit, kredit liniyasi, overdraft, ipoteka krediti, investitsion kredit, iste'mol krediti
2.2. Lizing xizmatlari	Operativ lizing, moliyaviy lizing
2.3. Faktoring	Regress huquqli faktoring, regress huquqsiz faktoring, tashqi savdo faktoringi
2.4. Emission vositachilik xizmati	Andarrayting
2.5. Investitsion (dilerlik) xizmat	Repo, qimmatli qog'oz oldi–sotdisi
2.6. Kafolat xizmati	Bank kafolati, kafillik
3. Hisob–kitoblarni amalga oshirish ehtiyoji	
3.1. Hisob–kassa xizmati	Hisob scheti, valyuta scheti, bank kartalari, akkreditiv, inkasso, to'lov topshiqnomasi, o'tkazmalar, pul cheklari
3.2. To'lov instrumentlari emissiya xizmati	Veksellar; zakladli, hisob–kitobli va yo'l cheklari
3.3. Turli to'lov tizimlariga kirish xizmati	Western Union o'tkazmalari; Contact o'tkazmalari
4. Saqlash ehtiyoji	
4.1. Seyflar ijarasi xizmati	Individual bank seyfi (yacheyka)
4.2. Depozitariy xizmati	Depo hisobini yuritish
4.3. Reyestr ushlovchi (registrator) xizmati	Qimmatli qog'ozlar egasi reestrini yuritish

5. Axborotga, maslahatga bo‘lgan ehtiyoj	
5.1. Maslahat xizmati	Maslahat, informatsion ta’minot, tashqi savdo shartnomasini huquqiy yuritilishi
5.2. Baholash xizmati	Ko‘chmas mulk baholanishi, ta’minot baholanishi, jumladan qimmatli qog‘ozlar ham

Bank xizmatlari nazariyasi evolyutsiyasi qator rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining birinchi bosqichida X.Duglas va G.Brayanning ilmiy ishlari bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmentini o‘rganishga bag‘ishlangan.³

Ikkinchi bosqich alohida mamlakatlarning kredit–moliya tizimlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda bank kapitali globallasuvi va markazlashuvining bank xizmatlari bozoriga ta’sirining ehtimoliy oqibatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan F.Derek, O.Donnel, E.Ballarini ilmiy ishlarida aks etadi.⁴

Uchinchi bosqichda “moliyaviy supermarket” va “moliyaviy butik” g‘oyasi hamda tor yo‘nalishga ixtisoslashgan banklarning universal banklar qatoriga qo‘shilishi dolzarblik kasb etdi.

Ssuda kapitali bozorida xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqaldi, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko‘paydi. Bu borada D.Jentle, J.Sinki, P.Rouz o‘z ilmiy ishlarida “Bank xizmati – bu bank operatsiyalarini o‘tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intellektual va professional bank faoliyatidir” deb alohida ta’kidlaydi.⁵

1.3. Bank servisini tashkil etish va amalga oshirish borasidagi xalqaro va milliy darajadagi me’yor va mezonlar

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni asosida “2020 — 2025–yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish” Strategiyasi⁶ qabul qilindi. Strategiyaga ko‘ra, moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora–tadbirlar

³ Дуглас Х. Банковская политика в области кредитования. – М.: Слово, 2011. – 508 с.

⁴ Дерек Ф. Глобальная стратегия банков. – М.: Экономика и финансы, 2007. – 385 с.

⁵ Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 с.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son

amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi⁷, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi⁸, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi⁹ hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi¹⁰ yangilangan qonunlari qabul qilindi. Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Strategiyada Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik sub'yektlari, shu jumladan, yetarli darajada xizmat ko'rsatilmayotgan segmentlar (kam daromadli jismoniy shaxslar, qishloq aholisi, mikrofirma va kichik korxonalar) uchun bankning

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.11.2019 yildagi O'RQ-582-son. <https://lex.uz/docs/-4590452>.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019 yildagi O'RQ-580-son. <https://lex.uz/docs/-4581969>.

⁹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.10.2019 yildagi O'RQ-573-son. <https://lex.uz/docs/-4562834>.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019 yildagi O'RQ-578. <https://kun.uz/79643134>.

bazaviy xizmatlaridan (depozit, kredit va to'lov xizmatlari) foydalanish imkoniyatini kengaytirishni nazarda tutilgan.

Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish maqsadida quyidagi chora–tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

- jahon banki ko'magi bilan moliyaviy ommaboplikni oshirishning aniq va muvofiqlashtirilgan yo'nalishlarini belgilovchi Moliyaviy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

- subsidiyalashadigan kredit dasturlarini yetarlicha xizmat ko'rsatilmayotgan va zaif qatlamlarga yo'naltirish hamda subsidiyalarni vaqt bo'yicha cheklash maqsadida davlatning ishtirokini yetarli darajada xizmat ko'rsatilmayotgan segmentlarda jamlash;

- mavjud bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida yaxlit va iqtisodiy samarador moliyaviy vositachilik va mahsulotlar tizimini, jumladan ushbu qatlamlar uchun maqsadli yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega mikromoliya tashkilotlari, lizing, faktoring va moliyaviy texnologik (fintech) kompaniyalar, elektron pul operatorlari, ixtisoslashtirilgan kredit–vositachilarini rivojlantirish. Banklarning hududlardagi ishtiroki bazaviy bank xizmatlari to'plamini ko'rsatuvchi va ko'p sonli boshqaruv xodimlarini talab qilmaydigan ixcham “bank xizmatlari ofislari” tarmog'ini barcha hududlarda kengaytirgan holda mavjud filiallar tarmog'ini maqbullashtirish, shuningdek, “mobil banking” xizmatlarini keng joriy qilish hisobiga ta'minlanadi.

Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish uchun quyidagi chora–tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

- ayrim banklar kapitalida davlat ulushi mavjudligidan qat'i nazar banklar faoliyatini amalga oshirish uchun teng sharoitlar yaratish orqali bank sektorida raqobat muhitini ta'minlash;

- banklarning yangi, shu jumladan “raqamli banking” tamoyillariga asoslangan biznes–modellarini joriy qilish;

- bank xizmatlari ko'rsatishning xalqaro sifat standartlarini qo'llash;

- banklarning operatsion va kapital xarajatlarini optimallashtirish;

- birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo'shimcha

resurslarni jalb qilish;

– kichik va oʻrta biznes subʼyektlariga koʻrsatilayotgan xizmatlarning koʻlami va sifatini, shu jumladan tadbirkorlik subʼyektlariga axborot–kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat koʻrsatish orqali oshirish;

– ipoteka bozorida aholining oshib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi tegishli bank va nobank mahsulotlar turini kengaytirish uchun qulay shart–sharoitlar yaratish orqali shahar va qishloq joylarida ipotekani kreditlashni rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora–tadbirlar qabul qilish.

Bank sektorini isloh qilish boʻyicha belgilangan maqsadlarga oʻz vaqtida erishilishini va qilingan saʼy–harakatlar muvaffaqiyatini baholash maqsadida mazkur Strategiya quyidagi maqsadli koʻrsatkichlarni oʻz ichiga oladi:

1) bank tizimi aktivlarining jami hajmida davlat ulushi boʻlmagan banklar aktivlari hissasini joriy 15 foizdan 2025–yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

2) banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi majburiyatlar hissasini joriy 28 foizdan 2025–yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

3) 2025–yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va obroʻga ega boʻlgan kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;

4) umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari hissasini joriy 0,35 foizdan 2025–yilga kelib 4 foizgacha oshirish(1.3.1-jadval).

Strategiyaning amalga oshirilishi ustidan tizimli monitoring olib borish, umumiy muvofiqlashtirish, bank tizimini isloh qilishga toʻsqinlik qiluvchi muammoli masalalarni tezkor koʻrib chiqish va hal etish Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Dolzarb vazifalar qatorida tijorat banklari oʻz faoliyatida ISO 9001:2015 “Sifatni boshqarish tizimi” standartini tatbiq etishlari lozimligi alohida qayd etilgan. Tijorat banklari faoliyatiga xalqaro meʼyorlarni tatbiq qilishda ISO standartlari muhim element boʻlib

xizmat qiladi va moliyaviy muassasaning xalqaro miqyosda nufuzini ko‘rsatib beradi.

1.3.1 –jadval

2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar¹¹

T/r	Ko‘rsatkichlar nomlanishi	Joriy holati	Maqsad:		
			2021–yilga	2023–yilga	2025–yilga
1.	Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	15 %	17–20 %	35–40 %	60 %
2.	Banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	28 %	30–40 %	60 %	70 %
3.	Yetarli tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan strategik xorijiy investorlarni jalb qilish	–	–	3	3
4.	Depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbati	41 %	41–45 %	45–50 %	50–60 %
5.	Nobank kredit tashkilotlari aktivlarining kredit tashkilotlari aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	0,35 %	0,5–0,7%	1–1,5 %	4 %
6.	Xorijiy valyutadagi majburiyatlarning majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	58 %	50–55 %	45–50 %	40–45 %
7.	Bank aktivlarining YIMga nisbati	53 %	53–54 %	54–55 %	55 foizdan ko‘p
8.	Bank depozitlarining YIMga nisbati	18 %	19–21 %	22–24 %	25–27 %

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–yil 12–sentabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga ¹² muvofiq,

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni, 3-ilova.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son.

mamlakatimiz moliya sektorida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, risklarni boshqarishning zamonaviy tamoyillari joriy qilinmoqda.

Misol sifatida, “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki 2018–yili ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi auditidan muvaffaqiyatli o‘tib, muvofiqlik standartini qo‘lga kiritdi. Bu bank tomonidan iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini doimiy qondirib borish borasida olib borilayotgan sa’y–harakatlarning yana bir mahsulidir.

– “Biznesni rivojlantirish banki” ilg‘or xorijiy tajribalarni va zamonaviy xizmatlarni joriy etish orqali O‘zbekiston moliya bozoridagi o‘rni va ishtirokini kengaytirib bormoqda.

– Sifat menejmenti tizimining joriy etilishi bankimiz uchun strategik ahamiyatga ega. Natijalarni yaxshilash uchun mustahkam poydevor hozirlash va umumiy olganda uning bankning barqaror rivojlanishini ta’minlashda bu muhimdir. Mijozlarning talab va istaklarini qondirish bankni strategik rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. ISO 9001 sifat menejmentining ustunligi shundaki, unda faoliyat davomida xavf va qaltisliklarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan jarayonlar joriy etilgan. Endilikda bank mijozlarga xizmat ko‘rsatishda, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda ISO 9001 da aks etgan menejment sifati prinsiplariga tayanadi. ISO 9001:2015 sifat menejmenti iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan tizimdir. Mazkur standartlarga muvofiqlik mijozlarning bankka bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilish va ular bilan ishlash jarayonlarini tashkil etish mezonlari uchun asos yaratadi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirishga va xizmatlar ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bank nazorati bo‘yicha Bazal qo‘mitasi 2007–2008 yillardagi jahon moliyaviy inqirozidan olingan saboqlar natijasida dastlab 2009 yil dekabr oyida “Bank sektorini barqarorligini oshirish” maslahat hujjatini (Consultative document), keyinchalik, aniqrog‘i 2010 yil dekabrda Bazal III: Likvidlilik tavakkalchiligini hisoblash, mezonlar va monitoring

bo'yicha xalqaro standartlarni (Basel III: International framework for liquidity risk measurement, standards and monitoring) va Bazel III: Yanada barqaror banklar va bank tizimini tartibga solishning global standartlarini (Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems) chop etdi.

Bazel III standartlarining ikkita asosiy maqsadi mavjud:

- yanada barqaror bank tizimini shakllantirish maqsadida bank kapitali va likvidligini boshqarish bo'yicha xalqaro me'yorlarni takomillashtirish;

- bank sektorining moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini bartaraf etish qobiliyatini yaxshilash, pirovardida bunday muammolarni iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan real sektoriga o'tish tavakkalchiligini kamaytirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun Bazel III standartlari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha bo'linadi:

1. Kapitalni isloh qilish (shu jumladan, kapitalning sifat va miqdori, barcha tavakkalchiliklarni inobatga olish, qarz yuki koeffitsiyentini, konservatsiya va kontrsiklik bufer kapitali tushunchalarini joriy etish);

2. Likvidlilikni isloh qilish (qisqa (LCR) va uzoq (NSFR) muddatli);

3. Moliyaviy tizimni barqarorligini takomillashtirishga qaratilgan boshqa elementlar.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Bank servisi, bank xizmatlari, bank mahsuloti, bank operatsiyasi, mezon va me'yorlar, strategiya, ISO 9001:2015 xalqaro standartlari, Bazel III xalqaro standarti, likvidlik koeffitsiyenti, leveraj koeffitsiyenti, kafolat xizmati, emission vositachilik xizmati, tijorat banklarining trust xizmatlari, operativ lizing, moliyaviy lizing, baholash xizmati, maslahat xizmati, hisob-kassa xizmati, faktoring operatsiyasi, kredit xizmati.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Bank servisi fanining predmeti nimadan iborat?

2. Bank servisi fanining maqsad va vazifasi haqida gapirib bering.

3. Bank servisi nima?
4. Tijorat banklari xizmatlarining iqtisodiy mazmuni haqida gapirib bering.
5. Bank xizmatlari bozori va uning tarkibiy tuzilishi haqida gapirib bering.
6. Bank xizmatlarining turlarni sanab bering.
7. Bank servisini tashkil etish va amalga oshirish borasidagi milliy darajadagi me'yor va mezonlar.
8. "2020 — 2025–yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish" Strategiyasi haqida gapirib bering.
9. Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish maqsadida qanday chora–tadbirlar olib borilmoqda?
10. Bank servisini tashkil etish va amalga oshirish borasidagi xalqaro darajadagi me'yorlar haqida gapirib bering.

II bob. TIJORAT BANKLARI SERVISINI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARI

2.1 Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar.

2.2. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning bank servisiga ta'siri.

2.3. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning bank servisini tashkil etishdagi ahamiyati.

2.1 Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar



2.1.1-rasm

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlariga jadallik bilan kirib bormoqda. Elektron to'lovlarning hamda elektron tijoratining rivojlanishi, turli to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi, kuchayishi, chakana to'lovlar bo'yicha tranzaksion xarajatlarning qisqarib borishi, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachilikni talab etmaydigan yangiliklari to'lov vositalarining ko'p funksiyalarini (xizmatlar paketini) joriy qilinishini taqozo etmoqda.

Keyingi yillarda an'anaviy bank xizmat turlarining o'rnini raqamli banklarning xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar xizmat turlarini

takomillashtirib bormas ekan, ular daromadini va mijozlar soni cheklanib imkoniyati kamayib boraveradi. Hozirgi bank xizmatlarining taklifi boshqa xizmat turlaridan ortda qolmasligi yangi moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, shaffoflikni oshirish, tranzaksiyalarni tezkor qayta ishlash, masofadan xizmatlarni ko'rsatish, identifikatsiya qilishning ishonchli usullari va mijozlar xoxish istaklarini ularning hayot tarziga qulaylik yaratishga imkon beradigan yanada sifatli xizmatlarni taqdim etishga yordam berishidir. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar uzluksiz rivojlanish va modernizatsiya jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda banklar iqtisodiy muhitning o'zgarishi, raqamli texnologiyalarning rivoji va mijozlar talablarining yangilanishiga mos ravishda yangi strategiyalarni ishlab chiqmoqda.

Banklar o'z operatsiyalarini avtomatlashtirish va xizmatlar samaradorligini oshirish uchun innovatsion yechimlarga e'tibor qaratmoqda. Bu o'z navbatida, xarajatlarni kamaytirish, mijozlar ehtiyojlarini tezda qondirish va bozorda raqobatbardosh ustunlikni ta'minlash imkonini beradi. Xususan, FinTech kompaniyalari bilan hamkorlik yangi biznes modellarini yaratish imkoniyatlarini ochmoqda, bu esa banklar uchun o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mijozlar bilan dialog va ularning tajribasini yaxshilashga qaratilgan strategiyalar kuchaymoqda, chunki bu bank xizmatlarini yanada jozibador va samarali qiladi. Transformatsiya jarayonlari natijasida tijorat banklarining roli va funksiyalari yangi mazmun kasb etmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida 13 nazarda tutilgan. Strategiyada banklar xizmat ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-sonli Farmoni.

funksiyalarni bosqichma–bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish, davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kam xarajatli xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart–sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish kabi istiqbolli masalalar keltirilgan.

2020–yilning o‘zida 6 ta tijorat banki – “Ipotekabank”, “Sanoatqurilishbank”, “Turonbank”, “Asakabank”, “Aloqabank” va “Agrobank” moliyaviy diagnostika asosida istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqish va xususiylashtirish masalalari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni boshlagan.

Transformatsiya (lot. transformatio–qayta o‘zgarish, qayta hosil bo‘lish) ma’nolarini anglatadi.

Raqamli transformatsiya–bu dunyo biznesining raqamli iqtisodiyot jamiyatining yangi shartlari va afzalliklariga moslasha boshlagan muqarrar jarayon bo‘lib, unga ko‘ra raqamli texnologiyani tatbiq etish orqali jamiyatda insonlarning turmush darajasini yaxshilash, qulayliklar yaratish va sifatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya banklar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda, masalan, mobil bank xizmatlari, sun‘iy intellekt va katta ma’lumotlarni tahlil qilish orqali xizmatlarni takomillashtirish. Tijorat banklari xizmatlarini transformatsiyalash jarayonlari zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar orqali banklar mijozlarga eng yaxshi xizmatlarni taqdim etish, operatsion samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta’minlash maqsadida yangi texnologiyalarni joriy qilmoqda. AI (sun‘iy intellekt), bigdata va blockcheyn kabi innovatsion texnologiyalar tijorat banklarining faoliyatini tubdan o‘zgartirishga yordam berishi mumkin. Banklar xizmatlarini transformatsiyalash jarayonlari faqatgina texnologik

yangiliklar bilan cheklanmaydi. Ular, shuningdek, insoniy resurslarni rivojlantirishga, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga va markazlashtirmaslik tamoyillariga asoslangan yangi biznes–modellarga o‘tishga ham qaratilgan. Bu jarayonlarda mijozlar ehtiyojlariga asoslangan xizmatlarni taklif qilish va ularni individualizatsiya qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Eng muhimi, tijorat banklari transformatsiyalash jarayonlarida o‘zlarining madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolishlari zarur. Texnologik o‘zgarishlar xodimlar va mijozlar o‘rtasidagi aloqa va ishonchni olib tashlamasligi kerak. Shu bois, insoniy faktorni e’tiborsiz qoldirmaslik, yangi texnologiyalarni o‘z ichiga olgan holda, xizmatlarni transformatsiyalash jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi banklarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Aytish kerakki, mazkur muassasa O‘zbekistonda elektron tijorat sohasida faoliyat boshlagan birinchi bank hisoblanadi. Bank virtual terminallar bilan ilk ekvayring faoliyatini 2014–yilda yo‘lga qo‘ygan. Mamlakatdagi birinchi to‘lov tashkilotlari–Payme, Click bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatib, ularga E–Pos terminallar orqali xizmat ko‘rsatishni boshlagan. 2016–yilda mazkur ikki tashkilot bilan hamkorlikda O‘zbekistonda birinchi bo‘lib kartadan kartaga onlayn o‘tkazmalar hamda bank kreditlarini onlayn so‘ndirish loyihasi ishga tushirilganini ham qo‘shimcha qilish joiz. Hozir barcha mustaqil to‘lov tashkilotlari, jumladan, Payme, Click, Paynet, Paymo, U–pay, Oson bankimizni o‘zining hamkori sifatida tanlab, asosiy aylanmalarini biz orqali amalga oshirmoqda. Shuningdek, Beeline (Beepul), Ucell (U–to‘lov) va Uzmobil (MyUztelecom) operatorlari mobil ilovalarining onlayn to‘lovlari bizning bank orqali o‘tadi.

Raqamli transformatsiya dunyo biznesining raqamli iqtisodiyot jamiyatining yangi shartlari va afzalliklariga moslasha boshlagan muqarrar jarayon bo‘lib, raqamli texnologiyani tatbiq etish orqali jamiyatda insonlarning turmush darajasini yaxshilash, qulayliklar yaratish va sifatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Davlat banklarini transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ham aynan IT sohasini rivojlantirish masalasidir.

Bank tizimida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlari haqida ko‘proq ma’lumot olish maqsadida AT “Aloqabank” faoliyati bilan qiziqdik. Bugungi kunda “Aloqabank”ning 13 ta filiali hamda 77 ta kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 2017–yil avgust oyida “Aloqabank”da elektron tijoratni yanada rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish maqsadida “Elektron tijorat va biznesni rivojlantirish departamenti” tashkil etildi. Shu yilning o‘zida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib jismoniy shaxslar uchun overdraft kreditlar joriy etildi. 2018–yil aprel oyida mamlakatimizda ilk bor hech qanday hujjatlarsiz 15–20 daqiqa ichida ajratiladigan onlayn mikroqarz xizmati, iyul oyida esa jismoniy shaxslar uchun mo‘ljallangan Aloqamobile ilovasi ishga tushirildi. Ayni paytda u orqali jismoniy shaxslar bir qancha xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Istalgan bank kartalariga o‘tkazmalar, 300 dan ortiq xizmatga onlayn to‘lovlar, davlat xizmati ko‘rsatuvchi 24 ta tashkilotga to‘lovlar, QIWI, Webmoney va “Yandeks dengi” elektron hamyonlariga to‘lovlar, onlayn mikroqarz olish, omonat ochish, to‘ldirish, valyuta konversiyasi, to‘lovlar monitoringi kabilar shular jumlasidandir. 2020–yil noyabr oyida esa ilovaning Zoomrad nomi bilan yangi versiyasi ishlab chiqilib, unda kartaga buyurtma berish, bank rekviztlari orqali istalgan hisobraqamga to‘lov o‘tkazish, avtoto‘lov va tezkor to‘lovlar yaratish, kommunal xizmatlar balansini onlayn kuzatish, ID orqali maktabgacha ta’lim muassasalariga to‘lovlar qilish kabi funksiyalar qo‘shildi.

Xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va an’anaviy xizmatlarni masofaviy xizmatlarga aylantirish maqsadida bank o‘zining dasturchilar jamoasini tashkil etdi. Endilikda amaldagi xizmatlarni avtomatlashtirish va yangi innovatsion ishlanmalarni outsorsing kompaniyalarni jalb qilmasdan, o‘z resurslari hisobiga amalga oshirmoqda.

Dasturchilar jamoasi mobil ilovalarni takomillashtirish, avtomatlashtirilgan skoring kredit monitoring tizimlarini ishlab chiqish, onlayn buyurtma qilingan kartalardan xizmat haqini avtomat undirish va amaldagi xizmatlar hajmini kengaytirish maqsadida tashqi to‘lov tashkilotlari va to‘lov tizimlariga API yozish (AloqaExpress – tizimi

mahalliy pul o‘tkazmalari, Maktabgacha ta’lim vazirligi uchun billing tizimi – endilikda bog‘chalarga onlayn to‘lov qilish imkoniyati mavjud) va boshqa bir qator loyihalar bo‘yicha ishlamoqda.

Mijozga yo‘naltirilgan ishlash tizimi. Bank tizimini isloh qilish Strategiyasining asosiy yo‘nalishlari sifatida strategik investorlar, bozor tamoyillariga moslashtirish, davlat mablag‘lariga qaramlilikni yo‘qotib, teng raqobat sharoitini vujudga keltirish kabi masalalar belgilangan. Banklarning bu jarayonga o‘tishida esa ularning biznes modellarini o‘zgartirish va mijozga yo‘naltirilgan ishlash tizimini joriy qilishning ahamiyati katta. Bu jihatlarni “Aloqabank” faoliyati va yutuqlarida ko‘rish mumkin.

Xususan, 2018–yil avgust oyida O‘zbekiston amaliyotda birinchi marta UzAvtoSavdo mobil dasturi orqali avtomashina sotib olish uchun onlayn tarzda to‘lov qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Keyinchalik, ushbu tizim Markaziy Bankning Munis tizimiga integratsiya qilindi va barcha mobil ilovalar orqali to‘lov qilish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, 2018–yil sentyabr oyida bank UnionPay International va UzCard to‘lov tizimlari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda birinchi bo‘lib kobeydj kartalarni muomalaga chiqardi. Ushbu kartalardan endilikda UnionPay International xalqaro to‘lov tizimining ham O‘zbekistondagi, ham dunyoning 170 ta davlat va mintaqasidagi infratuzilmasida foydalanish mumkin.

Ushbu loyiha UnionPay International kompaniyasi tomonidan munosib baholanib, bank “Yil kashfiyoti 2018” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi, 2019–yil esa “Eng kreativ bank” nomiga munosib ko‘rildi¹⁴. Shu bilan birga, “Aloqabank” yurtimizdagi barcha tijorat banklari tomonidan emissiya qilinuvchi kobeydj kartalarning tranzaksiyalari bo‘yicha hisob–kitoblarni amalga oshiruvchi bank hamdir.

Yuridik shaxslarga mo‘ljallangan “Aloqa business” mobil ilovasi bugungi kunda aholining og‘irini yengil qilishga ko‘mak bo‘lmoqda. 2019–yil dekabr oyida ishga tushirilgan ushbu dasturning boshqa bank ilovalaridan afzalligi shundaki, unda foydalanuvchi bitta akkaunt orqali

¹⁴ www.aloqabank.uz

o‘zining bir nechta tashkiloti hisobraqamlarini boshqarishi mumkin. Shu bilan birga, “Zolotaya korona” bilan hamkorlikda 19 ta davlatdan xalqaro pul o‘tkazmalarini onlayn tarzda Uzcard va Humo kartalariga qabul qilish xizmati joriy etildi.

2020–yil yanvar oyida Transport vazirligi hamda Yagona umumrespublika protsessing markazi bilan hamkorlikda jamoat transportlarida yo‘l haqini to‘lash bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizim yaratildi. Birinchi bosqichda Toshkent shahridagi avtobuslar va barcha metro stansiyalari maxsus validatorlar bilan ta‘minlandi. Bugungi kunda Toshkent metropolitenining barcha stansiyalarida, jamoat avtobuslarida transport kartalari, Uzcard, Humo, MIR kartalari, shuningdek, NFC texnologiyasi va QR kod orqali yo‘l haqini to‘lash mumkin.

Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar iqtisodiyotning rivojlanishi, moliya-barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonlar banklar faoliyatini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va risklarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Innovatsiyalar, xususan, raqamli banking, sun‘iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari, tijorat banklarining tezkor va samarali ishlashini ta‘minlaydi. Ularning yordamida banklar mijozlarga yanada sifatli xizmat ko‘rsatish, moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish va raqobatchilar bilan bir qadam oldinda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, bu transformatsiyalar moliya bozorlarini kengaytirish, xalqaro integratsiya jarayonlarini kuchaytirish va iqtisodiy inqirozlarga tayyor turish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada, tijorat banklari nafaqat o‘z biznes modellarini o‘zgartiradilar, balki umuman olganda, iqtisodiyotning barqarorligini va o‘shini ta‘minlaydilar.

2.2. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning bank servisiga ta‘siri

Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, texnologik va raqamli innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan holda, bank servislariga yanada samarali va qulay xizmatlar taklif etishga yordam

bermoqda. Masalan, mobil banking va onlayn banking platformalari mijozlarga bank ishlarini amalga oshirishda katta osonliklar yaratmoqda. Endi foydalanuvchilar o‘z mobil qurilmalari yoki kompyuterlari orqali istalgan joyda va vaqtda moliyaviy operatsiyalarni yuritish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, tijorat banklari uchun sun‘iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlar bilan aloqani yaxshilash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu orqali banklar mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va ularga shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, avtomatlashtirilgan maslahatchilar (chat-botlar) 24/7 xizmat ko‘rsatib, mijozlarning savollariga tez va samarali javob berishi mumkin.

Shuningdek, sifatli bank servislari mustahkam raqobat muhitini yaratadi, bu esa banklarni xizmatlarini doimiy ravishda yangilash va takomillashtirishga majbur qiladi. Natijada, mijozlar eng yaxshi xizmatdan foydalanib, o‘z moliyaviy maqsadlariga erishishda yordamlashuvchi qulay sharoitlarga ega bo‘lishadi. Transformatsion jarayonlar bu erda nafaqat banklar, balki iqtisodiy jihatdan ham ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Tijorat banklarini xalqaro moliya institutlari ko‘magida transformatsiya qilishdan kutilayotgan asosiy natijalardan biri bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro‘ga ega bo‘lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish, faoliyatga xalqaro tajribani olib kirishdir. Qolaversa, kredit tashkilotlarini ularga xos bo‘lmagan funksiyalarni bajarishdan, shuningdek, ortiqcha yuklamalardan ozod qilish orqali ma’muriy yukni izchillik bilan bartaraf etish, zamonaviy axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmati turlarini kengaytirish uchun zarur shart–sharoitlar yaratish ko‘zlanmoqda.

“Aloqabank”da bu borada qilinadigan ishlar talaygina. Mutasaddilarining so‘zlariga ko‘ra, bank hozir Rossiyaning yirik banklari bilan transchegaraviy pul o‘tkazmalari va masofaviy biometrik identifikatsiyani joriy qilish, elektron pullar hamda hamkor

marketpleyslar orqali muddatli to'lov tizimini yo'lga qo'yish kabi loyihalar ustida ish olib bormoqda. Banklar transformatsiyasi orqali moliyaviy xizmatlarni olish aholi uchun juda sodda va qulay shaklga kelishi kerak. Bunda IT texnologiyalarning keng yo'lga qo'yilishi bilan bir qatorda xodimlarning malakasidan tortib muomalasigacha o'zgarishi, yangicha yondashuvlarga mos bo'lishi juda muhimdir. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshadi, moliya bozorida teng raqobat sharoitlari shakllanadi, kreditlash faqat bozor shartlariga bo'ysunadi. Xizmat ko'rsatish modernizatsiyalashib, banklarning samarali infratuzilmalari yaratiladi, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'i rivojlanadi, faoliyat avtomatlashtiriladi, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlar keng joriy qilinib, bank tizimining moliyaviy barqarorlik darajasi ko'tariladi.

Harakatlar strategiyasining 71–bandida barcha xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Davlat ulushiga ega bo'lgan banklar transformatsiyasi bo'yicha "Yo'l xarita"larini 2020-yil 1-iyundan boshlab amalga oshirish, shu jumladan aholi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish hamda zamonaviy chakana bank xizmatlari turlarini ko'paytirish choralari belgilangan.

Shu maqsaddan kelib chiqib, joriy yilda bank tizimi faoliyatini keng transformatsiyalash, shuningdek, bank biznesini yuritishning zamonaviy modellarini joriy qilish borasidagi belgilangan vazifalar ijrosi Markaziy bank va tijorat banklari o'zaro hamkorligining amaliy va samarali shakllarini qo'llashni taqozo etmoqda. Bunday yondashuv, pandemiya sharoitida aholida bank tizimiga bo'lgan ishonchni shakllantirishga va uni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqishi asnosida uni xalqaro standartlarga moslab takomillashtirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish muhim jihatlardan sanaladi. Shu bilan birga, biznesga yo'naltirilgan korporativ boshqaruv va kuzatuv kengashlarini jonlantirish, zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish bo'yicha chora–tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Respublikamiz bank sohasidagi hozirgi holatning tahlili bank tizimida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Bankda xizmat ko‘rsatishni transformatsiyalash zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismidir. Har bir bank yangilanish va raqobatda ustunlikka erishish uchun xizmatlarini yanada samarali va mijozlarga qulayroq qilish zaruratini anglaydi. Buning uchun, banklar texnologiyalardan foydalanish orqali o‘z xizmatlarini raqamli shaklda taklif qilmoqda. Bu, faqat xizmatlar ko‘rsatish jarayonini tezlashtiribgina qolmay, balki mijozlar bilan muloqot darajasini ham oshiradi. Masalan, onlayn banking xizmatlari, mobil ilovalar va chatbotlar orqali mijozlar 24/7 xizmatlarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu nafaqat vaqtni tejaydi, balki mijozlarning bank bilan shaxsiy aloqasini yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, sun‘iy intellekt va ma’lumotlarga asoslangan tahlillar banklarga mijozlarning xarid qilish odatlarini tushunishga yordam beradi, bu esa shaxsiylashtirilgan takliflar va xizmatlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Banklarda transformatsiyalash jarayoni, shuningdek, operatsion samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun ichki jarayonlarni avtomatlashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Bunday o‘zgarishlar banklarga nafaqat raqobatbardoshligini saqlab qolishga, balki iqtisodiy xarajatlarni optimallashtirish orqali foydani oshirishga ham yordam beradi. Transformatsiyalash jarayonida o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish, banklar uchun muvaffaqiyat kalitidir.

Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, zamonaviy texnologiyalar va raqamli inqilob bilan bog‘liq ravishda, bank xizmatlarining sifatini va samaradorligini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu jarayonlar, asosan, raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali mijozlarga tez va qulay xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan. Natijada,

banklar o‘z mijozlariga nafaqat an’anaviy xizmatlar, balki ilg‘or analitik xizmatlar va shaxsiylashtirilgan imkoniyatlar ham taklif etmoqda.

Transformatsiya jarayonlari, shuningdek, banklar uchun operatsion xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlar va sun‘iy intellekt orqali ma’lumotlarni qayta ishlash, bank xodimlarining mehnatini yengillashtirib, mijozlar bilan muloqotda yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, mijozlar ehtiyojlariga tezda javob berishga yordam beradi. Biroq, bunday o‘zgarishlar ba’zi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Mijozlarning maqbul xavfsizlik va maxfiylik talablariga javob berish, shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonida banklar uchun muhim masalalardan biridir. Bu jihatlar banklarning ishonchliligini va mijozlar orasida obro‘cini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Transformatsiya jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, banklar raqobatbardoshligini oshirish va bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

2.3. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning bank servisini tashkil etishdagi ahamiyati

Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, asosan, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xizmatlarni modernizatsiya qilish orqali bank servisining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda banklarni boshqarishda innovatsion yondashuvlar, masalan, FinTech kompaniyalari bilan hamkorlik, mijozlarga qulay raqamli platformalar yaratish va ma’lumotlarni tahlil qilishga asoslangan strategiyalar muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar natijasida banklar o‘z xizmatlarini tez, oson va shaffof shaklda taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Transformatsion jarayonlar, shuningdek, mijozlarning talab va ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi. Mijozlar endi bank xizmatlarini faqatgina an’anaviy filiallar orqali emas, balki mobil ilovalar va internet banking orqali ham foydalanish mumkin. Bu esa xizmat ko‘rsatish sifatini oshirib, mijozlar bilan munosabatlarni

mustahkamlashga xizmat qiladi. Yuqori sifatli xizmat ko'rsatish, o'z navbatida, banklarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, transformatsiyalar banklarning operativ xarajatlarini kamaytirish va faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi. Avtomatlashtirilgan jarayonlar va sun'iy intellekt bank ishlarini tezlashtirib, insoniy xatolarni kamaytiradi. Bu banklarga resurslarni tejash va o'z mijozlariga ko'proq e'tibor berishga imkon beradi, bu esa soha ichidagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Transformatsion jarayonlar, shuningdek, bank tizimining xavfsizlik darajasini oshirishga ham yordam beradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish xavf-xatarlarga qarshi kurashda samarali vositalarni taqdim etadi, masalan, biometrika va blokcheyn texnologiyalari. Bu usullar banklarning ma'lumotlarni himoya qilishini kuchaytiradi, mijozlar esa o'z mablag'larini yanada xavfsiz his qilishadi, bu esa ularning bank xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Bundan tashqari, banklar uchun raqamli transformatsiya ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Mijozlarning ustuvorliklarini va xarid qilish odatlarini o'rganish orqali banklar ularga individual takliflar va xizmatlar taqdim etishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, mijozlarning qoniqishini oshiradi va uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, innovatsion yechimlar orqali banklar o'z brendlarini kuchaytirib, yangi mijozlarni jalb etish imkoniyatini oshiradilar. Raqamli marketing va ijtimoiy media orqali banklar ko'proq auditoriyaga yetib borib, o'z imkoniyatlari haqida ma'lumot berishlari mumkin. Bu jarayonlar bank sohasidagi raqobatni yanada kuchaytiradi va mijozlar uchun yanada yaxshi xizmatlarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya banklar uchun operatsion samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Avtomatlashtirilgan jarayonlar va sun'iy intellekt yordamida banklar o'z ish faoliyatini tezlashtirib, xatoliklarni kamaytiradi. Bu, nafaqat xarajatlarni qisqartirishga, balki mijozlar uchun xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga olib keladi. Mijozlar esa tez va samarali xizmatlardan foydalangan holda, bankiga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya orqali banklar o'z xizmatlarini global bozorga kengaytirish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali banklar mijozlarga har qanday joyda va vaqtda xizmat ko'rsatishi mumkin. Bu banklardan foydalanishni osonlashtirib, yangi mijozlar jalb qilishda va mavjud mijozlarni ushlab qolishda katta yordam beradi. Barcha jarayonlar bank sektorini yanada barqaror va ishonchli holga olib keladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish banklarni nafaqat zamonaviylashtiradi, balki ularning o'sishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Transformatsiya, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, mikroqarz, kreativ bank, zolotaya korona, avtomatlashtirish, axborot-kommunikatsiya, modernizatsiyalash, korporativ boshqaruv, UzCard to'lov tizimi, raqamli texnologiyalar, kompleks xizmatlar, elektron hamyonlar.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarni aytib bering.
2. Raqamli transformatsiya nima?
3. 15 daqiqada mikroqarz olish imkoniyati haqida aytib bering.
4. Mijozga yo'naltirilgan ishlash tizimi haqida aytib bering.
5. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlardan kutilayotgan natijalarni aytib bering.
6. Tijorat banklarida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning bank servisiga ta'sirini gapirib bering.
7. Bankda xizmat ko'rsatishni transformatsiyalash jarayonini aytib bering.

III bob. TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK SERVISINI TASHKIL ETISH INFRA TUZILMASINI ISHLAB CHIQUISH

3.1. Innovatsion bank servisini tashkil etish asoslari.

3.2. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini rivojlantirishda innovatsion servis turlarini joriy etish yo‘llari.

3.3 Tijorat banklarida innovatsion servis ko‘rsatishda marketing infratuzilmasini ishlab chiqish.

3.1. Innovatsion bank servisini tashkil etish asoslari

Innovatsion bank xizmatlari zamonaviy moliyaviy dunyoning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ularning paydo bo‘lishi texnologiya va iste’molchilarning xohish–istaklaridagi tez o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bugungi kunda mijozlar nafaqat asosiy xizmatlarni, balki har qanday vaqtda va istalgan joyda moliyaviy boshqaruvni ta’minlaydigan qulay, intuitiv yechimlarni ham kutmoqdalar. Shuning uchun raqobatbardosh bo‘lishga intilayotgan banklar innovatsion mahsulotlar va raqamli platformalarni faol ravishda joriy qilmoqdalar.

Innovatsion bank xizmatlarining asosiy jihatlaridan biri bu sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni qo‘llashdir. Ushbu texnologiyalar banklarga nafaqat ichki jarayonlarni optimallashtirishga, balki mijozlar uchun moslashtirilgan yechimlarni taklif qilishga yordam beradi. Masalan, mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun chatbotlardan foydalanish so‘rovlarga javob berish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va qoniqish darajasini oshiradi.

Innovatsion bank xizmatlarini yaratishda, birinchi navbatda, mijozlarga qaratilgan yondashuvni hisobga olish zarur. Mijozlar ehtiyojlarini chuqur tushunish va ularga individual yechimlar taklif qilish, banklar uchun muvaffaqiyat kalitidir. Yana bir muhim jihat–xavfsizlikdir. Raqamli xizmatlar kengaygan sayin, moliyaviy ma’lumotlarni himoya qilish masalasi yanada dolzarblashadi. Shuning uchun, zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini joriy etish, banklar uchun ustuvor vazifaga aylanishi kerak.

Bundan tashqari, blokcheyn tizimi tranzaksiyalarning xavfsizligi va shaffofligini ta'minlash uchun yangi ufqlarni ochmoqda. Bu firibgarlik xavfini kamaytiradi va moliyaviy operatsiyalar ishtirokchilari o'rtasida ishonch hosil qiladi. Ushbu texnologiyani o'zlashtirgan banklar o'z mijozlariga yanada qulay shart–sharoitlarni taklif qilishlari mumkin, bu esa o'z navbatida mijozlar bazasini ko'paytirishga yordam beradi. Natijada, innovatsion bank xizmatlarini joriy etish nafaqat moliyaviy xizmatlarning mohiyatini o'zgartiribgina qolmay, balki ularning ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bank sektorining kelajagi moliya institutlari yangi texnologiyalar va mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qanchalik tez va samarali moslasha olishi bilan belgilanadi. Innovatsion bank xizmatlarini tashkil etish, zamonaviy moliya bozorining eng muhim jihatlaridan biridir. Bugungi kunda mijozlar talablariga mos ravishda xizmat ko'rsatish uchun banklar, an'anaviy usullarni o'zgarishga va yangi texnologiyalarni qo'llashga majbur. Ushbu jarayon ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi, jumladan, raqamli platformalarning rivojlanishi, kvant hisoblash va sun'iy intellektdan foydalanish. Bularning barchasi banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi va xizmat sifatini yaxshilaydi.

Markaziy bank va tijorat banklarining zimmasiga QR–kod orqali to'lovni amalga oshirishning standartlashtirilgan va universal tizimini joriy etish vazifasi yuklatilishini ayni shu zarurat mahsuli, deb izohlash mumkin.

Xalq banki innovatsion va moslashuvchan moliya muassasasi sifatida bu vazifa ijrosini paysalga solgani yo'q. Qisqa muddatda “QR–online” tizimini amaliyotga joriy etdi. Hozir bankning barcha mijozlari mazkur tizimidan samarali foydalanishmoqda. Xo'sh, “QR–online” tizimi qanday afzalliklarga ega?

Masalan, bir mijozning bankda hisob raqami bor va o'sha hisob raqamdagi mablag'laridan savdo do'konining QR–kodini telefoni orqali skaner qilgan holda to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu plastik kartochkangiz yoningizda bo'lmasa–da, to'lov qilishingiz mumkin, deganidir.



3.1.1-rasm

Bu tizim tadbirkorlar uchun ham qulay. Misol uchun, savdo do‘koni bor tadbirkorning hisob raqami Xalq bankida, uning xaridorlari QR–kod orqali amalga oshirgan to‘lov to‘g‘ridan–to‘g‘ri tadbirkorning hisob raqamiga kelib tushadi. Bundan tashqari, innovatsion bank xizmatlarini joriy etish jarayonida, hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim. Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, banklarning o‘z xizmatlarini yaxshilash va yangi bozor segmentlariga kirish uchun zarur. Ushbu tendensiyalar banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, to‘g‘ri yondashuv va strategiyalarni ishlab chiqish zaruratini ham tug‘diradi.

3.2. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini rivojlantirishda innovatsion servis turlarini joriy etish yo‘llari

Bugungi kunda bank tizimini rivojlantirishda banklarning texnik va texnologik rivojlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda zamonaviy innovatsion xizmatlar ko‘rsatishni qat’iy yo‘lga qo‘yish, bank majburiyatini kafolatlash orqali unga aholi omonatlarini keng jalb etish tizim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida moliya bozorining funksiyalarini takomillashtirish, uning asosiy ishtirokchisi bo‘lgan bank tizimini muqobil ishlash strategiyasini ishlab chiqish muhim

vazifalardan biridir. Bunda tijorat banklarining innovatsion moliyaviy xizmat turlarini mijozlarga taqdim etishi, ularning ommabopligini ta'minlashi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifaning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda bank tizimining jozibadorligini oshirish, ya'ni mijozlariga yaratilgan imtiyozlar, qulayliklar va eng asosiysi ularning ishonchini qozonish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida shu o'rinda bank tizimida ham zanjirsimon ketma–ketlik uzluksiz tarzda faoliyat yuritishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini rivojlantirishda innovatsion servis turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar ehtiyojlariga yanada moslashish imkonini beradi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali bank xizmatlarini taqdim etish, uning kuchli tomonlaridan biridir. Bunga mashhur mobil ilovalar, elektron hamyonlar va yashirin to'lov tizimlarining joriy etilishi misol bo'la oladi.

Banklar o'z xizmatlarini diversifikatsiya qilish maqsadida, yangi fintech yechimlarini qabul qilishlari zarur. Bu, nafaqat qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi, balki raqobatbardoshlikni ham oshiradi. Masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili yordamida mijozlar xatti–harakatlarini o'rganib, ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan takliflarni ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda davlat va xususiy sektor hamkorligining o'rnini katta. Davlat tomonidan moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishga ko'maklashish va quyuvchi to'g'onlarni yengish, banklarning o'z ish faoliyatini kengaytirishi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, mijozlar uchun qulay va samarali bank xizmatlari yaratish imkoniyati tug'iladi.

Tijorat banklarida innovatsion servis ko'rsatishda marketing infratuzilmasini ishlab chiqish, zamonaviy raqobat sharoitida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda bankning maqsadli auditoriyasi va ularning ehtiyojlarini chuqur o'rganish zarur. Foydalanuvchilarning istaklarini tushunish, bank xizmatlarining dizaynini va takliflarini optimallashtirishga yordam beradi. Innovatsion xizmatlar, masalan,

mobil bankchilik, onlayn kredit olish va boshqa raqamli yechimlar, mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni kuchaytiradi.

Marketing infratuzilmasini yaratish jarayonida zamonaviy kommunikatsiya kanallari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli reklamalarni inobatga olish muhimdir. Ushbu kanallar orqali banklar o‘z xizmatlarini keng ommaga taqdim etishi, mijozlar bilan muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirishi va brend imijini mustahkamlashi mumkin. Bunday yondashuv, markaziy marketing strategiyasining bir qismi sifatida ko‘rilishi lozim.

Bundan tashqari, innovatsion xizmatlarni taqdim etishda texnologik yechimlar, masalan, sun‘iy aql va ma‘lumotlar tahlili, marketing infratuzilmasini yanada jonlantirishi mumkin. Bu, banklarga nafaqat mijozlar ehtiyojlarini oldindan bilish imkonini berishi, balki xizmatlarni shaxsiylashtirish orqali ularni yaxshiroq qondirish imkoniyatini yaratadi. Bevosita mijozlar bilan qoniqish darajasini oshirish uchun lozim bo‘lgan barcha faktorlarni hisobga olish orqali, tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishga erishadilar.

Bank tizimida ketma–ketlikning uzilishi kutilayotgan daromadning kelmasligiga, bu esa barqarorlik va likvidlilik darajalarining pasayishiga olib keladi. Bugungi kunda banklarimizda amalga oshirilayotgan operatsiyalar kesimini tahlil qilsak, aktiv operatsiyalar tarkibida faqatgina kredit va lizing operatsiyalarida 15,02 foizga o‘shish kuzatilgan, bu, albatta, ijobiy holat, biroq boshqa daromad keltiradigan aktiv operatsiyalar tarkibida faqat pasayish kuzatilgan bularga: oldi–sotdi amaliyotlari bo‘yicha mablag‘lar, ya‘ni qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar bo‘lib, bu banklarimiz kredit berish bilangina cheklanib qolayotgani, diversifikatsiya siyosatining mavjud emasligidan dalolat beradi. Bunday holatni passiv operatsiyalarda ham ko‘rish mumkin. Talab qilib olinguncha depozitlar salmog‘i 60 foizdan ziyodni, muddatli depozitlar esa 20 foizdan ziyodni va jamg‘arma depozitlari 10 foizdan ziyodni tashkil qilmoqda. Ushbu holat bugungi kunda banklarimizdagi depozitlar tarkibida balans yo‘qligini, bu o‘z–o‘zidan depozitlar salmog‘ida yuridik shaxslarning moliyaviy mablag‘lari asosida shakllantirilganidan va yuqori risk asosida faoliyat yuritayotganidan

dalolat beradi. Bir omilning ikkinchi omilga bog‘liqligini hisobga olsak, ushbu muammolarni hal etishda, bank tizimidagi tub o‘zgarishlarni amalga oshirishda asosiy vazifa sifatida moliyaviy xizmatlarning salmog‘ini oshirish, ularni innovatsion tarzda boshqarish, bank infratuzilmasini takomillashtirish va daromad olishiga ta’sir etuvchi salbiy omillarni bartaraf etish talab etiladi. Chunki xorij amaliyotida banklar 300 dan ortiq operatsiyalarni amalga oshirishini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizdagi tijorat banklari faqatgina kredit berish va depozitlarni qabul qilish bilangina chegaralanib qolmoqda. Shuning uchun moliyaviy xizmat turlarini ko‘paytirish, bankning daromad manbalarini kengaytirish asoslarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda banklarda taklif etilayotgan moliyaviy xizmat turlarining ommaboplik darajasini o‘rganish lozim. Chunki, taqdim etilayotgan xizmat, ya’ni bank mahsuloti o‘z xaridoriga egami, talablarga javob beradimi, mijozning ushbu xizmat turidan foydalanish bilimi mavjudmi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qay darajada va shu kabi ko‘pgina savollarga javob topish, ularni tahlil qilish va samarali yechimini taklif etish bankning daromad olishini ta’minlaydi. Buning uchun esa bank mijozlarining ushbu xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlari qay darajada ekanligini o‘rganish talab etiladi.

Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari bo‘yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining nazariy yondashuvlariga e’tibor qaratsak, O.F. Aliqoriyev: “Bank xizmati–mijozlarga taqdim etiladigan bank operatsiyalarining optimal bajarilishiga ko‘maklashuvchi bank faoliyatining ko‘rinishi” deb ta’kidlaydi.¹⁵ Xorijiy iqtisodchi olimlardan A.N.Azriliyan “Moliyaviy xizmatlarni jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini jalb qilish va foydalanish bilan bog‘liq faoliyat”, deb ta’riflaydi.¹⁶ Yana bir iqtisodchi olimi Ye.B. Shirinskaya “Banklarning maslahat xizmatlarini balansdan tashqari amaliyotlarga qo‘shadi, chunki ularni taqdim etish aktiv va passivlarning o‘shishiga olib kelmaydi, to‘lov

¹⁵ Aliqoriyev O. Tijorat banklarida xizmat turlarini rivojlantirish yo‘llari. T, 2012. - 192 b.

¹⁶ Azrilyan A.N. Bolshoy ekonomicheskiy slovar. M.: Institut novoy ekonomiki, 2002. - S.588.

esa komission mukofot pulidan iborat bo‘ladi”, deb ta’riflaydi.¹⁷ Amerikalik olim P.S.Rouz bank xizmatlariga pul zaxiralarini boshqarish, iste’mol krediti, naqd pul oqimlarini boshqarish, lizing, pensiya rejalarini sotish kabi bank faoliyati turlarini kiritgan¹⁸. Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilishda moliyaviy xizmatlar mijozlarning foydasini, ehtiyojlarini qondirish maqsadida va shu bilan birga, bank foydasini oshirishga yo‘naltirilgan xizmat sifatida ta’riflanadi. Ushbu ta’riflarni umumlashtirgan holda moliyaviy xizmatlar – mijozlarning manfaatlarini va bankning daromadini innovatsion tarzda amalga oshirish mexanizmidir deyishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib, birgina moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga amaliy yordam ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Yuqorida keltirib o‘tganimizdek bir omilning ikkinchi omilga uzviy bog‘liqligi, ya’ni gepotezasi shakllantirildi. Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarning ko‘lamini kengaytirish asosida aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish imkoniga ega bo‘lamiz, bu banklar daromadining oshishiga, likvidlilik darajasiga va barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy xizmat turlari ommabopligini ta’minlash asosida ushbu natijalarga erishish imkoniga ega bo‘lamiz. Ayniqsa, qishloq joylarida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish, aholining real talablarini o‘rganish, mavjud resurslar, imkoniyatlarga mos ravishda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, bugungi kun talablariga javob beruvchi texnologiyalar bilan ta’minlash, mijozlar ongini oshirish, xodimlar saviyasini ko‘tarish va ommaviy axborot vositalarining tijorat banklari bilan uzviy faoliyatini yo‘lga qo‘yish asosida erishiladi.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qamrovli tashqi omillar ta’sirida quyidagi tendensiyalar orqali namoyon bo‘ladi:

– yangi axborot texnologiyalari bazasida yangi bank mahsulotlari va xizmatlari;

¹⁷ Shirinskaya YE.B. Operatsii kommercheskix bankov. – M.: Finansi i statistika, 1995, S.16-17. G.Dremina. Instrumenti povisheniya effektivnosti bankovskix uslug v usloviyax finansovoy nestabilnosti. Vest.2010.№3.S160-164.

¹⁸ Rouz P.S. Bankovskiy menejment.- M.: Delo, 1997. – S. 5-6.

- virtual bank va moliya texnologiyalari;
- bank hisobraqamini boshqarish, naqd pulli hisob–kitoblar, elektron imzo, shartnomalar tuzish, moliyaviy tashkilotlar;
- yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan elektron va aralash marketing uchun majmuaviy foydalanish;
- ichki axborotni yig‘ish, saqlash va tahliliy qayta ishlash;
- ichki nazorat va auditning yangi imkoniyatlari;
- bank mutaxassislari malakasidagi o‘zgarishlar: mahsulot–menejer, brend–menejer, maslahatchi, tranzaksiyalar bo‘yicha mutaxassis.

Tijorat banklarining aktiv va passiv instrumentlaridan foydalangan holda bank xizmatlari sifatini oshirish hamda mijozlarni jalb etish yo‘li bilan aktiv operatsiyalarni samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish, aktivlarni sekyuritizatsiyalash, avtomatlashtirish, “New Privat” hamda masofaviy boshqaruv innovatsion usullarini aktiv operatsiyalarga yo‘naltirish orqali boshqarishning innovatsion uslubini ishlab chiqish, aktivlarni sekyuritizatsiyalashda davlat dasturiga muvofiq berilgan kreditlar asosida ikkilamchi obligatsiyalar chiqarish orqali tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari va daromadlilikini oshirish taklifi asoslangan.

Natijada, quyidagi xulosalar berilgan: Bank xodimlari va mijozlar fikrini o‘rgangan holda mijozlarni bankka jalb etishda innovatsion xizmat turlarini yanada keng joriy etish, mijozlarning vaqtini tejash maqsadida banklarda keng miqyosda barcha hujjatlashtirish ishlari bo‘yicha onlayn rejimga o‘tish choralarini ko‘rish, aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

3.3 Tijorat banklarida innovatsion servis ko‘rsatishda marketing infratuzilmasini ishlab chiqish

Tijorat banklarida innovatsion xizmatlar ko‘rsatishda marketing infratuzilmasini ishlab chiqish, birinchi navbatda, mijozlar ehtiyojlarini puxta o‘rganishdan boshlanadi. Mijozlar bilan aloqalar o‘rnatish, ularning fikr–mulohazalarini yig‘ish va xizmatlarni doimiy ravishda takomillashtirish, banklarning raqobatbardoshligini oshiradi. Innovatsion xizmatlarni joriy etishda, zamonaviy texnologiyalardan,

masalan, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanish, mijozlarga qulaylik yaratadi.

Shuningdek, marketing infratuzilmasi doirasida raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar, SEO va e-mail marketing orqali banklar o'z xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mijozlar bilan doimiy munosabatni o'rnatish, shuningdek, bank xizmatlaridan foydalanishda ularning ko'nglini ko'tarish uchun innovatsion yechimlar taqdim etish lozim.

Innovatsion xizmatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, banklarning ichki jarayonlarini optimallashtirish ham zarur. Xodimlarning malakasini oshirish, xizmat sifatini nazorat qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish, bank faoliyatini yanada samarali qilish imkonini beradi. Bu jarayonlar mijozlarning kutgan xizmat darajasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi va bankning imijini mustahkamlaydi. Har bir davlat o'z hududidagi banklar barqarorligiga alohida e'tibor qaratadi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida bank kapitalini boshqarishning samaradorligi masalasi o'zgacha ma'no kasb etadi. Moliyaviy institut sifatida bank faoliyati likvidlilik holatini saqlab, risklarni kamaytirib depozit qo'yilma egalari va aksionerlarning huquqlarini saqlagan holda yuqori daromad olishga bog'liq. Tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'lganligi sababli, bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda Banklarning marketing faoliyati asosan bozordagi ulushini kengaytirishga, yanada universallashtirishga, yangi bank xizmatlarini joriy qilishga, filiallar tarmog'ini kengaytirishga, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yo'naltiriladi. Marketing xizmati banklarning barcha tarkibiy bo'linmalari ishlari asosiga quriladi. Marketingni tijorat banklari boshqaruviga kiritish faoliyat strategiyasi va taktikasining mezonlari tizimi yuzaga kelishining boshlanishiga hamda bozorni o'rganish va rivojlantirish choralarini aniqlashga olib keladi. Marketingni joriy qilish daromad o'sishi va bank faoliyati xatari kamayishiga imkoniyat yaratadi.

Marketing tadqiqoti – kompaniya yuz tutishi mumkin bo‘lgan alohida marketing vaziyatiga aloqador ma’lumotni tizimli tarzda loyihalash, to‘plash, tahlil qilish va u bo‘yicha bayonot berishdir.

Kompaniyalar marketing tadqiqotidan ko‘plab vaziyatlarda foydalanishadi. Masalan, marketing tadqiqoti marketologlarga mijozlar motivatsiyasi, mijozlarning xarid xulqi va ularni qoniqishini tushunishda yordam beradi. Bank marketingining mohiyatini ochib berishda xorijlik iqtisodchi olim Jan Jak Lomben, “bank marketing” – degan so‘zning tarjimasini “bozor bilan bog‘liq”, deya ta’kidlagan. Lekin bu mohiyat e’tibori bilan olganda ancha keng tushunchadir deb ta’riflab o‘tadi.¹⁹

Iqtisodiy tahlilning asosiy mazmuni iqtisodiy qonunlardan foydalangan holda xo‘jaliklarda, uning tarmoqlari va tarkibiy bo‘limlarida samaradorlikni oshirish maqsadida imkoniyatlarni axtarib topish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlashdir. Bank faoliyatini tahlil qilishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri – taqqoslash usulidan foydalanildi. Bu usulda ko‘rsatilgan xizmatlar tovarlar, sof foyda, soliq to‘langungacha bo‘lgan foyda, asosiy fondlar qiymati, kapital qo‘yilmalar, asosiy faoliyatning foydasi, moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari, daromad solig‘ini to‘lagunga qadar foyda, yalpi foyda, foydadan soliq va ajratmalar, kabi bir necha iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ifodalandi. Summasi, boshqa operatsion xarajatlar, moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar ortganligi jadvalda o‘z aksini topgan.

Biz yuqoridagi natijalardan ko‘rib turibmizki, bank faoliyati ijobiy holatda. Yildan yilga xizmat ko‘rsatishdan sof foyda, xizmat ko‘rsatishdan yalpi moliyaviy natija oshib bormoqda. Faqat 2020- yilda ko‘rsatilgan xizmatlar va bankning marjasi kamaygan. Buning asosiy sababi pandemiya bo‘lgani uchun shunday past natija bo‘lgan.

Mijozlarga yagona yondashuvning shakllanishini quyidagi 3.3.1– rasmda keltiramiz.

¹⁹ Олимова, Н. Х., Тешабаева, О. Н., & Жўраева, Н. Х. Қ. (2022). Ўзбекистонда инновацион жараёнларни такомиллаштириш орқали корхоналар рақобатдошлигини ошириш масалалари. Scientific progress, 3(3), 276-282.



3.3.1–rasm. Mijozlarga sintetik yondashishning shakllari

Yuqoridagi rasmning tahlili shundan dalolat beradiki, tijorat banki mijozlari to‘g‘risidagi batafsil ma‘lumotlarni yig‘ishi lozim. Ushbu yo‘nalishda har bir mijozning ishlab chiqarish (savdo, ta‘minot, qurilish va boshqalar) jarayoni, mijozning boshqa mijozlar bilan muloqotlari va mijoz to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning tashqi manbalarini (fond birjasi, investitsiya kompaniyalari, sug‘urta, lizing, faktoring kompaniyalari ma‘lumotlari) yig‘ishi, qayta ishlashi hamda ma‘lumotlar bazasiga kiritilishlari lozim. Ma‘lumotlar bazasi yangi ma‘lumotlar asosida doimiy ravishda yangilanib borishi lozim.

Zamonaviy bank xizmatlarini amalga oshirishda marketingdan samarali foydalanish bo‘yicha quyidagilarni inobatga olish kerak:

–bozor iqtisodiyoti sharoiti o‘zgaruvchan, shuning uchun xizmat ko‘rsatish tashkilotlarida marketing faoliyatini tashkil qilish va uni samarali boshqarishda malakali marketologlar yordamida marketing tadqiqotlarini samarali tashkil qilish va o‘tkazish, so‘ngra iste‘molchi talabiga ko‘ra ish ko‘rish muhim. Chunki talab qanchalik to‘g‘ri aniqlansa, natija ham shunga yarasha bo‘ladi;

–xizmat ko‘rsatish tashkilotlarida marketing faoliyatini tashkil qilish va uni samarali boshqarishda yangi innovatsion texnologiyalarni ish jarayoniga tatbiq qilish va unumli foydalanish kerak;

–marketing faoliyatini tashkil qilish va uni samarali boshqarishda bank o‘z mahsulot va xizmatlarini raqobatbardoshligini ta’minlashi, sifatini yaxshilashi kerak;

–xizmat ko‘rsatish tashkilotlarida marketingni samarali boshqarishda mahsulot reklamasining ahamiyati katta o‘rin tutadi. Buning uchun reklama faoliyatini amalga oshirishda innovatsiyalardan, oxirgi fan–texnika yutuqlaridan to‘laqonli foydalanish zarur.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar

Investitsiya, bank xizmatlari, investitsion kredit mahsulotlari, qimmatli qog‘ozlar, investitsion mahsulotlar, investitsion kredit, market–meyking, brokerlik, korporativ moliya, venchur kapital, xususiy kapital, innovatsiya, kredit, kichik biznes, daromad, mijoz, masofaviy bank xizmatlari, bank marketingi, balans, innovatsion texnologiyalar, to‘lov tizimi, marketing tadqiqot.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Bank investitsiya mahsulotlari haqida gapirib bering.
2. Investitsion kredit mahsulotlari nima?
3. Mahsulotni joriy etish va yaratish haqida aytib bering.
4. Investitsion mahsulotlarning afzalliklari va kamchiliklari haqida gapirib bering.
5. Tijorat banklarining samarali investitsion faoliyati.
6. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini rivojlantirishda innovatsion xizmat va mahsulot turlarini joriy etish yo‘llarini aytib bering.
7. Tijorat banklarida innovatsion mahsulot va xizmatlarni ko‘rsatishda marketing infratuzilmasini ishlab chiqish.
8. Marketing tadqiqoti nima?
9. Mijozlarga sintetik yondashishning shakllarini aytib bering.
10. Zamonaviy bank xizmatlarini amalga oshirishda marketingning qanday ahamiyati bor?.

IV bob. RAQAMLI BANK SERVISINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

4.1 Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari.

4.2. Raqamli bank faoliyatini tahlili va undan kutilayotgan natijalar.

4.3 Raqamli bank servisini tashkil etish yo‘llari.

4.1 Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari

Bank xizmatlarini modernizatsiyalash va soddalashtirish tizimi mamlakat moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilgan. Bank tizimida raqamli bankingni rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning asosiy masalalaridan biri ekanligi, ayniqsa butun dunyo bo‘ylab hukm surayotgan koronavirus pandemiyasi davrida ham yaqqol yuzaga chiqdi. Raqamli bank xizmatlari zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda, mobil ilovalar va internet–banking orqali mijozlar o‘z mablag‘larini boshqarish, hisobvarag‘larini yangilash va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu xizmatlar banklarga borish zaruratini yo‘q qiladi va vaqtni tejaydi, shuningdek, har qanday joyda va har qanday vaqtda muhim moliyaviy operatsiyalarni bajarish imkoniyatini taqdim etadi.

Raqamli bank xizmatlarining yana bir afzalligi – xavfsizlik. Zamonaviy banklar yuqori darajadagi himoya choralarini ishlab chiqqan, bular ichida shifrlash va ikki faktorli autentifikatsiya kabi texnologiyalar mavjud. Bu usullar mijozlarning ma’lumotlariga kirishni cheklaydi va firibgarlik xavfini kamaytiradi. Mijozlar o‘z mablag‘lari ustidan to‘liq nazoratni saqlab qolish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlari xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. An’anaviy banklarga qaraganda, raqamli banklar odatda komissiyalarni kamaytiradi yoki umuman olib tashlaydi. Bu, ayniqsa, odatiy to‘lovlarni amalga oshirishda va chet elga pul o‘tkazishda sezilarli foyda keltiradi. Ular mijozlar uchun qulay va shaffof shartlarni taqdim

etadi, bu esa moliyaviy rejalashtirishni osonlashtiradi. Raqamli bank xizmatlari shuningdek, mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etadi. Banklar sun'iy aqllar va analitik vositalardan foydalanib, mijozlarning xarid va moliyaviy xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi, bu esa ularga individual ehtiyojlarga mos yechimlar taqdim etish imkonini beradi. Masalan, xarajatlarni optimallashtirish, investitsiya imkoniyatlari yoki kreditlar bo'yicha tavsiyalar kabilar orqali foydalanuvchilarning moliyaviy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli bank xizmatlari tezkor va samarali xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi. Mijozlar har qanday savol yoki muammo yuzasidan tezda xizmatlar bilan bog'lanib, kerakli javoblar va yordamni olishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, bank va mijozlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi va mijozlarning qoniqishini oshiradi.

Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi.

Raqamli bank xizmatlari bugungi kunda moliya sohasida inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu xizmatlar orqali mijozlar o'z moliyaviy operatsiyalarini qayerda bo'lishidan qat'i nazar, oddiy va qulay tarzda amalga oshirishlari mumkin. Mobil ilovalar va internet-bank orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar, bank hisob raqamini boshqarish, pul o'tkazmalarini tezkor amalga oshirish va boshqa ko'plab imkoniyatlar zamonaviy pulga bo'lgan ehtiyojni qondirishda samarali vositaga aylangan.

Raqamli bank xizmatlarining afzalliklaridan biri, ularda mavjud xavfsizlik choralaridir. Banklar, mijozlarning ma'lumotlarini himoya qilish uchun zamonaviy texnologiyalar va shifrlash usullaridan foydalangan holda, ularning shaxsiy ma'lumotlarini xavfsiz saqlashlarini ta'minlaydilar. Bu esa mijozlarga o'z moliyaviy ma'lumotlari haqida xavotir olmadan ishlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlari xarajatlarni kamaytiradi. An'anaviy banklarga nisbatan, raqamli banklar past xizmat haqi va komissiyalarni taklif qilishadi, bu esa mijozlar uchun moliyaviy

qulayliklar yaratadi. Shuningdek, vaqtni tejash bilan bir qatorda, foydalanuvchilar uchun 24/7 xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud, bu esa izlanish va qidirish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi. Natijada, raqamli bank xizmatlari nafaqat moliya sohasidagi inqilobni ifodalabgina qolmay, balki zamonaviy hayot talablariga mos ravishda rivojlanayotgan qulay va xavfsiz xizmatlar sifatida banglar dasturida muhim o'rin egallaydi. Raqamli bank xizmatlarining yana bir muhim jihati, ularning integratsiyalashgan platformalar orqali foydalanuvchilarga kengaytirilgan xizmatlar taqdim etishidir. Mijozlar, nafaqat bank operatsiyalarini amalga oshirish, balki investitsiya qilish, budget rejalashtirish va moliyaviy maslahat olish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Bu, o'z navbatida, individual moliyaviy savodxonlikni oshirishga yordam beradi.

Raqamli banklarning o'sishi, shuningdek, yangi imkoniyatlar yaratishda va raqobat muhitini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy banklar, raqamli xizmatlarni taklif qilmaydiganlarni qamrab olish va mijozlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish maqsadida, tezda yangilanib bormoqda. Bu esa, moliya sohasidagi innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Kelajakda, raqamli bank xizmatlarining yanada takomillashishi va ularning foydalanuvchilar bilan munosabatlarini rivojlantirishda muvaffaqiyat qozonishlari kutilmoqda. Sun'iy intellekt va big-data texnologiyalari orqali, banklar mijozlarga yanada shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, nafaqat xizmatlarning sifatini oshiradi, balki mijozlarning ehtiyojlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Biz "Anor bank" AJ faoliyati misolida "raqamli bank" tushunchasiga ta'rif berib o'tamiz hamda raqamli bank xizmatlarining ayni damdagi holati va bankning faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan an'anaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan.

Prezidentimiz bank tizimiga to'xtalar ekan, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi bank mahsulotlari va dasturiy ta'minotni joriy etish bo'yicha zamonaviy talablardan ortda

qolmoqda”, deya ta’kidlagan. Bunda biz raqamli bank xizmatlarini ishlab chiqilishi kerak bo’lgan masala sifatida tan olishimiz zarur. Muhim masalalardan biri bu foydalanuvchilarning bank tizimiga ishonchini oshiradigan va qulay xizmatlarni taklif etadigan raqamli bank tizimini rivojlantirish hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatlarini ko’rsatmasdan) masofadan turib bank xizmatlarini ko’rsatuvchi bank yoki uning sho’ba korxonasi raqamli bank hisoblanadi. Bu butun bank yoki bank filialiga berilgan ta’rifdir. Raqamli banking bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga bank mahsulotlarini onlayn tarzda taqdim etish uchun dasturiy ta’minot to’plami sifatida ko’rib chiqilishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, elektron banking operatsion xarajatlarni kamaytiradi va shuning uchun banklar uchun katta foyda keltiradi. Raqamli banking daromad olish uchun ko’proq imkoniyatlar yaratadi, chunki ular qo’shimcha foizsiz manbalardan daromad keltiradi. Qulay bo’lgan elektron bank xizmatlari va mahsulotlarining joriy etilishi banklarga bo’lajak mijozlarni jalb qilish imkonini berdi va bu ularning bozordagi ulushini oshirish imkonini berdi.

O‘zbekiston qonunchiligiga ilk marta raqamli bank tushunchasi 2018–yildan boshlab kiritilgan bo’lib, “Banklarni ro‘yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida” Nizomning ²⁰ birinchi bandida raqamli bankka quyidagicha ta’rif berilgan: “Raqamli bank–innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko’rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko’rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo’linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko’rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi”.

O‘zbekistonda ilk bor “Anor bank” AJ 2020–yil sentyabr oyidan raqamli bank sifatida birinchi onlayn xizmatlarini ishga tushirgan hamda hozirgi kunda bir qator zamonaviy bank xizmatlarini ko’rsatib kelmoqda.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori, 08.10.2009 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 2014.

4.2. Raqamli bank faoliyatini tahlili va undan kutilayotgan natijalar

Bugungi kunda raqamli banklar, an'anaviy banklarga nisbatan, tezkorlik, shaffoflik va quyidagi imkoniyatlari bilan ajralib turadi: mobil ilovalar orqali har qanday joyda va vaqtda xizmatlardan foydalanish, avtomatlashtirilgan jarayonlar, shaxsiylashtirilgan takliflar va boshqa ko'plab afzalliklar. O'zbekistonda raqamli banklar rivojlanishi bilan, moliyaviy savodxonlik va raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida aholi o'rtasida yanada yuqori talab paydo bo'lmoqda.

Raqamli bank faoliyatining tahlili, eng avvalo, foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini o'rganish imkonini beradi. Bu tahlil orqali mijozlarning ehtiyojlari va istaklari aniqlanadi, bu esa banklar uchun xizmatlarni yanada mukammal va qulay qilishda yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli banklar katta ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlariga ega bo'lib, ularni analitik usullar bilan birlashtirishi, kengaytirilgan strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kutilayotgan natijalar, raqamli banklarning o'sishi va muvaffaqiyati, nafaqat o'z strategiyasini ishlab chiqarishga, balki moliyaviy barqarorlik va investitsion jozibadorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ish o'rinlari yaratish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli banklar, kelajakda moliya sektori uchun innovatsion hayot manbai bo'lishi kutilmoqda.

Hozirgi kunda bank sohasi dunyo bo'ylab raqamli qurollanish poygasiga kirishgan. 2018–yilda dunyo banklari raqamli banking imkoniyatlari uchun 9.7 mlrd. AQSH dollari miqdorda investitsiya kiritishni rejalashtirgan. Ko'pchilik tijorat banklarida onlayn va mobil bank dasturlarini yaratish va rivojlantirish odatiy bank filiallari va ATMLarni ko'paytirishdan ko'ra muhimroq deb qaralmoqda. Dunyo bo'ylab banklar allaqachon raqamli texnologiyalarga investitsiyalar qanday bo'lishi mumkinligi hamda mijozlarni jalb qilish va qoniqish hosil qilish haqida tushunib yetmoqda. Misol uchun Amerika banki an'anaviy bank filiallariga qaraganda ko'proq onlayn depozitlar qabul

qilgan. Bankning bosh ijrochi direktori Brayn Moynihaning fikriga ko‘ra, raqamli bank xizmatlariga investitsiya kiritish mijozlarning ehtiyojini qondirishga yordam beradi. Darhaqiqat, “raqamli bank” tushunchasi 2015–2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o‘z mijozlariga yanada qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi. Afsus bilan qayd etish lozimki, jahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatimiz bu ko‘rsatgich bo‘yicha oxirgi o‘rinlardan birida turadi. Moliyaviy sektorda xuddi shu tufayli ro‘y berayotgan salbiy oqibatlarni yengib o‘tish uchun milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni keng ko‘lamda qo‘llashga erishish asosiy masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Raqamli banking usullarini qo‘llash, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va mobil tizimlar rivojlanishiga alohida ahamiyat berish moliyaviy bozorlar va banklar rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking faoliyatini tubdan takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni²¹ imzolanganach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan. Shunga ko‘ra,

O‘zbekistonda 2020 yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi. Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozi 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya’ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT–infratuzilma bilan ta’mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, raqamli banklar asosan mijozlarning qulayligiga xizmat ko‘rsatadi. Garchi an’anaviy banklar ham o‘z mobil ilovalarini yaratayotgan va 24/7 rejimdagi aloqa markazlarini faoliyatini yo‘lga qo‘yayotgan bo‘lsa ham ularning faoliyati va boshqaruvi markazlashgan holda amalga oshiriladi. Bu esa, mijozlarning bank xizmatlaridan qoniqish darajasiga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Anorbank rivojlanish strategiyasining asosi – mijozlarga yo‘naltirilganlik bo‘lib, u o‘zida bir qator elementlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, sezgirlik va yordam berish istagi, yondashuvning soddaligi, odamlarga hayotda va biznesda bir qadam oldinda bo‘lish imkoniyatini berish, har qanday mijozga individual yondashuvni saqlab qolish va ma’lumotlarni qayta ishlashda xavfsizlikni ta’minlash bilan har qanday so‘rovni iloji boricha tezroq bajarishga yo‘nalganlik.

4.2.1-jadval

An’anaviy va raqamli banklar orasidagi asosiy farqlar²²

An’anaviy banklar	Raqamli bank
Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e’tiborning sustligi;	Bank filiallari tarmog‘ining kengaytirilmasligi
Bank–mijoz o‘rtasida onlayn aloqa o‘rnatish holatining pastligi;	Bank–mijoz o‘rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o‘rnatilganligi
Mobil ilovalari ishlab chiqarilgan ammo mobil ilovalarda oddiy kartadan–kartaga pul o‘tkazish yoki kommunal to‘lovlar to‘lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo‘lib, ko‘p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi	Sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan mobil ilova
Bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko‘p holatlarda tanish–bilishchilik katta rol o‘ynaydi (agar tanish bo‘lmasa, o‘sha mijoz 3 oy va undan ko‘p muddatga sarson–sargardonlikda yuradi)	Bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya’ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi) va tez fursatlarda xizmat ko‘rsatish

²² Mirzobek Komiljonovich Avezov. Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari Scientific progress jurnali.2022. Page 811.

24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha bo'limlari mutaxassislari bilan so'zlashishiga to'g'ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to'lanadigan summa hisobga olinmaydi	Tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi
Asosan ish haqi ma'lumotnomasi va boshqa qo'shimcha hujjatlar so'raladi	Ortiqcha hujjatlarning talab etimasligi
Boshqaruvning markazlashganligi va inson omili katta rol o'ynashi	Dastur tomonidan xizmat ko'rsatilishi va inson omilining hissasi nisbatan kamayishi
Bank xarajatlarining ko'pligi natijasida xizmatlar tannarxining yuqoriligi	Xizmatlar tannarxining arzon bo'lishi (yirik bino va ofislarga zaruriyatning yo'qligi)

Ushbu sa'y harakatlar va strategiya natijasi o'laroq 2021–yilda Anorbank quyidagi natijalarga erishdi:

- butun Respublikaga xizmat ko'rsatish boshlandi;
- jamoadagi xodimlar soni 850 taga yetdi;
- mijozlar bazasi 115 000 gacha ko'tarildi, 100 000 bank kartasi chiqazildi va depozit uchun jismoniy shaxslardan 350 mlrd. so'mni jalb qilindi;
- hamkorlari soni 2500 dan oshdi;
- ikki yuzdan ortiq tashkilotlar umumiy hisobda 20 mlrd. so'm nominallik oylik maoshlarni Anorbank orqali o'tkazishdi;
- ilovani 270 000 marta yuklab olindi, ilovadan har kuni faol foydalanuvchilarning soni esa 40 000 dan ko'p.

Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya'ni, raqamli banklarning istiqbollariidan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40–60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi.



4.2.1-rasm

Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag‘larini tejashiga imkon yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o‘zgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo‘ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank–moliya tizimi ravnaqining muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi raqamlar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda va bank mijozlari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz bank–moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda an’anaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

4.3. Raqamli bank servisini tashkil etish yo‘llari

Raqamli bank servisini tashkil etish bank sohasida yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan muhim jarayondir. Birinchi navbatda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurati alohida e’tibor talab

qiladi. Bunga mobil banking, bulutli texnologiyalar va blockcheyn platformalarini integratsiya qilish kiradi. Bu mexanizmlar yordamida xizmatlarni tez va qulay tarzda taqdim etish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, raqamli bank xizmatlarining xavfsizligi muhim ahamiyatga ega. Banklar, mijozlar ma’lumotlarini himoya qilish uchun zamonaviy kriptografiya metodlarini qo‘llashlari kerak. Shuningdek, suhbatdoshlar uchun kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida maxsus dasturlar va tahliliy vositalarni ishlab chiqish lozim. Bu amallar raqamli bank xizmatlariga ishonchni oshiradi. Bundan tashqari, mijozlar bilan muloqot qilish va ularga xizmat ko‘rsatish jarayoni ham raqamli bank faoliyatining asosiy qismidir. Mijozlarga individual yondashuv va shaxsiy xizmatlarni taklif etish orqali ularning ehtiyojlarini qondirish, raqamli bankning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarurdir. Qayta aloqa tizimlari va tarmoqda mavjud bo‘lgan statistik ma’lumotlar foydalanuvchilarning talablariga yanada yaxshiroq javob berishga yordam beradi.

Shu o‘rinda raqamli marketing strategiyalarini qo‘llash ham muhimdir. Mijozlar bilan aloqalarni kengaytirishda ijtimoiy tarmoqlar va onlayn reklama ustuvor ahamiyatga ega. Yangiliklardan xabar topish va ular bilan doimiy aloqada bo‘lish raqamli banklarning ustunligini ta’minlaydi. Ammo, raqamli bank xizmatlarini joriy etishda muhim jihatlardan biri — regulyatorlar bilan hamkorlikdir. Moliya tashkilotlari yangi texnologiyalarni joriy etishda qonunchilikka mos kelishlari zarur. Bu jarayon muhim normativ hujjatlar va imkoniyatlarni yaratishni talab etadi. Raqamli bank xizmatlari uchun aniq va tushunarli qoidalar ishlab chiqilishi, banklarning qonuniy faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Raqamli bank servisini qulaylilik tomonlari quyida keltirilgan:

- NFC orqali Face ID bilan oson ro‘yxatdan o‘tish;
- Qulay interfeys;
- Aqlli o‘tkazma;
- Kartalarni buyurtma qilish va yetkazib berish;
- Valyuta ayirboshlash operatsiyalari;
- Xizmatlar bo‘yicha to‘lovlar;

- Kreditlarni rasmiylashtirish;
- Omonatlarni ochish va boshqarish;
- Life ID orqali xavfsizlikni boshqarish;
- Kartalarni bloklash;
- Hisob–raqamlar va kartalar o‘rtasida o‘tkazmalar;
- Kartalar va hisob–raqamlar bo‘yicha ma’lumotnoma va ko‘chirmalar;
- Avtoto‘lovlar.

Shuningdek, raqamli banklar uchun innovatsion xizmatlarni taklif etish, raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sun‘iy intellekt va mashina o‘rganish yordamida banklar mijozlarga yechimlar taklif qilib, ularning xatti–harakatlarini tahlil qilib borishlari mumkin. Bu esa xizmatlarning samaradorligini va shaxsiylashtirilishini oshiradi.

Natijada, raqamli bank xizmatlarini tashkil etish moliya sohasida o‘zgarishlarni tashkillashtirishga, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini ilgarilashga yordam beradi. O‘z navbatida, bu banklarning o‘ziga xos imkoniyatlarini kengaytirib, raqobatni yanada kuchaytiradi.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar

Raqamli banking, raqamli tizim, raqamli innovatsiyalar, mobil ilova, an’anaviy bank, aloqa markazlari, Anor bank, TBC bank, raqamli transformatsiya, online kredit, online omonat, chat–bot, blokcheynlar.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Raqamli bank nima?
2. Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari haqida so‘zlab bering.
3. Raqamli innovatsiyalar haqida aytib bering.
4. O‘zbekiston qonunchiligiga ilk marta “raqamli bank” tushunchasi qachon keltirilgan?
5. Raqamli bank faoliyatidan qanday natijalar kutiliyabdi?
6. An’anaviy va raqamli banklar orasidagi asosiy farqlarni aytib bering.

V bob. MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SERVISINI TASHKIL ETISH

5.1. Masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o'rni.

5.2. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari.

5.3. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari.

5.4. Masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning xorij tajribasi.

5.1. Masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o'rni

O'zbekiston Respublikasida masofaviy bank tizimlarining dolzarbligi masofaviy bank xizmatlarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Masofaviy bank tizimlarini o'rganishning asosiy mezonlari elektron bank xizmatlarini yanada rivojlantirish muammolari va istiqbollari o'rganish hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning evolyutsiyasini mamlakat pul aylanmasining tezlashtiruvchisi bo'lgan innovatsion bank texnologiyalaridan samarali foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas. Yangi texnologiyalarning joriy etilishi, aloqa vositalarining rivojlanishi bankning turli hududdagi mijozlarga xizmat ko'rsatishi, shuningdek, qog'ozbozlikni qisqartirish imkonini beradi. Bank tizimining rivojlanishi bir qancha sabablarga bog'liq bo'lib, ular orasida birinchi navbatda yangi axborot texnologiyalari joriy etilishi bilan iste'molchi turmush tarzining o'zgarishi hisoblanadi.

Bank biznesidagi raqobat masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga alohida ta'sir ko'rsatadi. Kredit tashkilotlari uchun keng moliyaviy salohiyatga ega bo'lishi muhim, chunki texnologik bazani tubdan yangilash uchun katta sarmoyalar talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, malakali mutaxassislarni jalb etish, zamonaviy bank xizmatlariga kadrlar tayyorlash uchun muayyan vaqt kerak bo'ladi. Shuningdek, onlayn tranzaksiyalar xavfsizligiga katta e'tibor berilishi kerak. Masofaviy bank xizmatlarining o'sishi bilan kiber jinoyatlar soni ham ortib bormoqda.

Masofaviy bank xizmatlari rivojlanishi tufayli fuqarolarning turmush tarzining tubdan o‘zgarib borayotgan jadal transformatsiyalar davrida jismoniy aloqa orqali an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanishga odatlangan va masofaviy bank tizimidan foydalanishdan bosh tortgan konservativ mijozlarga e’tibor qaratish zarur. Shuning uchun, banklar uchun an’anaviy mijozlar bilan aloqani saqlab qolish juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham bu masalani ko‘rib chiqmoqda va internet texnologiyalari rivojlanishi tufayli butunlay an’anaviy bank biznesi yo‘qolmasligini ta’kidladi. Demak, bank biznesi uchun rivojlanishning yangi istiqbollari, mijozlarga nafaqat yuzma–yuz, balki masofadan turib ham bank xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyati ochilmoqda.



5.1.1-rasm

Masofaviy bank bozorining rivojlanishi davrida masofaviy bank tizimlarini joriy etish zarurati tug‘ildi, internet–bankingning xususiyatlarini, uni joriy etish va mijozlar o‘rtasida tarqatish yo‘llarini o‘rganuvchi ilmiy–tadqiqot va ishlanmalarga ehtiyoj paydo bo‘ldi va masofaviy bank tizimlarini takomillashtirishga zarurat paydo bo‘ldi.

Rus iqtisodchisi O.I. Lavrushinning ta’kidlashicha “Uy sharoitida bank operatsiyalarini amalga oshirish elektron texnologiyalardan foydalanishga asoslangan aholiga bank xizmatlari ko‘rsatishning mustaqil shakli hisoblanadi. Har bir operatsiyani boshlashdan oldin,

hisob egasi tizimga noqonuniy ulanishdan himoya kodidagi kalitni oladi. Ushbu tizimdan foydalanish joriy hisob, depozit, mijozning byudjet bilan hisob–kitoblarini, to‘lov va jamg‘arma hisobvarag‘larini boshqarish imkonini beradi”.²³ Bugungi kunda mamlakatimizda shiddat bilan rivojlanayotgan masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish bosqichi uning jozibadorligini o‘zida namoyon qiladi. Masofaviy bank xizmatlari aholining ishonchiga kirishi bilanoq mamlakatimizda keng tarqala boshladi. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishida to‘lov tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda To‘lov tizimini rivojlanishi yillar o‘tib masofaviy bank xizmatlarini paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Masofaviy bank xizmatining paydo bo‘lishida to‘lov tizimi asosiy o‘rinni egallaydi. Xususan, Sobiq ittifoq davlatlari orasida eng samarali va jahon talablari darajasida deb hisoblangan mamlakatimiz masofaviy bank tizimining rivojlanishi to‘rt bosqichga bo‘linadi:

1–bosqich. 1991–1994-yillarda amalga oshirilgan. Viloyatlar ichida hisob–kitoblar, pochta tashuvchilar orqali yagona hisoblash markazida amalga oshiriladi. Bu jarayon bir haftani tashkil etar edi. Viloyatlararo hisob–kitoblar ham pochta orqali, avizo hujjatlari asosida amalga oshirilgan. Bunda mablag‘lar bir mijozning hisobvarag‘idan ikkinchi mijozning hisobvarag‘iga bir oydan ikki oygacha bo‘lgan muddat mobaynida kelib tushar edi.

Markaziy bank bosh axborotlashtirish markazida banklararo hisob–kitoblarda elektron pochta usuli yaratish ustida ishlandi. Shuningdek, bank amaliy ish kunini kompyuterlar vositasida bajarish amaliy dasturini yaratish va ularni banklarda tatbiq etish bo‘yicha ish olib borildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunini²⁴ bajarish yuzasidan Markaziy bankda va uning hududiy bosh boshqarmalarida axborotlashtirish boshqarmasi va bo‘limlari tashkil etildi. Banklararo maxsus ajratilgan aloqa kanallari vazifasida elektron to‘lov tizimini ishga tushirish borasida ish olib borildi. Respublika bank tizimini axborotlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

²³ Лаврушин О.И. “Банковское дело”. Учебное пособие. -М.: КноРус. 2021. 358 с.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.05.1993 yildagi 868-XII-son.

Sobiq Ittifoq respublikalari bilan o‘zaro hisob–kitoblarni tartibga solish va ularga xizmat ko‘rsatish amaliy dasturi yaratildi. Markaziy bankning hududiy boshqarmalari to‘liq kompyuterlashtirildi. Ya’ni bir paytda respublika elektron to‘lov tizimini zamini yaratila boshlandi. Shu yilning dekabr oyidan boshlab juda qisqa muddat uch oy mobaynida Sobiq Ittifoq respublikalari bilan 1991, 1992 hamda 1993-yillardagi yig‘ilib qolgan o‘zaro hisob–kitoblar, qarzlar hisoblab chiqildi va 1994-yilning mart oyiga kelib bu borada aniq ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Vazirlar Mahkamasining “Bank tizimini takomillashtirish, pul–kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga²⁵ muvofiq, Markaziy bank tizimida elektron pochталarni joriy etishni oktyabrga qadar tugallash vazifasi yuklatildi. Shuningdek, Qarorda respublika bank kompyuter tizimini yaratish uchun zarur valyuta mablag‘larini ajratish ham ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini moliyaviy qo‘llab–quvvatlash chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror²⁶ qabul qilindi. Unga asosan banklar qator soliqlardan ozod qilindi va bo‘shagan mablag‘larni o‘z faoliyatini kompyuterlashtirishga sarflash shart qilib qo‘yildi. Mazkur Qarorlarga binoan tijorat banklarining bo‘limlari kompyuterlashtirila boshlandi va ular elektron to‘lov tizimiga qo‘shib borildi.

Respublika bank tizimida buxgalteriya hisob–kitoblarni va bank amaliy ish kunini umumiy bir ko‘rinishga keltirish uchun zarur ishlar amalga oshirildi.

Markaziy bank qilingan bu ishlar bilan cheklanib qolmasdan o‘zining mutaxassislari kuchi bilan elektron to‘lov tizimi amaliy dasturini respublika miqyosida tatbiq etish ustida ham tinimsiz ish olib bordi va 1995-yil uchun zamin yaratdi.

2–bosqich. 1995–1997-yillarni qamrab oladi. 1995-yil aprel oyida Markaziy bank Jahon banki mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.03.1994 yildagi 146-son

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.07.1994 yildagi 161-son.

Respublikasi banklararo to'lov tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan xalqaro tanlov tender e'lon qildi.

Markaziy bankda tashkil etilgan elektron to'lov tizimini yaratish ishchi guruhi o'tgan yillardan olingan tajribalar va xulosalar, shuningdek jahonning ilg'or davlatlari yutuqlarini o'rganish va tahlil qilish asosida elektron to'lov tizimi texnologiyasini yaratdilar. Eski tizim 1995–yilning 19–avgustidan boshlab yangi texnologiya bilan almashtirila boshlandi. Bu paytga kelib Markaziy bank tizimida hisob–kitob markazlari tashkil etildi va tijorat banklariga elektron to'lov bo'yicha xizmat ko'rsatila boshlandi. Yangi texnologiyaga o'tila borishi sababli yilning oxirigacha respublikada 2 tizim: elektron pochta va elektron to'lov tizimlari ishlab turdi. Yil oxiriga kelib esa barcha tijorat banklari Markaziy bankning hisob–kitob markazlari, kliring markazlari elektron to'lov tizimiga qo'shildi.

Yangi tashkil etilgan hisob–kitob markazlari tijorat banklarining vakillik hisobvarag'larini kliring markazlaridan o'zlariga o'tkaza boshladilar. Iyul oyiga kelib kliring markazlari butunday qisqartirildi. Shu bilan bir qatorda Markaziy bank Bosh axborotlashtirish markazi mutaxassislari va bank xodimlari to'lovlarning o'tishi muddatini yanada qisqartirishni ta'minlash borasida tinmay izlanish olib bordilar. Buning natijasi o'laroq, yil oxiriga kelib to'lovlar o'tishi muddati respublika miqyosida 2 soat, viloyat miqyosida 1 soatni tashkil etdi.

Respublika bank tizimida yangi hisob tizimi rejasiga o'tilishi Markaziy bankning to'lov tizimini rivojlantirishda tub burilish yasadi. Elektron to'lov tizimining mavjud amaliy dasturi rivojlantirilib, tizimning katta o'tkazish qobiliyati va hujjatlarning yuqori tezlikda qayta ishlanishi (hududlararo hisob–kitoblar – 15 daqiqada, bitta hudud ichidagi hisob–kitoblar esa – 3–5 daqiqada) pul mablag'lari aylanishini jiddiy oshirdi. Bu esa respublika iqtisodiy sub'yektlarning faoliyatiga ijobiy ta'sir etdi, banklarga vaqtincha bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanish va kredit xavf–xatari darajasini hamda likvidlilik xavf–xatarini tezkorlikda boshqarish imkonini berdi.

3–bosqich. 1998–2002 yillarda amalga oshirilgan. Markaziy bank bilan Jahon banki o'rtasida 1998 yil dekabr oyida “Respublika moliya

sohasini rivojlantirish” uchun zayom ajratish to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Bu loyiha besh komponentga bo‘linib, shulardan to‘rtinchi komponent o‘z ichiga quyidagi masalalarni oladi:

- to‘lov tizimini takomillashtirish;
- boshqarish uchun axborot tizimini yaratish;
- bank telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish;
- axborot tizimi muhofazasini yaratish.

Yuqorida keltirilgan masalalar bo‘yicha tadbirlarni nihoyasiga yetkazish 2003-yilning ikkinchi yarmiga mo‘ljallangan bo‘lib, har bir masala bo‘yicha rivojlanish yo‘llari tijorat banklari bilan birgalikda aniqlandi va chet el ekspertlarining xulosalari olindi.

4–bosqich. 2006–yildan hozirgi vaqtgacha barcha tijorat banklarida (DT Xalq bankidan tashqari) yagona balans tizimini joriy etildi. Davlat tijorat Xalq bankida yagona balans texnologiyasiga asoslangan tizimni joriy etish ishlari bosqichma–bosqich olib borilib, 2008 yil 24 noyabrda to‘liq ishga tushirildi. Bundan tashqari, Markaziy bankning Integrallashgan axborot–tahliliy tizimi (IATT) 2009-yil may oyida yaratilib, unda tijorat banklari tomonidan 58 ta talabnoma asosida Markaziy bankning ma’lumotlar omborxonasida ma’lumotlarni jamlash, nazorat qilish, hisobini yuritish, qayta ishlash, shakllantirish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda integrallashgan axborot–tahliliy tizimi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining integrallashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi, kredit axboroti milliy instituti axborot tizimi, yagona vakillik hisobvarag‘lar hisob–kitob markazi, elektron hujjat aylanishi tizimi, bank tizimi ma’lumotlar bazalari kiritilgan va ma’lumotlar omborxonasi tashkil etilgan bo‘lib, ayni paytda mazkur tizimlarni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

So‘nggi bosqichda, ayniqsa, bank hisobvarag‘lariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi jadal rivojlandi. Shuningdek, bugungi kunda butun dunyoda ommalashgan naqd pulsiz tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lash mexanizmi mamlakatimizda ham tobora rivojlanib bormoqda.

Naqd pulsiz hisob kitoblardan foydalanish aholi turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib ulgurdi. Qog'oz pullar tovar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda o'z o'rnini masofaviy bank xizmatlariga bo'shatib bermoqda. Naqd pulsiz hisob–kitoblarni amalga oshirishda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- hisob–kitoblarning tezkorligi, ya'ni xarid qilingan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob–kitoblarni amalga oshirishda sarflanadigan vaqtning tejalishi;

- bank karta hisob varaqlarida saqlanayotgan mablag'lar qoldig'iga hisoblanadigan foiz ko'rinishidagi qo'shimcha daromad olish imkoniyati;

- tovar xarid qilish va xizmatlarga haq to'lash uchun qulay to'lov vositasi;

- pul mablag'larini yo'qotib qo'yish, o'g'irlatish yoki hisob–kitobdagi xatoliklar bilan bog'liq bo'lgan yo'qotish riskini minimallashtirish kabilar.


Bugungi kunda Hukumatimiz tomonidan plastik kartalarni aholi uchun foydalanish qulayligini yanada oshirish maqsadida, 2018–2019 yillarda to'lov terminallarini takomillashtirish ya'ni, to'lov qabul qilish tezligini oshirish, to'lov qabul qilish usullarini ko'paytirish kabi ishlar rejalashtirilgan edi. Natijada plastik karta egalariga yanada qulayliklar yaratish maqsadida aholiga uy joylarda plastik kartalar orqali to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi ko'p funksiyali infokiosk va bankomatlar o'rnatildi.

Respublikamizda bank plastik kartalari tizimidan foydalanuvchilarga istalgan savdo do'koni, umumiy ovqatlanish korxonalarini, dorixona, tibbiyot muassasalarida va boshqa pullik xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalarda, kommunal xizmat ko'rsatish (elektr energiya, gaz, aloqa, issiq suv, sovuq suv) idoralarida o'rnatilgan to'lov terminallari orqali tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun qaysi tijorat bankining plastik kartasi bo'lishidan qat'iy nazar to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratib berayotganligi hech kimga sir emas.

O'tgan yillarda bank emitentidan qat'iy nazar jismoniy shaxsning plastik kartasidagi mablag'larni boshqa bir jismoniy shaxs plastik kartasiga bepul o'tkazish uchun o'z xizmat ko'rsatuvchi bankingizga murojaat qilib istalgan hududga pul mablag'laringizni ko'chirib berishi uchun bankga borish majburiyati mavjud edi. Ammo, bugungi kunda aholiga qulaylik yaratish maqsadida "Online" rejimida ishlaydigan plastik kartalar orqali to'lovlar istalgan vaqtda masofadan turib, bank operatorisiz va ularni qabul qiluvchi uskunalarisiz amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Bugungi kunda to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi "Peyme", "Click" "M-bank", "u-PAY", "Paynet" va boshqa to'lov xizmatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, mijozlar plastik kartalaridan uyali telefonlar orqali ko'rsatilgan xizmatlar uchun (mijoz o'zining va boshqa yaqinlarining mobil telefonlari balansini to'ldirish, internet, web-saytlar, kabel televideniya) to'g'ridan to'g'ri kommunal to'lovlarni amalga oshirish hamda bank plastik kartasidagi mablag'larni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan "Uzcard", to'lov tizimi jahon talablariga javob beruvchi yuqori darajada himoyalangan bo'lib, har bir plastik karta egasi karta hisob raqamidagi pul mablag'larini tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi shaxsiy identifikatsiya raqamiga ega. Bunda esa begona shaxslar tomonidan soxtalashtirish va plastik karta egasi ruxsatisiz foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Undan tashqari respublikamizda "Uzcard" to'lov tizimiga raqobatdosh bo'la oladigan yangi tizimi "Humo" to'lov tizimi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu tizim respublikamizda faoliyatini boshlagandan so'ng mijoz tanlash huquqiga ega bo'ldi. 5.1.2-rasmda masofaviy bank xizmatlarining xususiyatlarini ajratib ko'rsatamiz.



5.1.2–rasm. Masofaviy bank xizmatining xususiyatlari

Internet–banking va umuman axborot texnologiyalarining jadal uzluksiz rivojlanishi davrida yangi innovatsion tizimlar va xizmatlar paydo bo‘lmoqda. 5.1.1–jadvalda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohasidagi axborot texnologiyalarining zamonaviy innovatsion konsepsiyalari keltirilgan.

5.1.1–jadval

Elektron xizmatlar bozorining zamonaviy turlari²⁷

Tushuncha	Konsepsiya ta’rifi
Robotlashtirish	Jarayon samaradorligini oshirish uchun robotlardan foydalanish. Maslahatchi robotlar – bu moliyaviy maslahatchilarga asoslangan veb–dasturlar bo‘lib, ular inson aralashuvisiz mijozlar muammolarini tushunish, tahlil qilish va hal qilish uchun kognitiv hisoblashdan foydalanadi. Robotik maslahatchilar moliyaviy maslahatchilarga kirishdan oldin mijozlar tajribasini yaxshilash usulini taklif qilishadi.
Chat–botlar	Foydalanuvchi bilan haqiqiy suhbatni simulyatsiya qiluvchi dastur. Chat–botlar veb–saytlar, messenjerlar, mobil ilovalar yoki telefon orqali matn yoki audio xabarlar yordamida muloqot qilish imkonini beradi. ²⁸ Bir necha marta bosish orqali joriy to‘lovlarni amalga oshirish, kartalarni to‘ldirish imkoniyati. Xizmat pochta orqali xat kelishidan oldin foydalanuvchini kommunal to‘lovlar, telefon, yo‘l harakati politsiyasi jarimalari to‘g‘risida xabardor qiladi.
Blokcheyn	Eng so‘nggi texnologiya, qiziqish kriptovalyutalarning mashhurligi bilan birga oshdi. Blockcheyn allaqachon marketing va kompyuter o‘yinlarida shaxsiy ma’lumotlar va identifikatsiyani saqlash va qayta ishlash uchun qo‘llanilmoqda. Unda tranzaksiyalarning barcha yozuvlari mavjud. An’anaviy ma’lumotlar bazalaridan farqli o‘laroq, bu yozuvlarni o‘zgartirish yoki o‘chirish mumkin emas, faqat yangilarini qo‘shish mumkin.
Ekotizim	O‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlarning har qanday tizimi yoki tarmog‘i: – mijoz aloqada bo‘lgan mahsulot muhitidan qat’i nazar, yagona “genetik” interfeys va uni qurish usullari;

²⁷ Muallif tomonidan tuzuldi.

¹³ <http://fingram26.ru/articles/banki-i-bankovskie-produkty/47927/>

	<ul style="list-style-type: none"> – identifikatsiyalashning yagona usullari; – ma'lumotlarni uzluksiz uzatish; – frontal muhitlar orasidagi uzluksiz harakatlanish sikli: trafikni qabul qilishdan tortib, "yagona oyna" modelida xizmat ko'rsatishgacha.
Bozor	<p>E-tijorat platformasi, tranzaksiyalari bozor operatori tomonidan qayta ishlanadigan uchinchi tomon mahsuloti yoki xizmati haqida ma'lumot beruvchi onlayn elektron tijorat do'koni. Tizimda ro'yxatdan o'tgan turli kompaniyalarning tovarlari va xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdigan va tartibga soluvchi hamda bunday ma'lumotlarni xaridorning iltimosiga ko'ra tanlangan mahsulotni solishtirish, tanlash va sotib olish uchun mos tuzilgan shaklda taqdim etadigan onlayn platforma.</p>
Sun'iy intellekt	<p>Raqamli kompyuterlarning odatda yuqori aqlli inson qobiliyatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish qobiliyati. Biz an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan qobiliyatlarga ega aqlli kompyuter tizimlarini ishlab chiqadi: tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqalar.</p>
Gamifikatsiya	<p>Gamifikatsiya – bu jarayonda xodimlar/ishtirokchilarni ko'proq jalb qilish uchun o'yin usullarini o'yindan tashqari jarayonlar va hodisalarga moslashtirish texnologiyasi.</p> <p>Gamifikatsiya motivatsiya masalasini yangi usulda hal qilishga yordam beradi, qutidan tashqarida.²⁹</p>
Virtual haqiqat	<p>Virtual haqiqat VR immersiv qurilmalar yordamida kirish mumkin bo'lgan kompyuter tomonidan yaratilgan dunyo. Virtual muhit haqiqiy dunyoni uning o'zgarishlariga ta'sir qilmasdan to'liq almashtiradi, foydalanuvchi esa, masalan, video o'yinga sho'ng'ish orqali unga ta'sir qilishi mumkin.</p> <p>Kengaytirilgan reallik AR haqiqiy dunyoga qatlamlar qo'shadi. Odamlar hali ham o'zlarining qurilmalari yoki kengaytirilgan haqiqat ilovalaridan qo'shimcha ma'lumot olish orqali jismoniy muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin.</p>
Kiber xavfsizlik	<p>Kiber xavfsizlik – tizimlar, tarmoqlar va dasturiy ta'minot dasturlarini raqamli hujumlardan himoya qilish choralarini amalga oshirish. Bunday hujumlar odatda maxfiy ma'lumotlarga kirish, uni o'zgartirish va yo'q qilish, foydalanuvchilardan pul undirish yoki kompaniyalarning normal faoliyatini buzishga qaratilgan.³⁰</p>
Bank API	<p>Bank API banklarga yagona interfeys orqali xizmatlar bilan ishlash, o'z xizmatlariga moliyaviy va texnologik yechimlar qo'shish va Rossiya raqamli bozorida yangi bo'shliqlarni rivojlantirish imkonini beradi.³¹</p> <p>Banking API tashqi ilovaga bankning o'zida mijozlar hisoblariga xizmat</p>

²⁹ <https://.tadviser.ru> – rasmiy sayt.


³⁰ <https://www.calltouch.ru/glossary/geymifikatsiya/>-Сервис Calltouch

³¹ Моисеева, Р.Ю. Развитие банковских технологий с применением дистанционного банковского обслуживания. Моисеева Р.Ю. //Финансовые рынки и банки. – №2. – 2018. – с. 38–41.

	ko'rsatish, kiruvchi va chiquvchi tranzaksiyalarni qayta ishlash, bank xizmatlarini avtomatlashtirish va banklarga yordam ko'rsatish mumkin bo'lgan turli dasturiy tizimlarga kirish imkonini beradi. ³²
Neobanklar	Yangi turdagi banklar yangi texnologik platformalarda noldan qurilgan butunlay onlayn banklardir. Bunday banklar zamonaviy bank mahsulotlarini yaratish imkoniyatiga ega.

Kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan eng mashhur masofaviy xizmat ko'rsatish vositasi bu chat–botdir. Chat–botlar og'zaki yoki yozma so'rovlarga real muloqot shaklida javob berib, mijozlarga javob topishga yordam beradi.

5.1.3–rasmda masofaviy bank xizmatlarida chat–botlardan foydalanishning afzalliklarini ajratib ko'rsatamiz.



5.1.3–rasm. Chat–botdan foydalanishning afzalliklari

Masofaviy bank tizimida chat–botdan foydalanishning afzalliklari:

³² Карабач, Р.А. Влияние цифровых технологий на инфраструктуру банка / Р.А. Карабач, В.Г. Гвоздова // научные перспективы XXI века Материалы Международной (заочной) научно-практической конференции. 20 18. – С. 58–63.

1. Tunu–kun xizmat ko‘rsatish. Masofaviy bank xizmatlarida mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish chat–botlarning afzalliklaridan biri hisoblanadi. Kunning istalgan vaqtida olingan javob mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi va bank biznesining muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir qiladi;

2. Bir vaqtning o‘zida ko‘proq mijozlarga xizmat ko‘rsatish. Bank mahsulotlari haqidagi ma’lumotlarni chat–botlar yordamida ko‘plab mijozlarga yetkazish mumkin;

3. Mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish. Chat–botlar mijozlarni, ularning so‘rovlarini tahlil qilib, mijozlar uchun eng mos bo‘lgan bank mahsulotlarini taklif qiladi va shu orqali nomaqbul, qiziq bo‘lmagan ma’lumotlarni kamaytiradi va auditoriyani ko‘proq jalb qiladi;

4. Bankdagi ishchi xodimlar sonining kamaytirilishi. Banklar mijozlarga xizmat ko‘rsatadigan xodimlarga haq to‘lashlari kerak va mijozlar bazasining o‘sishi bilan bankning xarajatlari ham o‘sib boradi;

5. Mijozlarni segmentatsiyalash. Mijoz tomonidan bajarilgan harakatlarga asoslanib, auditoriya segmentlarga bo‘linadi;

6. Turli tillarda mijozlarga xizmat ko‘rsatish. Chat–botlar bir vaqtning o‘zida bir nechta tillarda yuqori sifatli bank xizmatlari ko‘rsatiladi, bu esa o‘z navbatida bank faoliyatini kengaytirish va yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi.


Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki zamonaviy texnologiyalarni bank faoliyatiga joriy qilish, masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish orqali banklarni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

5.2. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish–bu turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar majmuidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib, kompyuter va mobil telefondan foydalanishning o‘zi kifoya. Masofaviy bank tizimlari bank mijoziga qimmatli resurslar – vaqt va axborotni yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Bu fakt

mijozlar uchun xizmatlar ko‘rsatish va ulardan foydalanishning ushbu usulining jozibadorligini ko‘rsatadi.

Endi esa, 5.2.1–rasmda biz masofaviy bank xizmatlari turlarini taqdim etamiz.



5.2.1–rasm. Masofaviy bank xizmatlari turlari

Telefon (SMS)–banking. Masofaviy bank xizmatlarining birinchi turlaridan biri. Bank mijozlariga statsionar telefon orqali xizmat ko‘rsatildi. Ko‘pgina kredit tashkilotlari ushbu xizmatni mijozlarga jismoniy shaxslarga taqdim etdilar. Mijoz uchun bunday xizmatni tanlashning asosiy mezonu yuqori harakatchanlik edi. Bank mijozu bankka bormasdan istalgan manzildan qisqa vaqt ichida bank xizmatidan foydalanishi mumkin. Telefon orqali bank xizmatlari mijozlari bank mahsulotlari, valyuta kurslari, foiz stavkalari haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega.

Masofaviy bank xizmatlari turlaridan biri – telefon bankingning ijobiy tomonlari va kamchiliklarini ajratib ko‘rsatamiz (5.2.1–jadval).

5.2.1– jadval

Telefon bankingning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
Mijoz va bank o‘rtasida kecha–kunduz muloqot qilish imkoniyati	Telefon liniyasi sifati past
Bank binosiga bormasdan telefon orqali asosiy xizmatlarni olish imkoniyati	Firibgarlik ehtimoli
	Ma’lumotni tinglashda qiyinchilik
	Yuqori aloqa xarajatlari
	Aholiga ishonchning past darajasi

Klassik “Mijoz–bank” – kompyuter yoki boshqa mijoz qurilmasida: planshet, smartfon, noutbuk, tranzaksiyalar bo‘yicha barcha ma’lumotlarni saqlaydigan alohida dastur o‘rnatilgan. Kredit tashkiloti bilan o‘zaro aloqa turli aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, ushbu mijozning ma’lumotlari dasturning mijoz qismida, uning barcha mijozlari esa bank qismida saqlanadi. To‘lov hujjatlari, hisobvarag‘lardan ko‘chirmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan butun ma’lumot bazasi mijozning qurilmasida joylashgan.

Himoya elektron raqamli imzo, shuningdek axborotni shifrlashning kriptografik usullari yordamida amalga oshiriladi. Bank dasturiy ta’minotni yangilaydi va texnik yordam ko‘rsatadi.

Ko‘pincha “Mijoz–bank” tizimi katta hajmdagi ma’lumotlarni zaxiralash va uzatishni talab qiladigan katta hujjat aylanishiga ega bo‘lgan tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi. Shu sababli, masofaviy bank xizmatining ushbu turi yuridik shaxslar orasida eng keng tarqalgan.

“Mijoz–Bank” tizimi orqali olish mumkin bo‘lgan xizmatlar:

- elektron raqamli imzo bilan bankka to‘lov topshiriqnomalarini yuborish;
- kredit tashkiloti bilan xabar almashish;
- valyutani sotib olish/sotish;
- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish/sotish;
- ma’lumot olish: valyuta kursi, qimmatli qog‘ozlarning kotirovkasi;
- to‘lov hujjatlarini avtomatlashtirilgan tarzda tayyorlash;
- to‘lov hujjatining o‘tishini nazorat qilish, xatolik yuzaga kelganda, hujjat tuzatishlar uchun mijozga qaytariladi.

Masofaviy bank xizmatlari turlaridan biri bo‘lgan “Mijoz–bank” tizimining ijobiy va salbiy tomonlarini ajratib ko‘rsatamiz (**5.2.2–jadval**).

Hozirgi vaqtda masofaviy bank xizmatlarining eng keng tarqalgan turi mobil banking hisoblanadi. Eng qulay va zamonaviy ko‘rinish, yosh avlod orasida mashhurroq.

Dunyoning istalgan nuqtasidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun sizda mobil telefon bo‘lishi kerak. Tez foydalanish va xavfsiz kirish uchun mobil qurilmaga bank ilovasi o‘rnatilgan.

5.2.2–jadval

“Mijoz–bank” tizimining afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
Bankka tashrif buyurish uchun vaqt va pulni tejash	Mijozning shaxsiy kompyuterida axborotni qo‘llab–quvvatlash va ma’lumotlar bazasini saqlash zarurati
Barcha to‘lov hujjatlari bilan ishlash uchun qulay interfeys	Tizimdan faqat ma’lum bir shaxsiy kompyuterdan foydalanish

Tahlil qilinayotgan tizim orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan bank operatsiyalarining taxminiy ro‘yxatini keltiramiz:

- valyutani sotib olish va sotish;
- kommunal to‘lovlarni to‘lash;
- internet orqali xaridlarni amalga oshirish;
- telefon aloqasi uchun haq to‘lash;
- pul o‘tkazmalarini amalga oshirish;
- to‘lovlar tarixiga kirish imkoniyati;
- kredit olish uchun ariza berish imkoniyati.

Endi esa, “Internet banking” tizimining afzalliklari va kamchiliklarini ajratib ko‘rsating (5.2.3–jadval).

5.2.3–jadval

“Internet–banking” tizimining afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
Bank xizmatlarini olish uchun past tariflar, odatdagidek ofisdagi bank xodimlari emas, balki mijozning o‘zi xizmat ko‘rsatadi	Kiberfiribgarlikning yuqori xavfi
Istalgan vaqtda, istalgan joyda bank xizmatlaridan tez va oson foydalanish	Voyaga etgan avlod uchun xizmatning murakkabligi, mijozning bank xizmatining yangi turini o‘rganishi uchun vaqt va kuch sarflash zarurati

Ko‘pgina xizmatlar uchun bankka bormasdan va uydan chiqmasdan tezda to‘lash mumkin bo‘ladi.

Mobil banking ilovasi orqali to‘lash mumkin bo‘lgan xizmatlar:

- mobil aloqa;
- kommunal to‘lovlar;

- internet–provayder va televizor;
- jarimalar va soliqlar;
- boshqa xizmatlar.


Keyinchalik, ushbu turdagi masofaviy bank xizmatining afzalliklari va kamchiliklarini ajratib ko‘rsating (5.2.4–jadval).

5.2.4–jadval

“Mobil banking” tizimining afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
Komissiyasiz xizmatlar uchun to‘lov	Hacker hujumlari. Shaxsiy parolni “buzish” va tizimga kirish.
Foydalanish qulayligi	Aholining ayrim qatlamlarining moliyaviy savodxonligining pastligi
Bank operatsiyalarining tezligi	Internet yo‘q bo‘lganda, tizimdan foydalanish imkoniyati yo‘qoladi
Xizmatlardan 24/7 foydalanish	Mobil bankingni rivojlantirish va qo‘llab–quvvatlash uchun bank uchun yuqori xarajatlar

Masofaviy bank xizmatlarining sanab o‘tilgan tasnifiga qo‘shimcha ravishda, bank xizmatlari mijozlariga qarab masofaviy bank xizmatlari turlarini ajratish mumkin (5.2.4–rasm).



5.2.4–rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar

Mijozlarga qarab bank masofaviy bank tizimlari orqali turli bank xizmatlarini taklif etadi (5.2.5–jadval).

Bank xizmatlari mijozlari uchun masofaviy bank xizmatlari tizimidan foydalanish uchun cheksiz imkoniyatlar ochiladi. Bank uchun, o‘z navbatida, ushbu xizmat turi asosiy daromadlardan biridir. Quyida biz umumiy masofaviy bank xizmatlarining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilamiz.

Kredit tashkilotlari tomonidan masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan foydalanishning afzalliklari:

- mijozlarga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish hisobiga iqtisodiy foyda.

- mijoz bank xizmatlarini masofadan turib, bankka bormasdan oladi, shuning uchun mijozga bank filialida xizmat ko‘rsatish narxi kamayadi. Operatsiya xonalari tushiriladi, navbatlarning mavjudligi kamayadi.

- qog‘oz yo‘qligi sababli bank buxgalterlarining ish vaqtiga sarflanadigan vaqt ham qisqargan hujjat aylanishi, hujjatlarni to‘ldirishda xatolar sonining kamayishi kuzatiladi;

- masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bank mijozlari bilan faol ishlash.

- ma‘lum vaqt davomida kredit tashkilotining ofisiga qaraganda ancha ko‘proq mijozlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi;

- bankning geografik joylashuvidan qat’i nazar, mijozlarning yangi segmentlariga kirish imkoniyati;

- barcha bank operatsiyalarining to‘g‘riligi oshiriladi, operatsion risklar kamayadi;

- yangi bank mahsulotlari va xizmatlari paydo bo‘lishi to‘g‘risida mijozni o‘z vaqtida xabardor qilish;

- yangi texnologiyalarni joriy etish, masofaviy bank tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish hisobiga bankning raqobatbardoshlik darajasi oshadi.

5.2.5–jadval

Masofaviy bank xizmati orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar mijozlarga xizmat ko‘rsatish

Xususiy mijozlar	Korporativ mijozlar
Kvitansiyaning QR kodini skanerlash imkoniyati	Pudratchilar, hamkorlar, soliq va byudjet tashkilotlari bilan hisob–kitoblarni amalga oshirish mumkin
Telefon raqami orqali istalgan bank mijozlariga pul o‘tkazish	O‘z hisoblaringiz bilan ishlash O‘z hisoblaringiz o‘rtasida o‘tkazmalar Hisobot va balans ma’lumotlarini ko‘ring
Bank ofisiga tashrif buyurmasdan kreditlarni to‘lash. Kredit va kredit kartalarini tartibga solish	So‘ngi ma’lumotlarni olish imkoniyati: har bir hisob balansi, balansni yangilash, Tranzaksiyalar tarixi, to‘lov holati
Kartalar va hisoblardagi qoldiqlarni tekshirish	Elektron hujjat aylanishi, biznesni elektron shaklga o‘tkazish, pudratchilar bilan elektron hujjatlar almashish imkoniyati
Bank depozitlarini ochish va to‘ldirish o‘zaro fondlarni sotib olish imkoniyati	Hamkorning so‘nggi ma’lumotlari bilan rasmiy hujjat: da'volar, bankrot kompaniyalar, tezkor tahlil qilish uchun kontragentning ishonchliligini umumiy baholash, balans
Mijozning bank tarixining mavjudligi	Qisqa vaqt ichida biznes krediti olish imkoniyati

Shunday qilib, kredit tashkiloti uchun masofaviy bank tizimlaridan foydalanishning afzalliklarini tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkin. Masofaviy bank texnologiyalarining faol rivojlanishi bilan bank o‘z faoliyati samaradorligini oshiradi va bank xizmatlari va mahsulotlarini onlayn sotish orqali biznes imkoniyatlarini kengaytiradi, natijada mijozlar bazasini kengaytiradi, bu esa o‘z navbatida bank xizmatlarini ko‘paytirishning asosiy jihati hisoblanadi. bank foydasi.

Quyida biz kredit tashkilotlari tomonidan masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan foydalanishning kamchiliklarini sanab o‘tamiz:

- ma’lumotlarning buzilishi, baxtsiz hodisalar, bank dasturiy ta’minotining buzilishi ehtimoli;
- kiberjinoyat qilish, bank axborot tizimlarini buzish va katta hajmdagi ma’lumotlarni, shu jumladan mijozlar bazasi va mijozlar haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish, shuningdek, pul mablag‘larini

o'g'irlash;

– tizimning texnik va dasturiy ta'minotining sifatsizligi sababli kredit tashkiloti tomonidan mijozlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi;

– aholining moliyaviy savodxonligi pastligi.

Bank uchun masofaviy bank xizmatlarining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqib, biz ushbu bozor jadal rivojlanmoqda degan xulosaga kelamiz. Kredit tashkilotlarining mijozlar bazasi uchun raqobatbardosh kurashi muhim xususiyat bo'lib, bu masofaviy xizmat ko'rsatish narxini pasaytirish va masofaviy bank tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, masofaviy bank xizmatlari banklarning raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi va bank bozoridagi taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Quyida biz bank mijozlari uchun masofaviy bank tizimlaridan foydalanishning afzalliklarini sanab o'tamiz:

– uyingizdan chiqmasdan bank hisobingizdagi mablag'larni boshqarish imkoniyati;

– onlayn rejimida, haftasiga 24 soat, 7 kun hisob ma'lumotlariga kirish;

– bankka sayohatlar uchun transport xarajatlarini kamaytirish;

– mijozlarning ish vaqtining vaqt xarajatlarini qisqartirish;

– bank bilan aloqa kanali: qo'shimcha xizmatlarni ulash uchun bankka ariza yuborish, valyutani sotib olish/sotish uchun arizalarni qoldirish, kredit olish yoki omonat ochish uchun ariza yuborish;

– bankdan joriy aksiyalar, yangi bank mahsulotlari va xizmatlari to'g'risida tezkor ma'lumot olish imkoniyati;

– korporativ mijozlar uchun hisob–kitob operatsiyalari bo'yicha hujjatlarni shakllantirish imkoniyati: to'lov topshiriqnomalari;

– korporativ mijozlar uchun valyuta nazorati hujjatlarini yaratish imkoniyati: valyuta operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar, sertifikatlar, tasdiqlovchi hujjatlar, shartnomalar yoki kredit shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va ro'yxatdan chiqarish uchun

arizalar va boshqalar.

Masofaviy bank xizmatlari va bank ofisida mijozlarga shaxsiy xizmat ko'rsatishning afzalliklarini solishtiramiz (5.2.6–jadval).

5.2.6–jadval

Masofaviy bank xizmatlari va bank ofisida mijozlarga shaxsiy xizmat ko'rsatishning afzalliklari

Masofaviy bank xizmatlari	Bank ofisida mijozlarga xizmat ko'rsatish
Bank operatsiyalarining yuqori tezligi	Bank operatsiyalarining past tezligi, navbatlarning mavjudligi
Masofaviy bank tizimlaridan istalgan vaqtda, istalgan joyda foydalanish qulayligi	Mijozlarga xizmat ko'rsatishni bankning ish jadvali bilan cheklash, lekin kredit tashkilotlari ofislarining joylashuvi bo'yicha
Bank ofislarini saqlash xarajatlarini kamaytirish, ish haqi xarajatlarini cheklash, kelajakda xodimlarni qisqartirish imkoniyati	Mijozlarga xizmat ko'rsatish xarajatlari yuqori: kompyuter va buxgalteriya hisobi, kundalik mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan xodimlar
Qog'ozlarni qisqartirish, qog'oz yo'q	Ko'p sonli hujjatlar, to'ldirishda xato qilish xavfi yuqori

Kredit tashkilotlari tomonidan masofaviy bank texnologiyalarini joriy etish bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, u ko'p tarmoqli bo'lishi kerak.

Bank tizimi globallashuv jarayonlariga duchor bo'lib, unga qarshi axborot texnologiyalaridan foydalanishning ortishi kuzatilmoqda va bankning raqobatbardoshlik darajasi bunga bevosita bog'liq. Banklar mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun eng zamonaviy va qulay internet texnologiyalarini joriy etishga e'tibor qaratgan³³.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida elektron to'lov tizimi va masofaviy bank xizmatlari o'zining me'yoriy–huquqiy rivojlanish bosqichlariga ega. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish yildan–yilga rivojlanib borayotgan bo'lsa–da, ushbu xizmatlarning yanada taraqqiy topishida muammolar yo'q, deb bo'lmaydi. Masofaviy bank xizmatlarida yuzaga

³³ Моисеева, Р.Ю. Развитие банковских технологий с применением дистанционного банковского обслуживания. Моисеева Р.Ю. //Финансовые рынки и банки. – №2. – 2018. – с. 38–41.

kelgan muammolarni bartaraf etish va dasturda qulayliklar yaratish orqali mijozlar sonining ortishiga erishish mumkin. Masofadan boshqariladigan bank xizmatlarining paydo bo'lishiga turtki bo'lgan axborot–kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanadi. Axborot–kommunikatsiya texnologiyalarining bank tizimiga foyda keltirgan birinchi qadami kompyuter bo'lsa keyingi o'rinda elektron pochta tizimi hisoblanadi.

Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga muammolardan tashqari bir qancha omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, mamlakatimiz bank tizimida ham masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish borasida bir qancha me'yoriy–huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va jadal ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda banklar mijozlarining soni ortib borishi, ko'plab mijozlarni jalb qilish va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish natijasida o'zlarining daromadini ham ko'paytirish uchun harakat qilmoqdalar. Bugungi kunda mamlakatimizda shiddat bilan rivojlanayotgan masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish bosqichi uning jozibadorligini o'zida namoyon qiladi. Masofaviy bank xizmatlari aholining ishonchiga kirishi bilanoq mamlakatimizda keng tarqala boshladi. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishida to'lov tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda to'lov tizimini rivojlanishi yillar o'tib masofaviy bank xizmatlarini paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Masofaviy bank xizmatining paydo bo'lishida to'lov tizimi asosiy o'rinni egallaydi.

5.2.7–jadval

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar³⁴

Ichki omillar	Tashqi omillar
Bank xizmatlarining tashkiliy holati: – bankning texnologik jihozlanishi; – masofaviy bank xizmatlarining foydalanishda soddaligi; – masofaviy bank xizmatlarida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi.	Risklar: – operatsion risk; – moliyaviy risk; – boshqa risklar.

³⁴ Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar. Iqtisod va moliya jurnali.2019 3(123).

Bankning marketing siyosati: –masofaviy bank xizmatlarining reklama qilinishi; –bank saytlarida va aholi o‘rtasida masofaviy bank xizmatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilishi.	Ijtimoiy (fuqarolarning ijtimoiy maqomi): –odamlarning masofaviy bank xizmatlaridan xabardorligi; –bank mijozlarining masofaviy bank xizmatlariga ishonchi; –foydalanuvchilarning masofaviy bank xizmatlarini yaqinlariga tavsiya etishi.
Masofaviy bank xizmatlarining turlari va narxlari.	Foydalanuvchilar uchun masofaviy bank xizmatlarining foydali bo‘lishi.
Bank menejmenti (bank xodimlari va ularning malakasi) hamda moliyaviy savodxonlik darajasi.	Faoliyat ko‘rsatayotgan bankning geografik (mintaqaviy) chegaralari, kengaytirish istiqbollari.
Masofaviy bank xizmatlari bo‘yicha me‘yoriy–huquqiy asos yaratilganligi.	Siyosiy omillar: – banklarga nisbatan davlatning siyosati; – internet tezligi.

Banklar mijozlariga masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatishi zamonaviy bank tizimi taraqqiyotining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va uni rivojlantirishga bir qator omillar ta’sir etadi. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda bu xizmatlarga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olish zarur. Bu ta’sir qiluvchi omillarni ikkiga, ya’ni ichki va tashqi omillarga bo‘lish mumkin. 10–jadvalda masofaviy bank xizmatlariga ta’sir qiluvchi omillar tashqi va ichki omillarga bo‘lingan. Mavjud omillarning masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishga ta’sirini o‘rganib chiqish va uning to‘g‘ri tizimini yuritish bank uchun muhimdir.

5.3. Masofaviy bank xizmatlarini raqamlashtirishning mijozlarning moliyaviy savodxonlik darajasiga ta’siri

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni faol raqamlashtirish va masofaviy xizmatlarni rivojlantirish sharoitida moliyaviy xizmatlar iste’molchilari o‘z moliyaviy resurslarini yanada samaraliroq boshqarishni boshladilar. Moliyaviy institutlar ushbu tendensiyani rivojlantirishni davom ettirishlari, fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirishlari, turli maqsadli segmentlar uchun qulay va tushunarli raqamli texnologiyalarni ishlab chiqishlari va joriy etishlari kerak.

Moliya tizimining istiqbollari, xususan, iqtisodiy jarayonlarda yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, takomillashtirish va faol foydalanish bilan belgilanadi. Raqamli iqtisodiyot–bu raqamli axborot–kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar majmuasidir.

Ushbu bandning maqsadi masofaviy xizmatlarni joriy etish samaradorligi to‘g‘risida foydalanuvchilar va moliya institutlarining fikrlarini solishtirish, shuningdek, raqamlashtirish va aholining moliyaviy savodxonligi darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashdan iborat.

Markaziy bank moliyaviy savodxonlik yo‘nalishida “IT–Park” (“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ) bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzoladi. Moliyaviy ta‘limni rivojlantirish sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish maqsadida imzolangan mazkur Memorandum O‘zbekiston Respublikasida yoshlar va aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha sa‘y–harakatlarni birlashtirishga xizmat qiladi. IT–Park IT–tadbirkorlik, startap ekotizimi, raqamli savodxonlik va IT–madaniyati rivojlantirish uchun qulay shart–sharoitlar yaratish sohasidagi yetakchi tashkilot sifatida yoshlarning qiziqishini rag‘batlantirish, shuningdek, aholining kompyuter va raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Memorandumda aholining raqamli moliyaviy savodxonlik va moliyaviy xizmatlar haqida xabardorlik darajasini quyidagilar orqali oshirish ko‘zda tutilgan:

–raqamli texnologiyalar va xizmatlardan xavfsiz hamda samarali foydalanish bo‘yicha onlayn o‘quv materiallarni ishlab chiqish;

–o‘quv kurslar, an‘anaviy va onlayn tadbirlar, shu jumladan vebinar, seminar, va davra suhbatlari tashkil etish;

–aholi va tadbirkorlar moliyaviy savodxonligini oshirish ta‘lim dasturlari, tadbirlari va loyihalarini amalga oshirish.

Moliyaviy xizmatlar bozorining samarali, barqaror va haqqoniy faoliyat yuritishi uchun moliyaviy institutlar professional me‘yor va etikaga ega bo‘lishi, moliyaviy bozorni regulyator tomonidan samarali nazorat qilinishi va tartibga solinishi, moliyaviy xizmatlardan foydalana

olinishi va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilinishi hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish imkoniyati kabi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlarning mavjudligini taqozo etadi.

Shu bilan birga, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish nazorat qiluvchi organlarning huquqiy va tartibga soluvchi muhitni samarali shakllantirish faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga³⁵ asosan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash departamenti negizida Markaziy bankning Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tashkil etildi.

Xizmatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- bank xizmatlari iste'molchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash;
- moliyaviy xizmatlar qulayligini oshirish;
- aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'lib hisoblanadi.

Bunda bank xizmatlari deganda tijorat banklari, mikro kredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar tushuniladi. Bank xizmatlari iste'molchilari deganda esa kredit tashkilotlaridan bank xizmatlarini olmoqchi bo'lgan, olayotgan yoki olib bo'lgan jismoniy shaxslar (ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ham) va yuridik shaxslar kiradi. Xizmat o'z faoliyati davomida tijorat banklari, mikro kredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan huquq buzilishlari holatlari bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqib, mazkur huquqbuzarliklarni bartaraf etish va iste'molchilarning huquqlarini tiklash bo'yicha ishlar olib boradi. Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish va kuchaytirish maqsadida Jamoat qabulxonalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur jamoat qabulxonalariga iste'molchilar bank

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.

xizmatlari sohasidagi amaldagi qonunchilik normalari yuzasidan maslahat va tushuntirishlar olish maqsadida murojaat etishlari mumkin.

Shuningdek, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish maqsadida, bank xizmatlari iste'molchilarining manfaatlarini himoya etish va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash yuzasidan moliya–kredit tizimida tegishli chora–tadbirlarni amalga oshirish, bank xizmatlarini ko'rsatish madaniyatini oshirish, mijozlarning talablarini qondirish imkonini beruvchi innovatsion bank xizmatlarini ko'rsatish ko'zda tutilgan. Markaziy bank bank xizmatlarining sifatini yaxshilash, aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan rejali tarzda ishlarni amalga oshirib boradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan e'tibor oshib bormoqda. Bu o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim omili hisoblangan fuqarolarning hayot sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun Markaziy bankining moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank mutaxassislarini qayta tayyorlash departamenti tomonidan "Finlit.uz" axborot–ta'lim resursi ishga tushirildi.

"Finlit.uz" axborot–ta'lim resursi – bu moliya va iqtisodiyot sohasidagi asosiy bilimlarni o'qitish uchun mo'ljallangan veb–sayt. Resursning asosiy maqsadi moliyaviy savodxonlikni oshirish va fuqarolarning moliyaviy xulq–atvorlarini shakllantirishdir.

Har bir foydalanuvchi o'zini qiziqtirgan mavzu bo'yicha tegishli ma'lumotlarni topishi mumkin. Ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etiladi: maqolalar, videolar, ekspertlar fikri, tez–tez beriladigan savollarga javoblar va infografika. Bundan tashqari, ushbu resurs depozit va kredit kalkulyatorlari, so'rovnomalar va anketalar kabi interaktiv xizmatlarni ham taqdim etadi. Veb–sayt materiallari iqtisodiyot haqida har xil bilim darajasiga va turli moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan maqsadli guruhlariga mo'ljallangan.

5.4. Masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning xorij tajribasi

Taraqqiy etgan mamlakatlarda internet tarmog‘ining rivojlanganligi, tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini yuqori darajada rivojlanishiga olib keldi. Internetdagi elektron to‘lov tizimlari ko‘p sonli foydalanuvlar o‘rtasidagi hisob–kitoblarni tez va xavfsiz rejimda amalga oshirish imkonini beradi.

Dunyo mamlakatlarida masofaviy bank xizmatlari. Birinchi marta masofaviy bank xizmatlari Amerika Qo‘shma Shtatlarida paydo bo‘ldi, bu davlatning bank tizimi birinchilardan bo‘lib rivojlandi va bugungi kunda dunyodagi eng yirik va eng ishonchli hisoblanadi.

Amerikada internet–bankingning paydo bo‘lishi va rivojlanishining yana bir sababi o‘tgan asrning 1990 yillari o‘rtalarida o‘z banklarining filiallarini ochishda mavjud bo‘lgan cheklovdir. Shunday qilib, 1995 yilda internet orqali o‘z xizmatlarini ko‘rsatadigan birinchi bank ochildi (Security First Network bank).

Masofaviy bank xizmatlarida Qo‘shma Shtatlar zamonaviy dunyoda yetakchi davlat hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining barcha sohalarining rivojlanishi bunga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda AQShda deyarli har ikki uy xo‘jaligida telefon u yoqda tursin, kompyuter bor. Ayni paytda Amerika banklarining deyarli 90 foizi o‘z mijozlariga masofadan turib xizmat ko‘rsatmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida masofaviy bank tizimlarining ishlashining asosiy xususiyati shundaki, mijoz ko‘rsatilgan xizmatlarning aksariyatini bepul oladi va faqat ularning ba‘zilari uchun bank juda oz miqdorda komissiya oladi. Amerika banklari, shuningdek, Internet–bankingdan foydalanishda ularning xavfsizlik tizimi eng ishonchlilaridan biri ekanligidan faxrlanadilar.

Amerikadan keyin masofaviy bank xizmatlari Yevropada keng tarqaldi. Taqdim etilgan tranzaksiyalarning aksariyat turlari va masofaviy bank tizimining o‘zi Amerika modeliga o‘xshash edi, ammo Yevropa internet–bankingi olib kelgan ba‘zi yangiliklarni ta’kidlash kerak. Kommunal va boshqa majburiy xizmatlar uchun haq to‘lash

imkoniyati, shuningdek, ularning moliyaviy xarajatlarini rejalashtirish imkoniyati mavjud edi³⁶.

Xarajatlarni kamaytirish va taqdim etilayotgan xizmatlar tezligini oshirish uchun Yevropada masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari quyidagilardan iborat:

–jismoniy shaxslarga ko‘p kanalli xizmat ko‘rsatish strategiyalarini qo‘llash;

–mijozlarga masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlarini outsorsingga o‘tkazish;

–turli banklar tomonidan masofaviy xizmat ko‘rsatishning qo‘shma tizimlarini yaratish;

–ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini va ularning xavfsizligini oshirish;

–mavjud xizmatlar turlarini ko‘paytirish orqali kompleks xizmat ko‘rsatish.

Endi masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning Rossiya Federatsiyasi tajribasini qisqa ma’noda ko‘rib chiqsak. AQSH va Yevropa bilan taqqoslaganda, Rossiyada masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi ancha orqada qolmoqda. Buning obyektiv sabablari bor, masalan, bu tizimlar Rossiyada nisbatan yaqinda rivojlanib, yaxshi o‘shir sur’atlarini ko‘rsatmoqda.

Marksw Webb Rank&Report tahliliy agentligi 2021 yilda masofaviy bank tizimlaridan foydalanuvchi foydalanuvchilar o‘rtasida olib borilgan tadqiqotlar natijalarini taqdim etdi. Tadqiqot uch mingdan ortiq ruslar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovga asoslangan bo‘lib, u keyinchalik mamlakat aholisining umumiy soniga bog‘liq edi³⁷.

- 41,6 million rossiyalik har oyda internetda kamida bitta faol operatsiyani amalga oshiradi;

- mobil va SMS–bankingdan 39,4 million faol foydalanuvchi;

³⁶ Parpieva R.A. Ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi. -T.: O‘zbekiston. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil.

³⁷ https://www.cisco.com/c/ru_ru/products/security/what-is-cybersecurity.html -Cisco company rasmiy sayti.

- 35,4 million kishi internet–banking xizmatidan foydalanadi, ulardan 70 foizi Sberbank Online mijozlaridir;

- 29 million kishi internetda bank kartasi orqali to‘lovlarni amalga oshiradi;

- 17,5 million elektron hamyon egalari.

Bu yerda barcha ko‘rsatkichlar berilmagan, ammo tendensiya aniq ko‘rinadi. Rossiyadagi odamlar uzoqdan bank tizimlarini yanada rivojlantirishni xohlashadi va ular bunga tayyor turibdilar.

Qoida tariqasida, moliyaviy xizmatlar iste‘molchilari ko‘p hollarda quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun masofaviy xizmatlardan foydalanadilar:³⁸

- pul o‘tkazmasi – 54%;
- majburiy to‘lovlarni to‘lash – 52%;
- sertifikatlar va ko‘chirmalarni olish – 48%;
- kreditlar/ipotekalar bo‘yicha to‘lovlarni to‘lash – 42%;
- xarajatlar va daromadlarni hisobga olish – 34%.

Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanuvchilar masofaviy xizmat ko‘rsatishning afzalliklari va kamchiliklarini ham qayd etishmoqda. 80% dan ortig‘i masofaviy kirishdan foydalanishni ijobiy baholaydi, afzalliklari quyidagilardan iborat:

- samaradorlik;
- mavjudligi;
- shaffoflik.

Masofaviy xizmat ko‘rsatishning afzalliklariga yuqori tezlikda ishlash, qulaylik kiradi, chunki xizmatdan istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish mumkin (5.4.1–jadval).

Mijozlarning 87 foizi fikricha, raqamli xizmatning ijobiy tomoni moliyaviy operatsiyalar tezligidir. Mavjudligi 84%, operatsiyaning shaffofligi esa 78% aholi tomonidan qayd etilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mijozlarning 77 foizi masofaviy kanallar xavfini qayd etishadi. Moliyaviy tranzaksiyalar kamroq sezilarli bo‘ladi, foydalanuvchi haqiqiy naqd pulni kuzatmaydi Moliyaviy tashkilotlar

³⁸ <http://marksw Webb.ru/> -Аналитическое агентство MarksWebb Rank & Report: Официальный сайт.

orasida faqat 26% raqamli tizimlar orqali iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishni xavfli deb hisoblaydi.

5.4.1–jadval

Moliyaviy iste'molchilarning bayonotlariga roziligi
(21.02.2023–holati³⁹)

Bayonot	Moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning ulushi (foizda)
Raqamli kanallar sizga moliyaviy xizmatlarni tezroq olish imkonini beradi	87%
Raqamli kanallar moliyaviy inklyuziyani oshiradi	84%
Raqamli kanallar moliyaviy operatsiyalarni yanada shaffof qiladi	78%
Raqamli kanallar, odam haqiqiy naqd pulni ko'rmaligi sababli moliyaviy operatsiyalarni kamroq aniq qiladi	77%
Moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish ancha ijobiy holat	80%

Tashkilotlar tomonidan masofaviy xizmat ko'rsatishning afzalliklari binolarni saqlash xarajatlarini kamaytirishni, ish haqi xarajatlarini cheklashni (xodimlarni qisqartirish imkoniyatini) o'z ichiga oladi.

O'z navbatida, moliyaviy institutning ofisida mijozlarga jismoniy xizmat ko'rsatish bir qator kamchiliklarga ega:

- mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqtini ko'paytirishga olib keladigan navbatlarning mavjudligi;
- tashkilotning ish jadvali bilan cheklash, ofislarning joylashuvi qulayligi;
- ofisda mijozlarga xizmat ko'rsatish tariflari oshirildi;
- yuqori texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari: kompyuter va buxgalteriya hisobi, kundalik mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan xodimlarning ish haqi va boshqalar.

Keyinchalik, biz moliya institutlari va moliyaviy xizmatlar mijozlarining iqtisodiyotni raqamlashtirishning moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'siri haqidagi fikrini baholaymiz (5.4.2–jadval).


³⁹ <http://markswebb.ru/> -Аналитическое агентство MarksWebb Rank & Report: Официальный сайт.

5.4.2–jadval

Moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning moliyaviy ko‘paytirish bo‘yicha fikri⁴⁰

Fikr	Moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning ulushi (foizda)
Ko‘tarish mumkin	57%
Yangilab bo‘lmadi	27%
Javob berishga qiynalypman	16%

Rasmda biz moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning raqamlashtirishning moliyaviy savodxonlik darajasiga ta’siri haqidagi fikrlarini o‘rganish natijasini taqdim etamiz (5.4.1–rasm).



5.4.1-rasm. 2023–yil 21–fevral holatiga ko‘ra moliyaviy xizmatlar foydalanuvchilarining moliyaviy savodxonlik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda pulni boshqarish qobiliyatini oshirish bo‘yicha fikri⁴¹

Shunday qilib, shuni ta’kidlash mumkinki, moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning fikricha, moliyaviy texnologiyalardan foydalanish moliyaviy savodxonlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (5.4.3–jadval).

2023–yil 21–fevral holatiga ko‘ra, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda savodxonlik va pulni boshqarish qobiliyati foizda.⁴²

⁴⁰ <http://markswebb.ru/> -Аналитическое агентство MarksWebb Rank & Report: Официальный сайт.

⁴¹ <http://markswebb.ru/> -Аналитическое агентство MarksWebb Rank & Report: Официальный сайт.


⁴² <http://markswebb.ru/> -Аналитическое агентство MarksWebb Rank & Report: Официальный сайт.

5.4.3–jadval

Moliyaviy institutlarning moliyaviy o‘sishi bo‘yicha fikri⁴³

Fikr	Kompaniya vakillarining ulushi (foizda)
Ko‘tarish mumkin	88%
Yangilab bo‘lmadi	8%
Javob berishga qiynalyapman	4%

Keyingi, rasmda biz moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlarning raqamlashtirishning aholining moliyaviy savodxonligi darajasiga ta’siri haqidagi fikrlarini o‘rganish natijasini taqdim etamiz (5.4.2–rasm).



5.4.2–rasm. Moliyaviy institutlarning moliyaviy ko‘paytirish bo‘yicha fikri 21.02.2023-yil holatiga ko‘ra raqamli texnologiyalardan foydalangan holda savodxonlik va pulni boshqarish qobiliyati

Ko‘rsatkich natijalariga ko‘ra shuni ta’kidlash mumkinki, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar moliyaviy texnologiyalardan foydalanish moliyaviy savodxonlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, deb hisoblashadi.

Shunday qilib, moliya institutlari eng kattasini aniqlaydi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda fuqarolarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish istiqbollari (88% ga nisbatan 57%). Shu

⁴³ <http://markswebb.ru/> -Аналитическое агентство MarksWebb Rank & Report: Официальный сайт.

bois moliya tashkilotlari uchun innovatsion texnologiyalar yordamida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish faoliyatning muhim maqsadlaridan biri bo‘ladi.

Moliyaviy savodxonlik turli maqsadli auditoriya uchun zarur, shuning uchun turli samarali vositalardan foydalangan holda iqtisodiyotni raqamlashtirish masalasiga kompleks yondashish muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar sohasidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar uzluksiz davom etmoqda va moliyaviy mahsulotlar yanada murakkablashmoqda. Bir tomondan, bu tendensiya ijobiydir, chunki yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishi bilan moliyaviy xizmatlar iste’molchilari uchun qulaylik kuchayadi. Ammo boshqa tomondan, qaror qabul qilish vaqtining qisqarishi bilan xato qilish ehtimoli ortadi, shunchaki “bir marta bosish” bilan pul yo‘qotish mumkin bo‘ladi va firibgarlik sxemalari ham yaxshilanadi.

Moliyaviy savodxon va xabardor iste’molchilar moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar sifatiga yuqori talablarni qo‘yadilar. Bu tendensiya moliya institutlari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishiga olib keladi va bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lgan mijozlar masofaviy xizmatlarda firibgarlik xavfi kamroq.

Fuqaroning moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lishi moliyaviy xizmatlar mijozining moliyaviy qarorlarni qabul qilishda yanada xabardor, mas’uliyatli va tanlab olishini bildiradi.

Ko‘pincha, turli xil hisob–kitoblar va pul mablag‘larini boshqarish uchun fuqarolar bank kartalari va mobil telefonlardan foydalanadilar.

Shunday qilib, zamonaviy dunyoda iqtisodiyotni raqamlashtirish jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda va odatiy iqtisodiy aloqalar va mavjud biznes modellarini to‘liq qayta formatlash imkoniyatiga ega.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar

Masofaviy bank xizmati, bank operatsiyasi, QR kod, chat-botlar, blokcheyn, ekotizim, sun‘iy intellekt, gamifikatsiya, virtual haqiqat, kiber xavfsizlik, bank API, neobanklar, robotlashtirish, telefon (SMS)–

banking, mijoz–bank, internet–banking, mobil-banking, IT–park, raqamli texnologiyalar, Finlit.uz.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o‘rni.

2. Mamlakatimizda masofaviy bank tizimining rivojlanish bosqichlarini aytib bering.

3. Naqd pulsiz hisob–kitoblarni amalga oshirishda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning qanday afzalliklari bor?

4. Masofaviy bank xizmatining xususiyatlarini so‘zlab bering.

5. Robotlashtirish nima?

6. Masofaviy bank xizmatlari turlarini aytib bering.

7. Blokcheyn nima?

8. “Internet–banking” tizimining afzalliklari va kamchiliklarini aytib bering.

9. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga qanday omillar ta’sir qiladi?

10. Gamifikatsiya nima?

11. Chat–botdan foydalanishning afzalliklarini aytib bering.

12. Masofaviy bank xizmatlarini raqamlashtirishning mijozlarning moliyaviy savodxonlik darajasiga qanday ta’siri bor?

13. Masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ilg‘or xorij tajribasini aytib bering.

VI bob. TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI SERVISINI TASHKIL ETISH

6.1. Mijozlarga xizmat ko'rsatishda chakana bank xizmatlarining ahamiyati.

6.2. Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini tashkil etish yo'llari.

6.3. Raqamli transformatsiya jarayonida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasi.

6.1. Mijozlarga xizmat ko'rsatishda chakana bank xizmatlarining ahamiyati

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotda barqarorlik yo'qligi sababli moliyaviy vositalarning rentabelligi pasaymoqda. Bunday sharoitda banklarning maqsadi mijozlarga barqaror xizmat ko'rsatish, mijozlar bazasini va boshqa bir qancha qulaylik va imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu asosda bizning oldimizda chakana bank xizmatlari sohasida xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ushbu tajribaning ijobiy jihatlarini O'zbekiston bank tizimidagi ichki holatdan kelib chiqib joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Tijorat banklarida chakana xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish, ularga xorij tajribasini joriy etish bilan bog'liq muammolar ko'plab iqtisodchi–olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Ikramova N.R., Trofimov D.V., Nikonorov V.V. , Bekchanov M., Abduraxmanov R., Omonov A.A., Aliqoriev O. va boshqalar bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan ko'plab chakana xizmatlarning o'ziga xos jihatlari, ularning rivojlanishidagi mavjud muammolarni tadqiq etganlar.

Xususan, A.S. Goncharuk tomonidan "Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir" degan mualliflik ta'rifi shakllantirildi. Bank xizmatlarini yo'naltirilish maqsadi va texnologiyasi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, "Bank chakana xizmatlari bu–jismoniy shaxslarning aniq bir bank xizmatlariga bo'lgan shaxsiy yoki oilaviy

ehtiyoj, xohish va talablarini qondirish uchun tijorat banklari tomonidan taklif etiladigan, tijorat faoliyatiga yo‘naltirilmaydigan bank xizmatlari yig‘indisidir”.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish chakana bank xizmatlarining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Banklar o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatishda yuqori sifatli xizmat, tezkorlik va qulaylikni ta‘minlashga intilishadi. Ushbu xizmatlar bankning obro‘yini shakllantiradi va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi. Mijozlar bankdan nafaqat moliyaviy xizmatlar, balki shaxsiy yondashuv va ishonch izlashi yoqadi.



6.1.1-rasm

Chakana bank xizmatlarida mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayoni, umuman olganda, hisob raqamini ochishdan tortib, kredit olishgacha bo‘lgan barcha xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Mijozlarning ehtiyojlariga muvofiq xizmat ko‘rsatish nazorat ostida bo‘lishi kerak, chunki bu, bankning raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, banklar innovatsion texnologiyalarni joriy qilib, mobil ilovalar va onlayn xizmatlar orqali mijozlarga qulayliklarni taqdim etmoqdalar.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun banklar xizmat ko‘rsatish xodimlarini muntazam ravishda tayyorlashi va malakasini oshirishi zarur. Bu, nafaqat mijozlar bilan aloqa o‘rnatish, balki ularning

muammolarini tezda hal qilishda ham katta ahamiyatga ega. Mijozning tajribasi va his-tuyg'ulari, bank bilan bo'lgan munosabatlarida muhim rol o'ynaydi va bu bankni tanlashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida xizmat ko'rsatish standartlariga rioya qilish, bankning jahon bozorida mustahkam o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mijozning alohida ehtiyojlari va istaklarini inobatga olish, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etish, banklar uchun katta imkoniyat bo'lib xizmat qiladi. Mijozlarning fikrlarini tinglash va ular bilan fikr almashish, bank strategiyasini yanada takomillashtirishga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, mijozlarga xizmat ko'rsatish doirasida kuzatilayotgan zamonaviy trendlar, raqamli xavfsizlik va ma'lumotlar himoyasini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Mijozlar o'z shaxsiy ma'lumotlariga ishonch bilan qarashlari kerak, shuning uchun banklar barqaror va xavfsiz texnologiyalarni joriy etishga intilishlari zarur. Mijozlarning ishonchini qozonish, bankning ortiqcha taraqqiyotini ta'minlaydi va bozor raqobatiga tayyorlikni oshiradi. Natijada, mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasidagi muvaffaqiyat, bankning reputatsiya va brendini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Mijozlar bilan mustahkam va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, banklarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi va ularga raqobatbardosh ustunlikni beradi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatishdagi ularning turmush tarzi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada aytish kerakki, bank xizmatlariga murojaat qilish avvalo chakana xizmatlardan boshlanadi. Ya'ni, mijozlar bilan ishlashda chakana bank xizmatlarining ahamiyati anchagina salmoqli hisoblanadi.

Chakana xizmatlarga ixtisoslashgan «raqamli» banklar faoliyatini rivojlantirish va o'z o'rnini ushlab qolish maqsadida banklar Fintech startaplarini moliyalashtirmoqda yoki sotib olmoqda. Butun dunyoda kuzatilayotgan bu vaziyat yurtimiz banklariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz. Efma va Infosys Finacle o'tkazgan so'rov va tadqiqotlarda banklar (74%) 2016–2017 yillarda innovatsion loyihalarga investitsiyalarni oldingi yillarga nisbatan ko'paytirganliklarini

ta'kidlaganlar. 69% banklar o'zlarining innovatsion banklarga aylanganliklarini ta'kidlashgan va 25% banklar o'z innovatsion faoliyatlarini yuqori darajada, deb hisoblashgan. Banklarning 40% dan ortig'i startaplar bilan ishlamoqda va 30% banklar startaplarga sarmoya kiritganini ta'kidlagan.

Innovatsiya va raqamli transformatsiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, respondent banklarning 20%i chakana xizmatlarni ixtisoslashgan «raqamli» banklar faoliyatiga o'tkazgan. Ushbu banklarning 85%i yangi xizmat va tovarlarni taklif etmoqda va 81%i bank faoliyatini yangi tizimlar yordamida olib bormoqda. Innovatsiya va raqamli transformatsiyaning asosi sifatida mijozlarga qaratilgan xizmat va tovarlarni yuqori standartlarda taklif etish 78% banklarning maqsadi bo'lsa, 74% banklar yangi tizimlarni tatbiq etish, 68% mobil va ijtimoiy texnologiyalardan unumli foydalanishni maqsad qilishgan.

Fintech va texnologiya kompaniyalarining tahdidi 2016-yilda 47% deb baholangan bo'lsa, 2017-yilda 48% deb qayd etilgan. Fintech va texnologiya kompaniyalari o'zlarining juda moslanuvchanligi va yangiliklarni tez qabul qilib, tatbiq etish imkoni borligi bilan banklarga munosib raqobatchi bo'lmoqda. Shuning uchun banklarning Fintech va texnologiya kompaniyalari startaplari bilan hamkorlik qilishi ularning kelgusida mijozlar va bozor talabiga javob berish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bu holat asosan rivojlangan davlatlarda (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Braziliya, Xitoy, Janubiy Afrika, Avstraliya va shu kabi davlatlar) sezilarli ta'sir o'tkazib, asosan shu davlatlar banklari texnologik o'zgarishlarga va innovatsion loyihalarga ijobiy yondashmoqda, ammo rivojlanayotgan davlatlar banklarida bu o'zgarishlarga yetarli e'tibor berilmagan.

Chakana xizmatlarga ixtisoslashgan «raqamli» banklar faoliyatini rivojlantirish o'z samarasini berishiga misol tariqasida UniCredit banking oxirgi 3 yilda (2017–2019-yillarda) 1,2 mlrd. yevro investitsiya qilganligini va bu tizim asosiy xizmat prinsipini tubdan o'zgartirishini hisobga olgan holda o'z ichiga tranzaksiya migratsiyasini, protsessingni raqamlashtirish va soddalashtirish, hujjatlarni

raqamlashtirish hamda savdoni raqamlashtirishni rivojlantirishini keltirish mumkin.

Chakana xizmatlarda banklarning asosiy raqobatchilari mobil ilova, to'lov tizimlari bo'lib, dunyo banklarining 86%i bu tahdid juda jiddiy ekanligini va bunda banklar oldida faqat ikki yo'l borligini, birinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari startaplari bilan hamkorlik qilish, ikkinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari tovar va xizmatlarini banklar tomonidan ishlab chiqish ekanligini ta'kidlashmoqda.

Rivojlangan davlatlar banklari Fintechlarni tinimsiz kuzatib bormoqda. ING Group (Niderlandiya) rahbari Ralph Hamers ma'lum qilishicha, ING Group bozordagi talab va taklifni doim o'rganib boradi hamda 45 ta Fintechlar bilan to'lov menejmenti, tizimni rivojlantirish, mobillashtirish va kreditlashtirishda hamkorlik qiladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, mijozlarga xizmat ko'rsatishga chakana bank xizmatlarining ulushi tobora ortib bormoqda. Bu faqatgina O'zbekiston bank tizimida emas, butun dunyo miqyosida o'z o'rniga ega hisoblanar ekan.

6.2. Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini tashkil etish yo'llari

Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini tashkil etish, birinchi navbatda, mijozlar ehtiyojlarini chuqur tushunish va ularga mos xizmatlarni taqdim etish asosida rivojlanadi. Mijozlar segmentlarini aniqlash va ularning talablarini o'rganish, bankning xizmatlar portfelini qanchalik samarali taklif qilishini belgilaydi. Har bir segment uchun individual xizmatlar ishlab chiqish, mijozlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mobil va internet bankingning rivojlanishi, chakana xizmatlarni taqdim etishning yangi imkoniyatlarini ochmoqda. Mijozlar onlayn xizmatlardan foydalanib, vaqt va joy cheklovlaridan qochishni afzal ko'rishadi. Shu bois, banklar tomonidan innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalarni joriy etish, narxlarni raqobatbardosh qilish va mijozlarga qulay imkoniyatlar yaratish zaruratini oshirmoqda. Bundan tashqari, chakana bank xizmatlarida mijozlar bilan muloqot qilishda

yaxshi xizmat ko'rsatish muhim vazifalarni bajaradi. Mijozlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida xizmat ko'rsatuvchi xodimlar muntazam ravishda treninglar va seminarlar o'tkazish orqali o'z malakalarini oshirishlari zarur. Bu jarayon, bankning brendini mustahkamlash va mijozlar bazasini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Chakana bank xizmatlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar ham juda muhimdir. Banklar o'z xizmatlarini raqobatchilardan ajratib turish uchun, mijozlarga maxsus takliflar va aksiyalar taqdim etishi lozim. Masalan, mijozlarga individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda tailor-made xizmatlar ishlab chiqish, ularni bank bilan mustahkam bog'lashda samarali hisoblanishi mumkin. Ushbu individuallik bank xizmatlari sifatini oshiradi va mijozlarning qoniqishini ta'minlaydi. Mobil va internet bankingning rivojlanishi, shuningdek, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Banklar, mijozlar xatti-harakatlarini o'rganish orqali ularning ehtiyojlarini oldindan bilib, shunga mos xizmatlarni taqdim etishlari muhim. Bu nafaqat mijozlar qoniqishini oshiradi, balki bankning samaradorligini ham ta'minlaydi.

Mijozlar bilan munosabatlar davomida doimiy muloqot olib borish juda muhimdir. Banklar, mijozlar fikr-mulohazalarini eshitish va ulardan o'z xizmatlarini yanada yaxshilash uchun foydalanishlari lozim. Muloqot orqali mukammallikka erishish, mijozlar bilan o'zaro ishonch va sadoqatni oshirishga yordam beradi. Bank, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda, mijozlarga o'z mablag'larini boshqarishda qulaylik yaratadi. Shaxsiy bank xizmatlari, korporativ moliya, kreditlar va omonatlar orqali chakana mijozlarga keng imkoniyatlar taqdim etiladi.

Chakana banklarida o'zining shaxsiy kabinetini orqali mijozlar onlayn xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Ular, masalan, hisob raqamlarini ko'rish, transferlar o'tkazish va kredit raqamlarini boshqarish kabi xizmatlardan foydalana oladilar. Bu esa vaqtni tejash va xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi.

Shuningdek, chakana xizmatlar banklarining kredit mahsulotlari o'z mijozlariga raqobatbardosh shartlarda moliyaviy qulayliklar taqdim

etadi. Qarz olish jarayoni soddalashtirilgan bo‘lib, mijozlar uchun muayyan talablar qo‘yilgan. Chakana bank xizmatlarini ko‘rsatish sohasida mijozlar uchun eng yaxshi tajribani taqdim etish maqsadida yangiliklar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlamoda. Bu esa nafaqat banklarning raqobatbardoshligini oshiradi, balki mijozlarning ishonch va mamnuniyatini ham ta‘minlaydi.

6.3. Raqamli transformatiya jarayonida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ilg‘or xorij tajribasi

Aksariyat banklarda strukturaviy qiyinchiliklar mijozlarni jalb qilish va ular bilan munosabatlarni rivojlantirish uchun raqamli ma‘lumotlarga asoslangan tahlillarni talab etadi. Capgemini Research Institute for Financial Services Analysis so‘rovnomasiga asosan eski tizimlar va eskirgan asosiy bank modullari ma‘lumotlar va mijozlarga yo‘naltirilgan o‘sish strategiyalarini optimallashtirish harakatlariga 95% to‘sqinlik qilishga ta‘siri, ma‘lumotlarning kam raqamlashganligi esa mijozlarning hayotdagi ishlarini yaxshilashga 80% xalaqit berishi ma‘lum bo‘ldi.

Banklar katta va xilma–xil miqdordagi mijozlar ma‘lumotlariga ega “Big Data”, moliyaviy ma‘lumotlar, ijtimoiy media ma‘lumotlar, turmush tarzi ma‘lumotlar, xulq– atvor ma‘lumotlar va boshqa ma‘lumotlarni birlashtiradigan ma‘lumotlar bazasini yaratishga FinTech rahbarlarining 73 foizi xohish bildirgan. Ularning 80 foizi ma‘lumotlarning ishonchliligidan tashvishlangan, foizi esa ma‘lumotlar yetishmasligini aytgan, 43 foizi ma‘lumotlarning o‘chib ketishidan tashvishda ekanligi ma‘lum bo‘ldi. 2023-yilda jahonda kuzatilishi kutilgan asosiy chakana bank tendensiyalariga to‘xtaladigan bo‘lsak:

- sanoat dinamikasidagi o‘zgarishlar banklarni raqamli transformatsiya qilish orqali innovatsion bank xizmatlari orqali mijozlarga qulayliklar yaratish va chakana bank xizmatlari imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadida zamonaviy FinTech sotib olishga intilmoqda;

- banklar mijozlari bilan yangi qadriyatlarni yaratish va faollashtirish uchun chakana bank xizmatlarini “yashil” va barqaror amaliyotlarini boshqaradigan va moliyaviy sog‘lomlashtirish va

mijozlari xarajatlari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish bo‘yicha maslahatlar berish. Banklar mijozlarga yo‘naltirilganlik marketing strategiyasiga asosan mijozlarni jalb qilishni yaxshilash uchun mijozlar tajribasini o‘rganish;

– biznesning barqarorligini Digital IDning universal, ko‘p maqsadli identifikatsiya tizimiga aylanishi va banklar ma‘lumotlarni bulutli texnologiyalarga ko‘chirishni o‘rganish. Chakana banklarning yuqori xavfli markazlashmagan moliya bozorini barqarorlashtirishdagi yangi yo‘nalishlarini o‘rganish.

Quyida chakana banklar va chakana bank xizmatlari rivojlanishining ko‘plab yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz. Birinchisi, aqlli bank filiallarda tajribali bank xizmatlari va mijozlar bilan aloqani kuchaytirish bilan bog‘liq bank faoliyatidir. Yevropa Markaziy banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning 1–yarmida Yevropa banklarining cost income ratio (CIR) 60% dan yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga, AQShning yirik banklari J.P.Morgan, Citibank, Morgan Stanli, Goldman Sachs va Uells Fargo kabi banklarida ham bu ko‘rsatkich yuqori bo‘lgan. Banklar har bir dollar daromad keltirishi uchun kamroq sarflashga harakat qiladi. Banklar uchun filiallar ochish va ular orqali faoliyat yuritish eng qimmat xarajatlari qatoriga kiradi. Nasdaq hisobotiga ko‘ra, to‘liq bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi filial (erdan tashqari) ochish AQShda 15 million AQSh dollaridan ko‘proqni tashkil qilishi mumkin. Natijada ko‘pchilik banklarni sindirishi yoki ko‘p daromad manbaiga aylantirishi mumkin.

Yevropa va AQSh da ishchi kuchi xarajatlarining ortishi natijasida filiallar banklar uchun qimmatga tusha boshladi. Bundan tashqari, naqd pullarni filiallararo va boshqa xizmatlar uchun to‘lovlardan olib tashlandi.

Garchi raqamli banklar ko‘payib borayotgan bo‘lsa–da bank mijozlari uchun hali ham filiallar ahamiyatlidir. “World Retail Banking Report 2022” hisobotiga ko‘ra bank mijozlarining 75 foizi bank filiallar mijozlarga xizmat ko‘rsatishda muhim kanal deb hisoblashadi.

Bugungi kunda bank mijozlari keng ko‘lamli aloqa kanallar, bank filiallari, 24/7 smart ofislar, veb–saytlar va mobil ilovalardan tortib

ovozli yordamchilar va robotlarga bo'lgan bank xizmatlaridan foydalanishmoqda. Shunga qaramay, mijozlarning deyarli yarmi o'z banklari bilan o'zaro aloqadan kelishmovchiliklarga duch kelishlarini aytishadi. Veb–saytlar, mobil ilovalar, ovozli yordamchilar va raqamli boshqa qurilmalar bugungi kunda qaramlik iqtisodiyotda ahamiyatli bo'lsa-da, filiallar ko'pincha bosh bankdan uzoqlarda bo'lib strategik jihatdan ishlab chiqilgan aqlli filiallar mijozlariga keng qamrovli ko'p kanalli tajribasini taklif qilishi mumkin. Bank va mijozlari munosabatlarni boshqaruvchi integratsiyalashgan platformalarni o'z ichiga olgan filiallar mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish va tizimlashtirilgan xizmat turlarini taqdim etish uchun boshqa raqamli kanallar va back–ofis operatsiyalari bilan sinxronlasha oladi. Natijada, mijozlarga xizmat ko'rsatishni tezlashtirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqishga asos bo'lishi mumkin, bu esa banklarning xizmatlar sotuvini yaxshilashi mumkin.

Bu borada BBVA, Bank of Montreal (BMO) va Capital One so'nggi besh yillikda aqlli filial formatlarini ishga tushirdi va mijozlar bilan bog'lanish uchun yangi interfaol maydon yaratib, tajriba markazlari vazifasini bajaradi. Capital One banki 2015–yilda o'zining birinchi aqlli filiali “Banking Cafe”ni ishga tushirdi va 2022–yilga kelib bank aqlli filiallari 50 taga yetdi. Bu kabi “Banking Cafe”lar Wi–Fi, chegirmali taomlar, bo'sh ish o'rinlari, moliyaviy maslahatlar va boshqa qo'shimcha xizmatlar taklif etadi.

Filippinning “Filippin Union Banki” mamlakatdagi birinchi to'liq raqamli bank filialini ishga tushirdi, u yerda bank mijozlari internetga tekin kirishlari yoki bir chashka qahva ustida xodimlar bilan suhbatlashishlari mumkin. Bank o'z filiallarini tranzaksion makondan interaktiv makonga aylantirishni maqsad qilgan

2021–yilda Italiyada Banca Carige banki uchta smart filialini ishga tushirdi.

Banca Carige bankining aqlli filiallarida 24/7 o'z–o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari, yordamchi xizmatlar, qo'shimcha qiymatli xizmatlar uchun o'z–o'ziga xizmat ko'rsatish zonasi, videokonferensiya va boshqa vositalardan foydalanish uchun joy mavjud. Natijada, smart

filial formati bankning operatsion xarajatlarini 40% ga kamaytirishga yordam berdi.

“Bank of America” banki mijozlarning o‘zgaruvchan talablarini qondirish uchun filial tarmog‘ining 50 foizini qayta loyihalashtirmoqda. JPMorgan Chase AQSh aholisining qariyb 93 foizini qamrab olish uchun 400 ta jamoat markazi filiallarini ochishni rejalashtirmoqda. Banklar mijozlari talabini o‘rgangan holda ko‘p kanalli tajribalarini hisobga olgan holda filiallarini tranzaksiya markazlaridan innovatsiyalar asosida tajriba markazlariga aylantirish tendensiyalari davom etmoqda. Raqamli transformatsiya qilingan filiallarda xarajatlarni tejash va bank xizmatlarini ko‘proq sotish, samaradorlikni oshirish uchun soddalashtirilgan sxemalar, ko‘proq raqamli va o‘z–so‘nggi yillarda raqamli banking barqaror ravishda o‘sib bormoqda. Ko‘pchilik amerikaliklar 2022 yilda raqamli bank xizmatlaridan foydalangan xususan mobil ilovalar, avtomatlashtirilgan xizmatlar va boshqa innovatsion raqamli xizmatlar.

Raqamli bankingning rivojlanishi so‘nggi to‘rt yil ichida butun mamlakat bo‘ylab an’anaviy banklarning 9 foiz filiallarning qisqarishiga olib keldi. An’anaviy banklar xizmatlarini asosan filiallarda amalga oshirsa, raqamli banklar onlayn va mobil ilovalar orqali amalga oshirmoqda. Bu esa raqamli banklarga ko‘pincha jozibador daromad va nisbatan kam foizli bank xizmat haqlarini ta’minlaydi. Bugungi kunda AQSh aholisining deyarli uchdan ikki qismi (65,3 foiz) raqamli bank xizmatlaridan foydalanadi. Lekin shunga qaramasdan 2018–yildan buyon raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning soni 4 foizga oshdi.

Ya’ni onlayn yoki mobil bankingni afzal ko‘rganlarning 79,9 foizi 2019-yilda ham filialga tashrif buyurgan. Amerikaliklarning taxminan 27 foizi faqat onlayn–bankingdan foydalanadi. Onlayn–bankingdan foydalanadiganlarning 88 foizi bank xizmatlaridan qoniqishini bildirgan. Shu bilan birga, bank mijozlarining 66 foizi an’anaviy banklardan qoniqish hosil qilishgan. Bugungi kunda AQShda chakana bank xizmat turlari ichida mobil banking keskin rivojlanmoqda. Banklar tomonidan NFC (Near Field Communication, «yaqin masofadagi aloqa») – simsiz

texnologiyasi va RFID – radiochastotali identifikatsiyalash texnologiyasi ham keng qo'llanilmoqda. Mazkur texnologiyalar, yuqori chastotali diapazonda qisqa masofaga o'zaro induksiya prinsipi asosida radiokanalga axborot yuborishdan foydalanishga asoslangan. NFC – bir-biriga mos mobilliklardan bankomatlarda ishlatiladigan bank kartochkasi sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanuvchi shaxs telefonini bankomat yaqiniga qo'yganida, u telefon egasining shaxsini indentifikatsiya qilib, himoyalangan axborotni shundoq mobillikning o'zidan o'qib oladi. Bu axborot o'z ichiga: bank hisob raqamini, oldindan naqd pul yechib olish uchun belgilangan sutkali limitni hamda turli banklar uchun zarur bo'lgan boshqa turli xil ma'lumotlarni olgan bo'ladi. Mijoz o'z PIN–kodini kiritgandan so'ng, u oddiy tartibda bank hisobidagi pullarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. NFC– telefonlaridan foydalanishning asosiy qulayligi shundaki, ular bir nechta bank kartochkalaridagi ma'lumotlarni saqlashi mumkin, shunda mijoz, ularsiz ham operatsiyalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat, o'z navbatda, NFC–mobil telefoni yordamida autentifikatsiya jarayonini amalga oshirib, bank kartochkalarisiz amallarni bajarishga zamin yaratadi.

RFID(Radio Frequency Identification) radiochastotali identifikatsiya texnologiyasi – kremniyli mikrosxemalar yordamida radiochastotali yozuvlarni o'qish moslamasidan so'rovlarni qabul qilish va ularga javob berish imkoniyatini beradi.

An'anaviy banklar jismoniy bajariladigan xizmatlarga asoslangan banklardir va AQShning ko'plab yirik banklari, jumladan JPMorgan Chase va Bank of America banklari ham an'anaviy banklar hisoblanadi. Onlayn banklarda esa filiallari mavjud bo'lmaydi va ular xizmatlarini veb–sayti va mobil ilovalar orqali taklif qiladi.

«Galileo» Fintech iste'molchilarining 65 foizi o'zlarining asosiy bank hisoblarini an'anaviy banklarda saqlasa, 27 foizi onlayn banklardan foydalanishini aytdi. Biroq, an'anaviy banklardan foydalanadigan 65 foiz foydalanuvchining 77 foizi xizmatlarini asosan filiallarda amalga oshirsa, raqamli banklar onlayn va mobil ilovalar orqali amalga oshirmoqda. Bu esa raqamli banklarga ko'pincha jozibador daromad va

nisbatan kam foizli bank xizmat haqlarini ta'minlaydi. Bugungi kunda AQSh aholisining deyarli uchdan ikki qismi (65,3 foiz) raqamli bank xizmatlaridan foydalanadi. Lekin shunga qaramasdan 2018–yildan buyon raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning soni 4 foizga oshdi. Ya'ni onlayn yoki mobil bankingni afzal ko'rganlarning 79,9 foizi 2019-yilda ham filialga tashrif buyurgan. Amerikaliklarning taxminan 27 foizi faqat onlayn–bankingdan foydalanadi. Onlayn–bankingdan foydalanadiganlarning 88 foizi bank xizmatlaridan qoniqishini bildirgan. Shu bilan birga, bank mijozlarining 66 foizi an'anaviy banklardan qoniqish hosil qilishgan.

Bugungi kunda AQShda chakana bank xizmat turlari ichida mobil banking keskin rivojlanmoqda. Banklar tomonidan NFC (Near Field Communication, «yaqin masofadagi aloqa») – simsiz texnologiyasi va RFID – radiochastotali identifikatsiyalash texnologiyasi ham keng qo'llanilmoqda. Mazkur texnologiyalar, yuqori chastotali diapazonda qisqa masofaga o'zaro induksiya prinsipi asosida radiokanalga axborot yuborishdan foydalanishga asoslangan.

Foydalanuvchi shaxs telefonini bankomat yaqiniga qo'yganida, u telefon egasining shaxsini indentifikatsiya qilib, himoyalangan axborotni shundoq mobillikning o'zidan o'qib oladi. Bu axborot o'z ichiga: bank hisob raqamini, oldindan naqd pul yechib olish uchun belgilangan sutkali limitni hamda turli banklar uchun zarur bo'lgan boshqa turli xil ma'lumotlarni olgan bo'ladi. Mijoz o'z PIN–kodingni kiritgandan so'ng, u oddiy tartibda bank hisobidagi pullarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. NFC– telefonlaridan foydalanishning asosiy qulayligi shundaki, ular bir nechta bank kartochkalaridagi ma'lumotlarni saqlashi mumkin, shunda mijoz, ularsiz ham operatsiyalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat, o'z navbatda, NFC–mobil telefoni yordamida autentifikatsiya jarayonini amalga oshirib, bank kartochkalarisiz amallarni bajarishga zamin yaratadi. RFID (Radio Frequency Identification) radiochastotali identifikatsiya texnologiyasi – kremniyli mikrosxemalar yordamida radiochastotali yozuvlarni o'qish moslamasidan so'rovlarni qabul qilish va ularga javob berish imkoniyatini beradi.

An'anaviy banklar jismoniy bajariladigan xizmatlarga asoslangan banklardir va AQShning ko'plab yirik banklari, jumladan JPMorgan Chase va Bank of America banklari ham an'anaviy banklar hisoblanadi. Onlayn banklarda esa filiallari mavjud bo'lmaydi va ular xizmatlarini veb-sayti va mobil ilovalar orqali taklif qiladi. «Galileo» Fintech iste'molchilarining 65 foizi o'zlarining asosiy bank hisoblarini an'anaviy banklarda saqlasa, 27 foizi onlayn banklardan foydalanishini aytdi. Biroq, an'anaviy banklardan foydalanadigan 65 foiz foydalanuvchining 77 foizi Chakana bank xizmatlarini rivojlantirishida chakana bank xizmatlari bo'yicha mamlakat bank tizimidagi huquqiy baza, bank tizimiga nisbatan davlat siyosati, aholining sotsial holati, bank, filiallari va bank xizmatlari markazlarining joylashgan joyi, bankning imiji, bank tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati va narxi, mijozlarga xizmat ko'rsatish odobi va madaniyati hamda xodimlarning kasbiy-malakaviy va professionallik darajasi kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Chakana bank xizmatlarini rivojlantirishida birinchidan, mavjud bo'lgan chakana bank xizmatlarni modifikatsiyalash – bu an'anaviy bank xizmatlarning texnologik parametrlarini o'zgartirish orqali taklif qilinayotgan chakana bank xizmatlarini raqamlashtirish va takomillashtirishga olib keladi.

Ikkinchidan, mavjudlaridan tubdan farq qiluvchi butunlay zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilish. Ushbu xizmatlarni mijozlarning talabiga mos holda qulay qilib ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi banklar va bank bo'lmagan boshqa FinTech tashkilotlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishi, moliyaviy xizmatlarning yangi segmentlarini rivojlanishiga hamda moliyaviy texnologiyalar asosida va yangi texnologik raqamli xizmatlarni yaratishni talab qiladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Chakana bank xizmatlari, «Raqamli» banklar, raqamli transformatsiya, mobil ilova, to'lov tizimlari, Filippin Union Banki, Banca Carige, NFC, Radio Frequency Identification, bankomat, shaxsini indentifikatsiya, PIN-kod, FinTex kompaniyasi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishda chakana bank xizmatlari haqida aytib bering.
2. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishda masofaviy bank xizmatlarining afzalliklari.
3. “Internet–banking” va “Bank–mijoz” dasturiy majmuasi haqida gapirib bering.
4. Chakana bank xizmatlarining qanday turlari bor?
5. Masofaviy bank xizmatlarini qanday turlari bor?
6. Raqamli transformatsiya jarayonida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ilg‘or xorij tajribasi haqida gapirib bering.

VII bob. AN'ANAVIY VA INNOVATSION XUSUSIYATLI DEPOZITLARNI SERVISINI TASHKIL ETISH

7.1. Bankning depozit siyosati, uning elementlari va mezonlari.

7.2. Bank depozitlarini boshqarishning servisini tashkil etish.

7.1. Bankning depozit siyosati, uning elementlari va mezonlari

Banking depozit siyosati moliya institutlarining faoliyatiga va ularning mijozlari bilan munosabatlariga ta'sir etuvchi muhim omildir. Ushbu siyosat banklarning depozitlar va investitsiyalarni jalb qilish yo'llarini belgilaydi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar depozit siyosatini ishlab chiqishda bir qator omillarni inobatga oladi: bozor sharoitlari, foiz stavkalari, iqtisodiy o'sish sur'atlari va mijozlar ehtiyojlari.

Asosiy maqsad mijozlar uchun jozibador shartlarda depozit hisob raqamlarini taklif qilish, shu bilan birga bank xavfsizligini ta'minlashdir. Bu esa, o'z navbatida, aholi va korxonalar o'rtasida ishonchni oshirishga yordam beradi. Bankning depozit siyosati, shuningdek, raqobatchilikni oshirish va innovatsion xizmatlarni taqdim etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bunda banklar o'zlariga oid strategik yo'nalishlarni aniqlab, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Shunday qilib, bankning depozit siyosati nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ham rag'batlantiradi. Depozit siyosati umumiy bank siyosatining asosiy bir qismi hisoblanib, kredit tashkilotlarining depozit faoliyatini amalga oshirish strategiyasi va taktikasini belgilab beradi. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Tijorat banking depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Shuningdek, tijorat banklarining depozit siyosati umumiy bank siyosatining asosiy bir qismi hisoblanib, kredit tashkilotlarining depozit

faoliyatini amalga oshirish strategiyasi va taktikasini ham belgilab beradi.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablagʻlarini bankka jalb qilish bilan bogʻliq operatsiyalar depozit operatsiyalari deyiladi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarning 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari oʻzlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar.

Tijorat banking depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini taʼminlashga qaratilgandir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining obʻyekt va subʻyektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarni subʻyektlari boʻlib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxonasi va tashkilotlari;
- moliya, sugʻurta, investitsion va trust kompaniyalar;
- xususiy korxonasi va tashkilotlar;
- aksioner kompaniyalar;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qoʻshma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashkilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari ishtirok etadilar.

Depozit operatsiyalarining obʻyektini ehtiyojdan ortiqcha pul mablagʻlari (qoʻyilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi boʻlib, balans likvidligi, mijozlar moliyaviy ahvolidan barqarorligi hisoblanadi.

Depozit operatsiyalari tijorat banklarini depozit siyosatini amalga oshirish orqali taʼminlanadi, yaʼni:

- depozit operatsiyalari bank daromadining oshishiga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;
- bank balansi likvidligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;

– depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo‘yilmalarga e‘tibor qaratish lozim;

– depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog‘liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralari ko‘rish zarur.

Pul qo‘yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda depozitlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar) qo‘yilmalari;
2. Jismoniy shaxslar qo‘yilmalari.

Mablag‘larni olish shakliga ko‘ra depozitlar quyidagilarga bo‘linadi:

- muddatli depozit mablag‘lari;
- talab qilib olingunga qadar depozit mablag‘lari;
- aholining jamg‘arma qo‘yilmalari.

O‘z navbatida, bu guruhlarining har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. Muddatli depozit mablag‘lari ularning muddatidan kelib chiqib:

- 3 oy muddatgacha depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
- 12 oydan yuqori bo‘lgan depozit mablag‘lariga tasniflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko‘rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘lar hamda depozit hisobvarag‘larining boshqa turlarini ochish huquqiga egalar. Mijoz tomonidan har qanday hisobvarag‘ ochilayotganda bank hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish shartnomasi tuziladi.

Bank hisobvarag‘i shartnomasi bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar “Fuqarolik kodeksi” va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektning birinchi marta milliy valyutada ochgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i uning asosiy hisobvarag‘i hisoblanadi. Mijozlar qonunchilik asosida bir yoki bir necha banklarda ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘lari ochishlari mumkin.

Budjet muassasalariga hisobvarag‘lar respublika yoki mahalliy budjetlar hisobidan ajratiladigan mablag‘larni kirim qilish va shu mablag‘lardan foydalanish uchun ochiladi. Bundan tashqari, budjetdan tashqari mablag‘lar uchun talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘lar ochilishi mumkin. Budjet tashkilotlariga jamg‘arma va muddatli hisobvarag‘lar faqat budjetdan tashqari mablag‘larni saqlash uchun ochiladi.

Respublika va mahalliy budjetlar hisobidan mablag‘lar ajratiladigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga har bir budjet bo‘yicha alohida hisobvarag‘lar ochiladi. Mijozlar tomonidan hisobvarag‘lar ochish uchun bankka ushbu yo‘riqnomada ko‘zda tutilgan zaruriy hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab, banklar ikki bank ish kuni mobaynida ularga hisobvarag‘lar ochishlari shart. Hisobvarag‘larning egalari hisobvarag‘ ochish uchun taqdim qilingan hujjatlarning haqiqiyliги bo‘yicha javobgardirlar.

Tadbirkorlik sub‘yektlari uchun, banklarda ochiladigan hisobvarag‘lar uchun to‘lov miqdori eng kam oylik ish haqining bir karrasidan oshmasligi lozim. Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarga hisobvarag‘lar ochilgandan keyin, banklar keyingi ish kunidan kechiktirmay, hisobvarag‘lar ochilganligi to‘g‘risida tegishli soliq organiga yozma ravishda xabar berishlari shart.

Professor O.I. Lavrushinning fikriga ko‘ra, tijorat banklari resurslarining eng barqaror qismi bo‘lib muddatli depozitlar va jamg‘arma omonatlari hisoblanadi va ular quyidagi muhim xususiyatlarga egadir:⁴⁴

–hisob–kitoblarni amalga oshirish uchun foydalanilmaydi va ularga to‘lov hujjatlari yozilmaydi;

–muddatli va jamg‘arma depozit hisobraqamlaridagi mablag‘larning aylanish tezligi past;

–qat’iy belgilangan foiz to‘lanadi, Markaziy bank zarur hollarda foiz stavkalarining yuqori chegarasini tartibga solishi mumkin;

⁴⁴ Банковское дело. Под ред. Лаврушина О.И. – М.: Финансы и статистика, 2004. – С. 88-89.

–tijorat bankini depozitni olish to‘g‘risida oldindan ogohlantirish tartibi mavjud;

–nisbatan past majburiy zaxira stavkalari qo‘llaniladi.

O.I. Lavrushin tomonidan muddatli depozitlar va jamg‘arma omonatlar bo‘yicha e‘tirof etilgan xususiyatlarga qo‘shilgan holda, yana bir qator xususiyatlarning mavjudligini qayd etmoqchimiz. Jumladan:

–naqd pullarning banklardan tashqari aylanmasini qisqartirish imkonini beradi;

–tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar uchun garov ta‘minoti vazifasini bajarishi mumkin, buning natijasida kredit quyilmalari hajmi oshadi, kredit riski ma‘lum darajada kamayadi.

7.2. Bank depozitlarini boshqarishning servisini tashkil etish

Banklar depozitlarini boshqarish usullari moliyaviy barqarorlik va mijozlar ishonchini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning asosiy vazifasi - xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirish maqsadida resurslarni samarali taqsimlashdir. Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ma‘muriy usullar;

2. Iqtisodiy usullar.

Ma‘muriy usullarga quyidagilar kiradi:

* depozit operatsiyalarni rejalashtirish;

* depozit operatsiyalarni amalga oshirish siyosati, qoidalari va me‘yorlarini o‘zida aks ettirgan ichki bank hujjatlarini ishlab chiqish.

Depozit operatsiyalarni boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini ta‘minlashning zaruriy shartlaridan biri bo‘lib, depozitlar jalb qilish va ularni aktivlarga joylashtirishda risk va daromad darajalarini to‘g‘ri baholash imkonini beradigan ishonchli ma‘lumotlarning mavjudligi hisoblanadi.

Depozit operatsiyalarni boshqarish usullari quyidagilarga bo‘linadi:

* analitik usullar;

* spetsifik usullar;

* marketing usullari.

Analitik metodlar depozitlar jalb qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tendensiyalar va muammolarni aniqlash imkonini beradi. O‘z navbatida, analitik metodlarga quyidagilar kiradi:

- guruhlash usuli;
- qiyosiy tahlil usuli;
- tarkibiy tahlil usuli;
- trendli tahlil usuli.

Spetsifik usullar depozit operatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni kamaytirish, bankning resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Marketing usullari quyidagilardan iborat:

- * mijozlarni turli toifalari bo‘yicha turkumlash;
- * mijozlarning kartotekasini yaratish;
- * depozit xizmatlari bozorini monitoring qilish;
- * depozit xizmatlarini reklama qilish;
- * depozitlarning barqarorligini ta‘minlash.

Bank depozitlarini boshqarishning servisini tashkil etish, moliyaviy operatsiyalarni optimallashtirish va mijozlar uchun qulaylik yaratish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Ushbu xizmat, naqd pulni samarali boshqarish, depozitlar bo‘yicha foizlarni kuzatish va xarajatlarni qisqartirishda yordam beradi. Xizmatni taqdim etishda, birinchi navbatda, mijozlar uchun individual yondashuvni belgilash zarur. Har bir mijozning moliyaviy ehtiyojlari va maqsadlari o‘ziga xos bo‘lgani sababli, shaxsiy moliyaviy maslahatlar va strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Texnologiyalarning rivojlanishi natijasida, onlayn platformalar orqali bank depozitlarini boshqarish qulayligi yaratilmoqda. Mijozlar o‘z depozitlarini mobil qurilmalar orqali kuzatishi, zarur bo‘lganda mablag‘larni o‘tkazishi va bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, xavfsizlik va maxfiylik masalalariga alohida e‘tibor berish lozim. Mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma‘lumotlarini himoya qilish, xizmatni yanada xolis va ishonchli qilish uchun muhimdir. Shunday qilib, bank depozitlarini boshqarish servisi, zamonaviy moliya muhitida muhim rol o‘ynaydi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Bank, depozit, depozit siyosati, resurs, passiv, omonat, foiz stavkasi, depozit operatsiya, foiz siyosati, risk koeffitsiyenti, diversifikatsiya koeffitsiyenti, jamg'armalar, investitsiya, ko'p valyutali omonat, qisqa muddatli depozitlar, talab qilingan depozitlar, jamg'arma depozitlari.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Bankning depozit siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Depozit siyosatining elementlari va mezonlari qanday aniqlanadi?
3. Aholiga bank xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish strategiyasini qanday amalga oshirish lozim?
4. Tijorat banklari depozit siyosatining takomillashtirish uchun qanday choralarni ko'rish kerak?
5. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari bilan bog'liq risklar qanday boshqariladi?
6. Qisqa muddatli depozitlar nima?
7. Talab qilib olinguncha depozitlarning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor?
8. Jamg'arma depozitlari haqida gapirib bering.

VIII bob. TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA KREDIT BERISHNING SERVISINI TASHKIL ETISH

8.1. Jismoniy shaxslarni kreditlashning servisini tashkil etish.

8.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni kreditlashning servisini tashkil etish.

8.3. Korporativ mijozlarni kreditlashning servisini tashkil etish.

8.1. Jismoniy shaxslarni kreditlashning servisini tashkil etish

Jismoniy shaxslarga bank kreditlarining dolzarbligi -yildan—yilga ortib bormoqda. Moliyaviy institutlar o‘z mijozlariga qarz oluvchilarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan barcha yangi mahsulotlarni taklif qilishadi. Ko‘pincha foizlarni ortiqcha to‘lash fakti ham jismoniy shaxsning kredit olishiga to‘sqinlik qilmaydi. Fuqaro o‘z mablag‘lari ko‘zlangan maqsadga erishishga imkon bermasa, kredit muassasasi bilan shunday bitim tuzadi. Masalan, kutilmagan vaziyatlarda kvartira sotib olish yoki ta‘mirlash uchun. Banklar turli xil kredit dasturlarini taklif qilishadi. Mijoz faqat mo‘ljallangan maqsadni, shartlarni tanlashi va ro‘yxatdan o‘tish uchun zarur hujjatlarni taqdim etishi kerak.

Jismoniy shaxslarni kreditlashning servisini tashkil etish, zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu soha o‘z ichiga turli xil xizmatlarni, masalan, kreditlar berish, moliyaviy maslahatlar taqdim etish va mijozlarning moliyaviy tarixini tahlil qilishni oladi. Bunday xizmatlar orqali shaxslar o‘zlarining ehtiyojlariga mos keladigan qulay kredit shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, xizmatni tashkil etishda muhim omil—ishonchlilik va xavfsizlikni ta‘minlashdir. Mijozlar o‘z ma‘lumotlarini taqdim etishdan avval, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning reputatsiyasini, moliyaviy barqarorligini va shart–sharoitlarini o‘rganishlari muhim. Bergan kreditlar uchun foiz stavkalari, to‘lov muddatlari va boshqa shartlar aniq va tushunarli bo‘lishi shart.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar yordamida kredit olish jarayoni qulaylashtirilishi mumkin. Mobil ilovalar va onlayn

platformalar orqali shaxslar bir necha daqiqada kredit arizalarini topshirishlari, shartlarni o'qishlari va kerakli hujjatlarni yuklashlari mumkin. Bu esa, albatta, kreditlash jarayonini tez va samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Kreditlash jarayoni bir nechta tamo-yillar asosida amalga oshiriladi:

- Kreditning muddatliligi;
- Kreditning qaytarilishligi;
- Kreditning ta'minlanganligi;
- Kreditning to'lovliligi;
- Kreditning maqsadliligi;
- Kreditning samaradorligi.

Endi banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning turli belgilari va shakllarini ko'rib chiqamiz. Jahon amaliyotida bank kreditlarining yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ularning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi. Shunday bo'lsa ham banklarning eng ko'p uchraydigan kreditoperatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirishga harakat qilib ko'ramiz:

1. Bank kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlari bo'yicha: davlat, boshqa banklar, xo'jalik sub'yektlari, turli moliya tashkilotlari, aholi va boshqa sub'yektlarga tasniflash mumkin.

2. Kreditlar maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, investitsion, iste'mol va boshqa kreditlarga bo'linadi.

3. Bank kreditlari kapitalga yo'naltirilishiga qarab 2 xil bo'lishi mumkin:

- asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun;
- aylanma kapitalni moliyalashtirish uchun ssudalar beriladi.

Bular, o'z navbatida, ishlab chiqarish yoki muomala (savdo) sohasiga yo'naltiriladigan kreditlarga bo'linadi. Inflyatsiya sharoitida tijorat banklari amaliyotida savdo va spekulyativ

(chayqovchilik) operatsiyalarini moliyalashtirishga yo‘nal– tirilgan ssudalar aksariyat qismni tashkil etadi.

4. Hajmi bo‘yicha kreditlar katta (yirik), o‘rta, kichik va mikrokreditlarga bo‘linadi. Lekin xalqaro amaliyotda kreditlarning hajmi bo‘yicha umum qabul qilingan yagona o‘lchov (mezon) mavjud emas.

5. Ta‘minlanganligi bo‘yicha kreditlar ta‘minlanmagan va ta‘minlangan kreditlarga bo‘linadi.

Ta‘minlangan kreditlar ta‘minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug‘urtalangan va hokazolarga bo‘linadi.

Kreditning sifati past bo‘lganda, uning ta‘minlanganligida muammolar bo‘lganda bunday kreditlar ta‘minlanmagan kredit deb yuritiladi va bunda kreditlar bo‘yicha kreditning qaytmaslik riski yuqori bo‘ladi. Shuning uchun bu kreditlar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantiriladi.

Banklar tomonidan moliyaviy holati barqaror, foyda bilan ishlaydigan, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan mijozlarga bank ta‘minot talab qilmasdan ishonchli (blankali) kreditlar berilishi mumkin. Bunday kreditlar qarz oluvchining obro‘yini hisobga olgan holda va uning daromadlari darajasini baholagandan so‘ng uning moliyaviy natijalari ijobiy bo‘lgandagina beriladi.

6. Berilish usullari bo‘yicha kreditlar qoplash uchun va to‘lov uchun kreditlarga bo‘linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisob varaqiga xarajatlarni qoplash uchun o‘tkaziladi. Bunda yana avans xarakteridagi ssuda mablag‘larining o‘tkazilishi ham nazarda tutiladi. Ikkinchi holatda bank ssudasi bevosita naqd pulsiz hisob–kitoblarda hisob hujjatlarini to‘lash uchun beriladi.

Shu bilan birga, bir martalik kreditlar ham bo‘ladi, ya‘ni shartnomada belgilangan muddat va summada taqdim etiladi. Biroq ko‘pchilik mamlakatlarda kredit liniyalari keng qo‘llaniladi.

7. Bank kreditlarini qaytarilish tartibi bo‘yicha 2 guruhga ajratish mumkin. Talab qilib olinadigan va muddatli kreditlar.

Muddatli kreditlar qisqa, o‘rta va uzoq muddatli kreditlarga

bo‘linadi.

Bank va qarz oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi quyidagi muddatga tuzilishi mumkin.

1. Qisqa muddatli. Qoida tariqasida, bunday kreditni qaytarish muddati bir -yildan oshmaydi.

2. O‘rta muddatli – bir -yildan 5 yilgacha.

3. Uzoq muddatli kreditlar 30 yilgacha uzoq muddatga beriladi (masalan, ipoteka krediti).

8. Foiz stavkalarining turlari bo‘yicha bank kreditlarini 2 guruhga bo‘lish mumkin: qat’iy foizlardagi kreditlar va suzuvchi foiz stavkalaridagi kreditlar.

9. Kredit qaysi valyutada berilishiga qarab ham guruhlarga bo‘linadi. Odatda, tijorat banklari kreditlarni milliy valyutada yoki chet el valyutasida berishi mumkin. O‘zbekistonda milliy valyuta va chet el valyutasidagi kreditlar ko‘p qo‘llanilmoqda.

10. Kreditlar soni bo‘yicha kreditlar quyidagi guruhlarga bo‘linishi mumkin:

- yagona bank beradigan kreditlar;
- sindikatlashgan kreditlar;
- parallel kreditlar.

Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan ssudalar keng tarqalgan.

11. Kreditlar sifatiga ko‘ra “standart”, “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” toifalarga tasniflanadi.

Jismoniy shaxslarga beriladigan kreditning turlari quyidagilar:

1. Iste‘mol krediti– turli maqsadlar uchun;
2. Avtomobil krediti – yangi yoki eski mashina sotib olish uchun;
3. Ipoteka – uy–joy sotib olish uchun;
4. Ta’lim – oliy mutaxassis olish, ta’lim yoki malaka oshirish;
5. Overdraft – bu kredit bo‘lib, bank tomonidan foizlar qoplangan holda va qisqa muddatga pul mablag‘lari plastik kartaga o‘tkaziladi;
6. Kichik biznes uchun kredit;
7. Ishonchli kredit – qisqa muddatga kichik miqdorda bo‘lgan va bitta hujjat;

8. Shoshilinch ehtiyojlar uchun kredit.

Iste'mol krediti. Barchamizga ma'lumki, bu jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar. Ushbu kreditni olishda kreditlashning asosiy sub'yektlari ko'pincha jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan tovarlar hisoblanadi. Yuzlari bo'yicha. Masalan, eng yaxshi iste'mol krediti bu maishiy texnika, asbob-uskuna, mebel va shunga o'xshash narsalarni sotib olishdir. Iste'mol kreditlari eng yuqori foiz stavkalari va nisbatan cheklangan kredit miqdori bilan tavsiflanadi.

Avtomobil uchun kredit. Ham jismoniy, ham yuridik shaxslarga taqdim etiladi. Bu avtomobil uskunalari sotib olish imkoniyati, chunki kreditlash ob'yekti avtomobil uskunalari hisoblanadi. Agar biz avtoulov krediti bilan iste'mol kreditini taqqoslasak, u holda avtoulov krediti past foiz stavkasini va shunga mos ravishda katta kreditlarni nazarda tutadi. Avtotransport vositalarini sotib olayotganda, davlat sizga kredit foizlarini to'lashda yordam berish uchun qonuniy javobgar ekanligini unutmang.

Ta'lim krediti. Faqatgina shaxslarga ta'lim berish uchun beriladi. Bu yerda kreditlash ob'yekti – bu pullik ta'lim muassasasida jismoniy shaxslar uchun o'qish to'lovlari. Odatda, bunday kredit uchun stavkalar haqiqatan ham past va davlat odatda bunday kreditni to'lash uchun olinadi.

Ipoteka krediti. Ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga taqdim etiladi. Uy sotib olish uchun taqdim etilgan. Ipoteka krediti eng past stavkalarga va eng katta kreditga ega.

Ipoteka – bu eng uzoq muddatli kredit va yuqori ishonchlilikka ega kredit.

Overdraft. Overdraft – bu bank qarz oluvchiga hisob-kitob hujjatlari uchun to'lashi uchun beradigan kreditidir. Kredit mablag' qoldig'idan oshib ketadigan va keyinchalik mijozning hisob raqamiga davriy ravishda tushadigan mablag'lar hisobidan qaytariladigan tarzda taqdim etiladi.

Kichik biznes uchun kredit. Xususiy va xususiy shaxslarga turli maqsadlarda taqdim etiladi. Bu yerda kreditlash ob'yekti – bu kredit

beriladigan biznesning ehtiyojlari. Kredit juda katta miqdorlar bilan tavsiflanadi.

Shoshilinch ehtiyojlar uchun kredit. Odatda, bunday kredit faqat jismoniy shaxslarga beriladi. Ushbu kredit noo‘rin, ya’ni bankning maqsadlari va istaklari bu erda ko‘rsatilmagan. Bu yerda kreditlash ob‘yekti – bu shaxsning shaxsiy ehtiyoji. Kreditning bu turi nisbatan kichik miqdorlar va oshirilgan foiz stavkalari bilan tavsiflanadi.

Ishonchli kredit. Shaxsiy ehtiyojlar uchun faqat shaxslarga beriladi. Bunday kredit olish uchun ariza berish uchun odatda yoningizda pasport va ariza bo‘lishi kifoya. Ishonchga asoslangan kredit yuqori stavkalar va past miqdorlar bilan ajralib turadi.

Jismoniy shaxslarni kreditlash (Agrobank misolida). Endi esa jismoniy shaxslarni kreditlashni Agrobank misolida ko‘rib chiqamiz.

Kreditlash predmeti: doimiy daromadga ega jismoniy shaxslar.

Kredit miqdori: 100 million so‘mgacha. Oylik to‘lov miqdori qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchi (1 kishidan ko‘p bo‘lmagan) qarz yukining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Kredit usuli va foizlari:

- 2 -yil muddatga -yillik 27%
- 3 -yil muddatga -yillik 28%

Qarzning maqsadi va usuli: maqsadi yo‘q. Mijozning Agrobankda ochilgan plastik kartasiga pul o‘tkaziladi.

Imtiyozli davr (asosiy qarzni to‘lash jadvaliga ko‘ra): Imtiyozli davr yo‘q, oddiy (differensial) usulda grafik.

Kredit ta‘minoti:

- sug‘urta polisi;
- uchinchi shaxs kafilligi;
- mijoz xohishiga ko‘ra likvidlik garov mulki.

Kreditni to‘lash tartibi: oylik foizlarni to‘lash va kredit jadvali, kredit sanasidan qat’iy nazar, har oyning 5–kunidan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Agrobankda avtokredit quyidagi tartibda ajratilmoqda:

Kredit ajratiladigan sub‘yektlar: Doimiy daromad manbaiga ega jismoniy shaxslar

Kredit summasi: sotib olinayotgan avtomobil narxining 75% miqdorida belgilanadi. Avtomobil narxining 25 foizini xaridor dastlabki to‘lov sifatida to‘laydi. Bunda qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining (2 kishidan ko‘p bo‘lmagan) barcha kreditlari (asosiy qarz va hisoblangan foizlar) bo‘yicha oylik kredit to‘lovlari o‘rtacha oylik daromadning (soliqlar va majburiy ajratmalar hisobga olinmagan holda) 50 foizidan oshmasligi kerak.

Kredit muddati va foiz stavkasi:

- 4 -yil – 28%;
- 5 -yil – 29%.

Kredit maqsadi va usuli: O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtotransport vositasini dilerlik kompaniyasidan yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotdan sotib olish uchun pul ko‘chirish yo‘li bilan ajratiladi.

Kredit ta‘minoti:

• Avtotransport vositasi yetkazilgunga qadar avtomashina oldi – sotdi shartnomasidagi summadan boshlang‘ich badal summasi chegirilgan holda kreditning to‘liq qiymati va muddatiga kredit qaytmasligi xatarini sug‘urta qilinganligi to‘g‘risida sug‘urta polisi yoki vaqtinchalik ta‘minot turlaridan biri;

- Avtokredit hisobiga sotib olingan avtomashina.

“Open” muddatli to‘lov kartasi. “Open” muddatli to‘lov kartasi ajratiladigan sub’yekt: doimiy (ish haqi) daromadga ega va 18 yoshdan oshgan jismoniy shaxs (rezident).

Kredit miqdori: 66 000 000 (oltmish olti million) so‘mgacha.

Muddatli to‘lov karta muddati: 3 -yil, har bir tranzaksiya bo‘yicha 12 oygacha bo‘lgan muddatlar asosida alohida grafiklar shakllantirilib, grafikka asosan so‘ndirilgan qismi revolver (qayta foydalanish imkoniyati bilan) asosida ajratiladi.

Foiz stavkasi: foizsiz.

Boshlang‘ich to‘lov: talab etilmaydi.

Muddatli to‘lov karta mahsulotini olish usuli: muddatli to‘lov karta mahsuloti masofadan turib rasmiylashtiriladi.

Kredit ta‘minoti: sug‘urta polisi.

8.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni kreditlashning servisini tashkil etish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni kreditlashning servisini tashkil etish jarayoni, avvalo, bozor talablari va tadbirkorlarning moliyaviy ehtiyojlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Yangi tashkil etilayotgan kredit servisi, mavjud bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, ko'plab kichik tadbirkorlar banklardan kredit olishda yuzaga keladigan xavflar va sertifikatlash jarayonlari tufayli qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'zgacha va qulay yechimlar taklif etish orqali ularning ishonchini qozonish mumkin.

Kreditlash xizmatini tashkil etishda, malakali mutaxassislarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Ular, tadbirkorlarning moliyaviy holatini baholash va ularning biznes rejalari asosida risklarni aniqlashda yordam berishlari kerak. Shuningdek, raqamli platformalardan foydalanish, tijorat jarayonlarini soddalashtirish va foydalanuvchilar uchun qulay interfeys yaratish zarur. Bu, kredit berish jarayonini tezlashtirib, tadbirkorlarning o'z bizneslarini yanada rivojlantirishlariga yordam beradi.

Yana bir muhim jihat esa, kichik bizneslarga o'qitish va maslahat xizmatlarini taqdim etishdir. Kreditlashdan oldin, tadbirkorlar o'z bizneslarini to'g'ri boshqarish va moliyaviy rejalashtirish bo'yicha bilimga ega bo'lishlari kerak. Bunday yondashuv nafaqat kredit olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning biznesini barqaror etadi. Natijada, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi va muhim ijtimoiy-barqarorlikni ta'minlaydi.

2023-yilning 18-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Uzluksiz xizmatlar zanjiri"ni yaratish maqsadida:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 1-oktabrdan boshlab "Kichik

biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks Dasturini amalga oshirish haqidagi taklifi ma’qullandi.

Dasturni 2023-2026-yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag‘lari hisobidan 6 trillion so‘m va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltirildi.

2. Belgilanishicha, quyidagilar “Kichik biznesga ko‘maklashish markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatlariga (keyingi o‘rinlarda–markazlar) onlayn ariza yuborish orqali Dasturda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi:

– kamida bir -yil mobaynida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta’lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta’minlayotgan kichik tadbirkorlik sub’yektlari;

– oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o‘z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Bunda, Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik sub’yektlarini shaffoflik tamo-yillari asosida tanlab olish tartib–taomillari sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

– markazlar tomonidan tanlab olingan tashabbuskorlar biznes ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida qisqa va o‘rta muddatli amaliy o‘quv kurslarida o‘qitiladi;

– amaliy o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat olgan tashabbuskorlar Dastur doirasidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanadi.

4. 2023-yil 1-oktabrdan boshlab Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik sub’yektlarini moliyaviy va konsultativ qo‘llab-quvvatlash choralari etib quyidagilar belgilansin:

a) moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

– tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy

bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so‘mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi;

– qiymati 1,5 milliard so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo‘lib–bo‘lib to‘lash sharti bilan qarzga berish;

– 24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag‘lari miqdori 1 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta‘minlagan kichik tadbirkorlik sub’yektlarining yangi loyihalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihalariga bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari va yer maydonlari, asbob–uskunalar, bino–inshootlar va boshqa ko‘rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20 foizgacha, biroq 1 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan qiymatda ulushdor bo‘lib kirish;

– innovatsion ishlanmalarni tijratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘larini ajratish;

b) konsultativ qo‘llab–quvvatlash yo‘nalishida:

– litsenziya, ruxsatnoma va sertifikatlar olish masalalari, bojxona va soliq ma‘muriyatchiligi, eksport va import operatsiyalari, shartnomalarni rasmiylashtirish;

– davlat xaridlarida ishtirok etish, shuningdek, yer uchastkalari va bino–inshootlarni sotib olish yoki ijaraga olish va loyihalashtirish;

– tadbirkorlikni qo‘llab–quvvatlash bo‘yicha amaldagi imtiyoz va preferensiyalar, mavjud boshqa yengilliklar va imkoniyatlar bo‘yicha ma‘lumot va maslahatlar berish.

Dastur ishtirokchilarini moliyaviy va konsultativ qo‘llab–quvvatlash instrumentlari va ulardan foydalanish shartlari 13-jadvalga(3-ilova) muvofiq tasdiqlandi.

Markazlarga o‘zi tomonidan kichik biznes loyihalariga kiritilgan ulushni 7 -yil davomida bozor qiymatida loyiha tashabbuskoriga yoki boshqa salohiyatli investorlarga realizatsiya qilish huquqi taqdim etildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Dasturni uzluksiz ravishda zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlab borishga mas'ul etib belgilansin. Bunda, Dasturni barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun xalqaro moliya bozorlari hamda xalqaro moliya institutlari hisobidan zarur hajm va muddatlarda mablag'lar jalb etiladi.

5. Biznesni rivojlantirish banki uch oy muddatda xalqaro moliya institutlarining texnik ko'magi va boshqa manbalar hisobidan biznes jarayonlarini avtomatlashtirgan holda tashkil etish va muvofiqlashtirib borish uchun Biznes portalning ishga tushirilishini ta'minlasin va boshqa bandlari mavjud (8.2.1-jadval).

8.2.1-jadval

“Kichik biznesni uzluksiz qo'llab–quvvatlash” kompleks dasturi ishtirokchilarini moliyaviy va konsultativ qo'llab–quvvatlash instrumentlari va ulardan foydalanish shartlari⁴⁵

1. Kreditlar ajratish:	
a) 100 million so'mgacha garovsiz kreditlar	
Ishtirokchilar:	-kamida bir -yil mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta'lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari; -oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar
Foiz stavkasi:	Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada
Kredit ajratish maqsadi va muddatlari:	-ishlab chiqarishni tashkil etish uchun 24 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oygacha ajratiladi
b) 150 million so'mgacha garov talabi pasaytirilgan revolver kreditlar	
Ishtirokchilar:	-kichik tadbirkorlik sub'yektlari
Foiz stavkasi:	-Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada
Kredit ajratish maqsadi va muddatlari:	-ochiq kredit liniyasi asosida har 12 oyda so'ndirish sharti bilan 36 oygacha ajratiladi
v) 1 milliard so'mgacha kreditlar	

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qaroriga 3-ilova.

Ishtirokchilar:	-tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi bo'lgan va loyihalari belgilangan tartibda istiqbolli loyiha sifatida tanlab olingan quyidagi kichik tadbirkorlik sub'yektlari : -oxirgi 12 oyda aylanma mablag'lari miqdori 500 mln so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan; -kamida besh nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan
Foiz stavkasi:	-Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada
Kredit ajratish maqsadi va muddatlari:	-asosiy vositalarni sotib olish uchun 24 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oygacha ajratiladi
g) 1,5 milliard so'mgacha kreditlar	
Ishtirokchilar:	-tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi bo'lgan va loyihalari belgilangan tartibda istiqbolli loyiha sifatida tanlab olingan quyidagi kichik tadbirkorlik sub'yektlari : -24 oydan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan; -oxirgi 12 oyda aylanma mablag'lari miqdori 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan; -kamida o'n nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan.
Foiz stavkasi:	Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada
Kredit ajratish maqsadi va muddatlari:	-asosiy vositalarni sotib olish uchun 24 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oygacha ajratiladi.
2. 1,5 milliard so'mgacha lizing xizmatlari ko'rsatish:	
Ishtirokchilar:	-tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi bo'lgan va loyihalari belgilangan tartibda istiqbolli loyiha sifatida tanlab olingan quyidagi kichik tadbirkorlik sub'yektlari : -24 oydan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan; -oxirgi 12 oyda aylanma mablag'lari miqdori 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan; -kamida o'n nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan.
Foiz stavkasi:	Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada
Maqsadi va muddatlari:	-asbob uskunalari, texnologik jihozlar va maxsus texnikalarni sotib olish uchun 24 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oygacha amalga oshiriladi
3. 1,5 milliard so'mgacha foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan qarzga asosiy vosita olib berish:	
Ishtirokchilar:	-tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi bo'lgan va loyihalari belgilangan tartibda istiqbolli loyiha sifatida tanlab olingan quyidagi kichik tadbirkorlik sub'yektlari : -24 oydan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan; -oxirgi 12 oyda aylanma mablag'lari miqdori 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan; -kamida o'n nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan

Maqsadi va muddatlari:	-asbob uskunalar, texnologik jihozlar va maxsus texnikalarni sotib olish uchun 24 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oygacha amalga oshiriladi.
4. Loyihalarda 1 milliard so‘mgacha miqdorda ulushdor bo‘lib ishtirok etish:	
Ishtirokchilar:	tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi bo‘lgan va loyihalari belgilangan tartibda istiqbolli loyiha sifatida tanlab olingan quyidagi kichik tadbirkorlik sub’yektlari : -24 oydan ortiq faoliyat ko‘rsatayotgan; -oxirgi 12 oyda aylanma mablag‘lari miqdori 1 mlrd so‘mdan 10 mlrd so‘mgacha bo‘lgan; -kamida o‘n nafar kishini doimiy ish bilan ta‘minlagan
Qo‘llab–quvvatlash turi:	-bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari va yer maydonlari, asbob–uskunalar, bino–inshootlar va boshqa ko‘rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20 foizgacha, biroq 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lmagan qiymatda ulushdor bo‘lib ishtirok etish
Ulushdan daromad:	-kichik tadbirkorlik sub’yekti faoliyati natijasidagi sof foydadan dividendlar; -ulushni bozor bahosida baholab sotishda ko‘riladigan foyda.
Ulushdan foydalanish muddatlari:	-markazlar tomonidan loyihaga kiritilgan ulushni 7 -yil davomida bozor qiymatida loyiha tashabbuskoriga yoki boshqa salohiyatli investorlarga realizatsiya qilish.
5. 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘lari taqdim etish:	
Ishtirokchilar:	-tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi bo‘lgan va loyihalari belgilangan tartibda istiqbolli loyiha sifatida tanlab olingan kichik tadbirkorlik sub’yektlari
Qo‘llab–quvvatlash turi:	-kichik tadbirkorlik sub’yektlarida innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalarga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 mlrd so‘mgacha grant mablag‘lar ajratib boriladi. Bunda: -markazlarda tashkil etiladigan Loyihalarni baholash va tanlash guruhlarini tomonidan ushbu yo‘nalishdagi loyihalar tanlab olinadi va Innovatsion rivojlanish agentligiga ma‘qullash uchun taqdim etiladi; -Innovatsion rivojlanish agentligi 15 ish kunida belgilangan tartibda ko‘rib chiqib, ma‘qullangan loyihalarni Markazlarga taqdim etadi; -markazlar ma‘qullangan loyihalar tashabbuskorlarini maxsus dasturlar asosida o‘qitadi va sertifikat olgan tashabbuskorlarni grant mablag‘lari ajratish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga yo‘naltiradi; -Innovatsion rivojlanish agentligi mazkur loyihalarni belgilangan tartibda moliyalashtiradi ; -Innovatsion rivojlanish agentligi davlat ilmiy dasturlari doirasida moliyalashtirilgan tijoratlashtirish va startap loyihalari ro‘yxatini amaliyotga joriy qilish va kengaytirishni qo‘llab–quvvatlash maqsadida markazlarga taqdim etib boradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorni kreditlash tartibi. Ko'pchilik o'z biznesini ochishda IP–ni ro'yxatdan o'tkazishni afzal ko'radi. Buning sababi, siz soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimlarini tanlashingiz mumkin va ro'yxatga olish jarayoni oddiy va tez hisoblanadi. Agar siz kichik biznes bilan shug'ullanishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, yakka tartibdagi tadbirkorni ro'yxatdan o'tkazish ayniqsa muhimdir. Agar yakka tartibdagi tadbirkor soddalashtirilgan rejimlarda ishlayotgan bo'lsa, unda uning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun banklar yakka tartibdagi tadbirkorlarga kamdan–kam hollarda katta va foydali kreditlar beradi. Ko'pincha biznesmenlar standart iste'mol kreditlariga e'tibor qaratishlari kerak.

Har bir bank o'z qarz mablag'larini foizlari bilan o'z vaqtida qaytarilishini xohlaydi. Shu sababli, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan kredit olish potensial qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tasdiqlashning mumkin emasligi bilan murakkablashadi. Yakka tartibdagi tadbirkordan to'lovlarni yaxshi bajara olishini tasdiqlovchi hujjat bo'lishi talab qilinadi, shuning uchun hech qanday kechikishlar bo'lmaydi.

Tasdiqlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tuzilgan va Federal Soliq xizmatiga taqdim etilgan har xil turdagi hisobotlar mavjud. Lekin odatda ular biznesmenning daromad darajasini aks ettirmaydi, shuning uchun siz faqat yuqori foiz stavkalari bo'yicha berilgan kichik qarzga ishonishingiz mumkin.

Bunday sharoitda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun yagona imkoniyat – bu mablag'lar harakati doimiy ravishda qayd etiladigan bank hisob raqamini ochishdir. Hisobvarag'dan ko'chirmani ko'rib chiqish orqali bank muassasasi xodimi arizachida kreditni to'lash uchun yetarli mablag'dorligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

Kredit berishdan oldin bank tadbirkorning to'lovga qodir ekanligiga, shuningdek, ko'plab talablarga javob berishiga ishonch hosil qilishi kerak. Shuning uchun ariza beruvchidan nafaqat to'lov qobiliyatini, balki boshqa ko'plab hujjatlarni ham tasdiqlashi kerak.

Odatda yakka tartibdagi tadbirkorga kredit quyidagi shartlar asosida beriladi:

- daromadning yuqori darajasi, buning uchun odatda bir -yil bilan ifodalangan ma'lum vaqt davri uchun daromad miqdori, shuningdek soliq imtiyozlari va sof daromad, agar mavjud bo'lsa, taxmin qilinadi;

- yaxshi kredit tarixi, shuning uchun o'tmishda potensial qarz oluvchining boshqa kreditlar bo'yicha to'lovlari bo'lmasligi kerak, shuningdek, tadbirkorning soliq qarzi bor-yo'qligi, qancha kredit berilganligi va muddatidan oldin to'langanligi tekshiriladi. to'lanmagan kreditlar;

- garov sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan mulk va shunga o'xshash shartlar, bank tomonidan chiqarilgan maksimal miqdor ob'yektning baholangan qiymati asosida hisoblanadi;

- kafilni jalb qilish imkoniyati;

- biznes hayoti va standart talab tadbirkorning bir -yildan ortiq ishlashi;

- biznes jarayonida muhim ma'muriy yoki jinoiy qoidabuzarliklar yo'q.

Yaxshi daromad va barqaror ish bilan yakka tartibdagi tadbirkor banklarning juda yaxshi takliflariga ishonishi mumkin. Shu bilan birga, muddati o'tgan va to'lanmagan kreditlar bo'lmasligi kerak.

Banklar uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar eng qiyin va aniq qarz oluvchilar hisoblanadi, shuning uchun ularga cheklangan miqdordagi kreditlar taklif etiladi. Avval siz yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qanday kreditlarga ishonishingiz mumkinligini baholashingiz kerak. Banklar odatda garov talab qiladi yoki kichik kreditlar taklif qiladi. Eng mashhur takliflar qatoriga quyidagilar kiradi:

- tezkor kreditlar bir necha soat ichida beriladi va odatda ular kredit kartalarida beriladi;

- biznes boshlash yoki rivojlantirish uchun mo'ljallangan kreditlar;

- garovli yoki garovsiz iste'mol kreditlari.

Agar siz yakka tartibdagi tadbirkorlarga garovsiz kredit bermoqchi bo'lsangiz, unchalik katta miqdorga ishonmasligingiz kerak.

Ekspress kredit olishning tartibi. Ular har qanday tadbirkor yoki jismoniy shaxsga beriladi. Ularning dizayn xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- qisqa vaqt ichida pul olishingiz mumkin odatda ikki soatdan oshmaydigan vaqt;
- oz miqdorda mablag‘ taqdim etiladi;
- puldan foydalanish katta foiz to‘lashi kerak;
- yakka tartibdagi tadbirkorlarga bunday kreditlarni berish katta hajmdagi hujjatlarni tayyorlash zarurati bilan birga kelmaydi;
- bunday kreditga nafaqat bankda, balki har qanday yirik uskunani sotib olishingiz kerak bo‘lsa, bevosita do‘konda ham murojaat qilishingiz mumkin;
- to‘lov qobiliyatini isbotlash shart emas.

Odatda, yakka tartibdagi tadbirkorlar mebel yoki orgtexnika sotib olishga puli yetarli bo‘lmasa, bu taklifdan foydalanadilar. Ekspress kreditga, shuningdek, katta limitga ega kredit karta ham kiradi.

Biznes boshlash uchun kredit. Bunday kreditlarning bir qismi sifatida banklar odatda maxsus dasturlarni ishlab chiqadilar. Ularga ko‘ra, IP–ga ma’lum talablar qo‘yiladi va turli ro‘yxatga olish shartlari hisobga olinadi. Agar fuqaro faqat o‘z biznesini ochishni rejalashtirayotgan bo‘lsa, u ko‘pincha qarz mablag‘lari ko‘rinishida taqdim etilgan dastlabki investitsiyalarga muhtoj. Siz bankda biznes ochish uchun quyidagi shartlarda katta miqdorda olishingiz mumkin:

- aniq xarajatlar, kutilayotgan daromad va rejalashtirilgan rentabellik va rentabellik bilan malakali, batafsil va to‘g‘ri hisoblangan biznes–rejaning mavjudligi;
- bankga har qanday ko‘chmas mulk bilan ifodalangan qimmatbaho mulkni garovga qo‘yish imkoniyati;
- kafilning rasmiy ish bilan ta’minlangan taklifi va yaxshi daromadli fuqaro.

Bunday sharoitlarda ko‘pincha katta miqdorda kreditlar beriladi, biroq yakka tartibdagi tadbirkor to‘lovlarni bajara olmasa, u garov ta’minotidan mahrum bo‘ladi, uni hibsga oladi va bank tomonidan kim oshdi savdosida sotadi.

Biznesni rivojlantirish uchun kredit. Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkorlarga biznesni rivojlantirish uchun kreditlar ajratiladi. Ular odatda maxsus dasturlar doirasida chiqariladi. Ularga ko‘ra, mablag‘larni ayrim maqsadlarga yo‘naltirishga ruxsat berilgan:

- assortimentdagi o‘rinlarni ko‘paytirish;
- ish uchun uskunalar yoki transport vositalari sotib olish;
- biznesda yangi yo‘nalishni ishlab chiqish.

Odatda, yakka tartibdagi tadbirkorlar mebel yoki orgtexnika sotib olishga puli yetarli bo‘lmasa, bu taklifdan foydalanadilar. Ekspres kreditga, shuningdek, katta limitga ega kredit karta ham kiradi.

Shunday qilib, o‘z biznesini ochishni rejalashtirayotgan har bir shaxs yakka tartibdagi tadbirkorga qanday kredit olishi, qanday turdagi kreditlarga ishonishi va undan qanday hujjatlar talab qilinishini aniqlab olishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlash tartibi har bir bank uchun qiyin deb hisoblanadi. Ishbilarmonlarga juda ko‘p va qat’iy talablar qo‘yiladi. Ko‘pincha, ariza beruvchilar turli sabablarga ko‘ra qarz mablag‘larini berishni rad etishadi. Agar bank garovga qo‘yilgan bo‘lsa, kafil ishtirok etsa yoki yakka tartibdagi tadbirkor OSNOda ishlayotgan bo‘lsa, kredit pulini olish eng oson va sodda, shuning uchun uning moliyaviy hisobotida foyda miqdori aniq ko‘rsatilgan. Siz turli banklarda kredit olish uchun ariza topshirishingiz mumkin, ammo imtiyozli kreditlar taklif qiladigan ixtisoslashtirilgan dasturlarni tanlash tavsiya etiladi. tadbirkorlar uchun foiz stavkalari.

8.3. Korporativ mijozlarni kreditlashning servisini tashkil etish


Korporativ mijozlarni kreditlashning servisini tashkil etish, bugungi kunda moliya bozorida muhim o‘rin tutadi. Bunday xizmatlar, kompaniyalar uchun moliyaviy resurslarni kengaytirish, olib borilayotgan faoliyatni stabilizatsiya qilish va yangi imkoniyatlarni ochishga yordam beradi. Biroq, samarali kreditlash tizimini yaratish uchun turli holatlarni hisobga olish zarur – mijozlarning ehtiyojlari, bozor sharoitlari va moliyaviy risklarni baholash.

Mijozlar bilan aloqalar o'rnatish va ularni o'rganish ushbu servislarda muvaffaqiyat kalitidir. Har bir korporativ mijozning ehtiyojlari va moliyaviy holati turlicha bo'lishi mumkin, shuning uchun individual yondashuv va moslashtirilgan kredit shartlari muhim. Tahlil qilish jarayonida korporativ mijozning tarixiy moliyaviy ko'rsatkichlari, likvidlik darajasi va bozor tahlillari asosida qaror chiqarilishi lozim. Bundan tashqari, kreditlash xizmatini qo'llab-quvvatlovchi texnologik yechimlar ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy IT-yechimlar yordamida kredit berish jarayonini tezlashtirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish va mijozlar bilan interaktiv munosabatlar o'rnatish mumkin. Yana bir muhim jihat, kompaniyalarning moliyaviy savodxonligini oshirish, bu esa ularni kredit olish jarayonida mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi.

Kredit-pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan foiz to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berish. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxonalar, xususiy shaxs va boshqalar), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdor foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin har qanday qarz munosabati ham kredit bo'la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag' qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to'lanishi, muddatli, ma'lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi, maqsadli ishlatilishi shart.

Shuningdek, korporativ mijozlarni kreditlashda risklarni boshqarish dasturlari ham muhim rol o'ynaydi. Har bir kredit operatsiyasi xavf bilan bog'liqdir, shuning uchun potensial muammolarni ilgari ko'ra bilish va ularga tayyor turish zarur. Risklarni baholashda korporativ mijozning kredit tarixi, bozor sharoitlari va ichki yanada chuqur tahlillari asosida yondashish kerak. Boshqaruv tizimini joriy etish va risklarni minimallashtirish, moliyaviy muammolarga qarshi oldini olish imkoniyatini oshiradi. Kreditlash jarayonida kommunikatsiya va shaffoflik ham ahamiyatga ega. Ushbu jarayon faqatgina moliyaviy

resurslarning kengayishi bilan bog‘liq emas, balki barqaror va ishonchli aloqalarni o‘rnatish bilan ham to‘g‘ridan–to‘g‘ri bog‘liqdir(8-rasm).



8.3.1–rasm. Biznesda kredit xizmatlarining o‘rni

Korporativ mijoz – yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan tijorat bankining mijozlari, kredit tashkilotlari va hokazolar.

Yuridik shaxslarni kreditlash. Iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita biznesning rivojlanishiga bog‘liq va uning uzluksiz rivojlanishi uchun ko‘pgina korxonalarda o‘z mablag‘lari yetarli emas. Aynan shu maqsadda bank tashkilotlari yuridik shaxslarni kreditlash xizmatlaridan foydalanishni taklif qiladilar. Qarzga olingan mablag‘lar yordamida esa asbob–uskunalar sotib olish, ko‘chmas mulk sotib olish va hokazolarni tashkil qilish mumkin bo‘ladi.

Yuridik shaxslarga kredit berish shartlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniq va bu xizmatni taqdim etish tartibi qat‘iy tartibga solinadi. Shuning uchun, agar korxonaga pulga muhtoj bo‘lsa, uni olish uchun bir qator talablarni bajarish kerak bo‘ladi.

Har bir moliya institutining o‘ziga xos kreditlash qoidalari mavjud bo‘lib, ular boshqa bankda shunga o‘xshash xizmat ko‘rsatish

xususiyatlaridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Shuning uchun, amalga oshiriladigan dastlabki qadam, tegishli shartlarga ega bo'lgan yuridik shaxslarga kredit berish uchun bankni tanlashdir.

Muhim shartlar. Birinchidan, bank tashkiloti bo'lajak qarz oluvchining kredit tarixini tekshiradi, bu aniq sabablarga ko'ra ijobiy bo'lishi kerak. Avvalgi kelishuv shartlariga ko'ra, to'lovlari jiddiy kechikib ketgan yoki umuman qaytarilmagan shaxsga katta miqdordagi kredit berish xavfini hech bir bank o'z zimmasiga olmasligi aniq. Buning uchun korxonaning moliyaviy holatini baholash taqdim etilgan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar, ma'lum bir davr uchun hisobvarag' bo'yicha amalga oshirilgan barcha turdagi operatsiyalarni aks ettiruvchi bank bayonoti asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarga kredit berishning eng maqbul variantini taklif qilish uchun bank tashkiloti qarz oluvchidan uning xizmatiga o'tishni talab qiladigan holatlar tez-tez uchraydi. Shuning uchun kredit olish uchun bankingizga murojaat qilish eng yaxshi taklifga aylanadi.

Yuridik shaxslarga bank krediti berish quyidagi standart shartlarga rioya qilishni talab qiladi:

- Ochiq joriy hisob raqamiga ega bo'lganlar uchun ko'plab banklarning taklifi qisqa muddatli overdraft kreditidan foydalanish imkoniyatidir. Bunday taklif qarz oluvchi tomonidan turli maqsadlar uchun yo'naltirilgan qarz mablag'lari bilan hisobni muntazam ravishda to'ldirishni o'z ichiga oladi. Ushbu kredit bo'yicha to'lov kompaniya hisobvarag'idan pul mablag'lari kelib tushgandan keyin avtomatik yechib olinadi.

- Kredit liniyasini tugatish optimal kredit mahsuloti hisoblanadi. Har bir kompaniya uchun tanlangan individual shartlar, shuning uchun ular kredit bo'limi mutaxassisi bilan alohida muhokama qilinishi kerak.

Bank tashkilotlari doimiy mijozlarga sodiqliklarini bildiradilar, chunki ular o'zlarining moliyaviy obro'yi va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishadi. Banklar ba'zi korxonalarga maqsadli dasturlardan foydalanishni taklif qiladilar, ular bo'yicha qarz mablag'lari uskunalar sotib olishga, qimmat elementlarni sotib olishga sarflanishi mumkin, ular ko'pincha garov sifatida ishlaydi.

Shuningdek, yaqinda boshqa banklarda ochilgan kreditlarni qayta moliyalashtirish dasturi ham muvaffaqiyatli ishlab chiqildi. Agar mablag'lar uzoq vaqt davomida o'z vaqtida kiritilsa, tasdiqlash kafolatlanadi. Boshqacha qilib aytganda, belgilangan bank qoidalariga mos keladigan barcha zarur shart–sharoitlarga ega bo'lgan holda, siz jismoniy va yuridik shaxslarga kredit berish tartibidan o'tishingiz mumkin.

Afzalliklari va kamchiliklari. Yuridik shaxslarga kredit berishning shubhasiz afzalligi:

- Yuridik shaxsning haqiqatan ham katta miqdorda pul olish va uni biznesni rivojlantirishga yo'naltirish qobiliyati;
- Kredit olish uchun murojaat qilgan bank mijozi bo'lib, hujjatlarni rasmiylashtirish vaqtini qisqartirishingiz mumkin;
- Investitsiya kreditlaridan o'z ishlab chiqarishingizni modernizatsiya qilish yoki uni kengaytirish uchun foydalanishingiz mumkin;
- Bundan kam afzallik shundaki, banklarning moslashuvchan kredit shartlari va individual to'lov sxemasi taklifi;
- Garov sifatida nafaqat korxonalar mulki bo'lishi mumkin, balki korxonalar egasining mulki ham muomaladagi tovarlar va hatto debitorlik qarzlardan foydalanish imkoniyati ham mavjud.

Yuridik shaxslar tomonidan kredit olishning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- Ko'p hujjatlar to'plami yig'ilmoqda.
- Kafolat yoki kafolat bo'lmasa, foiz stavkasi sezilarli darajada oshiriladi.
- Uzoq vaqt ishlov berish.
- Garov yuqori qiymatga ega.
- Kredit miqdori yoki to'lov muddati qanchalik katta bo'lsa, moliyaviy resurslar shunchalik qimmatga tushadi.

Banklar yuridik shaxslarga har xil turdagi kreditlarni taklif qiladi. Har bir tur o'z dizayni, sotib olish va foydalanish xususiyatlariga ega. Bir yoki boshqa turdagi kredit mahsulotini tanlashda, qarz mablag'lari qanday maqsadlarda talab qilinishini tushunishga arziydi.

Kredit liniyasi – bunday kreditlash yordamida aylanma mablag‘larni muntazam ravishda to‘ldirish amalga oshiriladi. Ushbu mablag‘lar tovarlar (xizmatlar) uchun to‘lovlarni to‘lash yoki joriy xarajatlarni moliyalashtirish uchun etkazib beruvchilar bilan hisob–kitoblarda ishlatilishi mumkin. Kreditlashning bu turi aylanma va aylanma bo‘lishi mumkin. Foiz stavkasi qat’iy yoki o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. Bunday chiziqni bajarish garovni taqdim etishni talab qilmaydi, ammo shunga qaramay, har qanday qiymatni taqdim etgan holda, qarz oluvchi bankdan yanada qulayroq va maqbul shartlarda kredit olish imkoniyatini oladi.

Byudjet kreditlari – bunday kreditlarning ijrosi davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlanishini o‘z ichiga oladi. Davlat shartnomalarini (kafolatlarini) imzolagan kompaniyalarga taklif etiladi.

Shoshilinch kreditlar – kerakli miqdordagi mablag‘ni tezda olish uchun.

Ekspress kreditlar – qimmat kreditlar, chunki ular bo‘yicha foizlar haqiqatan ham yuqori. Ularning afzalligi – har qanday mahsulot, butlovchi qismlar yoki xom ashyo uchun to‘lash uchun mablag‘larni chiqarishning yuqori tezligi.

Overdraft – bu turdagi kreditlash ko‘pchilik yirik kompaniyalar tomonidan afzal ko‘riladi. Bunday kreditlashning qulayligi hisobni kerakli miqdorda qarz mablag‘lari bilan muntazam ravishda to‘ldirishdir. Bunday kredit uchun to‘lov korxonadan hisobidan avtomatik tarzda hisobvarag‘dan mablag‘larni yechib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kredit bo‘yicha ortiqcha to‘lov to‘g‘ridan–to‘g‘ri foiz stavkasiga bog‘liq. Bugungi kunda yuridik shaxsga taklif qilinadigan o‘rtacha foiz stavkasi taxminan 23% ni tashkil qiladi va garovni taqdim etish fakti muhim emas. Ushbu foiz stavkasi quyidagi hollarda kamayishi mumkin:

- Qarz oluvchi doimiy mijoz.
- Garov bilan ta‘minlash.
- Ko‘pdan beri o‘rnatilgan biznes aloqalari.

Kredit olishda har bir bank yuridik shaxslarga kredit berish uchun o‘z shartlarini qo‘yadi, lekin asosiy fikrlarga kelsak, ular bir xil:

- Faqat biznes egasi yoki tadbirkor murojaat qilishi mumkin. Kafillarni jalb qilish mumkin.

- Arizachi kamida 18 yoshda bo‘lishi kerak.
- Korxonaning moliyaviy faoliyati tahlili kamida bir -yil davomida zararsiz ishlashini ko‘rsatishi kerak.

- Korxonaga va bank o‘rtasidagi hududiy yaqinlik bo‘lmasligi kerak, ya’ne 150 km dan oshishi kerak.

- Asosiy shart – ijobiy kredit tarixi. Bu element bank xavfsizlik xizmati tomonidan sinchkovlik bilan tekshiriladi.

- Korxonaga bankning barcha talablariga javob bermasa ham, u pul mablag‘lari uchun tasdiqlanishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, shartnoma shartlariga ko‘ra, foiz stavkasi oshirib ko‘rsatiladi va kredit muddati qisqa bo‘ladi.

Mijozlar bilan ochiq va samarali muloqot o‘rnatish, ularga kredit shartlarini tushuntirish va moliyaviy rejalashtiruv jarayonida yordam berish, ularning ishonchini oshiradi. Mijozlar o‘zlariga qulay shartlarni qidirishadi va shuning uchun, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar ularni tinglash va ehtiyojlarini inobatga olishlari lozim. Natijada, korporativ mijozlarni kreditlashning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash va yangi biznes imkoniyatlarini ochishga olib keladi.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar

Kredit, iste‘mol krediti, avtokredit, ipoteka kredit, ta‘lim krediti, overdraft, ishonchli kredit, mikroqarz, lizing operatsiyasi, kichik biznes, kredit xizmatlari, biznesni kreditlash, likvidlilik, korporativ mijoz, IP kreditlash, ekspress kredit, rentabellik, yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, konsultativ qo‘llab–quvvatlash.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Kreditlashning asosiy tamo-yillarini tushuntiring?
2. Kreditning ta‘minlanganligi deganda nimani tushunasiz?
3. Kreditning ob‘yekti va sub‘yektlari nimalardan iborat?
4. Kreditlashning qanday usullarini bilasiz?

5. Jismoniy shaxslarga beriladigan kredit turlarini aytib bering?
6. Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari.
7. Yakka tartibdagi tadbirkorni kreditlash tartibini aytib bering.
8. Ekspress kredit olishning tartibi.
9. Biznes boshlash uchun kredit olish tartibi.
10. Biznesni rivojlantirish uchun kredit olish tartibi.
11. Korporativ mijozlarga kredit xizmatlarini koʻrsatish ahamiyati.
12. Biznesda kredit xizmatlarining oʻrni qanday?
13. Korporativ mijozlar kimlar?
14. Yuridik shaxslarni kreditlash tartibi.

IX bob. TIJORAT BANKLARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN VALYUTA OPERATSIYALARINI SERVISINI TASHKIL ETISH

9.1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari.

9.2. Ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi.

9.3. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutadagi hisob raqamini yuritish servisi.

9.4. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari.

9.1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va uning huquqiy asoslari

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari iqtisodiy faoliyatning muhim komponentidir. Ushbu operatsiyalar valyuta almashinuvi va moliyaviy tranzaksiyalarni o‘z ichiga oladi, bu esa xalqaro savdoda ishtirok etishga imkon beradi. Tijorat banklari, o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatish maqsadida, turli valyutalar orasida almashuv kurslarini belgilab, forex (valyuta bozoridagi) operatsiyalarni amalga oshiradilar. Valyuta operatsiyalarining asosiy maqsadi, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va investitsiyalarni diversifikatsiya qilishdir. Shu bilan birga, tijorat banklari risklarni boshqarish uchun turli vositalardan foydalanadilar, masalan, valyuta opsionlari va fyuchers shartnomalari. Bu vositalar, valyuta almashinuvi bozoridagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, tijorat banklarining valyuta operatsiyalari, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular, markaziy banklar bilan hamkorlikda, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va kutilmagan valyuta tebranishlariga qarshi kurashishda faol ishtirok etadilar. Bu orqali, tijorat banklari nafaqat o‘z mijozlarini, balki butun mamlakatning moliyaviy tizimini qo‘llab-quvvatlaydilar.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari O‘zbekiston

Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni⁴⁶ amalga oshiriladi hamda Vazirlar Mahkamasining “Birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalar” Qaroriga⁴⁷ asosan vakolatli banklar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida bozor kursi bo‘yicha amalga oshirilishi belgilab berildi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari ularning mijozlari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi iqtisodiy faoliyati va aloqalari orqali vujudga keladi. Mijozlar xalqaro aloqalarning quyidagi shakllarida ishtirok etadilar:

1. Xalqaro savdoda importyor va eksportyor sifatida;
2. Kapitalni olib kirish va olib chiqish, shu jumladan:
 - a) boshqa davlatlar hududida korxonalar qurish;
 - b) boshqa mamlakatlar hududida korxonalar faoliyatini moliyalashtirish;
 - d) qo‘shma korxonalar tashkil etish;
 - e) xalqaro kreditlar, moliyaviy ko‘maklarni taqdim etish yoki olish.

Yuqorida ta’kidlangan barcha, shu kabi aloqalar pul (kapital) harakati bilan bog‘liq bo‘lib, bir valyuta boshqa valyutaga ayirbosh qilinadi. Bugungi kunda dunyo barcha davlatlarining talabini birdek qondira oladigan yagona pul birligi mavjud emas va har bir davlat shartnomadagi kelishuvga asosan o‘z milliy pul birligi yoki boshqa davlat pul birligida xalqaro hisob–kitoblarni amalga oshirishi mumkin.

Xorijiy valyuta importyorlarga xorijdan sotib olingan tovarlar va xizmatlarga to‘lash uchun kerak bo‘lsa, eksportyorlar valyutaga o‘z tovarlarini sotadilar va xizmatlar ko‘rsatadilar. Tomonlar tijorat banklarining mijozlari bo‘lganligi bois ular o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning hisob–kitoblari banklar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonlarda banklar mijozlari hisobidan zarur hollarda o‘z mablag‘lari (kreditlar berish) hisobidan hisob–kitob, valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar.

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.10.2019 yildagi O‘RQ-573-son.

⁴⁷ Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-iyundagi 449-sonli Qarori.

Banklar o‘z xalqaro operatsiyalarida turli davlatlarning xo‘jalik sub’yektlari korxonalar, tashkilotlari, moliyaviy muassasalari bilan pul mablag‘larini o‘tkazish va qabul qilish, xalqaro kreditlarni taqdim etish va olish, valyuta almashtirish, xalqaro qimmatli qog‘ozlarning savdo sotiqchilari va boshqalar bilan shug‘ullanadilar.

Bunday bank operatsiyalari murakkab deb hisoblanib, bank va bank xodimlaridan maxsus tayyorgarlikni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari valyuta operatsiyalarni amalga oshirish uchun Markaziy bankdan valyuta operatsiyalarni olib borishga ruxsat beruvchi valyuta litsenziyasini olishi lozim. Litsenziya O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklariga chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi” to‘g‘risidagi Qaroriga⁴⁸ asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining litsenziya olish uchun topshirgan hujjatlariga asosan ularning valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga tayyorgarlik darajasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan talabnomalar asosida aniqlanadi. Bunda tijorat bankning faoliyati malakaviy (bank xodimlarining xalqaro iqtisodiy, valyuta, kredit, hisob–kitob va boshqa xalqaro moliyaviy munosabatlar normalarini, xorijiy tillarni bilishi hamda tajribaga ega ekanligi va boshqa ko‘nikmalar) va texnik talablar (bank texnik–texnologik va boshqa jihatlardan imkoniyati mavjudligi) jihatdan o‘rganiladi.

Valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga ruxsat beruvchi litsenziya quyidagi maxsus shartlarga rioya etilgandagina beriladi:

- tijorat banki tashkil etilgandan boshlab bir -yildan ortiq muddat faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishi;
- tijorat banki Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan barcha normativlarni bajarishi;
- valyuta operatsiyalarini o‘tkaza oladigan, jumladan, xorijiy tillarni biladigan malakali xodimlarga ega bo‘lishi;

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qarori , 30.03.2004 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 463-2

- bank valyuta operatsiyalarini o‘tkazish unga kerakligini isbotlay olishi (o‘z mijozlari talablari hisobiga);

- valyuta operatsiyalarini o‘tkazish uchun kerakli moddiy–texnik bazaga ega bo‘lishi (kassa, sklad, hisob–kitob markazi) lozim.

Valyuta operatsiyalarini o‘tkazish uchun beriladigan litsenziyalar ikki turga bo‘linadi:

–bosh litsenziya;

–ichki litsenziyalar.

a) Bosh litsenziya tijorat banklariga O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda chet elda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi.

b) Ichki litsenziya tijorat banklariga O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi operatsiyalarni to‘la yoki cheklangan doirada amalga oshirish uchun berilgan huquqdir.

Chet el valyutasida operatsiyalar o‘tkazish uchun bosh yoki ichki litsenziyaga ega bo‘lgan bank-vakolatli bank deb ataladi va bu bank qonun talablariga muvofiq litsenziya shartlari asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Banklar quyidagi **valyuta operatsiyalarini** amalga oshiradi:

- xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish;
- mijozlar valyuta hisob raqamini yuritish va depozitlarga valyuta mablag‘larini jalb qilish;
- valyutada xalqaro hisob–kitoblarni amalga oshirish;
- valyutada kreditlar berish.

Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari rasmiy valyuta kursiga asoslanadi. Chet el valyutasidagi bank operatsiyalari murakkabligi va tavakkalchiligining ortib borishi darajasiga qarab ham turlarga bo‘linadi.

9.2. Ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi

O‘zbekiston Respublikasida chet el valyutasida ichki valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan banklar tomonidan

o'tkaziladi. Valyuta litsenziyasiga ega bo'lgan banklar chet el valyutasini sotish va sotib olish huquqiga egalar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish» qoidasida ochiq valyuta pozitsiyasi uchun quyidagi limitlar o'rnatilgan:

- ixtiyoriy valyutada ochiq valyuta pozitsiyasi limiti har bir operatsion kun oxirida valyutali banklarda o'z mablag'ining 50% idan oshmasligi va bankning umumiy ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har operatsion kunning oxirida uning o'z mablag'larining 20% idan oshmasligi lozim;

- umumiy ochiq valyuta pozitsiyasi uzun valyuta pozitsiyasi ko'rinishida o'rnatiladi. Valyutani sotish va sotib olishda bank faqatgina ochiq valyuta pozitsiyasidan foydalanmaydi, kunora banklarda umumiy valyuta pozitsiyasi «Nostro» hisob varaqi bo'yicha olib boriladi. Agar to'lovlar kirim bilan qo'shib ketsa, bir hisobdan boshqa hisob varaqi mablag'larni o'tkazishda xatolikka yo'l qo'yilsa, bunda bank kunora ochiq maxsus hisob varaqi bo'yicha tekshirish o'tkazadi.

Chet el valyutasini sotish va sotib olishda bank valyuta pozitsiyasi limitiga rioya qilishi kerak. Bank valyuta operatsiyalarini bajarganda valyuta zaxiralarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valyutalar bo'yicha majburiyati va talablari orasidagi nisbat o'zgaradi. Bankning xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish jarayonidagi valyutalar bo'yicha talab va majburiyatlari nisbati holati banklarning valyutaviy holati yoki valyuta pozitsiyasi deyiladi. Valyutaviy holat ochiq va yopiq bo'lishi mumkin.

Xohlagan bir valyuta bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi deganda bankning shu xorijiy valyuta bo'yicha aktivlarining majburiyatlaridan oshgan summasi tushuniladi. Ochiq valyuta pozitsiyasi 2 ga bo'linadi. Bular: uzun valyuta pozitsiyasi va qisqa valyuta pozitsiyasi. Agarda bankning sotib olgan valyutasi bo'yicha aktivlari va talablari uning shu valyuta bo'yicha passiv va majburiyatlaridan yuqori bo'lsa, bankda mazkur valyuta bo'yicha holat uzun valyuta pozitsiyasi deyiladi. Aksincha, aniq bir valyuta

bo'yicha passivlar va majburiyatlar aktivlar va talablardan yuqori bo'lsa, ya'ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'lsa valyuta pozitsiyasi qisqa bo'ladi.

Agar valyuta bo'yicha talablar va majburiyatlar teng bo'lsa, valyuta pozitsiyasi yopiq bo'ladi. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasi doimo risk bilan bog'liq. Valyuta kursining o'zgarishi natijasida bank valyutani sotib olishda yoki sotishda yo'qotishlarga uchrashi mumkin. Bu esa bankning ma'lum miqdorda mablag'ining yo'qotilganligidan dalolat beradi.

Valyuta pozitsiyasining umumiy summa holati (summasi) degandabarcha valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) pozitsiyalar umumiy summasi tushuniladi. Agar bank operatsion kun davomida valyuta operatsiyalarini olib borishda ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha qo'yilgan limitdan ortiq operatsiya amalga oshirgan, ya'ni valyutani ko'p sotib olgan bo'lsa, u holda valyuta pozitsiyasi ortiq sotib olingan valyutani sotib yuborish yo'li bilan balanslashtirib yopiladi.

Vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasi limitiga hisoblangan foizlar, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa moddiy qiymatliklarni sotish yoki sotib olish bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini ham amalga oshiradi. Vakolatli banklar o'zlarining joylaridagi filiallari uchun ochiq valyuta pozitsiyasining chegarasini mustaqil belgilashlari mumkin. Lekin filiallar bo'yicha belgilangan ochiq valyuta pozitsiyasining yig'indisi bank bo'yicha uning o'z mablag'larining 20% idan oshmasligi lozim. Vakolatli banklar har oyda oyning 3–kunigacha Markaziy bankka o'zlarining ochiq pozitsiyalari va unga rioya qilinganligi to'g'risida hisobot berishlari lozim.

9.3. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutadagi hisob raqamini yuritish servisi

Bank mijozlari bankda xorijiy valyuta talab qilib olinguncha depozit hisob varaqlarini, shuningdek, xorijiy va milliy valyutalarda ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'lar, jamg'arma, muddatli va boshqa turli depozit hisob varaqlarini ochishi mumkin.

Bu turdagi hisob varaqlarini ochish uchun tadbirkorlik sub'yektlari, tadbirkorlik sub'yektlariga aloqador bo'lmagan yuridik shaxslar–rezidentlar, shuningdek, budjet tashkilotlari, norezidentlar (jismoniy shaxslardan tashqari) bankka quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- hisob raqam ochish haqidagi ariza;
- davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat nusxasi;
- muhr va imzolar namunasi–kartochka;
- soliq organi tomonidan soliq to'lovchiga berilgan identifikatsionraqami to'g'risida guvohnoma nusxasi.

Mijozlarning valyuta hisob varaqini ochish va yuritish bo'yicha operatsiyalari, ayniqsa, inflyatsiyaning yuqori darajasi sharoitida juda qulaydir, chunki xorijiy valyutani saqlab undan bank foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mulk shaklidan qat'iynazar barcha tashkilot, korxonalar va muassasalar–rezidentlar xorijiy valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklaridagi valyuta hisob raqamlarda saqlashlari lozim. Vakolatli banklar yuridik va jismoniy shaxslar – rezidentlar va norezidentlarning chet el valyutasidagi talab qilib olinadigan depozit hisob varaqlarini yuritish qoidalari asosida o'zining valyuta faoliyatini amalga oshiradilar. Valyuta hisob varaqlarining ochilishi Markaziy bankning "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisob varaqlari to'g'risida"gi yo'riqnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tijorat banklari tomonidan mijozlarning chet el valyutasidagi hisob raqamlarini yuritish, valyutani tartibga solishga doir qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda olib boriladi. Bunda tijorat banki chet el valyutasida hisob–kitoblarni amalga oshirish, savdob bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalari, chet el banklari bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish, tovar va xizmatlarni eksport–import qilish bilan bog'liq xalqaro hisob–kitob operatsiyalari, ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari, O'zbekiston Respublikasi hududiga valyuta mablag'larini jalb qilish va ularni joylashtirishga doir ssuda va depozit operatsiyalari, xalqaro pul bozorlaridagi kredit operatsiyalari,

valyuta (depozit va konversion) operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha Markaziy bank tomonidan qo‘-yilgan malakaviy va texnik talablarga javob bera olishi lozim.

Vakolatli banklar tomonidan to‘lovlar valyuta hisob varaqida mavjud mablag‘lar, valyutali plastik to‘lov va kredit kartochkalaridan foydalangan holda belgilangan overdraft limitlari doirasida amalga oshirilishi mumkin. Banklar va bank xodimlari o‘zlarining mijozlari va korrespondentlari operatsiyalari, hisob varaqlari va omonatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydilar. Vakolatli banklar amalga oshirayotgan operatsiyalari bo‘yicha vositachilik haqi foiz stavkalari va ta‘riflarini belgilaydilar va vositachilik haqini chet el valyutasida olish huquqiga egadirlar.

Rezident – yuridik shaxslarning valyuta hisob varaqlariga chet el valyutasidagi tashqi savdo tushumlari, vakolatli banklar orqali O‘zbekiston Respublikasi hududida sotib olingan mablag‘lar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olingan naqd chet el valyutasi, qonunchilikda belgilangan tartibda olingan kreditlar, chet el investitsiyalari va qarz bo‘yicha o‘tkazilgan mablag‘lar hamda ularni amalga oshirish bilan bog‘liq to‘lovlar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslarning ustav fondi (ustav kapitali)ga o‘tkazilayotgan mablag‘lar, plastik to‘lov va kredit kartochkalari bo‘yicha to‘lovlarga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalari va qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda kelib tushgan mablag‘lar summalari hisoblab yozib (o‘tkazilib) boriladi.

O‘zbekiston Respublikasida joylashgan norezident – yuridik shaxslar, shu jumladan, immunitet hamda diplomatik imtiyozlarga ega bo‘lgan chet el diplomatiya va boshqa rasmiy vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar hamda ularning filiallari, shuningdek, xorijiy tashkilotlarning mamlakatimizda xo‘jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan vakolatxonalari valyuta hisob varaqlarini ochishga haqlidir.

Norezident yuridik shaxs – hisob varaq egasining nomiga chet eldan hamda mamlakatimizning boshqa banklarida ochilgan hisob

varaqlaridan o'tkazilgan xorijiy valyuta, vakolatli banklar tomonidan xorijdan hisob varaq egasining nomiga yuborilgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlaridagi mablag'lar, hisob varaqning egasi chet eldan olib kelgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari, jumladan, plastik to'lov va kredit kartochkalaridagi valyuta mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazma yozuv kiritilmagan, chet el valyutasidagi egasining nomi yozilgan holda bankka taqdim etilgan to'lov hujjatlaridagi mablag'lar, vakolatli banklar ruxsati bilan chet el valyutasida yozib berilgan boshqa to'lov hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan chet el valyutasi, naqd chet el valyutasi, hisob varaq egasi nomiga chet eldan pochta jo'natmalari orqali yuborilgan yoki u tomonidan qonun talablariga rioya qilgan holda chet eldan keltirilgan, me'yoriy hujjatlariga muvofiq o'tkazilgan yoki naqd pulda olingan boshqa summalar ularning valyuta hisob raqamiga o'tkaziladi.

Norezident yuridik shaxslarning valyuta hisob varaqlaridagi mablag'lar ularning topshirig'iga asosan bank o'tkazmasi, akkreditiv, chek va hokazolarda xorijga o'tkazilishi, chet elga xizmat safariga yuborilishi bilan bog'liq (shu jumladan, naqd pul shaklidagi) xarajatlartolovi uchun, shuningdek, amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa maqsadlarga ishlatilishi mumkin.

Jismoniy shaxslar esa, rezident va norezidentlar xorijiy va milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisob varaqlarini ochish uchun bankka hisob raqam ochish to'g'risidagi ariza, shuningdek, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, pasport yoki boshqa shunga tenglashtirilgan hujjatlar taqdim qiladi.

Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi:

- xorijdan hisob raqam egasi nomiga kelib tushgan valyuta o'tkazmalari, xorijdan hisobraqam egasiga yuborilgan valyutadagi to'lov hujjatlari, hisob varaqning egasi chet eldan olib kelgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazma yozuv kiritilmagan, chet el valyutasida yuritiladigan plastik to'lov va kredit kartochkalari bo'yicha hamda egasining nomi yozilgan holda bankka taqdim etilgan to'lov hujjatlari asosida, vakolatli banklar ruxsati bilan chet el valyutasida yozib berilgan

boshqa to'lov hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan chet el valyutasi;

- hisob varaq egasi nomiga respublikasining boshqa banklaridan yoki rezident yuridik shaxslar topshirig'i bilan o'tkazilgan chet el valyutasi;

- naqd chet el valyutasi, shu jumladan, hisob varaq egasi tomonidan kiritilgan yoki pochta orqali yuborilgan naqd valyuta va xorijdan olib kelingan, shuningdek, vakolatli banklar, ularning filiallari va ayirboshlash shoxobchalari orqali sotib olingan valyutalar;

- xorijiy valyuta bo'yicha foizlar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ hujjatlari va amaldagi qonunchilikka zid kelmaydigan, olingan va o'tkazilgan naqd shakldagi boshqa summalar jismoniy shaxs – mijozning hisob varaqiga o'tkazilib boriladi.

Rezident–jismoniy shaxslarning (shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning) hisob varaqlariga qo'yilgan mablag'lar hisob varaq egasining ko'rsatmasiga asosan ishlatilishi mumkin. Jumladan:

- xorijdagi jismoniy shaxslarning nomiga 5000 AQSh dollari ekvivalentdagi oshmagan miqdorda, xorijda to'lovnoma, invoyslar va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar asosida o'qish, davolanish, sug'urtalanish, xorijda patentlar va mualliflik guvohnomalarini rasmiylashtirish, berish va ulardan foydalanish uchun bog'liq bo'lgan xarajatlarni to'lash, chet el davlatlari konsullik va boshqa rasmiy muassasalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, sud va notarial organlari hukmlari, qarorlari va ajrimlari asosida pul mablag'lari to'lovi uchun konkurslar, ko'rgazmalar va musobaqalarda ishtirok etish, shuningdek, shartnomalar bo'yicha ishga joylashish bilan bog'liq xarajatlar hamda nosavdo tUSDagi boshqa operatsiyalarni amalga oshirish, hisob varaq egasining O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq chet el banklarida ochilgan hisob varaqlariga yoki O'zbekiston Respublikasi boshqa banklaridagi hisob varaqlariga

o'tkazish uchun;

- naqd chet el valyutasida (chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarida), shu jumladan, xorijga olib chiqib ketish (amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan summa miqdorida) uchun to'lov amalga oshirish;

- amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa maqsadlar uchun ishlatilishi, respublika hududida xorijiy valyutani amaldagi sotib olish kursi bo'yicha so'mda to'lovlarni to'lashi yoki o'tkazishi mumkin.

Norezident jismoniy shaxslar hisob raqamiga quyidagilar kirim qilinadi:

– hisob raqam egasi nomiga xorijdan yuborilgan yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa banklarida ochilgan hisob varaqlaridan o'tkazilgan xorijiy valyuta, xorijdan hisob varaq egasining nomiga yuborilgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari aks ettirilgan mablag', hisob varaq egasi chet eldan olib kelgan chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari plastik to'lov va kredit kartochkalaridagi mablag'lar, O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazma yozuv kiritilmagan, chet el valyutasida yuritiladigan hamda egasining nomi yozilgan holda bankka taqdim etilgan to'lov hujjatlaridagi mablag'lar, vakolatli banklar ruxsati bilan chet el valyutasida yozib berilgan boshqa to'lov hujjatlari asosida to'lanishi lozim bo'lgan chet el valyutasi, hisob varaq egasi chet eldan olib kelgan va O'zbekiston Respublikasiga olib kirishda bojxona tomonidan ro'yxatga olingan yoxud hisob varaq egasi uchun vakolatli bank nomiga qiymati ko'rsatilib, xat jildda (paketda) yuborilgan, shuningdek, ilgari vakolatli banklarning tegishli ma'lumotnomasi asosida hisob varaqlardan berilgan naqd chet el valyutasi, O'zbekiston Respublikasiga olib kirishda bojxona deklaratsiyasini to'ldirish talab qilinmaydigan va bojxona tomonidan ro'yxatga olinmaydigan naqd chet el valyutasi, hisob varaq egasi nomiga chet eldan pochta jo'natmalari orqali yuborilgan naqd chet el valyutasi, xorijiy valyutadagi foizlar, amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga muvofiq

o'tkazilgan yoki naqd pulda olingan boshqa summalar hisoblab yozilishi mumkin.

Norezident – jismoniy shaxslarning hisob varaqlaridagi mablag'lar hisob varaq egasining ko'rsatmasiga ko'ra hisob varaq egasining O'zbekiston Respublikasi boshqa banklarida ochilgan hisob varaqlariga, shuningdek, bankda qabul qilingan shaklda (bank o'tkazmasi, chek va boshqalar) xorijga o'tkazilishi, naqd chet el valyutasida (chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarida to'langan), shu jumladan, me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan summa miqdorida xorijga olib chiqib ketish, xarid kursi bo'yicha respublika hududida so'mda to'lanishi yoki o'tkazilishi, amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Vakolatli banklar bajaradigan operatsilari uchun mijozlardan komission haq undiradilar.

Banklar aholidan valyutani talab qilib olguncha, muddatli, depozit va boshqa jamg'armalarga qabul qilishlari mumkin. Qo'yilmalar mahalliy va xorijiy fuqarolardan qabul qilinadi. Jamg'armalarning turini, ular bo'yicha minimal qo'yilma miqdorini, daromad darajasini, to'lash shartlarini bank mustaqil o'zi belgilaydi.

Bu operatsiyalar bo'yicha shartlarni bank o'zining strategiyasidan kelib chiqqan holda belgilaydi va odatda qo'yilmalar bo'yicha foizlar qo'yilma miqdori va muddatiga bog'liq bo'ladi.

Qo'yilmalar bo'yicha daromadlar soliqdan ozod etiladi va odatda chet el valyutasida yoki so'mda to'lanadi, muddatli omonatni muddatidan oldin olinsa foiz kam miqdorda to'lanadi yoki umuman to'lanmasligi mumkin.

Banklar Markaziy bankning xorijiy valyuta kurslari byulletenida ko'rsatilgan valyutalarni sotish va sotib olish huquqiga egadirlar.

Jismoniy shaxslar bilan valyutani sotish va sotib olish operatsiyalari banklarning valyuta almashtirish shoxobchalari orqali amalga oshiriladi, sotish va sotib olish qiymati bank tomonidan belgilanadi. Almashtiruv shoxobchalarida bir vaqtning o'zida

valyutani sotish va sotib olish operatsiyalari o‘tkaziladi. Bunday operatsiyalarni, odatda, kassir va nazoratchi bajaradi. Valyutalarning haqqoniyligi umumiy qoidalar asosida tekshiriladi, valyuta almashtirish vaqtida mijozga valyuta nazorati hujjati taqdim etiladi, shu hujjat asosida mamlakatdan valyutani olib chiqib ketish mumkin.

9.4. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari

Xalqaro iqtisodiy, shuningdek, valyuta–kredit va moliya munosabatlari qatnashchilari risk ostida faoliyat ko‘rsatadilar. Bu tijoratrisklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- shartnoma tuzilgandan so‘ng narxning o‘zgarishi;
- import qiluvchining tovar qabul qilishdan bosh tortishi, ayniqsa, hisob–kitoblar inkasso shaklida bo‘lganda;
- hujjatlardagi yoki tovar uchun to‘lovlardagi xatolar;
- valyuta mablag‘larini subiste‘mol qilish yoki o‘g‘irlash, ularni qalbakilashtirish;
- xaridor yoki qarzdorning to‘lovga noqobilligi;
- valyuta kurslarining nobarqarorligi;
- inflyatsiya;
- foiz stavkalarining o‘zgaruvchanligi va boshqalar.

XX asrning 70–yillaridan boshlab valyuta va kredit risklarining oldini olish va qoplash uchun yangi usullardan foydalanila boshlandi. Ular qatoriga:

- valyutaviy opsion (birinchi marta 1973–yil Chikago birjasida qo‘llanila boshlagan);
- banklararo “svop” operatsiyasi;
- forvard valyuta operatsiyasi;
- valyutaviy fyuchers (1973–yildan boshlab Nyu–York valyuta bo–zorida, 1972–yildan boshlab Chikago valyuta bozorida va boshqalar.).

Yuqorida sanab o‘tilgan operatsiyalarni bir so‘z bilan muddatli valyuta operatsiyalari deb ham nomlash mumkin, banklarda esa ular asosan konversion operatsiyalar nomi bilan ataladi.

Xalqaro to‘lov oborotida xorijiy valyuta naqd emas, balki

naqdsiz amal qiladi. Tabiiyki, turli xil to'lov vositalari kurslari turlicha, chunki ularning ishonchliligi va valyutaviy risk darajalari turlichadir. Telegraf o'tkazmasi bo'yicha valyuta kursi eng yuqoridir, chunki unda xorijiy valyuta shu zahoti yoki kelasi kuni to'lanadi. Bu operatsiya valyuta riskini deyarli chetlab o'tish imkonini beradi. Odatda, valyuta kurslari rasmiy byulleten va kotirovka jadvallarida e'lon qilinadi. Boshqa to'lov vositalari kursi u asosida aniqlanadi.

Valyuta bozorida turli turdagi shartnomalar amal qiladi. Ularning ko'pchiligi spot shartlari asosida amalga oshiriladi. Svop operatsiyalarining asosiy xususiyati shundaki, bitimni imzolash va bajarish vaqtlari qariyb mos keladi. Bu bitim bo'yicha valyuta sotuvchidan sotib oluvchiga shartnoma imzolanishi bilanoq (ko'pi bilan ikki ish kuni ichida) yetkaziladi. Spot shartnomalariga jami valyuta shartnomalarining 90% i to'g'ri keladi.

Valyuta shartnomasining ikkinchi turi – muddatli shartnomadir.

Bunday shartnomalarning ikki xususiyati bor.

Birinchi, shartnoma imzolanishi va bajarilishi orasida ma'lum vaqt bir haftadan olti–o'n ikki oygacha interval bor.

Ikkinchi, valyuta kursi shartnoma imzolangan davrda belgilangani bo'yicha qabul qilinadi.

Valyuta kurslari o'zgarishlari unga ta'sir qilmaydi. Muddatli shartnomalar valyuta risklaridan sug'urtalanish yoki valyuta spekulyatsiyasi maqsadida amalga oshiriladi. Eksportyor o'zini xorijiy valyuta kursining tushishidan sug'urtalash maqsadida kelgusi valyuta daromadini muddatli kurs bo'yicha sotishi mumkin. Importyor xorijiy valyuta kursi oshuvidan o'zini sug'urtalash maqsadida kelgusi valyuta tushumini ma'lum muddatga muddatli kurs bo'yicha sotishi mumkin. Rivojlangan davlatlar valyuta bozorlarida valyuta kursining o'zgarishiga qarab ishlovchi valyuta vositachilarining asosiy maqsadi valyuta bozorida valyuta kurslarining o'zgarishidan katta foyda olishdan iborat. Valyuta kursining oshishi yoki pasayishiga qarab faoliyat ko'rsatuvchilarni xalqaro amaliyotda "ayiqqlar" va "buqalar" deb atashadi. Ular faoliyatining mohiyati quyidagilardan iborat. Agar amaliyotda valyuta kursi tushishi kutilsa,

valyuta kursi pasayishiga o‘ynovchilar (ularni xalqaro valyuta bozorida “ayiqalar” deb atashadi) valyutani shartnoma tuzilgan davr (muddatli kurs) kursi bilan sotish to‘g‘risida muddatli shartnoma tuzadilar. Agar muddatli valyuta kursi tushsa, ayiqalar valyutani bozordan pasaygan kursda sotib olib, uni muddatli kurs bo‘yicha sotadilar va kurslar o‘rtasidagi farq miqdorida foyda oladilar.

Valyuta kursining ko‘tarilishiga o‘ynovchilar (“buqalar”) esa valyuta kursi ko‘tarilganda, valyutani keyinchalik shartnoma tuzilgan vaqtdagi kurs bo‘yicha sotib olishga kelishilgan muddatli shartnoma tuzadilar. Kurs oshganda esa valyutani muddatli shartnomada belgilangan (oldingi) narx bo‘yicha sotib oladilar va oshgan – yuqori narxda sotib foyda ko‘radilar.

Forvard valyuta shartnomasi – bu kelajakdagi belgilangan muddatda aniq xorijiy valyuta summasini sotish yoki sotib olish bo‘yicha banklararo bitimni bajarish majburiyatidir. Bunda valyuta, summa, almashuv kursi va to‘lov muddati bitim tuzilgan paytda belgilanadi. Forvard bitim muddati 3 kundan 5 -yilgacha bo‘lishi mumkin, ammo uning 1, 3, 6 va 12 oylik muddatlari odatda ko‘p uchraydi.

Forvard shartnomasi bank shartnomasi hisoblanadi, shuning uchun u standartlashtirilmagan va biror aniq operatsiya ostida ham qo‘llanilishi mumkin. Forvard bitimlari bozori (6 oygacha bo‘lgan muddat uchun) asosiy valyutalarda yetarli darajada barqaror, 6 oydan ko‘proq muddatga esa nobarqaror, bunda ayrim operatsiyalar almashinuv kurslarining kuchli tebranishiga olib kelishi mumkin.

Biz oldingi paragraflarda ta’kidlaganimizdek, forvard operatsiyasi “svop” operatsiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar forvard bitimining o‘zigina qo‘llansa, (ya’ni bir vaqtning o‘zida “spot” operatsiyasini amalga oshirish bilan emas), u holda bu operatsiya autrayt (outright) deb nomlanadi.

Forvard kursi va “spot” kursi o‘zaro yaqin bog‘langan. Nazariy nuqtayi nazardan valyutaning forvard bahosi (FB) spot bahosi (SB) bilan teng bo‘lishi mumkin. Ammo amaliyotda bunday holat juda kam uchraydi. Agar forvard kurs spot–kursdan yuqori bo‘lsa

($FB > SB$), u holda valyuta “mukofot” bilan kotirovka qilinadi; agar forvard kursi spot kursidan past bo‘lsa, u holda valyuta “diskont” bilan kotirovka qilinadi.

Forvard kursi asosan 2 usul bilan kotirovka qilinadi: “autrayt” usuli va “svop–stavka” usuli.

“Autrayt” usuli bilan kotirovkalashda banklar mijozlarga to‘liq spot–kurs, forvard kursi, shuningdek, valyutani yetkazib berish muddati va summasini belgilab beradilar.

Ammo, ko‘pgina hollarda, banklararo bozorda forvard kursi svop–stavka yordamida kotirovka qilinadi. Forvard marja (svop–stavka) quyidagi sabablarga ko‘ra keng tarqaladi:

a) ular odatda o‘zgarishsiz qoladi, “spot” kursi esa juda tez o‘zgarib turadi, shu sababli, mukofot va diskontni o‘zgartirish uchun ehtiyoj kam bo‘ladi;

b) ko‘rgina bitimlarni tuzishda butun forvard kursini emas, balki forvard marjasining o‘lchamini bilish yetarli hisoblanadi.

Svop–stavka AQSh dollariga nisbatan mos valyutaning mutloq ulushini ifodalaydi. Svop–stavka usuli bilan forvard kursini kotirovka qilinganda faqatgina mukofot yoki diskont aniqlanadi. Ular to‘g‘ri kotirovkalashda faqatgina “spot” kursini ayirish yoki qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. Teskari kotirovkalashda diskont qo‘shiladi, mukofot esa “spot” kursidan ayirib aniqlanadi.

Bank axborot tizimida kotirovka qilinuvchi svop–stavka faqat to‘liq oy yoki boshqacha aytganda “ordinar” sanalar uchun beriladi. Valyutalashtirishning spot–sanasi oyni oxirgi kunlariga to‘g‘ri kelib qolsa holat murakkablashadi. Bu holda “oy oxiri” qoidasi qo‘llaniladi, unga ko‘ra bu kabi spot kursda barcha forvard bitimlari valyutalashning oy oxiri kuni sanasiga ega bo‘ladi.

Masalan, 6 oylik forvard bitimi 26–fevralda tuzilsin, u holda mos spot–sana 28–fevral bo‘ladi, ya’ni oy oxiri. Demak, bundan kelib chiqdiki, forvard bitimi 28–avgust emas balki, 31–avgustda to‘lanishi kerak.

Spot bitimlari kabi, forvard shartnomalari ham AQSh pul birligi ishtiroki siz tuzilishi mumkin. Bu holda hisob–kitoblar uchun kross–

kurslar qo‘llaniladi.

Forvard shartnomasini tuzish bilan operatorning bozordagi valyuta riski oshadi, chunki belgilangan sanaga valyuta kursining kutilmagan o‘zgarish ehtimoli oshadi. Shunday qilib bankning pozitsiya yopilishi bilan bog‘liq risk bo‘ladi. Xuddi shuning uchun forvard bitimini tuzishda mijozning hisobida bu riskni qoplash uchun qoldig‘i bo‘lishi yoki kreditliniyasi ochilishi kerak.

Forvard operatsiyalarini o‘tkazishdan asosiy maqsad esa valyuta risklarini xedjirlashdan iborat. Forvard shartnomalari yordamida mijozlarning asosiy qismi ochiq valyuta pozitsiyalarini yopishga intiladilar.

Fyuchers operatsiyalari mohiyati forvard bitiminikiga o‘xshash.

Fyuchers operatsiyalari ham bitim tuzgandan so‘ng 3 kundan kechiktirmasdan valyutani yetkazish bilan amalga oshiriladi va bunda kelajakda shartnoma amalga oshirish narxi bitim tuzilgan kunda belgilanadi. Forvard va fyuchers operatsiyalarining o‘xshash tomonlari bo‘lgani bilan bir–biridan farq qiluvchi belgilari ham mavjud.

Birinchiidan, fyuchers operatsiyalari, odatda, birja bozorida, forvard esa banklararo bozorda amalga oshiriladi. Bundan shu kelib chiqadiki, fyuchers shartnomalarini amalga oshirish muddatlari ma‘lum sanalarga bog‘liq bo‘ladi va muddat, hajm hamda yetkazib berish shartlari bo‘yicha standartlashtirilgan bo‘ladi. Forvard shartnomalarida esa muddat va hajm o‘zaro tomonlar kelishuvi bo‘yicha belgilanadi.

Ikkinchiidan, fyuchers operatsiyalari ma‘lum chegaralangan valyutabirlklari bilan amalga oshiriladi (AQSh dollari, Yevro, yapon iyenasi, funt–sterling va boshqalar.). Forvard shartnomalarida esa ko‘proq turdagi valyutalardan foydalaniladi.

Uchinchiidan, fyuchers bozorida yirik investorlar ham, shuningdek individual va kichik institutsional investorlar ham ishtirok etishi mumkin. Forvard bozorida esa uncha katta bo‘lmagan firmalar ishtiroki chegaralangan, chunki ko‘p hollarda forvard

shartnomasini tuzish uchun minimal summa 500000 AQSh dollaridan iborat.

To‘rtinchidan, fyuchers operatsiyalarining 95% ofset (qaytarish) bitimi bilan tugallanadi, bunda valyutani real yetkazib berish amalga oshirilmaydi, ishtirokchilar esa faqatgina shartnomalarning boshlang‘ich narxi bilan qaytarish bitimi amalga oshirish kunidagi narx orasidagi farqningina oladilar. Forvardda esa 95% holda valyutani yetkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Beshinchidan, shartnomalarning standartlashtirilgani shuni bildiradiki, fyuchers bitimlari individual mijoz va bank o‘rtasidagi tuzilgan forvard bitimlariga qaraganda arzonroqqa tushadi. Xuddi shuning uchun forvard bitimlari odatda qimmatroq, ya’ni ularda sotish va sotib olishda katta spread kuzatiladi. Bu esa muddatdan ilgari ochiq pozitsiyani yop– ganda mijoz uchun katta xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Valyuta opsini ham valyuta operatsiyalarining turi bo‘lib, undan sotuvchi xaridor oldindan kelajakdagi muayyan muddatda qat’iy belgilangan narx bo‘yicha muayyan miqdordagi xorijiy valyutalarni xarid qilish yoki sotish huquqini o‘z zimmasiga oladi.

Opsionlarning quyidagi 3 ta asosiy turi mavjud:

- **“koll–opsion” (call option)** – sotib olinadigan opsion;
- **“put–opsion” (put option)** – sotiladigan opsion;
- **“koll–put” (call–put–option)** – ikki yoqlama opsion.

Koll opsionning xaridori oldindan belgilangan narx bo‘yicha muayyan valyuta yoki tovarni sotish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu “huquq” xaridorga aniq tovarni sotib olish yoki sotish uning uchun foyda keltirmaydigan bo‘lgan holda undan voz kechish imkoniyatini beradi.

Opsionning sotuvchisi koll–opsion holatida opsionni bajarishi, ya’ni sotishi lozim. Put–opsion holatiga ega opsion xaridori buni talab qilsa, muayyan tovarni sotib olishi shart.

Valyuta opsionlarining quyidagi kamchiliklari mavjud:

a) baho mukofotning bahosi valyuta bilan qoplangan umumiy summaning 5% atrofini tashkil qiladi, shunday bo‘lsa-da, summaning

aniqligi kutilayotgan kursning ayriboshlanishi o'zgarishiga bog'liqdir;

b) "oldindan" to'lovning zarurligi. Valyuta opsiolari uning tuzilishi vaqtida to'lanadi. Bu barcha kompaniyalar uchun ham qulay emas, chunki ular opsiolarni amalga oshirishni istasalar ham ular har doim naqd pulga ega bo'lmaydilar;

d) savdo opsiolarini barcha valyutalarga nisbatan olib bo'lmaydi, shunday bo'lsa-da birjadan tashqaridagi opsiolar har qanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

e) Koll-opcion – opcion egasiga kelajakda valyuta kursi oshib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan past strayk-bahoda xarid qilish huquqini beradi.

f) sotish uchun yoki put-opcion egasi kelajakda kursi tushib ketishi mumkin bo'lgan valyutani nisbatan yuqori strayk bahoda sotish huquqini beradi.

g) put-koll opcion egasi bazis bahoda valyutani sotib olishi yoki sotishi mumkin.

Opcion bilan forvard bitimi orasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat:

- xaridor apsayddan daromad oladi;
- xaridor daunsayddan himoyalangan;
- xaridor opcion uchun mukofot to'laydi.
- Apsayd – almashinuv kursining strayk bahoga nisbatan o'sishi, daunsayd–strayk bahoga nisbatan pasayishi.

Svop operatsiyasi – bu bir vaqtning o'zida chet el valyutasini har xil sanaga turli hisob-kitoblar shartida teng summaga sotib olish va sotishdir. Ya'ni svop – bu valyutani kelajakda sotib yuborish garovi bilan qandaydir vaqtga sotib olishdir. Bunda bir vaqtning o'zida valyuta almashuvi bo'yicha 2 ta alohida bitim tuziladi. Bu bitimlar qarama-qarshi yo'nalishga va turli hisob-kitob sanasiga ega bo'ladi.

Svop operatsiyalari ko'pgina banklar tomonidan o'zlarining chet el valyutasidagi majburiyatlarini qoplash maqsadida foydalanadi. Svop operatsiyasi ikki bank tomonidan amalga oshirilganda bir bank ikkinchi bankka bir valyutani, ikkinchisi ikkinchi valyutani

almashadi va qandaydir vaqt o'tishi bilan valyutalar qaytarib olinadi.

Asosiysi shundaki, svop bitimlari ochiq valyuta pozitsiyasini keltirib chiqarmaydi va vaqtincha kurs o'zgarishi bilan bog'liq riskdan xoli bo'lgan valyuta bilan ta'minlaydi. Svop bitimlari, odatda, 1 kundan 6 oygacha muddatga tuziladi, muddati 5 -yilgacha bo'lgan svop bitimlari esa juda kam uchraydi.

Svop operatsiyalari tijorat banklari o'rtasida, tijorat banki va markaziy bank o'rtasida hamda mamlakatlar markaziy banklararo amalga oshirilishi mumkin. Umumiy qilib aytganda, kassa va forvard operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi valyuta shartnomasi svop shartnomasi hisoblanadi.

Valyuta arbitraji – bu valyutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim tuzib, valyuta kurslari farqi yordamida foyda olish maqsadida o'tkazishni ifodalaydi. Arbitraj operatsiyalarini o'tkazishning asosiy shartlaridan biri bozorning turli segmentlararo kapital oqimi erkin bo'lishi, ya'ni valyutalarning erkin konvertirlanishi, valyuta cheklovlarining yo'qligi va boshqalar hisoblanadi.

Arbitraj ikki xil – joylashuvga ko'ra va vaqtli bo'ladi. Ularning har biri ham o'z navbatida oddiy va murakkabga bo'linadi. Operatsiya ikki valyuta ishtirokida amalga oshirilsa – oddiy, uch va undan ortiq valyutalar bilan amalga oshirilsa – murakkab bo'ladi.

Joylashuvga ko'ra arbitraj banklarning turli valyuta bozorlaridagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valyuta risk bilan bog'liq emas, chunki valyuta savdosi bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Masalan, bank vakili Singapurda valyutani sotib oladi (sotadi) va shu vaqtning o'zida u o'zining Londondagi korrespondenti orqali shu valyutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtli arbitraj vaqt o'tishi bilan valyuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valyuta arbitraji spot va forvard sharoitida amalga oshirilishi mumkin va bu turdagi operatsiyalarda valyuta risklari mavjud bo'ladi.

Arbitraj operatsiyalari tijorat banklari dillerlari ishining asosiylaridan hisoblanadi. Ko'pincha, arbitraj bitimlarini o'tkazish

imkoniyatlari sanoqli daqiqalardagina to'g'ri kelishi mumkin, shuning uchun dillarning arbitraj operatsiyasini tezda baholash va hisoblashi qobiliyati foyda va zarar masalasini hal qilishi mumkin. Arbitraj operatsiyasini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun bozorni yaxshi o'rganish, kelajakni ko'ra bilish kabilar dillerlar uchun zaruriy shartlardan biridir.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatining Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi bank tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning ⁴⁹ 47–moddasiga muvofiq, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organi hisoblanadi.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasining yuritilishi haqidagi hisobot muhim o'rin tutadi. Bu hisobotni tahlil qilishning zarurati Markaziy bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarga limit o'rnatilishidadir. Bu tartib bo'yicha bankning o'z mablag'lariga nisbatan 20% gacha valyuta sotib olishi va sotishiga ruxsat bor, ya'ni bir valyuta turi bo'yicha bu ko'rsatkich 5% qilib belgilangan. Limit o'rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo'ysa va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto bank bankrot bo'lishi mumkin va bu, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning oldini olish maqsadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Valyuta kursi, kotirovka, valyuta pozitsiyasi, ochiq valyuta pozitsiyasi, kross–kurs, valyuta siyosati, foiz dinamikasi, diskont, yopiq valyuta pozitsiyasi, sotuvchi kursi, xaridor kursi, valyuta real kursi, SPOT, SVOP, tratta kvota, forvard, fyuchers, qisqa valyuta pozitsiyasi, uzun valyuta pozitsiyasi.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.11.2019 yildagi O'RQ-582-son. <https://lex.uz/docs/-4590452>.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Valyuta kursi nima va uning turlarini tushuntiring?
2. Xalqaro hisob–kitob shakllarini sanang va ularning mohiyatini tushuntiring.
3. Kotirovka nima, uning turlarini misollar yordamida tushuntiring.
4. Valyuta sotish va sotib olish qoidalarini izohlang.
5. Valyuta depozit hisob varaqini ochish tartibini tushuntiring.
6. Valyuta kursiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
7. Naqd xorijiy valyutani sotish, sotib olish qanday amalga oshiriladi?

X bob. INVESTITSION XARAKTERDAGI BANK SERVISINI TASHKIL ETISH

10.1. Investitsion xarakterdagi bank servisi.

10.2. Banklarning investitsion mahsulotlarini yaratish va joriy etish.

10.1. Investitsion xarakterdagi bank servisi

Bank servisining investitsion tabiati zamonaviy moliyaviy dunyoning muhim jihatini anglatadi. Banklar mijozlarning aktivlarini boshqarish va ularning farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli xizmatlarni taklif qilishadi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya hisobvarag‘lari, obligatsiyalar, aksiyalar va o‘zaro fondlar muhim rol o‘ynaydi, bu mijozlarga o‘z portfellarini diversifikatsiya qilish va xatarlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Mijozlar investitsiya maqsadlari va tavakkalchilikka tayyorlik darajasiga qarab konservativ va xavfli mahsulotlarni tanlashlari mumkin. Depozit sertifikatlari va davlat obligatsiyalari kabi konservativ investitsiyalar barqaror, ammo kam daromad keltiradi. Shu bilan birga, aksiyalar va venchur fondlari kabi yanada tajovuzkor vositalar sezilarli darajada ko‘proq daromad keltirishi mumkin, ammo yuqori xavf bilan birga keladi.

Shuningdek, banklar mijozlarga o‘z investitsiyalari to‘g‘risida ongli ravishda qaror qabul qilishda yordam beradigan maslahat xizmatlarini taklif qilishadi. Professional moliyaviy maslahatchilar joriy bozor tendensiyalarini tahlil qiladilar va mijozlarga o‘z portfellarini uchun maqbul aktivlarni tanlashda yordam berishadi. Shunday qilib, investitsiya bank xizmatlari nafaqat kapitalning o‘shiga yordam beradi, balki mijozlarning moliyaviy qarorlariga ishonchini ham ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, mijozning noyob ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan individual investitsiya rejalari investitsiya bank xizmatlarida muhim rol o‘ynaydi. Bunday rejalar moliyaviy maqsadlarga erishish uchun eng mos vositalarni, shu jumladan uzoq muddatli jamg‘armalar, ko‘chmas mulk sotib olish yoki ta‘limni

moliyalashtirishni aniqlashga yordam beradi. Bu mijozlarga nafaqat o‘z aktivlarini yanada samarali boshqarish, balki kerakli natijalarga erishish uchun samarali strategiyalarni yaratish imkonini beradi.

Moliyaviy bozorlarning beqarorligi sharoitida banklar kapitalni himoya qilishga qaratilgan mahsulotlarni ham taklif qilmoqdalar. Xedjerlash yoki tuzilgan mahsulotlar kabi vositalar potensial yo‘qotishlarni minimallashtirishga va investitsiyalarni kutilmagan kurs o‘zgarishlaridan himoya qilishga yordam beradi. Bu o‘z xavfini kamaytirmoqchi bo‘lgan mijozlar uchun investitsiyalarni xavfsizroq va jozibador qiladi.

Natijada, investitsiya bank xizmatlari moliyaviy resurslarni boshqarish uchun muhim vositadir. Ular mijozlarga nafaqat kapital to‘plash, balki uning o‘sishi va himoyasini ta‘minlash imkonini beradi. Professional maslahatchilar va turli xil investitsiya vositalari yordamida banklar mijozlarga moliyaviy mustaqillik va barqarorlik yo‘lida ishonchli harakat qilishda yordam beradi.

Bank investitsiya mahsulotlari – bu turli darajadagi moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan juda yangi imkoniyat. Ularning mohiyati juda kengdir, chunki investitsiyalar bilan ishlashning ko‘plab variantlari mavjud, ammo aksariyat hollarda bankning roli taxminan bir xil – vositachilik. Uning o‘zi nisbatan kamdan–kam hollarda o‘z mablag‘larini xavf ostiga qo‘yadi, mijozlarning pullaridan foydalanishni afzal ko‘radi va buning uchun ularga olingan daromadning bir qismini beradi.

Hamma banklar hech bo‘lmaganda ba’zi mumkin bo‘lgan xizmatlarni taqdim etmaydi, ularning turlari juda ko‘p. Masalan, ko‘pincha ma’lum bir moliya institutining investitsiya mahsulotlari faqat ishonchli boshqaruv xizmatlaridan iborat. Ya’ni, bank oddiygina mijozning pulini oladi va uning roziligi bilan birjada foydalanishga kirishadi. Qoida tariqasida, tashkilot unchalik foydali bo‘lmagan, ammo yuqori ehtimollik bilan doimiy ravishda ma’lum daromad keltiradigan ishonchli loyihalarga ustunlik beradi. Ushbu yondashuv mijozga o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash imkonini beradi va u, o‘z navbatida, o‘z pulini kamroq xavf ostiga qo‘yadi. Biroq, bu ko‘rsatilgan moliyaviy vosita

bilan ishlashning yagona variantidan uzoqdir. Bank qimmatli qog'ozlarni ham qabul qilishi mumkin, ularni keyinchalik birjaga qo'yadi va o'z xohishiga ko'ra, lekin egasining roziligi bilan tasarruf etadi. Shuningdek, moliyaviy institut mijozlarning iltimosiga binoan xuddi shu qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish bo'yicha xizmatlarni taqdim etishi mumkin. Boshqa narsalar qatorida, bankning o'zi qimmatli qog'ozlar chiqarishi, investitsiya faoliyati uchun kreditlar berish va hokazo.

Investitsion mahsulotlar kabi vositaga ehtiyoj nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. Shu paytgacha banklar past foiz stavkasida kredit olib, keyin esa ularni o'z mijozlariga yuqori stavkada taqdim etib, o'zlari uchun juda muvaffaqiyatli foyda ko'rar edilar. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar o'z mablag'laridan faol foydalanganlar, chunki depozit bo'yicha stavka har doim kreditga qaraganda past bo'ladi. Biroq, bozorda vaziyat asta-sekin barqarorlashdi va endi, bunday farq pul topish mumkin bo'lsa, keyin faqat nisbatan kichik, banklar standartlari bo'yicha, pul. Natijada, moliyaviy tashkilotlar mavjud bo'lish uchun muqobil imkoniyatlarni izlay boshladilar va investitsiya mahsulotlarini sotish pul ishlash va keyingi faoliyatni amalga oshirishning eng foydali usuli degan xulosaga kelishdi.

Investitsion kredit mahsulotlari. Bu ko'pincha yuridik shaxslarga taklif qilinadigan bank tipidagi moliyaviy tashkilot faoliyatining yana bir variantidir. Uning mohiyati shundan iboratki, bank mijoz va investitsiya ob'yekti o'rtasida vositachi bo'lib, birinchisiga kredit beradi va uning hisobidan mablag'larni investitsiya qiladi. Bu juda xavfli tizim, ammo omad va yoki aniq hisob-kitob bilan u yuridik shaxsga qarzni tezda to'lash, investitsiya ob'yektiga kerakli miqdorni olish va bankka foydaning bir qismini olish imkonini beradi. Umuman olganda, agar bitim muvaffaqiyatli bo'lsa va hech qanday muammo yuzaga kelmasa, barcha tomonlar odatda mamnun bo'lishadi.

10.2. Banklarning investitsion mahsulotlarini yaratish va joriy etish

Banklarning investitsion mahsulotlarini yaratish va joriy etish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli faollikdir. Birinchi navbatda,

banklar bozor tahlilini o'tkazib, mijozlarning ehtiyojlarini aniqlashlari zarur. Mijozlar orasida xilma-xil investitsion maqsadlar bo'lishi mumkin, shuning uchun banklar har bir segmentga mos mahsulotlar ishlab chiqishlari kerak. Masalan, pensiya jamg'armalari yoki ko'chmas mulk investitsiyalari kabi turli xil variantlarni taqdim etish muhimdir. Keyinchalik, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishda texnologik yutuqlarni ham hisobga olish lozim. Raqamli bank xizmatlari va sun'iy intellekt asosida yaratiladigan mahsulotlar, mijozlarga yanada qulay xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bu, shuningdek, ishonchlik va xavfsizlikni oshirishga yordam beradi, chunki mijozlar o'z investitsiyalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mahsulot joriy etilgach, uni marketing strategiyalari orqali mijozlarga yetkazish muhimdir. Banklar, investitsion mahsulotlarini qanday qilib samarali taqdim etish va iqtisodiy foydasini ko'rsatish borasida ijodiy yondashuvlarni qo'llashlari zarur. Mijozlar o'rtasida ma'lumot tarqatishga e'tibor qaratish, har bir mahsulotning afzalliklarini va imkoniyatlarini tushuntirishi kerak. Natijada, banklarning investitsion mahsulotlari muvaffaqiyatli joriy etilishi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni oshiradi, balki mijozlar bilan mustahkam munosabatlarni ham rivojlantiradi. Shunday qilib, bu jarayon bankning umumiy brendini yanada kuchaytiradi va bozor raqobatbardoshligini oshiradi. Investitsion mahsulotlarni joriy etish jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun banklar mijozlardan olingan fikr-mulohazalarga e'tibor qaratishi zarur. Mijozlarning tajribalari va ehtiyojlari asosida takliflarni shakllantirish, mahsulotlar sifatini oshirish imkonini beradi. Mijozlar tomonidan bildiriladigan mulohazalar, bank uchun qiymat qarorlarini qabul qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat – qoidalarga muvofiqlik va nazorat. Banklar yangi investitsion mahsulotlarni taqdim etishda tegishli qonun va me'yorlarga amal qilishi zarur. Mahsulotlar xavfsiz va ishonchli bo'lishi mijozlarning sadoqatini oshiradi. Buning uchun banklar malakali mutaxassislar kadrlarini jalb qilishlari va ularga qo'shimcha ta'lim berishlari kerak.

Mahsulotlarni joriy etish jarayonida turli xil tahlil vositalarini qo'llash, ular samaradorligini baholashga yordam beradi. Olingan ma'lumotlar asosida banklar o'z strategiyasini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari lozim. Shu tarzda, investitsion mahsulotlar bankning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Moliyaviy tuzilma o'z faoliyatida investitsiya mahsulotlaridan daromad olish uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun u birinchi navbatda ma'lum talablarga javob berishi kerak. Shunday qilib, birinchi bosqich – bu davlat litsenziyasini olish. Ushbu muhim hujjatsiz, bunday faoliyatni qonuniy deb hisoblash mumkin emas va mijoz, ideal holda, ushbu hujjatning mavjudligini darhol aniqlab berishi va uning taqdim etilishini talab qilishi kerak. Aksariyat banklar buni talab qilmasdan amalga oshiradilar va bunday litsenziyalarni ommaviy namoyishga joylashtiradilar. Hujjatni olish unchalik oson emas va siz hali ham investitsiyalar bilan ishlash jarayonida tashkilot yonib ketmasligi, daromad olishi va hokazolarni isbotlashingiz kerak.

Keyingi qadam – bankning xalqaro savdo maydonchasiga kirishi. Ba'zi hollarda, u o'z mijozlariga ham kirishni ta'minlashi kerak, ammo bu har doim ham bajarilmaydi. Bu qiyin bosqich, degani emas, chunki bunday saytlar o'yinchilar sonining doimiy ko'payishidan manfaatdor, ammo baribir ma'lum harakatlarni qilish kerak bo'ladi. Bularning barchasi amalga oshirilgandan so'ng, siz ushbu yo'nalishda qanday ishlashni va daromad olishni aniq biladigan mutaxassislarni yollashingiz yoki o'qitishingiz kerak. Aks holda, kutilgan daromad o'rniga doimiy xarajatlar paydo bo'ladi va bank uchun bu deyarli halokatli.

Bularning barchasi amalga oshirilgandan so'ng, siz ushbu yo'nalishda qanday ishlashni va daromad olishni aniq biladigan mutaxassislarni yollashingiz yoki o'qitishingiz kerak. Aks holda, kutilgan daromad o'rniga doimiy xarajatlar paydo bo'ladi va bank uchun bu deyarli halokatli.

Ushbu talab natijasida tashkilotda bir tomondan moliyaviy investitsiyalar bilan shug'ullanadigan, ikkinchi tomondan potensial mijozlarga investitsiya mahsulotlarini taqdim etadigan ma'lum bir tuzilmani yaratish zarurati tug'iladi. Qoida tariqasida, bunday tuzilmalar

kamida yana ikkita filialga bo‘linadi, ammo bu allaqachon har bir alohida bank faoliyatining xususiyatlari.

Oxirgi bosqich – masalaning texnik tomoni. Bank tizimda ro‘yxatdan o‘tishi, barcha kerakli litsenziyalarni olishi, mukammal mutaxassislarni yollashi va xizmat ko‘rsatish uchun juda ko‘p mijozlarni jalb qilishi mumkin, ammo agar bu mutaxassislar jismoniy jihatdan savdo maydonchalari bilan ishlashga qodir bo‘lmasa, bu harakatlarning barchasi shunday bo‘ladi.

Endi esa, investitsion mahsulotlarning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqamiz (10.2.1-jadval).

Umuman olganda, yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, biz investitsiyalar foydali investitsiyalardir, lekin faqat daromad olish kafolatlari mavjudligi va bankning mijozlardan olingan mablag‘larini umumiy oqilona boshqarish sharti bilan xulosa qilishimiz mumkin. Afsuski, ko‘pincha bularning barchasini faqat empirik yoki, eng yaxshi holatda, o‘z pullarini xavf ostiga qo‘ygan boshqa odamlar yoki tashkilotlarning sharhlari asosida aniqlash mumkin. Mavjud bank tashkilotlari orasidan har biri foydali mahsulotlar va hamkorlik uchun eng qulay shart–sharoitlarni taklif qila oladiganini tanlashga harakat qiladi. Tashkilotning benuqson obro‘yi va mijozlarning ijobiy sharhlari bundan kam ahamiyatga ega emas.

10.2.1–jadval

Investitsion mahsulotlarning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
Yangi investitsiya mahsulotlarining afzalliklari juda ko‘p. Ulardan birinchisini olingan foyda hajmi deb hisoblash mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bank odatda mijozning o‘zidan ko‘proq daromad oladi. Ammo u o‘zi ham tavakkal qiladi (hech bo‘lmaganda ko‘p hollarda). Ikkinchi afzallik – mutaxassislarning yordami. Nazariy jihatdan, har kim mustaqil ravishda birjada o‘yinchi bo‘lishi va o‘z xohishiga ko‘ra sarmoya kiritishi mumkin. Biroq, aslida, bunday yondashuv	Tabiiyki, har doim kamchiliklar mavjud. Shunday qilib, investitsiya mahsulotlari nafaqat mavjud bo‘lgan eng foydali moliyaviy vosita, balki mumkin bo‘lgan xavflar nuqtayi nazaridan eng xavfli bo‘lib qolmoqda. Ko‘pincha, bank hali ham mijozga omonatga qo‘ygan summani qaytaradi, ammo siz foydani kuta olmaysiz. Bundan tashqari, ba’zi hollarda, tashkilotning daromadlari holati juda qiyin

ko‘pincha shaxs yoki yuridik shaxs maxsus o‘qitilgan xodimlarning xizmatlaridan foydalanmasa, shunchaki pullarini yo‘qotishiga olib keladi	bo‘lsa, pulni qaytarish juda uzoq vaqt davomida kutilishi mumkin.
--	---

Globalashuv sharoiti mamlakatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini ham jadallashtirib yubordi. Bu sur‘atlar ijtimoiy–siyosiy, sotsial–iqtisodiy, madaniy–gumanitar, sport, qo‘yingki, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘z ifodasini topyapti. Bunday tendensiyalar, albatta, moliya bozorlari, tijorat banklari, moliyaviy mexanizmlar, xususan, investitsiyalar oqimi qiyofalarini mutlaqo o‘zgartirib yubordi. Binobarin, bugun qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritayotgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishayotgani aksiomaga aylanib ulgurdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”⁵⁰.

Oxirgi -yillarda bank va moliya tizimida jadal davom ettirilayotgan jadal islohotlar avvalo sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etishda namoyon bo‘lyapti. O‘z navbatida uzoq -yillar davomida banklar kapitalining asosiy qismi davlatga tegishli bo‘lib kelgandi. Bu esa bank sektorida sog‘lom raqobatga to‘siq bo‘lib kelar, xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan edi.

Binobarin, so‘nggi -yillarda banklar faoliyati, ayniqsa, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilyapti. Davlat rahbarining topshirig‘i bilan hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko‘magida bank–moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilmoqda.

Zero, shu asosda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib keladi. Pirovardida davlat banklari ulushi bosqichma–bosqich kamayib

⁵⁰ <https://xs.uz/uz/post/>- Xalq so‘zi gazetasi. 13 fevral 2019 yildagi soni.

boradi va sohada raqobat muhitini yaxshilash, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini, ayniqsa, ularning investitsion aktivligini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.

Bu yoʻlda moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari koʻlamini yanada kengaytirish, ilgʻor axborot texnologiyalari asosida bank tizimini ravnaq toptirishga alohida eʼtibor qaratilyapti. Sarmoyadorlar uchun keng va qulay sharoitlar yaratib berilyapti. Bu yoʻldagi birinchi qadam albatta valyuta bozorini erkinlashtirib borilayotgani hisoblanadi. Zotan, unda bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini taʼminlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼyektlarini kreditlashni yana–da kengaytirish mustahkamlab qoʻ-yilgan.

Yuqoridagi fikrlarni xalqaro va mahalliy ekspertlar ham tasdiqlaydi. Ularning eʼtirof etishlaricha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xoʻjalik subʼyektlarining asosiy kapitalini yangilash va texnologik jihatdan yuqori bosqichga koʻtarishni investitsiyalarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shu boisdan ham, xoʻjalik subʼyektlari moliyaviy oqimlarni diversifikatsiya qilish, xoʻjalik tuzilmalarini takomillashtirishga qaratilgan investitsion faoliyatni faollashtirishlari zaruratga aylanib boryapti. Tasavvur qiling tijorat banki investor rolida. U ushbu maqom ostida bevosita va bilvosita daromad olish maqsadida oʻz resurslarini muayyan muddatga real aktivlarni tashkil etish yoki sotib olishga, moliyaviy aktivlarni xarid qilishga yoʻnaltiradi. Oʻz navbatida banklarning investitsion faoliyati ularning moliyaviy vositachilik roli orqali ham yuzaga chiqadi.

Bu makroiqtisodiy jihatga ham ega. Aynan shu prizma orqali qararak, tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida xoʻjalik subʼyektlarining pul–kredit shaklida yuzaga keluvchi investitsion talablarini amalga oshishini ragʻbatlantiradi, jamgʻarmalarining investitsiyaga transformatsiyalashuvini taʼminlaydi. Shu boisdan ham olimlarning aytishicha, makroiqtisodiy jihatdan yondashilib, banklarning

investitsion faoliyati deganda, iqtisodiyot, mamlakat va mintaqalar ko‘lamida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarning investitsion talablarini qondirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Ayrim ekspertlar esa investitsion faoliyatdan olingan daromad, investitsiyalarning umumiy aktivlardagi salmog‘i ko‘rsatkichlariga qarab tijorat banklarini investitsion bank sifatida e‘tirof etadilar. Masalan, F.Allen va A.Santamero o‘zining “Moliyaviy intermeditatsiya nazariyasi”⁵¹ maqolasida investitsion bank deganda muayyan biznes sohada faoliyat yurituvchi tijorat banki yoki investitsion bank sifatidagi alohida institutsional shaklni emas, balki turli moliyaviy maslahatlar beruvchi malakali vositachilikni tushunish muhim ekanligini aytib o‘tishgan. “Aynan investitsion banklar professionalizm, nou–xau va texnologiyalar orqali moliyaviy bitimlarga kirishuvchi tomonlarga qulayliklar yaratadi” deydi ular.

Shu ma’noda investitsion bank kompaniyalarning an’anaviy biznes faoliyatini moliyalashtirish uchun oddiy instrumentni emas, balki ularning murakkab moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun taklif etiladigan mahsulotlar va xizmatlar tizimini anglatishi to‘g‘risida fikr bildiriladi. Aynan shundan kelib chiqib investitsion bank xizmatlari beshta strategik muhim biznes sohalariga ajratiladi. Kapital bozorlari, korporativ moliya, merchant–benking, loyihalar moliyasi, tavakkalchilikni boshqarish shular jumlasidandir.

Korporativ moliya yo‘nalishidagi biznes faoliyat esa egalikdagi mulkni qayta taqsimlash xizmatlari (birikish va qo‘shib olish va boshqalar), inqirozdagi kompaniyani restrukturizatsiya qilish xizmatlari, moliyaviy maslahat xizmatlarini ifodalaydi. Tijorat banklari investitsion faoliyatida “Merchant benking” ham muhimdir. Sababi, shu asosda kompaniya faoliyatining dastlabki bosqichida aksiyalarga investitsiya qilish (venchur kapital), o‘shish va egalikdagi mulk bazasini restrukturizatsiya qilish maqsadida aksiyalarga investitsiya qilish (xususiy kapital) imkoniyati yaratiladi.

⁵¹ <https://xs.uz/uz/post/> - F.Allen va A.Santamero. Tijorat banklarining samarali investitsion faoliyati taraqqiyot va farovonlikning muhim omili.

Loyihalar moliyasi, ya'ni tuzilmaviy moliyada esa xususiy investitsiya tashabbuslari, aralash, ya'ni davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim o'rin tutadi. Sanoat va moliya tavakkalchiliklarini boshqarish xizmatlari, tavakkalchilikni o'lchash va qoplash bo'yicha konsalting xizmatlari ham tijorat banklarining investitsion faoliyatida, boshqacha aytganda, ularning investitsion bank ekanligini tasdiqlovchi asosiy parametrlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham tijorat banklarining investitsion siyosatini aynan shulardan kelib chiqib zamon talablariga moslashtirish qat'iy talab etilyapti. Bunda ularning investitsion faoliyatning maqsadli mo'ljallari tizimini tashkil etish va mazkur maqsadlarga erishish usullarini erkin tanlash uchun imkoniyat berilyapti. Institutsional jihatdan qaraganda, bu investitsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda deganidir. Aynan shu nuqtayi nazardan tijorat banklarimizning muayyan faoliyati investitsion aktivlarning muvofiq tarkibi va hajmini ta'minlash, tavakkalchilikning maqbul darajasida aktivlar daromadlilikini oshirishga yo'naltirilishi kerak. O'z navbatida bank resurs bazasini kengaytirish va bank resurslari saqlanishini ta'minlash ham istiqbol maqsadlari qatoridan joy olishi lozim. Shundagina investitsion qo'yilmalarning likvidligi, xavfsizligi va daromadlilik hamda o'sib borishi uchun pragmatik sharoit yaratiladi. Shu o'rinda investitsiya yo'nalishida tijorat banklarini rag'batlantiruvchi omillar bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tish mumkin: raqobatdagi ustunlikni oshirish, resurs bazasini kengaytirish hisobiga kreditlash hajmini oshirish, kredit portfeli tavakkalchiliklarini diversifikatsiyalash asosida tavakkalchilik darajasini kamaytirish, kredit qaytmasligi tavakkalchiligini kamaytirish.

Demak, hali oldinda qiladigan ishlar ko'p. Masalan, mamlakatimiz banklarida hamon qisqa muddatli manbalarni qisqa muddatli aktivga yo'naltirish ko'lami kattaligicha to'g'ri kelmoqda. Shunday ekan, tijorat banklarining uzoq muddatli aktivlarga qo'yilma qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Hozirgi kunda respublikamiz banklarining fond bozoridagi operatsiyalari ko'lami kichikligicha qolmoqda. Bu miqyosni tubdan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Tijorat

banklari likvidlilikni samarali boshqarish, investitsion portfel tarkibini oqilona shakllantirish yoʻlidagi ayrim toʻsiqlarni bartaraf etish davr talabidir.

Buning uchun esa zarur institutsional va huquqiy poydevor yaratilib, takomillashtirib borilyapti. Yangi tahrirda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”gi⁵², “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi⁵³, “Valyutani tartibga solish toʻgʻrisida”gi⁵⁴ hamda “Toʻlovlar va toʻlov tizimlari toʻgʻrisida”gi⁵⁵ yangilangan qonunlar, davlatimiz rahbarining “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma–bosqich oʻtish orqali pul–kredit siyosatini takomillashtirish” toʻgʻrisidagi⁵⁶, “Tashqi begʻaraz koʻmak mablagʻlarini jalb etish mexanizmlarini va donorlar bilan ishlashni takomillashtirish chora–tadbirlari” toʻgʻrisidagi⁵⁷ qarorlari va boshqa shu kabi muhim hujjatlar tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirishga ham turtki beradi.

Zero, har qanday islohot natijasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qilishi kerak. Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, “Odamlarimiz yetarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi–yangi korxonalar va ish joylarini koʻpaytirishimiz zarur. Bu gʻoyat dolzarb ishlarni oʻzimiz qilmasak, hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi”. Tijorat banklari esa aynan mana shunday muhim jarayonlarning eng faol va uzluksiz ishtirokchisiga aylanishi bugun har qachongidan ham dolzarbdir⁵⁸.

Mavzu boʻyicha tayanch soʻz va iboralar

⁵² Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 11.11.2019 yildagi OʻRQ-582-son. <https://lex.uz/docs/-4590452>.

⁵³ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019 yildagi OʻRQ-580-son. <https://lex.uz/docs/-4581969>.

⁵⁴ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 22.10.2019 yildagi OʻRQ-573-son. <https://lex.uz/docs/-4562834>.

⁵⁵ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019 yildagi OʻRQ-578. <https://kun.uz/79643134>.

⁵⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.11.2019 yildagi PF-5877-son. <https://lex.uz/docs/-4600824>.

⁵⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.10.2019 yildagi PF-5848-son. <https://lex.uz/docs/-4550463>.

⁵⁸ Odil Shernazarov, Oʻzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi <https://xs.uz/uz/post/tizhorat>.

Investitsiya, professional moliyaviy maslahatchilar, moliyaviy resurslar, bank investitsiya mahsulotlari, investitsion kredit mahsulotlari, raqamli bank xizmatlari, litsenziyalash, integratsiya jarayonlari, iqtisodiyot drayveri, moliyaviy intermeditatsiya, sekyuritizatsiyalash, diling, brokerlik, market–meyking.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Investitsion xarakterdagi bank servisi haqida gapirib bering.
2. Professional moliyaviy maslahatchilar kimlar?
3. Bankning investitsiya mahsulotlariga nimalar misol bo‘la oladi?
4. Investitsion kredit mahsulotlari haqida gapirib bering.
5. Banklarning investitsion mahsulotlarini yaratish va joriy etish yo‘llari haqida gapirib bering.
6. Investitsion mahsulotlarning afzalliklari va kamchiliklari nimada?
7. Mamlakatimizda tijorat banklarining qanday investitsion siyosati amalga oshirilmoqda?

XI bob. XALQARO VA MILLIY TO‘LOV TIZIMLARI ORQALI BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISH

11.1 To‘lov tizimining mazmuni va uning elementlari.

11.2. Respublika to‘lov tizimi va uning tashkil etilishi.

11.3. SWIFT xalqaro to‘lovlar tizimining mazmuni va uni tashkil etilishi.

11.1 To‘lov tizimining mazmuni va uning elementlari

Mamlakatimizning hozirgi rivojlanish bosqichida, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va chuqurlashtirish kuchli ijtimoiy siyosat bilan olib borilayotgan bir paytda, iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lgan bank tizimining barqarorligini oshirish va yanada rivojlantirish dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi kunda bank tizimi rivojlanib borar ekan, banklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, hisob–kitoblarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish ham talab etiladi. Bu albatta, mamlakat to‘lov tizimini yanada isloh qilish bilan bog‘liqdir, chunki to‘lov tizimi mamlakat miqyosida tovar – pul munosabatlari natijasida vujudga keladigan barcha to‘lovlar majmuasini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqida “Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya’ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o‘z navbatida, bank sektorida sog‘lom raqobatga to‘siq bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta’sir qilmoqda”⁵⁹ deb ta’kidlaydi.

Bu o‘z navbatida O‘zbekistonda bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish bank tizimi barqarorligini ta’minlash hamda banklarning to‘lov va hisob–kitoblar faoliyatini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida hamda pul–kredit tizimida yuzaga kelayotgan bunday natijalar, bugungi kunda naqd pulsiz hisob–kitoblar va to‘lov tizimini yanada rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shunga ko‘ra iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishidan ko‘zlanayotgan natijalarning maqsadi, birinchi – islohotlarning qay

⁵⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2018 yil.29.12.

darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so'zsiz oshirish demakdir.

Iqtisodiyotda yuzaga keladigan pulli munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va to'lov usullariga ko'ra pul aylanishi naqd pulsiz aylanishga va naqd pulli aylanishga bo'linadi. Chakana savdo va aholiga pullik xizmat uchun to'lovlar, kommunal va maishiy xizmatlar uchun to'lovlar, ish haqi va shunga tenglashtirilgan to'lovlar, sug'urta tashkilotlariga badallar, aholi tomonidan mulk va boshqa soliqlar, aholi tomonidan olingan kreditni va uning foizini naqd pulda qaytarish kabi to'lovlar va boshqa to'lovlarning to'lanishi naqd pulli aylanishga kiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi tovarlar va xizmatlar, shuningdek, moliyaviy majburiyatlar bo'yicha barcha hisob-kitoblar faqat naqdsiz ko'rinishda amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarning naqdsiz ko'rinishi respublika amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitoblar deb yuritiladi. Umumiy qilib aytganda, naqd pulsiz hisob-kitoblar bu korxonalar va tashkilotlarning tovar ayriboshlash, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni pul mablag'larini bir hisobvarag'dan ikkinchi hisobvarag'ga o'tkazish orqali amalga oshirilishidir. Demak, hisob-kitoblarni o'tkazish uchun bankda barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar banklarda hisobraqam ochadilar. Bu hisobraqamlarda mijozlarning depozitlari, ya'ni bo'sh mablag'lari saqlanadi. Tijorat banklaridagi hisobraqamlarda saqlanayotgan depozitlar hajmi -yildan—yilga ortib bormoqda.

Mamlakatimiz banklarining barqaror holati, bank tizimiga bo'lgan ishonchning yildan—yilga oshishi hamda aholi real daromadlarining o'sib borishi aholi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilishning mustahkam asosi bo'lib

qolmoqda. Tijorat banklarining resurs bazasini ko‘paytirish borasida amalga oshirayotgan ishlari natijasida jami depozitlar miqdori -yildan – -yilga oshib bormoqda. Xususan, 2017–2018-yillar mobaynida mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, omonatlarning yangi va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etishga alohida e‘tibor qaratildi. 2018-yil yakuniga ko‘ra tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2015-yilga nisbatan 2,5 barobarga oshib, 70 trln. so‘mni tashkil etdi⁶⁰.

Naqd pulsiz hisob–kitoblar o‘zining iqtisodiy mohiyatiga qarab tovarlarni sotish jarayoni bilan bog‘liq hisob–kitoblar va notovar xarakterdagi hisob–kitoblarga bo‘linadi. Tovarlarni sotish jarayonidagi hisoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular asosan korxonalar, tashkilotlar o‘rtasida olib boriladi. Lekin plastik kartochkalar orqali hisob–kitoblar respublika bank amaliyotiga kirib kelgandan so‘ng, aholi ham plastik kartochkalar bilan naqd–pulsiz hisob–kitoblarni amalga oshira boshladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida hamda pul–kredit tizimida yuzaga kelayotgan bunday natijalar, bugungi kunda naqd pulsiz hisob–kitoblar va to‘lov tizimini yanada rivojlanayotganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Iqtisodiy faoliyatni tashkil etish natijasida paydo bo‘lgan majburiyatlarni ushlab turish uchun pulli to‘lovlarni o‘tkazishda ishlatiladigan mablag‘lar yig‘indisi to‘lov tizimidir.

To‘lov tizimi – bu iqtisodiy aloqalar va moliyaviy o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, pul va boshqa aktivlar orqali o‘zaro hisob–kitoblarni amalga oshirishdagi mexanizmlarni o‘z ichiga oladigan muhim tuzilma. Uning asosiy maqsadi iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish, to‘lovlarni tez va ishonchli amalga oshirishdir. To‘lov tizimi sohasi tez rivojlanayotgan, innovatsiyalar bilan boyitilgan bir muhitdir va bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va raqamli moliya muhim rol o‘ynaydi.

To‘lov tizimining asosiy elementlariga banklar, kredit tashkilotlari, elektron to‘lov vositalari, mobil ilovalar, hamda global to‘lov tizimlari

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti.

kiradi. Ularning har biri o'ziga xos vazifalarni bajaradi, foizlarni hisoblaydi, harakatlar tarixini saqlaydi va mijozlarga qulayliklar taqdim etadi. Misol uchun, mobil to'lovlar orqali foydalanuvchilar osonlik bilan turli xizmatlardan foydalanishlari mumkin, bu esa savdo va xizmatlarni yanada qulaylashtiradi.

Shuningdek, to'lov tizimining xavfsizligi ham ma'lum ahamiyatga ega. Ma'lumotlar himoyasi va foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini faol ravishda himoya qilish orqali ishonchni oshirish mumkin. Bu esa savdo va to'lovlarni yanada rivojlantirishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, to'lov tizimlari iqtisodiy baryerlarni pasaytirib, har kimga qulay va effektiv xizmatlar taqdim etadi. To'lov tizimlari mamlakat miqyosida tovar–pul munosabatlari natijasida vujudga keladigan barcha to'lovlari majmuasidan iborat. To'lov tizimi jamiyatda sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardagi pul mablag'larining turli shakllardagi harakatidir. To'lov tizimidan tashqari hisob–kitob degan tushuncha ham mavjuddir. Hisob–kitob tizimi to'lov tizimiga nisbatan cheklangan, ya'ni hisob–kitob tizimi to'lov tizimining bir qismini tashkil etadi. Hisob–kitob tizimi asosan iqtisodiyotda amalga oshiriladigan turli to'lovlar bilan bog'liq. SHuning uchun hisob–kitob tizimi pulning to'lov vositasi funksiyasini bajaruvchi pul oborotidir.

To'lov tizimi pulli munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va to'lov usuliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Naqd pulli to'lov aylanmasiga xizmat qiluvchi to'lov tizimi (pul o'tkazmalari);

2. Naqd pulsiz to'lov aylanmasiga xizmat qiluvchi to'lov tizimi (naqd pulsiz hisob–kitoblar).

To'lov tizimining asosiy qismi naqd pulsiz to'lov aylanmasiga xizmat qiluvchi to'lov tizimidan, ya'ni hisob–kitoblar tizimidan tashkil topadi.

To'lov aylanmasi ham 2 qismdan iborat:

- Naqd pulli to'lov aylanmasi;
- Naqd pulsiz to'lov aylanmasi.

Aholining turli qatlamlaridan kelib tushgan naqd pullar do'kon va naqd pul bilan ishlaydigan boshqa tashkilotlar tomonidan bankka

topshirilishi lozim. Chunki har bir korxonaga va tashkilotga o'z oborot kassasida naqd pulni ushlab turish uchun limit o'rnatiladi. Ushbu limitdan ortiqcha qismi, albatta, bankka topshirilishi shart qilib belgilangan. Bu holda ham biz naqd pulning naqdsiz pulga aylanganini ko'ramiz, ya'ni bank kassasiga topshirilgan naqd pullar naqd pulni topshirgan korxonaning hisobvarag'iga yozib qo'yiladi. Bu jarayon uzluksiz davom etadi.

Mamlakat to'lov tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pul ko'chirish va qarz majburiyatlarini to'lash amallarini bajarish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi institutlar;
- pul hisob–kitoblarini amalga oshirish tartibini tartibga soluvchi shartnomaviy bitimlar;
- iqtisodiy agentlar o'rtasida pullarni ko'chirishni ta'minlovchi moliyaviy institutlar va kommunikatsiya tizimlari.

Agar to'lov tizimi rivojlangan bo'lsa, undan foydalanish sur'ati ham oshib boradi. To'lov tizimining ma'lum bir tizim sifatida elementlari bo'lishi lozim. To'lov tizimi pul ko'chirish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi institut, to'lov instrumentlari, to'lov qatnashchilari va foydalanuvchilari, pul hisob–kitoblarini amalga oshirishni tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlar, kommunikatsiya tizimlari va dasturlar kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

To'lov tizimining to'lov instrumentlari va qatnashchilari bo'ladi. To'lov instrumentlari va qatnashchilari quyidagilar:

1. Samarali to'lov instrumenti tavsifi:

- keng qabul qilish/tan olish;
- kam operatsion xarajatli;
- past yo'qotish risklari/yolg'onchilik va aldoqchilik (qalloblik) riski.

2. Ta'minot uchun zaruriy huquqiy tuzilma:

- past yo'qotish risklari/yolg'onchilik va aldoqchilik riski;
- past yo'qotish risklarini keng qabul qilish;
- to'lovchilar va mablag' oluvchilar uchun oson joriy etish imkoniyati.

3. Qatnashuvchilar (to'lovchilar va mablag' oluvchilar):

- jismoniy shaxslar;
- korxonalar;
- davlat;
- moliya institutlari.

4. Instrumentlar va jarayoni:

- debet to'lov instrumentlari (chek, to'lov talabnomasi va boshqalar);
- kredit to'lov instrumentlari;
- hujjatlar/axborot.

Barcha davlatlarda o'z to'lov tizimi bo'lib, ularning maqsadi bitta. To'lov tizimining asosiy maqsadi – iqtisodiy munosabatlar natijasida vujudga keladigan majburiyatlar yuzasidan barcha to'lovlarni to'liq, o'z vaqtida tez o'tkazish, shu bilan birga ularning xavfsizligini ta'minlashdir.

11.2. Respublika to'lov tizimi va uning tashkil etilishi

Erkin raqobatga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri davlat mulki yagona bo'lmagan holda rivojlanayotgan turli mulkchilik shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqarish va tovar muomalasining mavjudligidir. Tovar muomalasi mavjud ekan, u o'z navbatida korxonalar va tashkilotlar o'rtasida pulli munosabatlarni, ya'ni hisob–kitoblarni keltirib chiqaradi. Hisob–kitoblar ma'lum bir to'lov tizimi bo'lishini talab qiladi. Iqtisodiyot rivojlanishining barcha bosqichlarida o'ziga xos to'lov tizimi bo'lgan va davr talabiga ko'ra takomillashtirib borilgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganib, ichki imkoniyatlarni va mahalliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda mamlakat yangi to'lov tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq deb topildi. Yangi elektron to'lovlar tizimi dasturiy ta'minotini ishlab chiqish ishlari boshlandi. Buning uchun xalqaro tender e'lon qilindi.



11.2.1-rasm

Mamlakat hisob–kitoblar tizimini qayta isloh qilishda asosiy diqqat e’tibor elektron to‘lovlar tizimini tashkil etish, banklarda naqd pulsiz hisob–kitoblar va buxgalteriya amallarini kompyuter texnikasi va dasturiy ta’minot vositalari orqali amalga oshirishga qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarida hisob–kitoblarni yuritish hamda texnika bilan ta’minlanganlik darajasidan kelib chiqib, elektron to‘lovlar tizimini yaratishni bosqichma–bosqich amalga oshirishga doir tegishli chora – tadbirlar ishlab chiqildi. Natijada elektron to‘lovlar tizimi bo‘yicha dasturiy ta’minoti ishlab chiqildi. Elektron to‘lovlar tizimi respublika bank amaliyotga tatbiq etildi va doimiy ravishda takomillashtirib borildi. Elektron to‘lovlar tizimini amaliyotda qo‘llanilishi bo‘yicha me’yoriy asos yaratildi.

“Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga⁶¹ asosan, elektron to‘lovlar amalga oshirilayotganda to‘lov tizimining sub’yektlari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmui to‘lov tizimidir. Respublika to‘lov tizimining quyidagi turlari mavjud:

- banklararo to‘lov tizimi;
- bankning ichki to‘lov tizimi;

⁶¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2005 yildagi O‘RQ-13-son.

– chakana to‘lovlar tizimi.

Bugungi kunda elektron to‘lovlar tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mulki bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi elektron to‘lovlar tizimining ishtirokchilari Markaziy bankning Bosh axborot markazi va hisob–kitob markazidir. Elektron to‘lovlar tizimining foydalanuvchilari esa hisob–kitob markazida vakillik hisobraqamini ochgan tijorat banklari va moliyaviy institutlardir.



11.2.2-rasm

“To‘lov tizimi va to‘lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish” bo‘limida “Uzpaynet” yagona to‘lov tizimini yanada rivojlantirish va respublikaning barcha hududlarida to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha xizmatlar turini kengaytirish hamda kommunal xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlarni “Uzpaynet” yagona to‘lov tizimiga majburiy ulanishini tashkil qilish bo‘yicha chora–tadbirlar majmuasi ishlab chiqish lozimligi ko‘rsatilgan edi.

Bundan tashqari, “Banklar bo‘linmalari va filiallaridan banklar bosh ofisining qayta ishlash markazlari, yagona umumrespublika protsessing markazi va hisob–kitob bankigacha ma’lumotlarni etib kelishida ularni qayta ishlash oraliq bo‘g‘inlarini qisqartirish hisobiga to‘lovlar o‘tkazish jarayonlarini tezlashtirish” vazifasi ham ushbu qarorda o‘z ifodasini topgan edi. Bu vazifani bajarish uchun bir qator ishlar bajarildi. Markaziy bankning hisob–kitoblar kliring markazi tashkil etildi. To‘lovlar o‘tkazishni samarali tashkil etish maqsadida

“Uzcard” banklararo chakana to‘lov tizimida hisob–kitoblarni amalga oshiruvchi bank vazifasi TIF Milliy bankning banklararo hisob–kitob markazidan olinib, bu vazifa Markaziy bankning hisob–kitoblar kliring markaziga o‘tkazildi.



11.2.3-rasm

Humo to‘lov tizimi. Humo to‘lov tizimi o‘z mijozlariga kontaktsiz texnologiyalar yordamida to‘lovlarni amalga oshirish innovatsion usulini taklif qiladi. Buning uchun bizning barcha karta va terminallarimiz kontaktsiz to‘lov funksionali bilan ta‘minlangan.

Kontaktsiz kartani do‘kondagi kassirga, restoranda esa ofitsiantga berishni hojati yo‘q. To‘lovlar tez va qulay bajariladi. Begona shaxslar kartaning ma‘lumotlarini bila olmaydi. Kartaning yana bir afzalligi bu xizmat muddatining uzoqroq ekanligidir, chunki kartani to‘lov terminal bilan kontaktli ravishda ishlatish talab etilmaydi—hamda kartani har doim hamyondan chiqarish va qo‘lga olish zarur emas.

Tizimning afzalliklari:

–**Dual interfeysli.** Dual interfeysli kartalar (kontaktli va kontaktsiz).



–**Boshqa turdagi kartalar.** Mijozlarga transportda qo‘llash uchun, talabalarga, oilaviy va boshqa turdagi kartalar.



–**PIN kodsiz to‘lovlar**. PIN kodsiz kichik summadagi to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyati.



–**Tizimining moslashuvchanligi**. Karta mahsulotlarining (xizmatlarini) yaratish va boshqarish tizimining moslashuvchanligi.



Humo va Uzcard kartalari o‘zaro integratsiya qilindi.

2023-yil 1-maydan boshlab benefitsiari byudjet va korporativ buyurtmachi hisoblangan to‘lovlar bo‘yicha to‘lov xizmatlari ko‘rsatganlik uchun vositachilik haqi (yig‘imlar) to‘lov shaklidan qat’i nazar to‘lovchi – jismoniy shaxsdan emas, balki to‘lov summasidan chegirib qolish yo‘li bilan undiriladi.

Bunda, vositachilik haqi miqdori to‘lov summasining bir foizigacha, biroq jami summasi Markaziy bank tomonidan belgilanadigan chegaraviy miqdorlardan ko‘p bo‘lmagan miqdorda bo‘ladi.

Ushbu tartib:

- barcha turdagi davlat boji va ma‘muriy jarimalar bo‘yicha to‘lovlar;
- davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari, shu jumladan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan davlat xizmatlariga to‘lovlar;

- maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, qayta tayyorlov, malaka oshirish hamda sog‘liqni saqlash muassasalariga to‘lovlar;

- barcha turdagi kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar;

- majburiy ijro byurosi organlari tomonidan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish bo‘yicha undiriladigan to‘lovlar;

- “E–auksion” elektron savdo platformasi va “K–Savdo” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga to‘lovlar;

- avia, temir yo‘l va boshqa jamoat transportlariga chiptalarni xarid qilishdagi to‘lovlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Qarorda “HUMO” va “UZCARD” to‘lov tizimlari o‘zaro integratsiyasini bosqichma–bosqich, jumladan 2023 -yil may oyiga qadar bankomatlar hamda 2023 -yil yakuniga qadar to‘lov terminallari tizimini integratsiya qilish ishlarini yakunlash topshirilgan. Shuningdek, yagona g‘azna hisobvarag‘i orqali hisob–kitoblarni 24/7 rejimida onlayn tartibda amalga oshirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi Markaziy bankning “Tezkor to‘lovlar” tizimiga integratsiya qilinadi.

11.2.1–jadval

Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob–kitoblar

Davr	Memorial order		To‘lov topshiriqnomasi		To‘lov talabnomasi		Akkreditivga ariza		Inkasso topshiriqnomasi	
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
2023 -yil	22 910 959	3 946 037,5	40 168 988	1 520 578,4	193 661	1 765,9	81	24,9	5 079 844	11 127,8
Yanvar	1 687 403	312 752,2	2 627 119	96 307,9	16 001	117,2	2	0,4	407 276	1 205,8
Fevral	1 832 549	266 273,2	2 955 433	101 272,5	16 512	113,7	4	1,5	516 395	1 045,4
Mart	1 914 899	296 427,6	3 243 867	110 766,3	17 603	175,0	8	3,3	478 366	1 081,9
April	1 796 780	283 208,2	3 075 437	111 135,7	16 193	109,9	16	5,5	349 088	799,0
May	1 954 005	347 402,3	3 248 068	127 977,3	17 116	156,0	2	0,7	433 399	827,1
Iyun	1 748 773	333 283,7	2 912 459	128 492,9	15 357	130,9	11	2,7	376 147	565,2
Iyul	1 823 678	394 087,1	3 099 215	128 984,6	17 755	141,9	2	0,3	388 648	809,9
Avgust	1 811 146	346 576,5	3 373 525	147 583,1	15 998	137,6	2	0,8	381 304	751,4
Sentyabr	2 078 036	323 930,3	3 252 333	133 199,0	14 435	200,7	5	1,7	394 794	712,2
Oktyabr	2 101 082	325 675,8	3 627 415	139 833,6	14 915	158,6	11	2,8	383 768	1 518,0
Noyabr	2 006 307	351 909,4	4 338 031	138 523,0	17 395	183,4	7	1,5	399 901	753,9
Dekabr	2 156 301	364 511,3	4 416 086	156 502,7	14 381	140,8	11	3,5	570 758	1 058,0

Kelajakda mazkur ro‘yxatga qo‘shimcha to‘lov turlari kiritilishi mumkin. Shuningdek, 2023-yil 1-mayga qadar muddatga Toshkent shahrida huquqiy eksperiment tariqasida virtual kassa bilan qamrab olingan savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida naqd pul yechish xizmatini ko‘rsatish amaliyoti joriy etiladi.

11.3. SWIFT xalqaro to‘lovlar tizimining mazmuni va uni tashkil etilishi

Hozirgi paytda xalqaro miqyosda foydalanilayotgan bank elektron tizimi bank xabarlar va hisob–kitob tizimlaridan tarkib topgan. Amaliyotda bir qator xalqaro to‘lov tizimlari mavjud bilib, ulardan eng keng tarqalgani SWIFT xalqaro to‘lovlar tizimidir. SWIFT xalqaro to‘lovlar tizimidan operativ jo‘natmalar va hujjatlarni saqlash maqsadida foydalaniladi.

SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) – Jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiya uyushmasi bo‘lib, jahondagi moliyaviy telekommunikatsiya tarmoqlari ichida yetakchi o‘rinda turadi.

Bu loyiha quyidagi talablarga javob berishi lozim edi:

– To‘lov muomalalari qog‘ozsiz tarzda va imkon darajada ratsional ishlashi;

– Telekommunikatsiya uskunalariidan foydalangan holda banklararo SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) – Jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiya uyushmasi bo‘lib, jahondagi moliyaviy telekommunikatsiya tarmoqlari ichida yetakchi o‘rinda turadi.

– Bank xatarlari minimallasuvi (yo‘qotishlar, to‘lovlarning xato ketishi, qalbaki to‘lovlar va hokazo).

Shunday qilib, «SWIFT» tizimining rivojlanish bosqichlarini umumlashtiramiz:

1. 1973–1977-yillar. «SWIFT» tizimiga 22 mamlakatdan 518 tijorat banklari a‘zo bo‘lgan va 3 400 000 mln. axborot jo‘natilgan.

2. 1978–1985-yillar. 54 mamlakatdan 1188 tijorat banklari a‘zo bo‘lgan va 157 220 000 mln. axborot jo‘natilgan.

3. 1986–1996-yillar. 151 mamlakatdan 5632 tijorat banklari a'zo bo'lgan va 688 000 000 mln. axborot jo'natilgan.

4. 1997–2005-yillar. 203 mamlakatdan 7678 tijorat banklari a'zo bo'lgan va 800 720 685 mln. axborot jo'natilgan.

5. 1980-yildan boshlab «SWIFT» tizimiga Osiyo qit'asidan birinchi bo'lib Gong Kong va Singapur banklari a'zo bo'lgan.

SWIFTning kamchiliklari va avfzalliklari mavjud. SWIFT foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– tarmoq axborotlarni uzatishda fizik, texnik va tashkiliy usullar orqali to'liq xavfsizlikni ta'minlaydi;

– axborotlarni uzatishning ishonchliligi mavjud;

– aloqalar arzon narxda;

– jahonning istalgan nuqtasidan axborotlarni tez uzatish imkoniyati mavjud bo'lib, bu axborotlarni uzatish 20 daqiqani tashkil etadi. Axborotlarning zaruriyatiga qarab, bu muddat 1–5 daqiqani tashkil etishi mumkin;

– barcha to'lov hujjatlari bir andozada bo'ladi. Bu esa, ma'lumotlarni ishlashda engilliklar tug'diradi;

– SWIFT o'z foydalanuvchilari uchun moliyaviy himoyani kafolatlaydi. Agar SWIFTning aybi bilan kun davomida belgilangan joyga to'lov etib bormasa, shu to'lov bilan bog'liq barcha xarajatlarni tarmoq o'z zimmasiga oladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

To'lov tizimi, to'lov aylanmasi, hisob–kitoblar, elektron to'lov, to'lov tizimi elementlari, moliyaviy hisobot, hisob siyosati, chakana to'lov tizimi, axborot–kommunikatsiya texnologiyalari, SWIFT to'lov tizimi, Uzcard to'lov tizimi, Humo to'lov tizimi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. To'lov tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. To'lov tizimiga o'z ta'rifingizni bering.
3. To'lov tizimi ishtirokchilari kimlar?
4. To'lov tizimi foydalanuvchilari kimlar?

5. To'lov tizimining asosiy elementlariga nimalar kiradi?
6. To'lov instrumentlariga nimalar kiradi?
7. O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimining rivojlanishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
8. O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimi va to'lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?
9. Uzkarid va Humo to'lov tizimlari haqida aytib bering.
10. SWIFT to'lov tizimi haqida gapirib bering.

XII bob. TIJORAT BANKLARINING NAQD PULSIZ HISOB–KITOB OPERATSIYALARINI TASHKIL ETISH

12.1. Naqd pulsiz hisob–kitoblarning mazmuni va ahamiyati.

12.2. Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimi va uning elementlari.

12.3. Plastik kartochkalar bilan operatsiyalar va ularning milliy to‘lov tizimidagi o‘rni.

12.1. Naqd pulsiz hisob–kitoblarning mazmuni va ahamiyati

Naqd pulsiz hisob–kitoblar zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu turdagi hisob–kitoblar, birinchi navbatda, banklar va moliya institutlari o‘rtasida operatsiyalarni amalga oshirishda qo‘llaniladi. Naqd pullardan foydalanmaslik, iqtisodiy jarayonlarni yanada tezlashtiradi va ishonch muhitini yaratadi. Ayniqsa, internet va mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan hisob–kitoblar, foydalanuvchilarga oson xarid qilish va bir xil vaqtda ko‘plab operatsiyalarni bajarish imkoniyatini taqdim etadi. Naqd pulsiz hisob–kitoblarning ahamiyati shundaki, ular xalqaro savdo va investitsiyalarda qulaylik yaratadi. Bu turdagi hisob–kitoblar, xalqaro pul o‘tkazmalarini soddalashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, naqd pulsiz operatsiyalar mahsulotlarga va xizmatlarga doir savdo statistikalarni aniqroq olish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy o‘rni va moliya strategiyalarini rejalashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, naqd pulsiz hisob–kitoblar xavfsizlik jihatidan ham afzalliklar taqdim etadi. Fizik naqd pullarning yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishi xavfi tug‘ilmaydi. Elektron tizimlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar, shuningdek, turli xil xavfsizlik choralarni o‘z ichiga oladi, bu esa foydalanuvchilar uchun qo‘shimcha ishonch yaratadi. Shu bilan birga, davlatlar naqd pulsiz hisob–kitoblarni rivojlantirish orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va qonuniylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishida naqd pulsiz hisob–kitoblar alohida o‘rin egallaydi. Iqtisodiyot tarmoqlarining qanchalik keng rivojlanishi xo‘jalik yurituvchi

sub'yektlar o'rtasida naqd pulsiz hisob–kitoblarning shuncha ko'p hajmda amalga oshirilishini bildiradi. Keyingi yillarda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtacha 8,0 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir. Qator -yillar davomida kuzatilgan byudjet defitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi. Mamlakat bank tizimida amalga oshirilgan izchil va aniq maqsadli islohotlar banklar kapitallashuv darajasi va depozit bazasining yuqori sur'atlarda o'sishiga imkon berdi va natijada bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, moliyaviy vositachilik roli kengaydi hamda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati yanada oshdi.

Tijorat banklarining kapitali va depozit mablag'larining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab–quvvatlashdagi rolining yanada kengayishiga, aktivlar va kredit qo'yilmalari hajmining sezilarli darajada ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. So'nggi 5 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 3,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 3,7 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarni hal etadi. Ulardan eng asosiy vazifalar sifatida – monetar siyosat va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish hamda amalga oshirishni ko'rish mumkin.

Demak, mamlakat yalpi ichki mahsuloti, sanoat ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, kapital qurilish, chakana savdo aylanmasi va xizmatlar kabi qator ko'rsatkichlarning avvalgi yillarga nisbatan bir necha marta oshganligi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob–kitoblar hajmining ham oshib borayotganligidan dalolat beradi. Naqd pulsiz hisob–kitoblar hajmining ham oshib borishi yuqoridagi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda

banklarning mijozlari soni, ularga ochilgan hisobvarag‘lar soni va depozitlar hajmi bilan ham belgilanadi.

O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob–kitoblarning kengayib borishiga bank tizimining rivojlanishi, infrastrukturaning kengayishi xizmat qiladi, negaki respublikaning turli nuqtalarida joylashgan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar turli banklarda o‘z hisobvarag‘ini ochadi, shu bilan birga ushbu bank hamda boshqa tijorat banklarining mijozlari bilan xo‘jalik aloqalarini olib boradilar. Bularning hammasi respublikamizda hisob–kitoblar hajmining o‘sishi, shu bilan birga ularning tezkorlik bilan o‘tkazish imkoniyatini yaratadi.

Bularning barchasi iqtisodiyotda o‘zaro aloqalarning kengayib borayotganligidan, shu asosda naqd pulsiz hisob–kitoblar hajmi ham ortib borayotganligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, naqd pulsiz hisob–kitoblar deb, sub’yektlar o‘rtasidagi hisob–kitoblarni naqd pul ishlatmasdan bankdagi bir hisobvarag‘dan boshqa hisobvarag‘ga o‘tkazilishiga aytiladi. Naqd pulsiz hisob–kitoblar o‘zining iqtisodiy mohiyatiga qarab tovarlarni sotish jarayoni bilan bog‘liq hisob–kitoblar va notovar xarakterdagi hisob–kitoblarga bo‘linadi. Tovarlarni sotish jarayonidagi hisob–kitoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular asosan korxonada, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar o‘rtasida olib boriladi. Lekin, plastik kartochkalar orqali hisob–kitoblar respublika bank amaliyotiga kirib kelgandan so‘ng, aholi ham plastik kartochkalar bilan naqd pulsiz hisob–kitoblarni amalga oshira boshladi.

12.1.1–jadval

Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari, o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni hamda to‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar summasi⁶²

Sana	Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni	O‘rnatilgan to‘lov terminallari soni	O‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni	To‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar summasi (-yil boshidan), mlrd. so‘m
1	2	3	4	5
01.01.2022 y.	27 105 785	433 384	12 940	111 137,0

⁶² <https://cbu.uz/oz/statistics/buletten>.

01.02.2022 y.	27 207 174	433 870	13 041	10 435,7
01.03.2022 y.	27 839 307	433 986	13 156	20 541,9
01.04.2022 y.	28 333 038	432 933	13 381	32 059,1
01.05.2022 y.	28 752 995	432 246	13 983	44 703,2
01.06.2022 y.	29 368 017	433 178	16 707	58 245,1
01.07.2022 y.	29 941 910	434 395	16 830	73 650,8
01.08.2022 y.	30 293 251	433 178	18 450	88 543,8
01.09.2022 y.	31 200 123	432 649	18 939	105 677,1
01.10.2022 y.	31 820 600	432 269	19 318	122 195,2
01.11.2022 y.	32 397 483	430 450	19 706	140 103,3
01.12.2022 y.	33 549 913	429 156	20 291	158 457,9
01.01.2023 y.	34 195 648	434 018	20 379	177 671,0
01.02.2023 y.	34 865 529	433 525	20 390	17 627,9
01.03.2023 y.	35 764 877	428 838	20 596	34 227,7
01.04.2023 y.	36 586 822	428 754	20 617	52 919,1
01.05.2023 y.	37 491 457	428 160	16 281	70 938,1
01.06.2023 y.	38 291 794	427 274	22 554	92 843,4
01.07.2023 y.	38 876 801	428 205	24 205	112 858,5
01.08.2023 y.	39 481 869	428 282	24 102	135 634,0
01.09.2023 y.	40 230 064	429 385	23 995	159 770,9
01.10.2023 y.	41 359 507	429 182	24 036	181 544,9
01.11.2023 y.	42 365 657	427 767	24 107	204 726,4
01.12.2023 y.	45 224 213	428 073	26 576	228 308,7
01.01.2024 y.	46 205 950	429 334	26 655	254 719,1
01.02.2024 y.	46 073 524	429 359	28 795	24 844,4
01.03.2024 y.	47 170 732	430 264	26 917	47 554,4
01.04.2024 y.	48 373 747	430 066	26 986	71 642,0
01.05.2024 y.	48 841 077	429 197	27 119	99 334,3
01.06.2024 y.	49 595 204	426 313	27 227	127 016,0
01.07.2024 y.	50 135 263	424 610	27 551	153 222,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki tahlil qilinayotgan davrda (2022–2024 -yillar) muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni, o'rnatilgan to'lov terminallari soni, o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni va to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi o'sish dinamikasiga ega bo'lmoqda.

Tovarlar harakati bilan bog'liq bo'lgan hisob–kitoblarning naqd pulsiz o'tkazilishi, moddiy boyliklarni yetkazish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov muddatini yaqinlashtirishga yordam beradi. Tovar moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilmasligi korxonalar mablag'larining xo'jalik oborotidan chiqib ketishga, ko'zlangan rejalarni bajarishga mablag'larning etishmasligiga olib keladi. To'lovning tovarlarni olishdan oldin amalga oshirilishi mol

sotib oluvchi korxonalarining mablag'larining xo'jalik oborotidan chiqib ketishiga olib keladi. Shuning uchun tovarlar va ular uchun to'lanadigan to'lovlar harakati bir-biriga mos kelishi katta ahamiyatga ega. Tovar jo'natish va unga pul mablag'larining kelib tushishi o'rtasidagi vaqt qancha qisqa bo'lsa, bu bitta shartnoma shartlari yakunlanganligidan dalolat beradi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning keng ishlatilishiga keng tarmoqli bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganish va uni tartibga solish nuqtayi-nazaridan davlatning qiziqishi, mulkchilik shakllarining ko'payishi va turli mulkchilik munosabatlarining kengayib borishi asos bo'ladi.

12.2. Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimi va uning elementlari

Naqd pulsiz hisob–kitoblar ma'lum bir tizim orqali tashkil etiladi. Xalqaro bank amaliyotidan ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish va bu sharoitda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mazkur sharoitda faoliyat yuritadigan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning talablariga javob beruvchi samarali faoliyat yuritadigan bank tizimida zamonaviy naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimini yo'lga qo'yish lozim bo'lib hisoblanadi. Ushbu samarali yo'lga qo'yilgan naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimi bevosita moliya, valyuta va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun, respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, bir qator rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganib, tijorat banklarning moliyaviy holati va boshqa omillarni hisobga olgan holda, yangi hisob–kitoblar tizimini tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi. Shundan so'ng, yangi hisob–kitoblar tizimini takomillashtirish borasida ishlar amalga oshirila boshlandi. Mamlakatda Davlat bankining 127 ta kliring markazlari tashkil etildi va ular o'z ish faoliyatini boshladi. Keyinchalik bu kliring markazlari faoliyati tugatilib, hisob–kitob markazlari tashkil etildi. Elektron to'lov tizimi shakllantirildi va O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotiga tatbiq etildi.

Naqd pulsiz hisob–kitoblarni tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy baza yaratildi. Hozirgi kunda naqd pulsiz hisob–kitoblar “O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob–kitoblarni amalga oshirish


to'g'risida"gi Nizomiga⁶³ asosida tashkil etiladi. Markaziy bankning hisob–kitoblarning samarali tizimini tashkil etish vazifasini bajarishi naqd pulsiz hisob–kitoblarning barcha sub'yektlar uchun majburiy shakllarini va hujjatlar turini belgilash va tashkil etish, hisob–kitoblarni amalga oshirish bo'yicha yuzaga keladigan xatarlarni oldini olish bo'yicha zarur tadbirlarni ishlab chiqish va to'lovlar xavfsizligini ta'minlash kabilarda namoyon bo'ladi.

Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimi bir qator elementlardan tashkil topgan. Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimi elementlarini quyidagi chizma orqali yaqqol ko'rish mumkin. 9–rasmdan ko'rib turganimizdek, naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimining elementlariga naqd pulsiz hisob–kitoblarni tashkil etishning asosiy tamo-yillari, naqd pulsiz hisob–kitob shakllari, hisob–kitob hujjatlari, to'lovlar navbati, to'lov usuli va muddati, to'lov manbalari, hisob–kitoblar ishtirokchilari, ya'ni sub'yektlari kabilarni kiritish mumkin. Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimining asosiy elementlaridan biri bu hisob–kitob shakllaridir. Hozirgi kunda respublikada naqd pulsiz hisob–kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan va xalqaro amaliyotda qabul qilingan shakllar yordamida tashkil etiladi. Naqd pulsiz hisob–kitob shakllari bu huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan, pul mablag'larining mahsulot etkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning hisobvarag'iga o'tkazish usuli, hisob–kitob hujjatining turi va hujjatlar aylanishi tartibi bilan farq qiluvchi hisob–kitob turlaridir(12.2.1-rasm).

Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimining elementlaridan biri bu hisob–kitoblarni tashkil qilish tamo-yillaridir. Naqd pulsiz hisob–kitoblarni tashkil etish asosiy tamo-yillarining har birini alohida ko'rib chiqamiz. Naqd pulsiz hisob–kitoblar quyidagi tamo-yillar asosida amalga oshiriladi:

– Respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar bo'sh pul mablag'larini tijorat banklarida saqlashlari shart;

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Nizom, 2002 yil 12 yanvar.



12.2.1–rasm. Naqd–pulsiz hisob–kitoblar tizimining elementlari⁶⁴

– Qaysi bankda hisobraqam ochishni, qanday hisob–kitob shakllaridan foydalanishni mijozlarning o‘zlari mustaqil belgilaydilar;

– To‘lov qoidasi va shartlari mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi tomonidan mol etkazib berish to‘g‘risidagi shartnomada kelishib olinadi, mijozlarning hisob–kitoblar bo‘yicha shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi;

– To‘lovlar xo‘jalik sub’yektlarining hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari hisobidan yoki bank krediti hisobidan amalga oshiriladi.

– Pul mablag‘larini oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazish, ushbu mablag‘larni to‘lovchining hisobvarag‘i hisobidan chiqarilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

– Pul mablag‘lari to‘lovchining roziligi yoki uning yozma topshirig‘iga asosan o‘tkaziladi.

– Mablag‘larni to‘lovchi va oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro da‘volar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tomonlar tarafidan ko‘rib chiqiladi. Banklar, shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarilmaganligi yoki kerakli tarzda bajarilmagan holatlarda qarzdor kreditorga to‘lashi majbur bo‘lgan penyani hisoblash va undirish bo‘yicha javobgar emaslar. Yuzaga kelgan nizolarni o‘zaro kelishuv yo‘li bilan yechish

⁶⁴ K. Navruzova, J. Rabbinov O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va uni takomillashtirish. Monografiya/-T.: Moliya-iqtisod 2015 yil.

imkoniyati boʻlmasa, ular sud orqali hal qilinadi.

Oʻzbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob–kitoblar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi⁶⁵:

- toʻlov topshiriqnomalari bilan hisob–kitoblar;
- akkreditiv boʻyicha hisob–kitoblar;
- inkasso boʻyicha hisob–kitoblar;
- cheklar bilan hisob–kitoblar.

Naqd pulsiz hisob–kitob shakllari bu huquqiy meʼyorlarda koʻzda tutilgan, pul mablagʻlarining mahsulot yetkazib beruvchi yoki xizmat koʻrsatuvchi korxon va tashkilotlarning hisobvaragʻiga oʻtkazish usuli, hisob–kitob hujjatining turi va hujjatlar aylanishi tartibi bilan farq qiluvchi hisob–kitob turlaridir.

12.3. Plastik kartochkalar bilan operatsiyalar va ularning milliy toʻlov tizimidagi oʻrni

Oʻzbekistonda, bugungi kunda, plastik kartochkalar toʻlov vositasi sifatida keng ishlatilmoqda. Plastik kartochkalar xarid qilingan tovar va koʻrsatilgan xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob–kitoblarning zamonaviy, shu bilan birga, qulay toʻlov vositasi darajasiga yetdi. Bunga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining koʻplab farmon va qarorlari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qarorlarining qabul qilinishi ularning amaliyotga tatbiq etilishi uchun zamin yaratmoqda.

Plastik kartochkalar–bank tomonidan chiqarilgan personallashtirigan toʻlov vositasi boʻlib, kartochka egasining tegishli bankdagi hisobvaragʻida mablagʻ borligiga guvohlik beruvchi va naqd pul toʻlamasdan tovarlar, ish va xizmatlarni sotib olish huquqini oʻzida aks ettiradi. Soʻngi -yillarda iqtisodiyotda axborot texnologiyasining rivojlanishi bank sektoriga ham oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda. Bugungi kunda tovar va xizmatlar uchun toʻlovlarni nafaqat naqd pulda, balki plastik kartochkalar orqali ham toʻlovlarni amalga oshirish mumkin.

Bank kartasi dizaynida tasodifiy narsalar yoʻq. Har bir tafsilot oʻylangan va muhim maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Har bir kartada:

⁶⁵ Oʻzbekiston Respublikasi “Naqd pulsiz hisobkitoblar toʻgʻrisida”gi Nizom, 2013 yil 3 iyun, 2465-son.

- Bankning nomi va logotipi. Bu logotip karta qaysi bankga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Karta foydalanuvchisining hisobvarag'i o'sha bankda bo'ladi va o'sha bankning mijozi hisoblanadi.

- Egasining ismi, ya'ni kartadan foydalanuvchining ismi bu karta kimga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

- To'lov tizimining nomi – Humo, Uzcard, VISA, Mastercard, UnionPay, American Express yoki boshqalar – kartaga xizmat ko'rsatuvchi to'lov tizimi.

To'lov tizimi turli darajalarda bo'lishi mumkin: mahalliy, milliy va xalqaro.

- ❖ Mahalliy to'lov tizimining kartasidan faqat uni chiqargan bankning bankomatlari va kassa terminallaridan foydalanish mumkin.

- ❖ Milliy to'lov tizimining kartalari faqat bitta mamlakatda islatish mumkin. Masalan, O'zbekistonda Humo milliy to'lov tizimi mavjud.

- ❖ Xalqaro to'lov tizimi bir qator mamlakatlarda ishlashi mumkin. Eng mashhur xalqaro to'lov tizimi Visa va Mastercard.

Kartadan uning to'lov tizimining logotipi bo'lgan bankomatlar oqali pul yechish va terminallar foydalanish mumkin. Agar plastik kartaga bir vaqtning o'zida ikkita logotip qo'llanilsa, bu kobeydj kartasi hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida ikkita to'lov tizimida ishlaydi. Masalan, Humo va Mastercard kobeydj kartasi.

Klassik, Elektron, Oltin, Platinum – kartalar sinfi.

- Bank mijoziga asosiydan tortib to premiumgacha bo'lgan bir qator xizmatlarni taqdim etadi.

- Karta raqami 16 ta raqamdan tashkil topgan bo'lib ular 4 ta raqamdan iborat 4 ta blokga guruhlangan.

- Amal qilish muddati oy va -yil bilan belgilanadi masalan, 03/25 shaklida bo'ladi. Amal qilish muddati tugashi bilan karta nafaol holatga keladi va u bilan to'lovlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Bu internet orqali pul o'tkazishda qo'shimcha himoya vazifasini o'taydi. Bu hech kim bilan baham ko'rilmaligi kerak bo'lgan maxfiy ma'lumotlar.

Kartaning orqa tomonida esa quyidagilar mavjud:

- Karta haqidagi raqamli ma'lumotga ega magnit chiziq.
- Maxsus kod yoki xavfsizlik kodi. Bu 3 ta raqamdan iborat bo'ladi.

Bank kartalari turlari:

Debet bank kartasi – bankdagi joriy hisob raqamingizga ulangan bank kartasi. Debet kartasiga ish haqi, pensiya, stipendiya, ijtimoiy nafaqalar, depozit bo‘yicha foizlar kabi mablag‘lar o‘tkazilishi mumkin. Bugungi kunga kelib aynan bu turdagi kartalar juda mashhur hisoblanadi.

Kredit bank kartasi – bu kredit shartnomada belgilangan chegara doirasida bank mablag‘lari hisobidan to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi bank kartasidir. Bu plastik kartadagi pul mablag‘lari bankdan olingan qarz mablag‘lari bo‘lib ularni ma‘lum vaqtdan so‘ng foiz to‘lash orqali bankga qaytariladi.

Xalqaro kartalar – xalqaro to‘lov tizimlarida qo‘llaniladigan kartalar. Visa va Mastercard kabi to‘lov tizimlari.

Korporativ bank kartalari – xodimlarga tashkilot manfaatlari yo‘lida xaridlarni amalga oshirish va to‘lov hujjatlarni to‘lash imkonini beruvchi bank kartasi.

Virtual kartalar – bu kartalar banklarning mobil ilovalari orqali masofadan turib ochiladi. Karta orali internet orali xaridlarni, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn mikroqarzlarni olish mumkin.

Bank kartalarining afzalliklari:

1. Hisobvarag‘ini boshqarish. Karta egasi hisob raqamidan haftaning istagan kuni yoki vaqtida pul mablag‘larini yechib olishi mumkin.

2. Xavfsizlik. Karta naqd pulning deyarli o‘rnini egallaydi va naqd pulni katta miqdorda o‘zi bilan olib yurishga hojat qolmaydi. O‘z navbatida, pulni yo‘qotish xavfi ham kamayadi. Agar karta yo‘qolsa uni bloklash imkoni mavjud. Kartadagi pullar esa mijoz hisobida qoladi.

3. To‘lov qulaylik. Kartaning bu afzalligi, ayniqsa, karta egasining hayotini osonlashtiradi. Katta miqdorda valyuta olib yurishning hojati bo‘lmaydi, chunki barcha xarajatlarni karta bilan to‘lash mumkin. Hattoki bank kartalari orqali uydan chiqmasdan turib ham to‘lovlarni amalga oshirish mumkin. Uzoqdagi tanishimizga pul mablag‘ini hisobiga jo‘natish mumkin. Bundan tashqari, bankomatlar yordamida

hisobingizdagi pullarni naqd pul shaklida yechib olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Bank kartasining kamchiliklari:

1. Firibgarlar hujumlari. Bank kartalari egalari firibgarlar hujumiga uchrashi mumkin. Ular karta maxfiy ma'lumotlarni bilmasdan turib begona shaxsga ma'lum qilish oqibatida hisobidagi pul mablag'larini o'g'irlatishi mumkin.

2. Foizlar. Naqd pul shaklida bankomatlardan pul yechishda yoki pul o'tkazmalarini amalga oshirishda foiz to'lovlari olinadi. Bu foiz to'lovlari har bir bankda turlicha bo'lib 0.5 % yoki 1% shaklida bo'lish mumkin.

Hozirgi kunda plastik kartalarning joriy qilinishi aholi turmush tarzini yengillashtirishga yordam bermoqda. Bank kartalarining rivojlanishi "Internet-banking", "Mobile banking", "SMS-banking" kabi xizmatlarni rivojlanishiga olib keldi. Plastik kartalar bir qator qulayliklarni taklif etmoqda. Shulardan biri dunyoning istalgan bir burchagidan boshqa joyga oson va tez pul o'tkazmasini amalga oshirishi bu juda ko'pchilik uchun qulay. Shu bilan bir qatordan uning kamchiligi ham mavjud bo'lib uning xavfsizlik tizimi. Xakerlar hujumiga uchrab qolishi mumkin. Shuning uchun kartochkalarga bo'lgan hujumlarni oldini olish bo'yicha xavfsizlik tizimini yanada kuchaytirishni banklar ko'rib chiqishi lozim. Aholining ham moliyaviy savodxonligini oshirib plastik kartalardagi maxfiy kod, pin-kodlarni notanish shaxslarga ma'lum qilmasligi haqida ogohlantirilib turilishi kerak.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Naqd-pulsiz hisob-kitoblar, Humo, Uzcard, VISA, Mastercard, UnionPay, American Express, internet-banking, mobile banking, SMS-banking, korporativ bank kartalari, xalqaro kartalar, kredit bank kartasi, debet bank kartasi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning mazmuni haqida gapirib bering.
2. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning ahamiyat haqida aytib bering.

3. O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob–kitoblar qaysi turlari amal qilmoqda?

4. Naqd pulsiz hisob–kitoblar tizimi va uning elementlari haqida gapirib bering.

5. Naqd pulsiz hisob–kitoblarni tartibga soluvchi huquqiy va me‘yoriy mezonlar haqida gapirib bering.

6. Naqd–pulsiz hisob–kitoblarning sub’yektlari kimlar?

XIII bob. TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALAR BAJARISHNING SERVISINI TASHKIL ETISH

13.1. Qimmatli qog‘ozlar, ularning turlari va ahamiyati.

13.2. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatida tutgan o‘rni.

13.3. Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar bajarishning servisini tashkil etish.

13.1. Qimmatli qog‘ozlar, ularning turlari va ahamiyati

Qimmatli qog‘ozlar, moliya bozorining muhim qismidir va investorlar uchun samarali investitsiya imkoniyatlarini taklif etadi. Ular, asosan, korporatsiyalar yoki davlat tomonidan chiqarilgan va investorlar tomonidan sotib olingan kreditorlik hujjatlari hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar asosida investorlar dividend yoki foizlar orqali daromad olishadi, bu esa ularning moliyaviy maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Har bir qimmatli qog‘oz turi o‘ziga xos risk va daromad darajasiga ega, bu esa investorlarni har bir tur vaqti–vaqti bilan o‘rganishga undaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi o‘zgarishlar global iqtisodiy holatga, siyosiy muammolarga va boshqa omillarga bog‘liq. Shuning uchun investorlar bozorni diqqat bilan kuzatib borishlari va strategiyalarini muntazam ravishda yangilab turishlari muhimdir. Hamma investitsiyalar tavakkalni o‘z ichiga oladi, shuning uchun har bir qimmatli qog‘ozni sotib olishdan oldin uning ehtimoliy foyda va zararlarini to‘liq tahlil qilish lozim.

Qimmatli qog‘ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o‘z qiymatiga ega bo‘lgan, sotish, sotib olish va to‘lovini amalga oshirish mumkin bo‘lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog‘ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog‘liq. Qimmatli qog‘ozlar o‘zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish, sotish va boshqa bitimlarning ob‘yekti bo‘ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbayi bo‘lib

xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko‘rinishidagi hujjatdir. “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga⁶⁶ o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi 2015-yil 4-iyunda e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3–moddasiga asosan qimmatli qog‘ozlar – hujjatlar bo‘lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog‘oz – o‘zi bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni aks ettiradigan hujjatdir, u daromad manbayi bo‘lib xizmat qiladi, fond bozorida muomalada yuritilishi va oldi–sotdi vositasi bo‘lishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar turli sub’yektlar tomonidan chiqarilishi mumkin. Umumiy holda bu emitentlar 5 guruhga bo‘linadi:

- hukumat;
- davlat korxonalarini;
- xususiy sektor;
- Markaziy bank;
- chet el

sub’yektlari.

Tijorat banklari respublika qimmatli qog‘ozlar bozorining eng faol va asosiy ishtirokchilaridan hisoblanadi hamda Fond birjasi umumiy savdo aylanmasida tijorat banklari ulushining yuqoriligi bank qimmatli qog‘ozlarining ishonchliligi, ular to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqligidan dalolat beradi. Agar biz 2014–yilda fond birjasida savdo hajmi yuqori bo‘lgan emitentlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 10 ta yirik emitentdan 9 tasi tijorat banklari hisoblanadi. 2014–yil davomida birja savdolari orqali jismoniy shaxslar investitsiyalarining 93,4 foizi, yuridik shaxslar investitsiyalarining 86,3 foizi aynan tijorat banklari qimmatli qog‘ozlariga yo‘naltirilgan.

⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.06.2015 yildagi O‘RQ-387-son.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida bir vaqtning o'zida bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Banklarning aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritishi ularga qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitent sifatida fond bozorida faol ishtirok etishiga imkoniyat beradi. Shu sababli, tijorat banklarining birja savdolariga qo'yilayotgan qimmatli qog'ozlari mamlakatimizda pul aylanishini jadallashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha turgan bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga investitsiya qilishga sharoit yaratadi.



13.1.1-rasm

Bundan tashqari, tijorat banklari REPO bitimlarini amalga oshirishda qimmatli qog'ozlar bozorida investor sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ma'lumki, REPO bitimlari qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish yo'li bilan pul mablag'larini qarzga olishning ommabop usuli bo'lib, investitsiya kiritishning boshqa usullariga qaraganda xavfsiz hisoblanadi va investorlarning zarar ko'rish darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchi sifatida qatnashish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda tijorat banklari fond bozorida investitsiya vositachisi va maslahatchisi, aktivlarni ishonchli

boshqaruvchi, transfer-agent va depozitariylik vazifasini ham bajarmoqda.

Qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lish hududiga ko'ra regional (mahalliy), milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlarga bo'linadi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va muomalada bo'lishi mumkin:

- aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- davlat qimmatli qog'ozlari;
- depozit sertifikatlari;
- veksellar;
- qimmatli qog'ozlar hosilalari, ya'ni opsiya va fyucherslar.

Shuningdek, qonun bo'yicha O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar, egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma obligatsiyalari ham qimmatli qog'ozlarning turlari hisoblanadi.

Aksiya–o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol–mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozdir. Aksiya qimmatli qog'oz sifatida amal qilish muddati cheklanmagan, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan aksionerlik jamiyatiga muayyan ulush qo'shganini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi, aksiya bo'yicha dividend ko'rinishida foyda olish huquqini beruvchi aksiyadorning shu jamiyat boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

Obligatsiya esa emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

“Obligato” – lotin tilida “qarz olish” mazmunini bildiradi. Obligatsiya munosabatida obligatsiya egasi tomonidan emitent

faoliyatiga ma’lum summada pul mablag’i kiritiladi va emitent obligatsiyada ko‘rsatilgan muddatda uning nominal qiymatini hamda u bo‘yicha qo‘shimcha foizni to‘lab berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Depozit sertifikat – bankka qo‘-yilgan omonat summasini va omonatchining omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘ozdir. Depozit sertifikat bank tomonidan beriladi.



13.1.2-rasm

Вексель – veksel beruvchining yoxud vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda, veksel egasining vekselda ko‘rsatilgan summani to‘lab berishiga doir qat’iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz va to‘lov vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan

chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari, odatda, **davlat qimmatli qog‘ozlari** deb yuritiladi.

Qimmatli qog‘oz hosilalari – bular shunday qimmatli qog‘ozlarki, ularning foydasi yoki zarari bir nechta bozor ko‘rsatkichlari bilan, ya’ni bozor indeksleri bilan bog‘liqdir. Qimmatli qog‘ozlar hosilalari – “opsion” yoki “fyucherslar” ko‘rinishida bo‘ladi.

Opsion – emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u o‘z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat’iy belgilangan narx bo‘yicha sotib olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlaydi.

Hozirgi davrga kelib qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar tobora ko‘payib bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda aksionerlashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, korxonalar va tashkilotlarni xususiy lashtirish orqali aksionerlik jamiyatlariga aylantirish va ular tomonidan har xil qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarishi fond bozorlarini rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda. Qimmatli qog‘ozlar jahonning katta bir boyligi hisoblanib, boshqa boylıklarga nisbatan ham umumiy qiymati bo‘yicha, ham hajmi bo‘yicha oldingi o‘rinlarga chiqmoqda.


13.2. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatida tutgan o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga⁶⁷ binoan tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida:

- qimmatli qog‘ozlar (veksel, aksiya, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va boshqalar.)ni chiqarish;
- qimmatli qog‘ozlar hisobini yuritish.
- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, sotish, saqlash, ular bilan turli operatsiyalarni amalga oshirish;
- mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish;

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son

- tovar yetkazib berish va xizmat ko‘rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bunday talablarni inkassatsiya qilish;
- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarni: mablag‘larni jalb etish va joylashtirish va hokazo ishlarni bajarish;
- fond bozori ishtirokchilariga bu borada bank faoliyati yuzasidan maslahatlar berish kabi operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.



13.2.1–rasm. Qimmatli qog‘ozlar bilan bank operatsiyalari⁶⁸

Bu faoliyat turlarini amalga oshirish borasida tijorat banklari uchun cheklashlar yo‘qligi sababli ular fond bozorida haqiqiy qatnashchi– investitsion institut sifatida ish yuritadi. Banklarning

⁶⁸ Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 732 b.

qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalari koʻp maqsadlarni koʻzlagan holda amalga oshiriladi. Shu bois banklarning qimmatli qogʻozlar bozoridagi faoliyatdan asosiy maqsadlari:

- qimmatli qogʻozlar chiqarish asosida kredit va hisob–kitob faoliyati yuritish uchun qoʻshimcha pul resurslarini jalb qilish;
- qimmatli qogʻozlarga sarflangan va oʻz investitsiyalaridan bankka toʻlanadigan foiz va dividendlar evaziga va qimmatli qogʻozlarning kurs qiymati oshishi tufayli foyda olish;
- mijozlarga qimmatli qogʻozlar operatsiyalariga doir xizmatlar koʻrsatishdan foyda olish;
- erkin raqobat asosida bankning xizmat sohasini kengaytirish hamda korxonalar va tashkilotlarning kapitalarini boshqarishda ishtirok etish evaziga yangi mijozlarni jalb qilish;
- bankning qimmatli qogʻozlari orqali resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish;
- bankning likvidli mablagʻlariga qoʻyilmalarning daromadlilikini taʼminlagan holda likvidlik zaruriy zaxirasini saqlab borish;
- mijozlarning qimmatli qogʻozlarni meʼyorida olib–sotishdan hamda moliyaviy risklarni qimmatli qogʻozlar hosilalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali sugʻurta qilish kabilardan iborat.

13.3. Tijorat banklarida qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalar bajarishning servisini tashkil etish

Tijorat banklarida qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalar bajarishning servisini tashkil etish zamonaviy bank tizimining muhim tarkibiy qismidir. Bu jarayon, bir tomonlama moliyaviy vositalarni taqdim etish bilan bir qatorda, mijozlarga keng imkoniyatlar yaratadi. Qimmatli qogʻozlar bozori orqali investorlar oʻz kapitalini oshirish, diversifikatsiya qilish va risklarni boshqarish imkoniyatiga ega boʻlishadi. Shuning uchun, bu sohada banklarning innovatsion yondashuvlari va raqobatbardosh xizmatlari juda muhimdir.

Birinchi, tijorat banklarida qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalar amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan

foydalanish taqozo etiladi. Onlayn savdo platformalari, mobil ilovalar va qo‘shimcha xizmatlar mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Mijozlar o‘z investitsiyalarini real vaqt rejimida nazorat qilishlari mumkin, bu esa shaffoflik va operativlikni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, banklar qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z mijozlariga sifatli maslahat va strategiyalar taklif etishi lozim. Bu, investorlarning bilimini oshirish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishlariga yordam berish maqsadida amalga oshiriladi. Shuningdek, banklar o‘zlarini raqobatbardoshligini oshirish uchun turli xil savdo vositalari va moliyaviy xizmatlar yaratishlari zarur.

Uchinchidan, tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha xizmatlarini tashkil etishda davlat va xalqaro standartlarga mos keladigan xavfsizlik va tartibga rioya qilishga alohida e‘tibor berishlari kerak. Bu nafaqat mijozlarning ishonchini oshirish, balki bankning obro‘yini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z xizmatlarini diversifikatsiyalash kerak. Bu, mijozlarga turli xil investitsiya imkoniyatlarini taklif etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aksiyalar, obligatsiyalar, investitsiya fondlari va boshqa ilg‘or moliyaviy mahsulotlar orqali banklar o‘z mijozlariga keng tanlov imkoniyatini taqdim etishi kerak. Bunday turli xizmatlar, investorlar o‘rtasida raqobatni oshirish bilan birga, bankning biznesini ham kengaytiradi. Shuningdek, mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish ham muhim ahamiyatga ega. Banklar, mijozlarining mulk huquqlarini himoya qilish va ularning investitsiya tajribalarini yaxshilash maqsadida doimiy ravishda aloqa va maslahat xizmatlarini taklif etishi zarur. Buning natijasida, mijozlarning qoniqishi oshadi va banklar o‘zining mijozlar bazasini kengaytirishi mumkin.

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni tashkil etishda zamonaviy texnologik yutuqlardan foydalanib, raqobatchilardan ajralib turishlari lozim. Innovatsiyalar, masalan, sun‘iy intellekt va ma’lumotlar tahlili yordamida mijozlarga moslashuvchan xizmatlarni taklif etish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon, investorlar uchun

qulayliklar yaratadi va ularning bankka bo'lgan ishonchini yanada oshiradi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Qimmatli qog'ozlar, xususiy sektor, chet el sub'yektlari, aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari, depozit sertifikatlari, veksellar, opsiyon, fyucherslar, qimmatli qog'ozlar servisi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Qimmatli qog'ozlar, ularning turlari va ahamiyati haqida aytib bering.
2. Qimmatli qog'ozlar bozori nima?
3. Aksiyalar nima?
4. Obligatsiyalar nima?
5. Davlat qimmatli qog'ozlari nima?
6. Opsionlar nima?
7. Qimmatli qog'ozlar bilan bank operatsiyalari qanday strukturaga ega?
8. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bajarishning servisi qanday tashkil etiladi?

XIV BOB. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATSIYALARI

14.1. Faktoring operatsiyalari mohiyati, maqsadi va belgilari.

14.2. Faktoring xizmati bo'yicha shartnoma va uning tarkibi.

14.3. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va ularning o'tkazilish tartibi.

14.1. Faktoring operatsiyalari mohiyati, maqsadi va belgilari

Banklarning faktoring operatsiyalari, moliyaviy xizmatlar sohasi uchun muhim ahamiyatga ega. Faktoring, asosan, korxonalar o'rtasida to'lovlarni tezlashtirish va likvidlikni oshirish maqsadida qo'llanadigan mexanizmdir. Bu jarayon bank yoki faktoring kompaniyasi tomonidan xaridorlarning qarzlarni, ya'ni to'lovlarni oldindan qabul qilishni nazarda tutadi. Korxonalar, o'z mijozlariga mahsulot yoki xizmatlar uchun muddatli to'lov shartlarini taklif qilganida, faktoring yordamida ularning to'lovlarni kutmasdan, o'z mablag'larini tezlashtirish imkoniga ega bo'lishadi.

Faktoring operatsiyalari banklar uchun foydali risklarni o'z ichiga oladi. Banklar, faktoring jarayonida mijozlarining kredit qobiliyatini baholash orqali o'zlarining moliyaviy xavflarini kamaytirishlari mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, banklar ko'plab mijozlarga xizmat ko'rsatish orqali o'z operatsion rentabelligini oshirishi mumkin. Bu esa ularning bozor pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, faktoring servislarining rivojlanishi, iqtisodiyotning umumiy holatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Korxonalarining likvidligi oshgan sari, ular yangi investitsiyalarga yo'nalishi va ishlab chiqarishni kengaytirishi mumkin, bu esa iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarini yaratilishiga olib keladi. Natijada, faktoring operatsiyalari banklarning xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirishga va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Faktoring savdo vositachilarning, keyinchalik esa savdo banklarining operatsiyasi sifatida XVI–XVII asrlarda vujudga kelgan. Faktoring

operatsiyalari tovarlarni kreditga sotish, ya'ni ular uchun to'lovlarni ma'lum kelishilgan muddatdan, keyin kechiktirib to'lanishiga asoslangan tijorat krediti asosida vujudga kelgan. Ingliz tilidan "factor" so'zi "makler, vositachi" degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, faktoring, shubhasiz, vositachilik bilan bog'liq operatsiya hisoblanadi. Faktoringni vositachilik faoliyatining turi deb qarashning asosi shundaki, bunda faktoring kompaniyasi ma'lum to'lovlar evaziga mol yetkazib beruvchi korxonaga tovarlarni sotish yoki xizmatlarni ko'rsatish orqali, unga tegishli bo'lgan pul mablag'larini mol sotib oluvchilardan undirib olish (debitor qarzdorlikni inkassatsiya qilish) huquqini oladi. Shu sabab faktoringga aylanma kapitalni kreditlashning bir turi sifatida ham qarash mumkin. Faktoring asosan kichik va o'rta korxonalarining faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'lovlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Bunday operatsiyalar banklar, maxsus faktoring kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Faktoringning asosiy maqsadi – o'z mijozlarining debitor qarzdorligini inkassatsiya qilish va ularga tegishli bo'lgan to'lovlarni ular hisobiga undirib berishdan iborat.

Boshqacha qilib aytganda, faktoringda bank yoki faktoring kompaniyasi ma'lum haq evaziga o'z mijozining boshqa mijozga bo'lgan yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatlari (qarzi)ni sotib oladi va zudlik bilan, eng uzog'i 2–3 kun davomida talabning 60–85 foizini avans tariqasida o'z mijozni, ya'ni mol yetkazib beruvchi (xizmat ko'rsatuvchi)ga to'lab beradi. To'lovning qolgan 30–10 foizini kelgusida shartnomaga asosan faktoring xizmatini ko'rsatayotgan tashkilot (bank) xaridordan ushbu qarzlarni undirib olgandan keyin mijozga to'lab beriladi va bank (faktor)ga tegishli bo'lgan komissiya va foizlar ushlab qolinadi. Jahon amaliyotida faktoring deganda, tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida bank (faktor) tomonidan mijozga ko'rsatiladigan bir qator boshqa komission–vositachilik xizmatlar ham tushuniladi.

Faktoring operatsiyasini amalga oshirishda odatda uch

sub'yekt qatnashadi. Bular:

- faktor–vositachi (tijorat banki yoki faktoring kompaniyasi);
- mol yetkazib beruvchi;
- mol sotib oluvchi.

Faktoring operatsiyasini amalga oshirganlik uchun komissiya to'lovi ikki asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

Birinchi, MYBning faktoring operatsiyasiga jalb qilingan pul mablag'larining oboroti va summasiga;

Ikkinchi, faktoring uchun jalb qilingan kredit resurslarining miqdori va foiz stavkasiga bog'liq. Odatda, faktoring bo'yicha komissiya to'lovi bank (faktor) tomonidan mijozga to'lab berilgan pul mablag'lariga kunlik foiz stavka o'rnatish va uni undirish orqali amalga oshiriladi.

Faktoring operatsiyasi pul mablag'larini undirish bo'yicha majburiyatni va to'lamaslik riskini o'zida ifodalaganligi bois, u riskli operatsiyalar qatoriga kiradi. U risk bilan bog'liq bo'lsa-da, lekin yuqori foydali bank biznesi, moliya marketingining samarali vositasi, iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy jarayonlarga mos bo'lgan bank operatsiyalarining integratsiyalashgan shakllaridan biri hisoblanadi. Faktoring operatsiyalari xalqaro iqtisodiy munosabatlarida ham qo'llanilib, uni xalqaro kreditning shakli sifatida qarash mumkin. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eksportyorning importyorlarga bo'lgan pul talablari maxsus faktoring kompaniya tomonidan sotibolinadi (inkassatsiya qilinadi).

14.2. Faktoring xizmati bo'yicha shartnoma va uning tarkibi

Dunyo amaliyotida faktoring xizmatlarining narxi ikki elementga bog'liq:

1. Xizmat ko'rsatish uchun haq – komission to'lov. U o'rtacha schyot–faktura narxining 0,5–3,0 %ini tashkil qiladi, ammo ba'zi hollarda bu to'lov 5 % gacha ham boradi.

2. Berilgan kredit mablag'lari uchun haq – bankning kredit bo'yicha foiz stavkasi. Uning miqdori mijoz tovar hujjatlarini bankka taqdim qilib, pul mablag'larini bankdan olgan kundan boshlab to mol

sotib oluvchidan pul kelib tushishigacha bo'lgan vaqt ichidagi mijozning kundalik debet saldosi miqdoriga qarab belgilanadi. Ushbu davr mijozning bank kreditidan foydalangan davri – kreditning muddati hisoblanadi.

Faktoring xizmati mijoziga shartnoma asosida ko'rsatiladi. Shartnomada, albatta, bankning mol yetkazib beruvchiga regress huquqi borligi yoki yo'qligi ko'rsatiladi.

Regress huquqiga ega bo'lgan shartnomada bank mol yetkazib beruvchiga bergan uning hujjatlarini to'lab berish bo'yicha majburiyati va to'langan mablag'larini qaytib olish huquqiga ega va, aksincha, regress huquqiga ega bo'lmagan shartnomada bank to'lanmaslik riskini o'z zimmasiga oladi.

Jahon amaliyotida faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summalarni belgilashning uch xil usuli mavjud:

1. Kreditlash limitini ajratish. Faktoring xizmati shartnomasida xizmatlarni ko'rsatishning limit chegarasi belgilanadi. Agar MYB tomonidan to'lanadigan summa belgilangan limitdan oshib ketsa, bank mol yetkazib beruvchiga barcha qo'shimcha mablag'larni qaytarib berish huquqiga ega. Mol yetkazib beruvchi to'lovga qobiliyatsiz bo'lsa, u holda mol yetkazib beruvchining hisob varaqiga kelib tushadigan mablag'lar uning qarzdorlik summasi undirilgunga qadar bank hisobiga o'tkaziladi.

2. Har oylik yuk jo'natish limitini jo'natish. Mol yetkazib beruvchi mijoz qarzining miqdoridan qat'iy nazar, shubhali qarzlardan sug'urtalanadi. Limit hafta, oy, choraklarda belgilanishi mumkin.

3. Alohida shartnomalar bo'yicha sug'urta. Bu usul alohida holatlarda, katta summalarda shartnomalar imzolanganda qo'llaniladi. Ba'zi hollarda tomonlar aralashgan usullarni ham qo'llashlari mumkin.

Faktoring xizmati to'g'risida bank mol yetkazib beruvchi bilan shartnoma imzolashdan oldin mol yetkazib beruvchi o'z bankiga mol sotib oluvchining rekvizitlarini – to'lovchining nomi va manzili, u bilan tuzilgan shartnoma shartlari, barcha qarzdorlik to'lovlari

summasi va boshqa tur ma'lumotlarni taqdim etadi. Barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqib bank kelishuv shartlari to'g'risida qaror qabul qiladi. Faktoring xizmatlari to'g'risidagi shartnoma yoki kelishuv, odatda, 1–4 -yilga tuziladi. Ochiq faktoringda shartnoma yoki kelishuv to'liq xizmat amalga oshirilishiga, yopiq faktoringda esa faqat hisob–kitob hujjatlari hisobini (diskontlashga) yuritishga tuziladi.

To'liq xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma yoki kelishuv regress huquqi bilan tuziladi (ma'lum vaqtga, asosan, to'lov muddatidan so'ng 90 kun), alohida holatlarda esa mol yetkazib beruvchi bankning ishonchini qozongan bo'lsa, regress huquqi bo'lmasligi ham mumkin. Davlatlararo savdo–sotiq qiladigan korxonalar xizmat ko'rsatishda eksport va import faktoringidan ham foydalaniladi.

Faktoring kelishuvida faktoring turidan tashqari, shuningdek, quyidagilar ko'rsatiladi:

- sotib oluvchilar, taqdim etiladigan majburiyatlar;
- taqdim etiladigan majburiyatlarning limit (nazorat) summasi;
- avans miqdori;
- ushlab qolishlar;
- majburiyatlarni to'lash muddatlari;
- faktoring operatsiyalarini bajargani uchun to'lov miqdori;
- yetkazib beruvchi tomonidan olinadigan qo'shimcha xizmatlar;
- faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summa;
- regress huquqi;
- mol sotib oluvchi tomonidan to'lovni amalga oshirishning oxirgi muddati;
- to'lovchi to'lovni to'g'ri o'z vaqtida amalga oshirmaganda ko'riladigan choralar;
- shartnoma shartlarini buzganliklari uchun tomonlar javobgarligi;
- faktoring bo'limiga operatsiyalar bo'yicha shikoyat muddatlari;
- kelishuvning amal qilish muddati;
- kelishuvning bekor qilinish shartlari va boshqalar.

Faktoring shartnoma yoki kelishuvda bank va mijoz huquq va

majburiyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Bank majburiyatlari:

- unga taqdim etilgan qarzdorlik majburiyatlarini o'z vaqtida to'lash;

- mijozga hisob-kitoblarning holati to'g'risida yoki yuzaga kelgan ma'lum to'lovchilar bilan qiyinchiliklar to'g'risidagi axborot taqdim etishi ko'rsatiladi.

Mijoz majburiyatlari:

* bankka barcha yetkazib bergan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqidagi hujjatlarni, shuningdek, mol yetkazib beruvchi tovar va xizmatlarni akseptlagani to'g'risidagi hujjatlarni, shartnoma shartlari hamda tovar miqdori va sifati to'g'risidagi hujjatlarni;

* tovar va xizmatlarni sotib oluvchilari bilan mavjud bo'lgan kelishmovchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishi;

* bankka nomaqbul o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot berishi, ular bankning faktoring operatsiyalariga ta'sir etish doirasini belgilashi;

* arbitrajda ishlarni ko'rib chiqishda bank bilan birga ishtirok etishi lozim.

Faktoring operatsiyalari bank balansida aks ettirilib, debet tomonida bank yetkazib beruvchiga to'lagan summa, kredit tomonida esa mol yetkazib beruvchi bankka to'lagan summa aks ettiriladi.

Har -yili bankning faktoring bo'limi ishlarni amalga oshirish bo'yicha keyingi moliyaviy -yil uchun reja tuzadi. Unda keyingi -yil uchun taxmin qilinayotgan faktoring operatsiyalar hajmi, rejalashtirilgan miqdorlar, kreditlarni taqdim etish va ularni to'lash shartlari, faktoring operatsiyalarini ko'paytirish uchun foydadan o'tkazmalar miqdori va boshqalarni rejalashtiradi.

14.3. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va ularning o'tkazilish tartibi

Respublika tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari "O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini olib borish tartibi" to'g'risidagi

Nizom ⁶⁹ talablari asosida amalga oshiriladi. Banklar tomonidan faktoring xizmatini ko'rsatishda sotib olingan majburiyatlarning to'lovini ta'minlash muddati 90 kundan oshmasligi va mol yetkazib beruvchi va to'lovchi 2–kartotekaga ega bo'lmasligi kabi shartlari qo'yiladi. Ushbu muddatda to'lovi amalga oshirilmagan majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olish choralari ko'rilishi shart.

Faktoring operatsiyalari quyidagilar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas:

- byudjet tashkilotiga qo'yilgan talabnomalar;
- jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha;
 - to'lovga layoqatsiz deb e'lon qilingan korxonalarining majburiyatlari;
- zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha;
- nolikvid balansga ega bo'lgan korxonalar bo'yicha;
- kapital qo'yilmalarni moliyalash bo'yicha;
- tovar to'lovi va barter bitimlari bo'yicha;
- bajarilgan ishga bosqichma-bosqich yoki tugashi bilan haq to'lanadigan bo'lsa;
- agar oldi–sotdi to'g'risidagi shartnomada to'lovchi shartda kelishilgan muddatda mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lsa, shuningdek sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish mavjud bo'sa faktoring qo'llanilmaydi.

Faktoring operatsiyalariga doir mablag'larni yetkazib beruvchining hisob raqamiga o'tkazilishi ikki nusxada memorial order bilan rasmiylashtiriladi, ulardan bittasi shu operatsiya amalga oshirilgan kunga tegishli kunlik hujjatlarga tikiladi, ikkinchi nusxasi esa mijozning hisob raqamdan ko'chirmasiga ilova qilinadi. Faktoring bo'yicha hisob–kitoblar amalga oshirilganida to'lov talabnomasining yuqori qismida faktoring degan yozuv yoki muhr va oluvchi hisobraqamida faktoring hisob raqami ko'rsatilishi shart.

Aslida faktoring yuqori daromad keltiruvchi operatsiya bo'lishi

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 14.12.2016 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 953-3.

bilan bir qatorda, o'ziga yarasha riskli operatsiya hisoblanadi. Bank shartnoma shartlariga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirishi, yetkazib beruvchi va to'lovchi bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning batafsil hisobini yuritishi, yetkazib beruvchini shaxsiy hisob varaqi holati to'lovchi tomonidan to'lov talabnomalari to'lanishi va qarzni qaytarilish holati to'g'risida muntazam ravishda hisobot tayyorlashi va muddati o'tkazib yuborilgan to'lov talabnomalarning tahlilini amalga oshirishi shart.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda to'lov muddatlariga rioya qilish, hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning debitor va kreditor qarzdorliklarini imkon boricha kamaytirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bank faktorlar faoliyati, aynan tovar yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda to'lovlar xatari va muddatlilik muammosini hal qilish, ushbu munosabatlarning barqaror bo'lishiga ko'maklashishi kerak.

Markaziy bank tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish uchun ro'yxat mol yetkazib beruvchining asosiy hisob raqami ochilgan bankdagina berilishiga ruxsat etilgan.

Faktoring uchun bankning o'z mablag'lari manba bo'ladi, ya'ni banklar faktoring xizmatini o'z sarmoyasi hisobiga amalga oshiradi, faktoring muddati 90 kun qilib belgilangan va faktoring operatsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ushbu operatsiya regress huquqisiz amalga oshirilishi, ya'ni bank mol yetkazib beruvchi hisobvarag'idan faktoring shartnomasi bo'yicha o'tkaziladigan summani qaytarib olishga haqli emas. Bu shart hozirgi kunda faktoring amaliyoti va uning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu operatsiya orqali nafaqat mol yetkazib beruvchi, balki mol sotib oluvchi ham ijobiy imkoniyatlarga bo'ladi. Bular:

- sifatsiz tovarni sotib olish riskini bartaraf etadi;
- mablag'lar aylanishini tezlashtiradi, raqobatbardoshligini yaxshilaydi;
- xarid hajmini ko'paytiradi.

Bundan tashqari faktoringning iqtisodiy afzalliklari:

- * likvidlilik va rentabelligini oshiradi va foydasini ko'paytiradi;

- * debitor qarzdorlik tezda pul mablag‘iga aylanadi;
- * debitorlar tomonidan to‘lovlar muddatlariga rioya qilishidan mustaqil bo‘ladi;
- * oborot hajmi kengayadi va daromadlilik oshadi;
- * o‘z kapitalini iqtisodiy va moliyaviy rejalashtirish imkoniyati kengayadi;
- * to‘lay olmasligi riskini kamaytiradi.

Shu bilan birga faktoring maxsus jarayon bo‘lib, bu sohada yuzaga keladigan risklarni boshqarishni talab qiladi.

Umuman, faktoring pul mablag‘lari va sarmoyalar aylanishini tezlashtirish, qarzni undirib olish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish, banklar o‘rtasida munosabatlarni osonlashtirishga yordam berib, pulning hisob–kitob tizimini mustahkamlash, mamlakatda debitor va kreditor qarzdorlikni kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar

Faktoring, sotib oluvchi, debitor, ochiq faktoring, kreditor, yopiq faktoring, mol yetkazib beruvchi, regress huquqi, arbitraj, avans miqdori, faktoring operatsiyalari, faktoring kompaniya, faktor–vositachi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.
2. Kimlarga nisbatan faktoring qo‘llash mumkin emas?
3. Faktoring shartnomasini tuzish va uning elementlari.
4. Faktoring xizmatlarini taqdim etish shartlari.
5. Tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini o‘tkazish.
6. Faktoring operatsiyalarining kamchiliklari.

XV BOB. TIJORAT BANKLARINING LIZING OPERATSIYALARI

15.1. Lizing operatsiyalari va uning asosiy elementlari.

15.2. Lizingning turlari va uning servisi.

15.1. Lizing operatsiyalari va uning asosiy elementlari

Tijorat banklarining lizing operatsiyalari zamonaviy biznesdagi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Ular korxonalariga zamonaviy uskunalar va transport vositalarini sotib olish imkoniyatini berish orqali, investitsiya muammolarini hal qilishda yordam beradi. Lizing yordamida, kompaniyalar xom ashyo va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan resurslarga ega bo'lishadi, shu bilan birga, yuklarni o'z zimmasiga olishdan saqlanadilar.

Lizingning asosiy afzalliklaridan biri – moliyaviy yukni kamaytirish. Tijorat banklari lizing xizmatlari orqali, mijozlarning moliyaviy vaziyatlarini yaxshilashga yordam beradilar. Ularning lizing operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, bu nafaqat korxonaning likvidligini oshiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, tijorat banklari lizing operatsiyalarini amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni va raqamli yechimlarni joriy qilmoqda. Bu esa mijozlarga tez va qulay xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi, shuningdek, jarayonni soddalashtiradi. Natijada, lizing operatsiyalari banklarning strategik rejalashtirishida muhim o'rin egallaydi va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi.

Tijorat banklari mijozlarga ma'lum komission to'lov, haq evaziga turli xizmatlar ko'rsatish orqali o'z daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega. Shu bois bank xizmatlarining turi va hajmining oshishi bank foydasini oshirishning manbasi hisoblanadi. Bank xizmatlarining shunday turlaridan biri bu lizing bo'yicha xizmatlar hisoblanadi. Tijorat banklarining lizing operatsiyalarida banklar mashina, asbob uskuna, transport va ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi boshqa asosiy vositalarni sotib olishni moliyalashtiradi va lizing shartnomasi asosida ularni uzoq muddatga foydalanishga

beradi. Boshqacha qilib aytganda, bank korxonaga yuqoridagi asosiy vositalarni sotib olishga kredit berish o‘rniga o‘zi ushbu vositalarni sotib oladi va o‘zida mulk huquqini saqlab qolgan holda ularni ijaraga beradi. Bu holda bank kredit foizini emas, balki ijara yoki lizing to‘lovini oladi.

“Lizing” inglizcha (leasing, ya’ni to lease – ijaraga berish) so‘zdan olingan bo‘lib, “ijara” yoki “ijaraga bermoq” ma’nosini bildiradi va moliyaviy xizmat – kredit turi hisoblanib, xo‘jalik sub’yektlari va jismoniy shaxslar tomonidan asosiy vositalar, asbob–uskunalar, jihozlar, transport vositalari va boshqa asosiy fondlarni ijaraga berish va sotib olish bo‘yicha operatsiyalar hisoblanadi.



15.1.1-rasm

Lizing – ijaraning kreditga yaqinlashgan o‘ziga xos ko‘rinishidir. Iqtisodiy mohiyati bo‘yicha lizing oddiy ijara tushunchasiga nisbatan keng tushunchadagi kategoriya hisoblanadi.

Aslida lizing bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladigan 3 operatsiya: ijara, kreditlash va korxonani texnik materiallar bilan ta’minlashning yagona kompleksidir. Dastlabki lizing tarqalishi 1852–yilda AQShdagi “Yunayted stites lizing corparatsion” birinchi lizing jamiyati tashkil qilinishi bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda lizing munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuni ⁷⁰ bilan tartibga

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.04.1999 yildagi 756-I-son.

solinadi. Mazkur qonunning 2–moddasiga asosan lizing moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol–mulkni (lizing ob‘yektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Lizing munosabatlarini o‘rnatishda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing ob‘yektini lizing oluvchining mulki bo‘lib o‘tsa;


- lizing shartnomasining muddati lizing ob‘yektini xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo‘lsa yoki lizing ob‘yektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati, uning boshlang‘ich qiymatining yigirma foizidan kam bo‘lsa;

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing ob‘yektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to‘lab sotib olish huquqiga ega bo‘lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing ob‘yektini qiymati asos bo‘ladi;

- lizing shartnomasi davri uchun lizing to‘lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing ob‘yektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to‘qson foizidan ortiq bo‘lsa.

Lizing uch taraflama (sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan, iste‘mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalari, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk **lizing ob‘yektlari** bo‘lishi mumkin.



15.1.2–rasm. Lizing operatsiyasi qatnashchilari

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi **lizing sub'yektlari** hisoblanadi.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing ob'yektini mulk qilib oluvchi shaxs **lizing beruvchi** deb e'tirof etiladi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing ob'yektini olayotgan shaxs lizing oluvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing beruvchi lizing ob'yektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing faoliyati investitsiya faoliyat turi bo'lib amalga lizing beruvchi o'z mablag'lari va (yoki) jalb etilgan mablag'lar hisobidan lizing ob'yektini sotib oladi va uni lizing shartnomasi asosida ma'lum shartlar bo'yicha lizing oluvchiga foydalanishga beradi.


Banklarning lizing bozorida muhim rol o'ynashining o'ziga xos quyidagi bir qancha sabablari bor:

- * birinchidan: lizing biznesning barcha turlarida juda zarur vosita ekanligi va banklar esa katta pul resurslariga ega bo'lib, xo'jalik sub'yektlarining lizingga bo'lgan ehtiyojini qondira olishi;

- * ikkinchidan: lizing xizmatlarini o'zining iqtisodiy xarakteriga ko'ra kreditlash jarayoniga o'xshash va unga o'ziga xos muqobil ekanligi bilan izohlanadi. Moliyaviy bozordagi raqobat banklarni bu operatsiyalarni faollik bilan kengaytirishga undaydi. Bu esa banklarni

lizing operatsiyalarni amalga oshiruvchi kompaniyalar qatorida faoliyat ko'rsatishga olib keladi. Shu bilan birga, banklar mustaqil lizing kompaniyalariga kredit berish orqali ular faoliyatini nazorat qila oladilar.

Lizing munosabatlarini, yanada aniqroq, quyida ko'rib chiqamiz. Lizing kompaniyasi (lizing beruvchi) xo'jalik sub'yekti yoki ishlabchiqaruvchi (lizing oluvchi)ning buyurtmasiga asosan o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobidan mulk (lizing ob'yekti)ni o'z xususiy mulki sifatida ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)dan xarid qilib oladi. Sotib olingan mulk lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida tuzilgan lizing shartnomasiga asosan, lizing oluvchiga keyinchalik sotib olinishi sharti bilan ijaraga beriladi. Lizing oluvchi lizingga olingan mulkdan o'z faoliyatida foydalanib daromad oladi va olingan daromad hisobidan o'rnatilgan grafik bo'yicha lizing beruvchidan qarzini uzib boradi. Lizing shartnomasining muddati tugagach lizing to'lovlari to'liq to'lab berilgan bo'lsa, lizingga olingan mulk lizing oluvchining mulkiga aylanadi. Lizing jarayonlarini quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.



15.1.3–rasm. Lizing amaliyoti va uning bosqichlari

Bu yerda:

1–Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida lizing shartnoma tuziladi.

2–Lizing beruvchi va mulkning sotuvchisi o'rtasida lizing ob'yektini xarid qilish bo'yicha shartnoma tuziladi.

3–Lizing beruvchi tomonidan lizing ob'yektining to'liq narxi to'lanadi.

4,5–Mulk lizing beruvchi yoki lizing oluvchiga yetkazib beriladi.

6–Mulkka egalik huquqining sotuvchidan lizing beruvchiga o'tishi.

7–Lizing to'lovlarining to'lanishi.

8–Lizing to'lovlarining barchasi to'langandan keyin mulkka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tishi.

Lizing muddati deganda, lizing shartnomasining muddati tushuniladi. Lizing uzoq muddatli ijaraning o'ziga xos shakli bo'lganligi bois lizing shartnomasining muddatini aniqlashda lizing beruvchi va lizing oluvchi quyidagi holatlarni hisobga oladi:

Uskunaning ishlash muddati – bu uskunaning mexanik–iqtisodiy ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Lizing shartnomasi muddati uskunaning, ijara beruvchining shartlarini hisobga olgan holda o'rnatiladi.

Uskunaning amortizatsiya muddati. Bu hukumat organlari tomonidan belgilanadi. Moliyaviy lizingda shartnoma muddati, odatda, amortizatsiya muddati bilan mos keladi.

Inflyatsiya jarayonlarining dinamikasi. Lizingga beruvchi tez o'suvchi inflyatsiya sharoitida o'zgarmas ijara to'lov ostida uzoq muddatga shartnoma tuzishi foydali emas yoki narxlarning tushish tendensiyasiga ega bo'lgan davrda lizing beruvchi shartnomani uzoq muddatga tuzishga harakat qiladi.

Ssuda–kapital bozorining konyunkturasi va uning rivojlanish tendensiyasi. Lizing kompaniyalari bank kreditlarini keng ko'lamda ishlatadilar. Bank uzoq muddatli kreditlarining foizi lizing shartnomasida o'rnatiladigan foizlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Lizing qiymati. Lizing operatsiyalari qiyin jarayon bo'lib, bu lizingto'lovlarining qiymatini aniqlashni ko'zda tutadi. Qisqa va o'rta muddatli lizingda lizing to'lovlarining summasi ijaraga olinadigan tovarlar bozorining konyunkturasi orqali aniqlanadi.

Uzoq muddatli lizingda lizing to'lovlari shartnoma ob'yektining qiymati va lizing shartnomasining davom etish muddatiga asoslangan

hisob–kitoblar orqali aniqlanadi. Ijara to‘lovining tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

- amortizatsiya;
- shartnomani amalga oshirishda ijaraga beruvchi tomonidan jalb etiladigan resurslar uchun to‘lovlar;
- ijaraga beruvchining ko‘rsatadigan xizmatlari uchun olgan daromadini o‘z ichiga olgan lizing marjasi (1–3 %);
- risk miqdori, ya’ni ijaraga beruvchi o‘ziga olgan turli xildagi risklarning miqdori.

15.2. Lizingning turlari va uning servisi

Lizingning turli shakllari mavjud. Qo‘llanilish ko‘lami, mintaqasi bo‘yicha lizing – ichki va xalqaro bo‘lishi mumkin.

Ichki lizingda lizing beruvchi, lizingni oluvchi va sotuvchi O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblanadilar.


Muddati bo‘yicha lizinglar quyidagilarga bo‘linadi:

- uzoq muddatli (3 yilgacha) – haqiqiy lizing;
- o‘rta muddatli (1,5 yildan 3 yilgacha) – xayring;
- qisqa muddatli (1 yilgacha) – renting.

Turi bo‘yicha lizing moliyaviy va operativ (tezkor) lizingga bo‘linadi.

Lizingda qatnashuvchi tomonlarning ishtirokiga qarab lizingning ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama turlari mavjud. Bu turlar bizning mamlakatimiz amaliyotida ko‘p qo‘llaniladi.

Ikki tomonlama (to‘g‘ridan to‘g‘ri) lizing, bunda mulk sotuvchisining o‘zi lizing beruvchi bo‘lib, ikkinchi tomondan lizing oluvchi ishtirok etadi.



15.2.1–rasm. Ikki tomonlama lizing

Bu yerda:

1. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o‘rtasida shartnoma tuzilishi.

2. Lizing beruvchi tomonidan mulk lizing oluvchiga yetkazib beriladi.

3. Lizing to'lovlarining to'lanishi.

4. Lizing to'lovlari to'lab bo'linganidan keyin mulkka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tkazilishi.

Lizingga beriladigan mulkka xizmat ko'rsatish hajmiga ko'ra:

Sof lizing, bunda mulkka xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha xarajatlarni lizing oluvchi o'z zimmasiga oladi. Bu holda uskunalarga xizmat ko'rsatish xarajatlari lizing to'lovlariga kirmaydi.

Xizmatli lizing – bunda barcha mulkka xizmat ko'rsatish (o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va boshqalar.) ishlarini lizing beruvchi o'z zimmasiga oladi. Lizing oluvchining xohishiga ko'ra lizing beruvchi o'z zimmasiga malakali mutaxassisni tayyorlash, marketing va tayyor mahsulotni reklama qilish, xomashyoni yetkazib berish kabi majburiyatlarni olishi ham mumkin. Ushbu ko'rsatib o'tilgan to'lovlarning barchasi lizing to'lovlariga kiritiladi.

Mulkdan foydalanish muddati va u bilan bog'liq amortizatsiya shartlariga ko'ra quyidagilar farqlanadi:

- xarajati to'liq qoplanadigan lizing (mulk to'liq amortizatsiya qilinadi), bunda shartnoma muddati mulkning normativ xizmat qilish muddatiga teng bo'ladi;

- xarajati noto'liq qoplanadigan lizing (mulk noto'liq amortizatsiya qilinadi), bunda shartnoma muddati mulkning normativ xizmat qilish muddatidan kamroq bo'ladi.

Moliyaviy lizingda lizingga beruvchi lizing oluvchining ko'rsatmasiga binoan ko'rsatilgan mulkni aniq sotuvchidan olib, mulkni unga lizing predmeti sifatida belgilangan to'lov asosida, belgilangan muddatga va belgilangan shartlar asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga berishlilik tushuniladi.


Bunda lizing muddatining davomiyligi lizing predmetining umumiy amortizatsiyasi muddatiga teng yoki undan oshib ketishi mumkin.

Lizing shartnomasining amal qilish muddati tugashi bilan lizing predmeti lizing oluvchining ixtiyoriga o'tadi. Moliyaviy lizing to'g'ri va

qaytadigan bo‘ladi. To‘g‘ri lizing lizing oluvchi ega bo‘lgan texnik imkoniyatini qayta jihozlashda qo‘llaniladi.

Lizing beruvchi bu kelishuv bo‘yicha 100% miqdorda olinadigan mulkni moliyalashtiradi.

To‘g‘ri moliyaviy lizing quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi:



15.2.2–rasm. To‘g‘ri moliyaviy lizingni tashkil qilish bosqichlari

Bu yerda:

1- lizing kompaniyasi yoki bank, lizing oluvchi va sotuvchi bilan birgalikda uch tomonlama lizing shartnomasini tuzadi.

2- lizing beruvchi sotuvchiga asosiy vositalar qiymatini to‘lab beradi.

3- lizing oluvchiga asosiy vositalarini yetkazib berish.

4- lizing oluvchi lizing beruvchiga ijara to‘lovlarini to‘lab beradi.

Lizing kelishuvining mexanizmi quyidagicha: xo‘jalik sub’yektiga asosiy vosita (belgilangan mulk) zarur. U sotuvchini (ishlab chiqaruvchi zavodni) topadi va lizing firmasiga asosiy vositaning qiymati, texnik ko‘rsatkichlari va ishlatish usullari haqidagi ma’lumotni beradi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, lizing to‘g‘ri investitsiyalarga kiradi, chunki lizing oluvchi lizing beruvchiga material va pul shaklida amalga oshirilgan investitsion xarajatlarni (chegirmalarni) va mukofotlarni to‘lab berishi kerak. Investitsion xarajatlar va mukofotlar summasi lizing shartnomasining umumiy summasini tashkil etadi. Lizing to‘lovlarining hajmi, shakli va davriyligi lizing shartnomasida belgilanadi. Shartnomada lizing to‘lovlarini lizing predmeti ishlatilgan vaqtdan boshlab, 180 kundan oshmaydigan muddatga uzaytirilishi ko‘zda tutilishi mumkin.

Lizingning xizmatini ko'rsatish, bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu xizmat, iste'molchilarga va korxonalariga turli xil moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy faoliyatni kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Lizing, asosan, ikki tomon o'rtasida amalga oshiriladigan kelishuv bo'lib, bir tomon buyum yoki xizmatni taqdim etsa, ikkinchi tomon uni qisman yoki to'liq mablag' evaziga foydalanish huquqini oladi.

Bundan tashqari, lizing xizmatlari turli sohalarda, masalan, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga hamda mamlakatning umumiy farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Lizingning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy foydasi ham mavjud bo'lib, bu xizmat orqali yaxshiroq kelajakni qurish imkoniyati yaratiladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Lizing, lizing ob'yekti, lizing sub'yekti, lizing qiymati, xalqaro lizing, lizing beruvchi, lizing operatsiyalari.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Lizing munosabatlarini o'rnatishda lizing shartnomasi qanday talablarga javob berishi kerak?
2. Lizing operatsiyalari qanday amalga oshiriladi?
3. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari va ularning turlarini izohlang.
4. Lizingning ijobiy tomonlari, ahamiyatini izohlang.
5. Lizing qiymati nima?
6. Lizing, faktoringning bir-biridan farqi, ijobiy tomonlarini ayting.

XVI BOB. TIJORAT BANKLARINING TRAST VA FORFEYTING OPERATSIYALARI

16.1. Tijorat banklarining trast operatsiyalari.

16.2. Banklarning forfeyting operatsiyalari.

16.1. Tijorat banklarining trast operatsiyalari

Tijorat banklarining trast operatsiyalari, moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu operatsiyalar banklar tomonidan mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, kredit berish, depozitlar qabul qilish va investitsiyalarni boshqarish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Tijorat banklarining asosiy maqsadi—mijozlarning ehtiyojlarini qondirish va ularga foyda keltirishdir. Trast operatsiyalari, shuningdek, banklarning investitsiya, aktivlar boshqaruvi va vasiylik xizmatlarini taqdim etishi orqali ham namoyon bo'ladi. Banklar, shuningdek, mijozlarga mulk va kapitalni boshqarish, investitsiya portfelini yaratish va moliyaviy rejalashtirishda yordam beradi. Bu jarayonlarda banklar o'z mijozlari uchun malakali maslahatlar berish va ular uchun optimal strategiyalarni ishlab chiqish lozim.

Tijorat banklarining trast operatsiyalari orqali mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan kapital, yangi loyihalarni moliyalashtirish va ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayon, albatta, bankning moliyaviy barqarorligiga va bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Natijada, tijorat banklari nafaqat o'z mijozlari uchun, balki butun iqtisodiyot uchun foydali xizmatlarni taqdim etadi.

Ma'lumki, har bir kredit muassasasi amalga oshiradigan operatsiya—larning turi va tarkibi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Ulardan misol uchun bankning hajmi va strategiyasi, shu'balararo aloqalarining rivojlanganligi, kerakli barcha ruxsatnomalarning mavjudligi, qo'shimcha daromad olishga bo'lgan intilish va boshqalar. Shu jihatdan olib qaraganda, ko'p banklar «asosiy operatsiyalar» bilan

bir qatorida, “boshqa operatsiyalar” deb nomlanadigan operatsiyalarni ham amalga oshiradilar. Ushbu operatsiyalar qatoridan trust operatsiyalari bevosita salmog‘li o‘rin egallaydi.

Trust xizmatlari – bu mijozga tegishli bo‘lgan va boshqa aktivlarni boshqarish bo‘yicha olib boriladigan operatsiyalardir.

Hozirgi paytda banklarning o‘z mijozlari va bozor o‘rtasida to‘la huquqli vositachi agent sifatida ish olib borishi va natijada bir qator daromad manbalarini qo‘lga kiritishi bois trust operatsiyalari ancha muhim ahamiyatga ega.

Trust tufayli bank quyidagi ba‘zi bir imkoniyatlarni qo‘lga kiritadi:

- qo‘shimcha mablag‘larni qo‘lga kiritadi va ularni o‘z manfaati yo‘lida joylashtiradi;

- trust shartnomasi bo‘yicha komissiya daromadlariga yoki tasarrufi–dagi qimmatbaho qog‘ozlardan keladigan foydadan hissaga ega bo‘ladi;

- o‘zga kapital bilan ish olib borish davomida bank faqatgina trust shartnomasi chegaralarida javobgar bo‘ladi;

- trust operatsiyalarining hisobi bo‘yicha bankning balans hisob varaqiga teginmaydi, ammo ulardan keladigan daromad bankning umumiy daromadiga qo‘shilib ketadi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, trust operatsiyalarini amalga oshirish bank personalidan ko‘plab sohalarda: qonunchilik, investitsion faoliyatni yuritish hamda shaxsiy mulkni boshqarish borasida yuqori malakani talab qiladi.

Trust shartnomasida kutiladigan asosiy maqsad – bu bir tarafning ikkinchi taraf foydasini ko‘zlagan holda ma’lum bir mulkni (pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar, mulkiy va boshqa huquqlar) boshqarish vazifasini o‘z zimmasiga olishi bo‘yicha ikki taraflama ishonch munosabatlarini o‘rnatishdan iborat.

Trustning ob’yekti sifatida qonun ob’yektlariga javob beradigan har qanday turdagi, shu jumladan, garovga qo‘-yilgan mulklar olinishi mumkin. Ya’ni, bu korxonalar va ularning aktivlari, mahsulotlar, yer maydonlari, ko‘chmas mulk, pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar,

valyuta moddiy boyliklari, mulkiy huquqlar bo‘lishi kerak.

Trast operatsiyalari bo‘yicha munosabatlar muassis va mulk egasi taraflaridan tuziladigan shartnomaning imzolanishidan so‘ng boshlanadi. Trast operatsiyalarini boshqarish aktivlarga egalik qilishining barcha yoki ba’zi bir qirralarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Ya’ni:

- saqlash;
- ishonchli shaxsning manfaatini ko‘zlab chiqish (hissadorlar majlisi, ssuda va boshqalar);
- daromad va investitsiyalash faoliyatini boshqarish;
- aktivlar oldi–sotdisi;
- qog‘ozlarni jalb qilish va to‘lash, qimmatbaho qog‘ozlari chiqarish va joylashtirish;
- huquqiy shaxsning tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishini amalga oshirish;
- mulkka bo‘lgan egalikning o‘tkazilib yuborilishi (sovg‘a, meros va h.k. sifatida);
- mijozning shaxsiy bank schyotlarini, kassa va moliyaviy xo‘jalik ishlarini yuritish hamda majburiyatlar bo‘yicha hisob–kitoblarni amalga oshirish;
- korxonaning qayta tashkil etilishi yoki bankrotlikka uchrashi vaqtlarida vaqtinchalik boshqaruvni o‘z qo‘liga olish va boshqalar.

Jahon amaliyotida odatda, bank trast operatsiyalarini uch turga ajratishadi:

1. Xususiy shaxslarga ko‘rsatiladigan trast xizmatlari.
2. Tijorat korxonalariga ko‘rsatiladigan trast xizmatlari.
3. Notijorat tashkilotlariga ko‘rsatiladigan trast xizmatlari.

Xususiy shaxslarga ko‘rsatiladigan trast xizmatlari chet el banklari tomonidan keng taqdim etiladi. Ulardan shaxsiy mulkni boshqarish, vositachilik, o‘z ta’minotiga olish va boshqalar.

Meros bo‘yicha tashkil etiladigan trastlar “meros trastlari” deyiladi va faqatgina mulk egasining vafotidan so‘ng kuchga kiradi.

Trastlarning har ikkala turi ham bank tomonidan trast shartnomasiga asoslangan holda boshqariladi. Trastni tashkil etuvchi

investitsiyalar bo'yicha qat'iy yo'nalishlarni belgilab qo'yish bilan bir qatorda, bankka qarorlar qabul qilishda ma'lum bir darajada yengilliklar ham taqdim etilishi mumkin. Bu yerdagi asosiy maqsad daromad, ya'ni asosiy kapitalning saqlanib qolinishi hamda risk darajasi o'rtasidagi balansni saqlab qolishdan iborat.

Shuningdek, bank otaliq vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu borada bank aktivlarning jamlanishi va saqlanishi, barcha da'volar bo'yicha javob berish, kerakli qarz va meros to'lovlarni amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi. Shaxsiy trust xizmatlarining yana bir turi—bu «xususiy agentlik hisob varaqini» olib borish hisoblanadi. Unga asosan bank agent sifatida xususiy shaxsning asosiy aktivlari, moliyaviy ishlarini boshqarish va kunlik xarajatlarini amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi.

Trustning ushbu turida bank xodimlari kerak bo'lganda o'z irodalariga muvofiq ish yuritishlari mumkin. Unda bu trust “boshqarish huquqiga ega ishonch schyoti” deb nomlanadi. Agar bunday huquq bank xodimlariga berilmagan bo'lsa, ular har bir operatsiyani amalga oshirish uchun ruxsat olishlari shart, ammo har ikkala holatda bank o'zining mijozini doimiy ravishda operatsiyalar haqida xabardor qilib turishlari kerak. Tijorat korxonalariga ko'rsatiladigan trust xizmatlarini 2 turga ajratsa bo'ladi: agentlik va kafillik.

Agentlik trustlariga asosan bank firmaning xususiy agenti sifatida ish yuritib, ko'pincha, mijozning manfaatini ko'zlagan holda qimmatbaho qog'ozlarni chiqaradi, ular bo'yicha dividendlar to'laydi hamda hissadorlarning talablariga asosan ularni qaytadan moliyalashtiradi va muddati kelgan majburiyatlarning qarzini o'zadi.

Kafillik operatsiyalari bo'yicha esa trustlar asosan katta kompaniyalarning ta'minlanmagan mablag'lari sotiladigan tijoriy qog'ozlar bozorining ishlashi bilan bog'liq.

Banklardagi trust bo'limlari tijoriy qog'ozlarni sotib olish bo'yicha hisobini yuritadi, realizatsiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarni investorlarga yetkazib berishni ta'minlash hamda muddati kelgan qimmatli qog'ozlarning egalariga to'lovlar qilish ishlarini bajaradi. Qimmatli qog'ozlar emitentlari bankdan kafolat xatlarini oladi va bu o'z

navbatida investorlarga bank tarafidan qarz majburiyatlarini, hatto emitentning qurbi etmagan holda ham to'lanishiga ishonch paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Hozirda jahon miqyosida notijorat tashkilotlariga ko'rsatiladigan trast operatsiyalariga bo'lgan raqobat kuchayib bormoqda. Ular qatoriga asosan pensiya korporativ va hukumat fondlari kiradi. Trast bo'limlari xuddi shu tashkilotlarning fondlarini boshqarishga intiladi. Bu jarayon 2 xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: to'g'ridan to'g'ri va diskretsion.

To'g'ridan to'g'ri agent trastga ishonch tariqasida topshirilgan shaxsiy mulkning hamda ular bo'yicha hisobotlarning yuritilishi uchun javob beradi. Diskretsion agent esa, aksincha, investitsion qarorlar qabul qiladi va aksariyat hollarda o'zining xohish-irodasiga qarab ish olib boradi. Trast faoliyatining eng asosiy masalalaridan biri-tijorat banklari mijozlarining qimmatli qog'ozlari portfelini boshqarishdan iborat. Katta-katta kompaniyalar, masalan, pensiya fondlari, o'zlarining mablag'larini tijorat banklariga ishonib topshiradi. Ushbu katta kompaniyalar bo'yicha banklarga qat'iy qoidalar o'rnatiladi. Unga banklar rezervlarni ishonchlilik, diversifikatsiya, qaytarib berishlik, foydalilik va likvidlilik prinsiplariga amal qilgan holda joylashtiradi.

Trast bo'limining daromadlari bevosita va bilvosita daromad shaklida 2 ga bo'linadi:

– bevosita daromadlar asosan xizmat uchun gonorar va komissiya to'lovlaridan iborat bo'ladi;

– bilvosita daromadlarga esa xizmat uchun to'lanadigan qat'iy yoki o'zgaruvchan foiz stavkalari hamda trast aktivlarining hajmi va qiymatiga bog'liq ravishda belgilanadigan komissiya to'lovlari kiradi

Ba'zi bir yig'imlar taraflarning kelishuviga bog'liq bo'ladi. Agarda trast daromadlari aktivlarning qiymatiga bog'liq bo'lsa va bu aktivlar qimmatbaho qog'ozlar bo'lsa, bo'limning daromadi ushbu qog'ozlarga bo'lgan bozordagi narxlarning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, trast bo'limlari asosan bilvosita daromadlarga asoslangan holda ish yuritgandagina, bankka yaxshigina daromad keltirishi mumkin. Chunki gonorarlardan

keladigan daromadoʻz garmas xarajatlarni faqatgina katta hajmlarga erisha olishi kerak. Buning sababi shundaki, boʻlimning bilvosita xarajatlarini aniq bilib olish deyarli mumkin emas. Ushbu xarajatlarga, masalan, yuristlarga toʻlanadigan gonorarlar, investitsiyalash sohasidagi izlanishlar va boshqalar. Gonorar va komission toʻlovlardan tashqari trastfaoliyati oʻz ichiga jalb qilingan depozitlarni qimmatli qogʻozlarga qoʻyish orqali olinadigan daromadlarni ham qamrab oladi.

16.2. Banklarning forfeyting operatsiyalari

Banklarning forfeyting operatsiyalari, asosan, eksport operatsiyalarini moliyalashtirish va kredit risklarini minimallashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Forfeyting boshida, eksportchi oʻz tovarini chet eldagi mijozga tarqatadi, keyin esa mijoz tomonidan beriladigan kredit nomalari, ya'ni veksellar bilan davom etadi. Shundan soʻng, bank eksportchiga pul mablagʻlarini darhol berish orqali mijozning hisob–kitoblarini olib, mijozning toʻlov majburiyatlarini oʻz zimmasiga oladi.

Banklarning forfeyting operatsiyalari — bu eksportchilar va importchilar oʻrtasidagi moliyaviy aloqalar, asosan, export bozorida tavakkalchiliklarni kamaytirish va naqd pul oqimlarini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan jarayonlardir.

Forfeyting operatsiyasi - bu eksportchining kelajakdagi naqd pul oqimlari boʻyicha toʻlovlarni bank orqali oldindan olish jarayoni boʻlib, mazkur bankning oʻsha toʻlovlarni amalga oshirish boʻyicha barcha huquqlarini oʻz zimmasiga olishini anglatadi.

Bu operatsiyalar, odatda, xalqaro tijoratda qiyinchiliklarga duch keladigan kichik va oʻrta bizneslar uchun muhimdir, chunki ular banklardan suhbat olib, investitsiya imkoniyatlarini oshirishlari mumkin. Forfeyting yordamida eksportchilar mollarini sotishdan soʻng oʻz muomalalarini kuzatishga hojat qolmaydi, chunki banklari ularning kredit xavfini oʻz zimmasiga oladi. Shunday qilib, tizim eksportchi uchun kutilmagan holatlar oldida qoʻllab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Forfeyting operatsiyalari, amalda, kompaniyalarga likvidlikni yaxshilash va operatsiyalarini samarali bajarish imkonini beradi. Shuningdek, bu protsess valyutaning buzilishi xavfidan himoyalaydi, chunki bank eksportchilarning olib boradigan kreditini o‘z zimmasiga oladi.

Bank tomonidan amalga oshiriladigan forfeyting operatsiyalari, yuqorida aytilganidek, mijozlar uchun risklarni kamaytiruvchi mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Forfeyting shartnomalari nazariy xosiyatlarga tayangani sababli, ular tarafiga to‘lovlarni olib borish vaqtida to‘la majburiyatlarning ustuvorligiga ega. Banklar, o‘z navbatida, bu operatsiyalarni bajarishda eng samarali strategiyalardan foydalanishlari maqsadida mijozlar bilan yaqindan ishlashga intiladilar. Bundan tashqari, davlat va xalqaro mexanizmlarning qanday ta’sir etishi, forfeyting bozorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Banklar raqobatbardoshligining o‘sishi, O‘zbekistonning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvining kuchayishi, eksport savdosiga davlat cheklavlarining kamayishi hamda o‘zbek eksporti bilan bog‘liq risklarning oshishi tijorat banklari taklif etadigan yangi bank xizmatlarining rivojlaninishini taqozo etadi. Mana shunday xizmatlardan biri forfeytinglashtirishdir.

Forfeyting–bu xalqaro savdoni moliyalashtirishning muqobil shaklidir. Forfeyting inglizcha «forfeiting» so‘zidan olingan bo‘lib, huquqdan voz kechish degan ma’noni anglatadi. Forfeyting – bu tijorat banklari tomonidan (forfeyter) to‘lov amalga oshirilmagan sharoitda eksportyorga nisbatan regress huquqini hisobga olmasdan eksport talabnomalarini sotib olishdir. Boshqacha qilib aytganda, kreditordan aylanmasiz asosda o‘tkazma yoki oddiy vekselni aylanma hujjatlarda qayd etilgan qarz sifatida sotib olishdir. Qarzni sotib oluvchi (forfeyter) qarzdorlardan pulmablag‘larini undirib olish imkoniyati bo‘lmaganda, kreditorga nisbatan regress talabi bilan chiqishi huquqidan voz kechishi to‘g‘risidagi majburiyatning o‘z zimmasiga oladi. Sodda qilib aytganda, xaridorning sotuvchi oldidagi majburiyatining moliyaviy agent tomonidan sotib olinishi bankning

forfeyting xizmati deyiladi. Bu tijorat majburiyati oddiy yoki o'tkazma veksel ko'rinishida bo'lib, regress huquqisiz beriladi. "Regress" deganda o'sha davrdagi hisob stavkasi orqali aniqlanadigan tratta yoki veksellarning egasi oldingi egasi to'lashni talab qilishi tushuniladi.

Forfeyting operatsiyasi ma'nosi jihatidan faktoring operatsiyasiga o'xshaydi. Faktoringdan farqli o'laroq, forfeyting tovarlar va xizmatlar sotuvidan kelib tushadigan tushumlaridan olish huquqini beruvchi bir martalik operatsiyadir. Boshqacha qilib aytganda, forfeyting tashqi iqtisodiy savdoni kreditlash bo'lib, importyor tomonidan akseptlangan veksellarni eksportyordan sotib olishdir.

Forfeyting tijorat kreditning bank kreditiga aylanish turidir.

Agarda beruvchi kompaniya birinchi sinfdagi mijoz bo'lmasa, u holda, tegishli majburiyatlarni hisobga olish uchun qo'shimcha ravishda kafolat berilishi zarur.

Odatda, eksportyor veksel (oddiy veksel) trattalarining tijorat turidan forfeytinglashga quyidagi tarzda o'tkazuvchi ishtirokchi sifatida qatnashadi:

– ko'rsatilgan xizmatlar, yetkazilgan tovarlar uchun qayd etilgan to'lovlarni to'liq yoki qisman to'lovchi;

– naqd pul bilan to'lash shartlari ostida barcha to'lovlarning majburiyatini va riskini moliyaviy vositachiga (forfeytor) o'tkazuvchi.

Forfeytingning predmeti barcha turdagi qarzdorlik bo'lishi mumkin, lekin o'zaro moliyaviy aloqalarda avallari ham qo'llanilgan, rasmiylashtirish oson bo'lgan oddiy va o'tkazma vekselar ko'proq ishlatiladi. Forfeyting shartnomalri asosida akkreditiv turdagi kreditorlar va debitorlar schyoti bo'lishi ham mumkin.

Kreditor (eksportyor, mol yetkazib beruvchi) kelishuvdan keyin (tijorat shartnomasi tuzilgandan keyin) forfeyterni shartnomani barcha ma'lumotlar bilan tanishtiradi. Bularga: valyuta, summa, kontragent, tovarlar turi, yetkazib berish shartlari, sug'urta, bank ta'minoti turi, bank garanti va boshqalar kirishi mumkin. Odatda, forfeyterga mijozni shartnomaning barcha shartlari bilan boxabar

qilish va oxirgi qarorni qabul qilish uchun 3 ish kunidan oshmagan davr yetarli hisoblanadi. Shu davrdan boshlab kreditor (eksportyor, mol yetkazib beruvchi) forfeyterga kerakli komission to'lovlarni to'laydi. Xorij mamlakatlari amaliyotda, ko'pincha, komission to'lovlar yillik majburiyatning 0,75% dan 1,25% gacha belgilanib, avans to'lovlari sifatida amalga oshiriladi. Og'zaki kelishuvlardan keyin tomonlar ikki tomonlama shartnoma imzolaydilar.

Forfeyting operatsiyalarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular:

- tashqi savdo operatsiyalari bilan o'zaro aloqa;
- voz kechilayotgan yoki o'tkazib berilayotgan qarzdorlik huquqi qisqa yoki o'rta muddatli to'lov majburiyatlari bilan rasmiylashtirilishi (masalan, oddiy veksellar, tijorat trattalari);
- kreditlash yuqorida qayd etilgan to'lov majburiyatlarini hisoblash orqali amalga oshirilishi;
- taklif qilingan (o'rnatilgan) foiz stavkalarining o'zgarmas ekanligi;
- forfeyting operatsiyalarining faqatgina EKV – (erkin konvertirlanadigan valyuta)larda amalga oshirilishi;
- o'rta muddatli kreditlashga taalluqligi;
- ko'pgina hollarda investitsiyaga mo'ljallangan tovarlar sotuvida qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Amaliyotda shu narsa aniq bo'ldiki, tijorat kreditni bank kreditiga transformatsiya (o'tkazish) qilish metodi bo'lmish forfeyting kreditor (eksportyor, mol yetkazib beruvchi)ga bir qator qulaylik (afzallik)lar yaratib berishi mumkin. Masalan, forfeytingda kredit bankoperatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan risklardan, veksellar va boshqa to'lov hujjatlaridan pul olishdagi risklardan qochish; ikkinchidan, valyuta kursi suzib yuruvchi yurishidan keladigan risklar (qattiq o'rnatilgan foiz stavkalari orqali) va qarzdor moliyaviy holati o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan risklar; uchinchidan, qimmat bo'lgan eksportni sug'urtalashdan qutulish.

Kreditor (eksportyor) uchun forfeytingning kamchiligi forfeyterga risklarni o'tkazgani uchun biroz qimmatroqqa tushishi

mumkinligi hisoblanadi.

Forfeyting eng yangi tashqi savdoni kreditlashning turi hisoblanadi va boshqa operatsiyalarga nisbatan tez rasmiylashtirilishi, ayniqsa, investitsiyaga mo'ljallangan tovarlarni eksport qilishda juda qo'l kelishi bilan qulaydir.

Aylanma majburiyatlarni sotib olish tegishli chegirmalar bo'lishini nazarda tutadi.

Forfeyting mexanizmida quyidagi ikki ko'rinishdagi bitimlardan foydalaniladi:

1. Moliyaviy bitimlarda – uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni tez sotish maqsadi;

2. Eksport bitimlarda – chet ellik xaridorlarga kredit bergan eksportyorga naqd pul mablag'larining tushishiga ko'mak berishi.

Forfeytinglashtirishga tegishli asosiy aylanma hujjatlariga savdo tratalari yoki veksellar kiradi, ammo nazariy jihatdan har qanday shakldagi qarzni forfeytirlash mumkin. Eng asosiysi bu qarzdorliklar mavhum majburiyatni talab etadi. Oddiy va o'tkazma veksellarning ustun tomonlarini shu bilan tushuntirish mumkinmi, ular savdoni moliyalashtirishda uzoq muddat ishlatishi mumkin va ularga bu operatsiyalarning oddiyligi xosdir. Forfeytirlashtirish uchun qulay bo'lgan boshqa kredit hujjatlariga debitor schyotlari va akkreditiv bo'yicha muddati to'lgan majburiyatlarni kiritish mumkin. Ular bu operatsiyalarning murakkabligiga qarab u yoki bu darajada o'xshashdir. Ularni amalga oshirish qatnashchilar tomonidan qarzdor mamlakatida ishlatiladigan huquqiy amaliyotni yaxshi bilishlarini talab etadi. Qarzlarni yopish muddatlari benefitsiar foydasiga yozilgan va qarzdorlarning maxsus roziligisiz qisman o'tkaziladigan schyotlar bitta hujjatda o'z aksini topadi, qarz hujjatlarining bu ikki turi ham hamma shartlarni to'liq bayon etishni talab etadi. Bu, o'z navbatida, ko'plab huquqiy va operatsion qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi va qoidaga ko'ra, forfeytor uchun debitor schyotlari va akkreditiv majburiyatlar kabi hujjatlarning jozibadorligini kamaytiradi, ammo forfeylashtirish bo'yicha operatsiyalar o'tkazish imkoniyatini yo'qotmaydi.

Xalqaro savdo va kredit banklaridagi u yoki bu to'lov vositasini tanlash ko'plab yuridik, iqtisodiy va siyosiy fikrlashga bog'liq va bu qoidalar umumiy qoidani ishlab chiqish imkoniyatini bermaydi.

Jahon bank amaliyotida forfeyting bitimlarining oshishi eksportyorlarga taalluqli tavakkalchiliklarning oshishi munosabati bilan moliyalashtirishning mos manbalarining kamchiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarning belgilangan foiz stavkalaridan voz kechishi, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda import tovarlarini to'lash uchun valyuta mablag'larining muntazam yetishmasligi, siyosiy tavakkalchiliklar va bir qancha boshqa holatlar forfeyting operatsiyasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Forfeyting operatsiyalari eksportchilar uchun naqd pul oqimlarini tezlashtirishga yordam beradi. Bu jarayon natijasida eksportchilar o'z mahsulotlarini sotganda to'lovlarni odatiy muddatlarda emas, balki bank orqali oldindan olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu tarzda, ular moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish va biznes strategiyalarini amalga oshirishda yanada erkinlikka ega bo'ladilar. Banklar esa o'z navbatida, to'lovlarni amalga oshirish huquqlarini o'z zimmasiga olish orqali yangi daromad manbalarini yaratadilar.

Forfeytingning yana bir muhim afzalligi shundaki, u xalqaro tijoratda risklarni kamaytirishga yordam beradi. Eksportchilarning boshqa mamlakatlardagi mijozlarining to'lov muddatlari va qiyinchiliklari sababli yuzaga keladigan risklarni banklar o'z zimmalariga oladi, bu esa eksportchilarni kuchli raqobat sharoitida qo'llab-quvvatlaydi. Shu munosabat bilan, forfeyting operatsiyalari kichik va o'rta biznes uchun ulkan imkoniyatlar ochadi.

Bundan tashqari, forfeyting orqali mollarni sotishdan olingan daromadlar eksportchilarga qaytarilishi natijasida yangi loyihalarni moliyalashtirishga va rivojlanishga yo'naltirilishi mumkin. Bunday yondashuv eksportchilarning biznesni kengaytirishga va xarajatlarni boshqarishga qaratilgan strategiyalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Forfeytingning asosiy shartlaridan biri, har qanday

forfeylashtirilayotgan qarzlarning majburiy ravishda forfeyting uchun qulay boʻlgan shartsiz va chaqirib olinmaydigan bank kafolati yoki oval shaklida kafolatlanishi zarur. Agar import birinchi toifali qarz oluvchi va yetarli nufuzga ega boʻlsa, yuqoridagi shartga rioya etmasligi mumkin. Kafolat asosiy bitimdan ozod boʻlishi zarur, chunki amaliyotda importyorning iqtisodiy holatini taxmin qilib kafolatlar beriladi, ammo forfeyter kafolatlar kafolat beruvchi bankning sof chaqirilmaydigan va shartsiz majburiyatlari boʻlishiga erishishi va eksportyor aylanmasiz hujjatlarga koʻproq ishonishi zarur.

16.2.1– jadval

Faktoringning forfeytingdan farqli jihatlari

Faktoring	Forfeyting
<p>1. Operatsiyalar obʼyekti: –schyot–faktura, talabnoma</p> <p>2. Muddati: –oʻrta va qisqa muddatli kreditlash – 180 kun atrofida</p> <p>3. Kredit miqdori: –faktor imkoniyatiga qarab kredit miqdori chegaralangan</p> <p>4. Pul toʻlash: –faktor 70–90% pulni oldindan toʻlanganidan soʻng qolgan qismini (10–30%) pul tushganidan keyin komission xarajatlari va foizlarni ajratib toʻlab beradi</p> <p>5. Faktor yoki regress huquqi bilan yoki regress huquqli faktoring shartnomasi turi tuzilganiga qarab: –iqtisodiy yoki siyosiy risklarni oʻz ichiga oladi</p> <p>6. Faktor tomonidan faktoring aktivlarini qayta sotish kelishib olinmagan</p> <p>7. Qoʻshimcha xizmatlar: –faktoring kompaniyasi reklama, buxgalteriya hisobi, informatsiya, sugʻurta va boshqa xizmatlarni qoʻshimcha tarzda mijozga taklif qilishi mumkin</p> <p>8. Uchinchi shaxsdan kafolat: –faktor uchinchi shaxsdan kafolat talab qilmaydi.</p>	<p>1. Operatsiyalar obʼyekti: oddiy va oʻtkazma veksellar</p> <p>2. Muddati: oʻrta va uzoq muddatli kreditlash 180 kundan 10 -yilgacha</p> <p>3. Kredit miqdori: kredit miqdori chegaralanmagan</p> <p>4. Pul toʻlash:forfeyter barcha pullar minus diskontini darhol toʻlaydi</p> <p>5. Forfeyter barcha iqtisodiy va siyosiy risklarni oʻz boʻyniga oladi.</p> <p>6. Forfeyter bilan forfeyting aktivlarini ikkilamchi bozorda sotish va sotib olish kelishib olingan</p> <p>7. Qoʻshimcha xizmatlar: forfeyter hech qanaqa qoʻshimcha xizmatlar koʻrsatishni taklif qilmaydi</p> <p>8. Uchinchi shaxsdan kafolat: forfeyter uchinchi shaxsdan variant talab qiladi.</p>

Hozirgi kunda faktoring va forfeiting operatsiyalarini farqlash juda muhim. Forfeiting operatsiyalari faktoring operatsiyalarining bir turi hisoblansa-da, quyidagi o'ziga xos tomonlari mavjud:

Ikkala metod ham hozirgi kunda yaxshi bo'lib hisoblanadi, har birining o'z qulayliklari bor.

Faktoring operatsiyalari kichik va o'rta korxonalar uchun juda qulay. Kichik va o'rta korxonalar debitorlik qarzlarni tez olishda va kredit jalb qilishda qiynalishadi. Lekin faktoringning buxgalteriya hisobi, marketing, informatsiya, reklama va sug'urta xizmatlarini taklif qilishi kichik va o'rta korxonalarining e'tiborini faqat ishlab chiqarishga qaratishga olib keladi. Shuning natijasida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish rivojlanadi. Forfeiting esa yirik korxonalar uchun ko'proq qulay hisoblanadi. Chunki yirik korxonalar uzoq muddatli va ko'p mablag'ga muhtoj bo'ladilar

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Trast, meros trastlari, trast agentliklari, trast bo'limi, trast daromadlari, forfeiting, forfeiting turlari, forfeiting operatsiyasi, kafillik operatsiyalari, trast shakli, trast xizmatlari.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Tijorat banklarining trast operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Trast operatsiyalarning qanday ob'yektlari mavjud?
3. Bank tarst operatsiyalarining qanday turlarini bilasiz?
4. Tijorat banklarining forfeiting operatsiyalari qanday tashkil etiladi?
5. Forfeitingning faktoringdan farqli tomonlarini sanang?
6. Forfeiting va trast operatsiyalarining bank faoliyati uchun qanday ahamiyati bor?

GLOSSARIY

Aholi pul jamg'armalari – bu aholining iste'mol maqsadlariga vaqtincha ishlatilmay bo'sh turgan, kredit muassasalarining birida yoki aholining o'z qo'lida yig'ilgan daromadlarining bir qismidir.

Aholini ijtimoiy himoyalash – aholini bozor iqtisodiyotining salbiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy–iqtisodiy ahvoriga ta'sirini yumshatish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – davlat tomonidan aholiga barcha hayot kechirish shart–sharoitlarini yaratish uchun maqsadli yo'naltirilgan kafolatlar tizimi.

Akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma – Markaziy bankning Vakolatxona akkreditatsiyalangani va ro'yxatdan o'tganini tasdiqlovchi yozma hujjati.

Akkreditiv (lot. accredo – ishonaman) – **1.** Pul hisob– kitob hujjati, bank majburiyati. Tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladigan hisob– kitob turi bo'lib, unga ko'ra qarz beruvchi (kreditor) belgilangan muddatlarda, kelishilgan shartlar asosida kelishuvda ko'rsatilgan bank orqali o'ziga tegishli to'lovlarni olib boradi.

Akkreditiv (lot. accredo – ishonaman) – pul hisob–kitob hujjati; bank majburiyati. 1) tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladigan hisob–kitob turi bo'lib, unga ko'ra qarz beruvchi (kreditor) belgilangan muddatlarda, kelishilgan shartlar asosida kelishuvda ko'rsatilgan bank orqali o'ziga tegishli to'lovlarni olib boradi; 2) jamg'arma bankining aholiga ko'rsatiladigan xizmat turlaridan biri; bank bo'limining tegishli bir shaxsga ma'lum miqdordagi so'mlarga beradigan buyrug'i, maxsus blank vositasida amalga oshiriladi. Bo'lardan tashqari akkreditiv turli shaxslarga joylashgan korxonalarining mulkiy munosabatlarida, xalqaro hisob–kitoblarida keng qo'llaniladi.

Aksept (lat. acceptus – rozilik berilgan) – 1) pul, hisob–kitob, tovar hujjatlarini yoki tovar haqini to'lashga rozilik berish yoki to'lashga kafillik; 2) taklif etilgan shartlarda shartnoma tuzishga rozilik. Aksept yetkazib berilgan tovarlar ichki va xalqaro tovar–pul muomalasida

ko'rsatiladigan xizmat uchun haq to'lash shakllaridan biri sifatida keng qo'llaniladi; 3) veksel, chek va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, shuningdek tovar hujjatlari bo'yicha hisob–kitob qilish shakli.

Aksioner bank – aksioner jamiyat (aksiyadorlik jamiyatiga qarang) kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi banklar. Aksionerlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Aksiya – bu fransuzcha «action» so'zidan olingan bo'lib, u aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo'shganligini guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va odatda ushbu jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Aksiyadorlik jamiyati – ko'rsatilgan nominal qiymatga teng aksiyalarning muayyan miqdoriga bo'lingan nizom fondiga ega bo'lgan hamda majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mol–mulki bilan javobgar bo'ladigan jamiyat.

Aktiv – **1.** Buxgalterlik balansining xo'jalik mablag'larining holati aks ettiriladigan chap tomoni. **2.** Jismoniy yoki huquqiy shaxsga tegishli mol–mulk yig'indisi: asosiy vositalar, ishlab chiqarish moddiy zaxiralari, nomoddiy aktivlar, pul mablag'lari, moliyaviy qo'yilmalar.

Aktiv hisobvaraqlar – bunda turli aktivlar aks ettiriladi va ular faqat debet saldosi ega bo'ladi. Aktivlarning ko'payishi ushbu hisobvaraqlarning debetida aks ettiriladi.

Aktiv operatsiyalar – bu banklarning foyda olish va bank likvidligi (to'lovga qobiliyati)ni ta'minlash maqsadida o'z mablag'larini xo'jaliklar va aholi ehtiyoji uchun joylashtirilishidir.

Aktiv pul oboroti – bu to'lov jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul massasidir.

Aktivlarni diversifikatsiya qilish – aktivlar turini o'zgartirib, ularni ko'paytirish. Aktivlarni diversifikatsiya qilish tizimi kredit oluvchining moliyaviy ahvoli, kreditlarni qaytara olish layoqati va garovning mavjudligi kabi omillarga qarab amalga oshiriladi.

Analitik hisob – analitik schyotlar yordamida amalga oshiriladigan hisob.

Analitik schyotlar – sintetik schyotlardagi (sintetik schyotga qarang) ma'lumotlarni tavsiflab, aniqlashtirib ko'rsatuvchi schyotlar.

Asosiy vositalar – **1.** Moddiy ishlab chiqarish sohasida va ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan sohada uzoq muddat davomida (bir - yildan ortiq) harakatda bo'ladigan hamda ijaraga topshirilib ham foydalaniladigan moddiy aktivlardir. **2.** Bank faoliyatida bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida, ijaraga berish uchun yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan vositalar. **3.** Bir -yildan ortiq vaqt mobaynida foydalanish ko'zda tutilgan moddiy aktivlar. Asosiy vositalarga binolar, inshootlar, asbob–uskuna va priborlar, kompyuterlar, mebel, hisoblash texnikasi, transport vositalari, foydalanish huquqlarida xarid qilingan yer, kutubxona fondi, qurishda bino qiymatiga kiritilmagan signalizatsiya va telefonlashtirish ob'yektlari – qiymatidan qat'iy nazar va boshqalar kiritiladi.

Asosiy vositalar – bu moddiy ishlab chiqarish sohasida va ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan sohada uzoq muddat davomida (bir - yildan ortiq) harakatda bo'ladigan hamda ijaraga topshirilib ham foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Audit – xo'jalik faoliyatini tekshirish, taftish va tahlil qilish.

Auditor – malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

Auditorlik faoliyati – auditorlik tashkilotlarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmat ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Axborot infratuzilmasi – bu mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o'zaro faoliyatini ta'minlovchi kichik tizimlar, tashkiliy tarkiblar tizimidir.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari – xususiy, umumiy va ishlab chiqarish kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan ob'yektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek, barcha texnologiyalar hamda sanab o'tilgan jarayonlarni birlashgan ravishda ta'minlovchi sohalar majmuasi. AKT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuter va dasturiy ta'minot, telekommunikatsiyalar ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish,

internetdan erkin foydalanishni ta'minlash, internetning axborot resurslarini ta'minlash, shuningdek sanab o'tilgan sohalar bilan bog'liq bo'lgan turli xil hodisalar va bu faoliyat sohalarini tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy qoidalar kiradi.

Aylanma aktivlar – korxonalar va tashkilotlarning buxgalterlik balansi aktiv qismida aks ettiriladigan, me'yorga solinadigan va me'yorga solinmaydigan aylanma mablag'lar.

Aylanma kassa – naqd pul va boshqa qimmatliklarni qabul qilib olish, ularni boshqa qimmatliklardan alohida saqlash hamda chiqim qilish uchun tashkil etilgan kassa.

Aylanma mablag'lar – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil etuvchi mablag'lar. Aylanma fondlar tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari kiradi. Muomala fondlari tarkibiga tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, hisob– kitobdagi mablag'lar kiradi.

Aylanma qaydnomalar – banklarda hisob– kitob axborotlariga kompyuterlarda buxgalteriya ishlovi berilsa, ya'ni analitik va sintetik hisob ma'lumotlari avtomatik tarzda solishtirilsa, bunday usul bilan balans schyotlari bo'yicha oborotlar yig'iladi va aylanma qaydnomalar tuziladi.

Aylanuvchanlik – bu qimmatli qog'ozlarning bozorida (fond birjasida) xarid qilishga va sotilishga, shuningdek ko'pchilik hollarda boshqa tovarlar muomalasini osonlashtiruvchi mustaqil to'lov vositasi sifatida qo'llanishga qodirligidir.

Badal – **1.** Biror narsa evaziga to'lanadigan haq. **2.** Keyinchalik: biror tashkilot, jamiyat, uyushmalarga hamda shu kabilarga a'zo bo'lgan shaxsning o'z jamiyatini iqtisodiy jihatdan qo'llab–quvvatlash maqsadida unga to'lab turadigan puli, a'zolik haqqi.

Balans – bank mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari holatini pul shaklida guruhlash va aks ettirish usulidir.

Balans qiymat – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi chegirib boshlangan haqiqiy qiymatdir.

Balans qiymati – **1.** Aktiv buxgalteriya balansida jamlangan amortizatsiyasi hamda qiymatining tushishidan yig'ilgan zararlar

chegirilgandan so‘ng tan olinadigan summa. **2.** Moliyaviy aktivning haqqoniy qiymatini qaytadan to‘g‘rilash tuzatishlar kiritish (korrektirovka o‘tkazish) uchun joriy haqqoniy qiymati bilan taqqoslanadigan summa.

Balansdagi schyotlar – buxgalteriya ko‘rsatkichlari balansida aks ettiriladigan buxgalteriya schyotlaridir. Bunda balans moddasi nomi balansdagi schyotlar nomi bilan mos kelishi shart degan ma’no kelib chiqadi. Birgina balans schyotining ko‘rsatkichi balans moddalarining bir nechtasida aks ettirilishi mumkin.

Balansdan tashqari schyotlar (Z) – bu bankga qarashli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo‘lgan, aktivlarni bori va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo‘ljallangan schyotlar. Bu schyotlar boshqa schyotlar bilan o‘zaro bog‘lanmaydi va bankning hisobotida aks ettirilmaydi.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Bank boshqaruvi – bank faoliyatini tashkil etadi va unga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi, markaziy bank litsenziyasi asosida bankning ustavdagi maqsadlari va vazifalari bajarilishini ta’minlaydi. Bank mijozlariga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha foiz stavkalari va vositachilik haqqi miqdorlarini ishlab chiqadi va bank kengashi bilan kelishib oladi.

Bank kapitali – banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob– kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig‘indisi.

Bank – so‘zi italyanacha «banko» so‘zidan olingan bo‘lib, pul muomalasi va kredit munosabatlari amalga oshiriladigan «stol», «peshtaxta», «kursi» ma’nolarini bildiradi. Hozirgi kunda bank – bu bo‘sh turgan pul mablag‘larini yig‘uvchi saqlab boruvchi va turli hil kredit hisob– kitob operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik tashkilotdir.

Bank tizimining bosh maqsadi – jahon talablariga mos keluvchi rivojlangan kredit tizimiga ega bo‘lish, xo‘jaliklar va aholining bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talabini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat.

Bank aksiyadori – bank aksiyalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxs.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog‘ozlari, investitsiyalari, valyuta ko‘rinishida bo‘ladi.

Bank aktivlari–bank balansining aktiv qismida joylashgan moddalarining sifat nuqtayi nazaridan uning umumiy miqdoridagi ulushi tushuniladi.

Bank benefitsiar – to‘lov operatsiyasini yakunlovchi bank.

Bank buxgalteriya apparati – pul hisob – kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan o‘tkazish hamda ularni hisob registrlarida qayd etish bilan shug‘ullanuvchi xodimlar guruhi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma‘lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo‘yilgan bo‘sh pul mablag‘lari.

Bank diskonti – bankning veksellarini hisobga olish operatsiyalari uchun belgilangan hisob foizi.

Bank faoliyati – yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish va to‘lovlarni amalga oshirish tushuniladi.

Bank filiali – bu bank tomonidan bank operatsiyalarining hammasini yoki bir qismini, jumladan, vakil vazifalarini amalga oshiruvchi alohida bank bo‘linmasi. Uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo‘linmadir.

Bank hisob varaqi – bu bank hisob varaqi shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisob varaq egasi) hisob varaqiga kelib tushgan pul

mablag'larini qabul qilish, mijozning hisob varaqidagi tegishli mablag'larni o'tkazib berish va hisob varaqi bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risidagi farmoyishlarni bajarish vazifalarini o'z zimmasiga olishi natijasida bank bilan mijoz o'rtasida vujudga keladigan munosabatlardir.

Bank ichki nazorati – bankda o'tkaziladigan har bir operatsiya tekshirilib, ularning qonuniy rasmiylashtirilishi, hamda mablag'lar va boyliklar but saqlanishini tegishlicha nazorat qilinishini ta'minlashdir.

Bank initsiator (tashabbuskor) – to'lov operatsiyasini boshlovchi bank.

Bank ish kuni – qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'rnatilgan ish vaqti.

Bank ishtirokidagi qimmatli qog'ozlar komissiyasi – bu qimmatli qog'ozlarni mijozdan o'z mablag'larini hisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotish.

Bank kafolati – mijozning iltimosiga binoan tijorat banki tomonidan bo'nak sifatidagi summani kontrakt shartlari bo'yicha bajarish va kafolatlash

Bank kapitali – bankning o'z resurslari bo'lib, uning tarkibiga ustav kapitali, qo'shimcha kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda kiradi.

Bank kapitali – banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob–kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig'indisi, ya'ni bankning resurslari; 2) bank kapitalining bir qismini tashkil etuvchi banklarning o'z kapitali.

Bank kapitalining yetarlilik darajasi – bu jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo'lib, u xalqaro Bazil kelishuviga ko'ra kamida 8% ni tashkil etishi kerak.

Bank kartalari – jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingandek, yuridik shaxslar uchun ham emissiya qilingan (korporativ kartalar).

Bank kredit portfeli monitoringi – bu kredit resurslarini ratsional joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni

ta'minlashga yo'naltirilgan bilimlar, uslublar va chora–tadbirlar majmuasidan iborat.

Bank kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklari boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlash portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir.

Bank krediti – **1.** Kreditning asosiy shakli bo'lib, unda pul mablag'larini vaqtincha foydalanish uchun banklar tomonidan beriladi. **2.** Banklar pulni uning sohiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'lida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz olishdir. **3.** Faqat pul shaklida beriladi va **ssuda** deyiladi. Bank kreditida qarz beruvchi sifatida bank muassasalari chiqadi. Banklar turlicha bo'lib, ular tarkibiga markaziy, tijorat, investitsiya, ipoteka, jamg'arma, xalqaro va ixtisoslashgan banklar kiradi.

Bank likvidliligi – **1.** Banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir. **2.** Banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

Bank likvidliligi – banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

Bank menejmenti – bu bank faoliyati va uning xodimlari faoliyatiga maqsadli ta'sir etish jarayoni hisoblanadi.

Bank mijozlari – vakolatli banklarda chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisob varaqiga ega bo'lgan va qonunchilikka muvofiq joriy xalqaro operatsiyalarni amalga oshiradigan yuridik shaxs hisoblangan xo'jalik sub'yektlaridir.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi talablari – bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o'z majburiyatlarini bajara olishini ta'minlash uchun o'rnatilgan xalqaro me'yorlar majmui bo'lib,

u kapitalning yetarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor intizomiga qo‘-yilgan talablarni ifodalaydi.

Bank operatsiyalari – banklarning pul mablag‘larni jalb etish va ularni joylashtirish, pullarni muomalaga kiritish va ularni muomaladan chiqarish, hisob– kitoblarni amalga oshirish va boshqa operatsiyalari bilan shug‘ullanadilar. Bank operatsiyalarga passiv bank operatsiyalari, aktiv bank operatsiyalari va komissiya (vositachi) operatsiyalari kiradi.

Bank operatsiyalari ichki nazorati – bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta‘minlash tizimi.

Bank o‘tkazmasi – bir shaxs hisob varaqidan boshqa shaxs hisob varaqiga ma‘lum summani o‘tkazish to‘g‘risida topshiriqni bajarishidir.

Bank passivlari–yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘lari, o‘z mablag‘lari hamda Markaziy bankning kreditlaridan tashkil topadigan , bank xarajatlari bilan bog‘liq operatsiyalar majmui.

Bank plastik kartochkasi – uning egasiga bank hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni, shu jumladan hisobvaraq orqali naqd pulsiz hisob–kitoblarni (to‘lovlarni) amalga oshirish va undan naqd pul mablag‘larini olish imkonini beruvchi elektron to‘lov vositasi.

Bank resurslari – **1.** Banklarning ixtiyorida bo‘lgan va ular tomonidan kredit, investitsiya va boshqa aktiv operatsiyalar uchun foydalaniladigan mablag‘larning yig‘indisi. **2.** Bankning o‘z mablag‘lari va qarzga olingan hamda jalb etilgan mablag‘laridan, hamda emitentlashgan mablag‘laridan iborat bo‘lgan mablag‘lardir.

Bank riski – bank faoliyatiga ta‘sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va (yoki) tashqi omillarga bog‘liq bo‘lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo‘lgan moliyaviy zararlar ko‘rish va (yoki) bank likvidligi (bank o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati) ni to‘liq yoki qisman yo‘qotish xavfining mavjudligi.

Bank riski—Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatida moliya bozoridagi iqtisodiy kon'ekturaning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko'rish xavfi tushuniladi.

Bank risklarini boshqarish – bank o'z faoliyatini yuritishi va bank operatsiyalarini o'tkazishida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlash, ularni oldini olish, bartaraf etish, kamaytirish va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni boshqa moliyaviy vositalar orqali qoplash bo'yicha bank tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar majmui tushuniladi.

Bank servisi – bu bank faoliyatida mavjud bo'lgan xizmatlar majmuasini aholi va moliyaviy hamkorlarga ko'rsatishdan iborat. Bank servisi mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar majmuasidir.

Bank sindikati – sindikatsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishuv.

Bank tizimi – **1.** Mamlakat hududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o'ziga xos milliy belgilariga egadir. Shu belgilar shu hududning, geografik shartlari, ob-havo, aholi milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashg'ulligi, qo'shnilar bilan munosabati, savdo yo'llari va omillar asosida shakllanadi. **2.** O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ikki pog'onadan iborat. Birinchi pog'ona banki—Markaziy bank, ikkinchi pog'ona banklari tijorat banklari tizimi.

Bank tizimida ariza beruvchi – dasturiy mahsulotni tekshiruvdan o'tkazish uchun ariza bergan bank.

Bank tizimida dasturiy mahsulot – tijorat banklarida foydalanishga mo'ljallangan, markaziy bankning axborot tizimlari hamda axborot resurslari bilan o'zaro hamkorlikda ishlaydigan dasturiy vositalar.

Bank tizimida dasturiy mahsulotlar ro'yxati – O'zbekiston Respublikasi banklarida foydalanishga ruxsat etilgan dasturiy mahsulotlarga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar bazasi.

Bank tizimida markaziy bank ruxsatnomasi – markaziy bank tomonidan ariza beruvchiga beriladigan va dasturiy mahsulotning bank faoliyati talablariga mosligini va undan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida foydalanish mumkinligini ko‘rsatuvchi hujjat.

Bank tizimining likvidligi – bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida va so‘zsiz bajara olish imkoniyati.

Bank trattasi – tashqi savdoda foydalaniladigan bank o‘tkazma vekseli.

Bank xatar siyosati – bu banklarning maqsadga erishish yo‘lida qilgan tadbirlari hisoblanadi. Har bir bank o‘zining xavf–sizligini ta‘minlash maqsadida himoya tadbirlarini o‘tkazadi.

Bank – moliyaviy korxonalar bo‘lib, u vaqtincha bo‘sh bo‘lgan pul mablag‘larini o‘zida saqlaydi, iqtisodiyot ob‘yektlariga kreditlar beradi, korxonalar, muassasalar yoki alohida shaxslar bilan to‘lovlar va hisob–kitoblarda vositachilik qiladi, mamlakatning pul muomalasini tartibga solib boshqaradi.

Banklararo kredit–boshqa tijorat banklaridan olingan kredit.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllaridan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma‘lum bir tijorat bankning boshqa turdagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu normaning aniq miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Banklararo pul resurslari elektron bozori – elektron savdolarni tashkil etish va o‘tkazish orqali banklararo depozit va/yoki kreditlarni joylashtirish va jalb etish uchun banklarga sharoitlar yaratuvchi elektron bozor.

Banklararo pul resurslari elektron bozori (BEB) – elektron savdolarni tashkil etish va o‘tkazish orqali banklararo depozit va/yoki kreditlarni joylashtirish va jalb etish uchun banklarga sharoitlar yaratuvchi elektron bozor.

Banklarning kredit portfeli – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi. Ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi. b) standart. v) substandart. g) shubhali. d) umidsiz. Tijorat

banklariga ma'lum sanaga ssuda hisob varaqalarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i).

Bank–moliya tizimining barqarorligi – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o'z majburiyatlari yuzasidan talablarga to'la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bankning foiz stavkasi – kreditning “narxidir”. Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga shu jumladan, resurslarni ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'larda foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan xarajatlarni qoplaydi.

Bankning passiv operatsiyalari – **1.** Bankning mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalaridir. **2.** Banklar kredit va boshqa aktiv amaliyotlarni bajarish uchun o'z resurslarini shakllantirish operatsiyalaridir.

Bankning vakillik hisob varaqi (korschyot) – bu tijorat banklariga Markaziy Bank Hududiy Bosh Boshqarmalarining hisob–kitob markazlarida ochilgan hisobvaraqdir. U banklararo hisob– kitoblarni o'tkazishga mo'ljallangan.

Banknotlar – **1.** Markaziy bank tomonidan turli nominaldagi naqd qog'oz pullar shaklida muomalaga chiqarilgan pullar. **2.** Bank biletlari, markaziy emissiya banklari tomonidan chiqariladigan pul belgilari. Hozirgi kunda ular qog'oz pullarning asosiy turi hisoblanadi.

Barqarorlik – narsa va hodisalarning amal qilishi va rivojlanishdagi o'ziga xos muayyanlik holati.

Bazel qo'mitasi talablari – bank tizimining barqaror amal qilishi, hamda o'z majburiyatlarini bajara olishini ta'minlash uchun o'rnatilgan xalqaro me'yorlar majmui. U kapitalning yetarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga, hamda bozor intizomiga qo'yilgan talablarni ifodalaydi.

Bek–ofis – bu HKKM (Hisob–kitob kassa markazlari)ning tarkibiy qismi bo'lib, front–ofis mas'ul xodimlari tomonidan Markaziy bank mijozlaridan qabul qilingan yoki Markaziy bank va hududiy bosh boshqarmalar tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan moliyaviy– xo'jalik faoliyat bo'yicha taqdim qilingan va dastlabki nazoratdan o'tgan

pul hisob–kitob hujjatlarining asl nusxasi asosida yakuniy bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi mas’ul ijrochi buxgalterlar guruhi.

Biznes – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo‘jalik faoliyati yoki sohibkorlik–tijorat ishlari bilan shug‘ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo‘lish. Biznes mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko‘rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Biznes tahlil – korxonalarda samarali reja ishlab chiqishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanib, ularning tashqi va ichki muhit holatlari haqida to‘la ma’lumot beradi. U tashkilotning ichki va tashqi talablariga muvofiqligini aniq ma’lumotlar asosida baholaydi.

Biznes–reja – bu hujjat, unda aniq vaziyatda biznesning mohiyati, boshlanish imkoniyati, davomi va uning kengaytirilishi aks etadi.

Bosh bank – bir yoki undan ortiq shu’ba xo‘jalik uyushmalariga ega bo‘lgan bank.

Bozor riski– qimmatli qog‘ozlar narxini o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan risk majmui.

Budjet – bu davlat va mahalliy o‘z–o‘zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta’minlash uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari jamg‘armalarini to‘lash va sarflash shaklidir.

Budjet defitsiti – budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Budjet schyotlari – bu budjet kassasini ijro etish operatsiyasini bajarish, to‘lovlarning tushishi va xarajatlarni aks ettirish uchun ochiladigan schyotlar.

Budjet so‘rovi – budjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va budjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov.

Budjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjet tashkiloti – o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Budjet tasnifi – bu davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjet daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdir.

Budjet tizimi – turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisi, budjetlarni tashkil etish va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni ifoda etadi.

Buxgalteriya balansi – ma‘lum bir muddatga xo‘jalik mablag‘lari holati haqida pul shaklida umumlashgan ma‘lumotlar olish uchun xizmat qiladi. Balansda bank (korxonalar va tashkilot) mablag‘larining joylanishi va tarkibi, mablag‘lar manbalarining tashkil topishi haqidagi ma‘lumotlar keltiriladi.

Davlat banklari davlat mulkiga asoslanib faoliyat ko‘rsatadigan banklar. Respublikamizda bunday banklar qatoriga O‘R TIF Milliy banki, O‘R DT Xalq bank va DATB “Asaka”.

Davlat budjeti – davlatning o‘z funksiyalarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan daromadlari va xarajatlarning pul bilan ifodalangan -yillik majmui. Davlat budjeti bir -yilga tuzilib, uning daromadlar qismida soliqlar, bojxona to‘lovlar hamda boshqa tushumlar, xarajatlarda esa davlatning ta‘lim, sog‘liqni saqlash, mudofaa xarajatlari va turli xil ijtimoiy to‘lovlar aks etadi.

Davlat krediti– kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodning har xil sohalarini kreditlashni o‘z zimmasiga oladi. Davlat kreditining xarakterli xususiyati, davlat tomonidan olingan qarz mablag‘lari ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag‘lar davlat qarzlari qoplash uchun ishlatiladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari – davlat budjeti tarkibida jamlanadigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi me‘yorlari va shartlari,

shuningdek, shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat tashqi qarzi – davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish – aktivlarni ichki manbalardan (rezident–yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish – aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Davlat–aksiyadorlik bankining mablag‘lari davlat va aksiyadorlar mulkiga asosan tashkil etiladi. Bunday banklar qatoriga mamlakatimizdagi DATB «Asaka» banki kiradi.

Debet – ikki tomonlama jadvalga ega bo‘lgan buxgalteriya schyotining chap tomoni. Bunda pul mablag‘lari va tovar zaxiralarini qayd qilish uchun ishlatiladigan schyotlarning debet tomonida hisobga olinayotgan boylikning haqiqiy summasi va har oy mobaynida qanchadan kelib tushganligi ko‘rsatiladi. Mablag‘larning manbalari, harakati va holatini qayd qiluvchi schyotlarning debet tomonida esa o‘sha manbalarning kamayishini aks ettiruvchi xo‘jalik jarayonlari yoziladi.

Debitor – korxonalar, tashkilot yoki muassasalardan qarzi bo‘lgan huquqiy yoki jismoniy shaxs.

Debitor qarzi – o‘zaro munosabatlar natijasida jismoniy yoki yuridik shaxsga korxonaning qaytarishi zarur bo‘lgan barcha qarzlari summasi.

Depozit – 1. Lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi–saqlash uchun topshirilgan buyum ma’nosini bildiradi. Iqtisodiyotda

mijozning o‘z mablag‘ini vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabati. **2.** Bank jamg‘armasi. Banklarda saqlash uchun topshirilgan pul mablag‘lari yoki qimmatli qog‘ozlar.

Depozit bank – pul mablag‘larini, qimmatli qog‘ozlarni va boshqa boyliklarni saqlash bilan shug‘ullanuvchi bank.

Depozit indosamenti – depozitlarni boshqaga o‘tkazish haqidagi o‘tkazma ustxat.

Depozit muassasa – pul mablag‘larini, qimmatli qog‘ozlar va boshqa boyliklarni saqlash bilan shug‘ullanuvchi muassasa.

Depozit multiplikatori – bankga qo‘-yilgan mablag‘larning har bir pul birligidan umumiy daromad hajmining o‘zgarishi.

Depozit operatsiyalar – banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalaridir.

Depozit operatsiyalari– yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq operatsiyalar.

Depozit sertifikatlari– jamgarmachining banka kuygan pul mablag‘ini ifodalovchi va muomla muddati tugaganidan keyin kuygan pul mablag‘ini hamda foyda sifatida ustama foizini huquq va imkoniyatini beruvchi qimmatli qog‘ozdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi.

Depozit xatari – bu omonatchilarning muddatidan oldin omonatlarni qaytarib olishi tushuniladi.

Depozitariy – depozitlarni saqlash ishonib topshirilgan jismoniy yoki huquqiy shaxs.

Devalvatsiya – **1.** Mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan kamayishi. **2.** Xalqaro valyuta birliklariga yoki chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining sun‘iy pasaytirilishidir.

Devidend – deb ataluvchi daromad aksionerlarga ularning kulidagi aksiyalar soniga muvofiq to‘lanadi.

Diler bank – qimmatli qog‘ozlar, mollar va valyuta oldi–sotdi savdo bitimlarida vositachilik qilish huquqiga ega bo‘lgan bank.

Dilerlik krediti – bank, diler vositachiligida uning hisobidan beradigan kredit.

Diskont – **1.** katta qimmatli qog‘ozning amaldagi narxi bilan qiymat qoplanishi paytidagi narxi yoki belgilangan qiymati o‘rtasidagi farq. **2.** Katta valyutaning kelgusi kursi bilan darhol yetkazib berilgan paytidagi kursi o‘rtasidagi farq. **3.** Katta qarz qimmatli qog‘ozining nominal qiymati bilan har qanday sotib olingan, olinishi lozim bo‘lgan foizlarning qarz qimmatli qog‘ozi uchun to‘langan miqdordan (sotib olishdagi xarajatlar hisobisiz) oshgan summasi.

Diskont (foiz) siyosati – veksellarni hisobga olish. Chegirma (narxini tushirish), foizli chegirmalarni hisobga olish stavkasi.

Diskontlash – kelgusida aniq bir vaqtda olinishi kutilayotgan pul mablag‘larining joriy ekvivalentini aniqlash.

Diskontli kredit – Markaziy bank tijorat banklariga foiz evaziga ajratadigan kredit.

Emitent–qimmatli qog‘ozlarni chiqargan tashkilot hisoblanadi.

Faktoring – bu xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar – mol yetkazib beruvchilarni (bundan keyingi matnda – mijoz) ular tomonidan bank – moliya agentiga to‘lovchilardan (bundan keyingi matnda –to‘lovchi) jo‘natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun ular tomonidan akseptlangan, lekin hali to‘lanmagan to‘lov talabnomalari bo‘yicha pul to‘lovini olish huquqini o‘tib berishlari evaziga, regress huquqsiz, moliyalashtirish borasidagi bank xizmati turidir.

Faktoring–hisob–kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turi bo‘lib, mijozning kapitalini kreditlash bilan shug‘ullanadi.

Fiskal–monetar risk– davlat o‘tkazayotgan moliyaviy va budjet siyosati yordamida, narxlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me‘yorlarini, pul massasining ta‘minoti va kon’yunkturasini tartibga solish bo‘yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o‘rishini

ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda yuzaga keladigan risklar majmuasidan iborat.

Foiz riski–foiz stavkalarini tebranishi natijasida zarar ko'rish ehtimolini bildiradi.

Foizlar – odatda bajarish muddati uzaytirilgan oldi–sotdi bitishuvlaridir.

Forvard bitimlar –kelgusi bitimda belgilangan oldindan kelishilgan narx bo'yicha ma'lum miqdordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshqa tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofiq tuzilgan kelishuvlaridir.

Forvard kurs–asosiy qarz summasining ma'lum bir o'zgarma qismiga nisbatan belgilangan vaqtda to'lanadigan foiz stavkasining hajmi to'g'risida kelishuv bo'lib, u o'sha kundagi foiz stavkasidan past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

Foydalilik–risk–bank xodimi o'zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda me'yorini cheklashidir.

Fyuchers (g'utures) –qimmatbaho qog'ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo'lgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.

Garov– ko'chmas va ko'char mulklarni kredit ta'minoti sifatida qo'-yilishi.

Global moliyaviy–iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy–iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Global moliyaviy–iqtisodiy inqiroz – jahonning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasida beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi.

Hisob–kitob riski–hisob–kitoblarni amalga oshirish jarayonida valyuta kurslarining o'zgarishi foiz stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq.

Inflyatsiya – mamlakat iqtisodiyotida iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari umumiy darajasining o'sishi.

Innovatsiya – 1. Texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2. Ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalarda va faoliyat doiralarida qo'llanishi

Investitsiya institutlari – bu qimmatli qog'ozlar bilan uz faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilaridir.

Investitsiya jarayoni – pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo'sh mablag'larga ega bo'lganlar)ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan uchrashtirish mexanizmidir.

Investitsiya kompaniyasi – bu qimmatli qog'ozlarni chiqarish, qimmatli qog'ozlarga mablag'lar sarflash, qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'zi hisobidan olish–sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.

Investitsiya loyihasi–ijtimoiy, iqtisodiy samaraga erishish uchun pul mablag'larini kiritilishini talab etuvchi loyiha.

Investitsiya maslahatchisi – bu maslahat faoliyati bilan shug'ullanuvchi investitsiya institutidir.

Investitsiya siyosati–tijorat banklari faoliyatining ma'lum darajasiga asoslangan bankning qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalarni o'z ichiga oladi va bank faoliyatining daromadlilik va likvidligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Investitsiya sub'yektlari – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.

Investitsiya bu barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'yektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror–bir ijobiy samaraga erishishidir

Investitsiya–bu xususiy, davlat korxonalarini va tashkilotlari qimmatli qog'ozlari uzoq muddatga qo'yilgan mablag'lardir.

Investitsiya–daromad olish maqsadida investorlar tomonidan kiritilgan pul mablag'lari hisoblanadi.

Investorlar – o‘z mablag‘i yoki jalb qilingan mablag‘ yordamida kapital qu-yilmalarni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar, yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo‘lishlari mumkin.

Iste‘mol krediti – bu aholining iste‘mol talablarini qondirishga yordam beruvchi kreditdir va uy–ro‘zg‘or buyumlari: radio–elektron va maishiy asbob–uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar uy–joylarni ta‘mirlash bilan bog‘liq tovarlarni xarid qilish, avtomashina sotib olish va aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlarning haqini to‘lash uchun 3 -yilgacha bo‘lgan muddatda beriladi.

Jamg‘arma sertifikatlari – bu bank tomonidan chiqariladigan va uni egasiga oldindan shartlashilgan vaqtda belgilangan summani olish xuquqini beruvchi qimmatli qog‘ozdir.

Jamg‘armachi–tijorat banklariga qo‘-yilgan pul mablag‘i jismoniy va yuridik shaxslardir.

Joriy likvidlik–likvid shakldagi balans aktivlari bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan va muddati 30 kungacha bo‘lgan hisobvaraqlar bo‘yicha majburiyatlari summasi o‘rtasidagi nisbatni tavsiflaydi.

Kafillik– yuridik shaxslar tomonidan berilib, yuridik shaxslar bajarilmay qolgan mijoz majburiyatlarni bajarishni o‘z zimmasiga oladi.

Kafolat– Sug‘urta tashkilotlari va banklar tomonidan berilgan bajarilmay qolgan mijoz majburiyatlarni bajarishni o‘z zimmasiga olishini ifodalaydi.

Kapitalning tarkibiy qismi bilan bog‘liq risklar — bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog‘liq.

Kredit mexanizmi–kredit munosabatlarini tashkil qilishda qo‘llaniladigan elementlar majmuasidir.

Kredit paketi–kreditlash jarayoni uchun zarur bo‘lgan hujjatlar majmuasi tushuniladi.

Kredit portfelining diversifikatsiyasi – bu bankning ba‘zi mijozlaridan ko‘rgan zararlarni boshqa mijozlardan ko‘rgan daromad

hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko‘p sonli mijozlar o‘rtasida taqsimlash demakdir.

Kredit portfeli–tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar jamlovchi hujjat.

Kredit potentsiali–bankdagi yig‘ilgan, tarkib topgan mablag‘lardan likvidlilik rezervlarini ayirmasiga teng.

Kredit riski – bu qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya’ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning to‘lanmasligidir.

Kredit siyosatining maqsadi –mijozlar ehtiyojini qondirish va qo‘shimcha foyda olish.

Kredit siyosatining vazifasi – banklarning kredit tarkibini yaxshilash ularning aylanishini tezlashtirish, ssudalar hajmini kengaytirish.

Kredit summasi – bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

Kredit tizimi – bank va kredit muassasalari ularning kredit operatsiyalarini bajarish uslublari, tashkil etishning huquqiy shakllari majmuini ifodalaydi.

Kredit – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh to‘rgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni bildiradi.

Kredit–foiz va ma’lum shartlar asosida kredit beruvchi tomonidan berilgan qarz summasi.

Kreditga layoqatlilik–mijozning bank va bank kreditorlar oldida turgan majburiyatlari ni o‘z vaqtida qaytarishiga tayyorligi va qodirligidir.

Kreditga qobillik – bu xo‘jalik sub’yektlari tomonidan kreditni o‘z vaqtida va to‘laligicha qaytara olish qobiliyatini hamda moliyaviy ahvoriga beriladigan bahodir.

Kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxira–bank kredit portfeli va balansdan tashqari majburiyatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini o‘zida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari

bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralar kontraktiv hisobvarag'i.

Kreditlash jarayoni–kreditni rasmiylashtirish jarayoni boshlangandan to berilishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

Kreditlash ob'yektlari–kredit hisobidan nima tashkil qilinsa yoki kredit nimaga yo'naltirishsa o'sha tushuniladi.

Kreditlash strategiyasi–kredit siyosati borasida iron ir bankning moliya bozoridagi mazmunli, maqsadli va aniq tamoillarga kredit munosabatlari hisoblanadi.

Kreditlash sub'yektlari–kredit munosatlarida qatnashuvchi tomonlar anglanadi.

Kreditlash taktikasi–kredit jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan moliyaviy va boshqa dastaklar majmuidir.

Kreditlash tarixi– mijozning bu kreditdan oldin ham kredit olganligi va uni qaytarish bo'yicha majburiyatlarini qay darajada bajarganligi haqidagi ma'lumotlar majmui.

Kreditning vazifalari – taqsimlash, emissiya qilish, nazorat qilish, bo'sh pul mablag'larini harakatdagi pul mablag'lariga aylantirish va rag'batlantirish vazifalari kredit kategoriyasiga xosdir.

Kritik risk zonasi–yo'qotishlar bo'lish xavfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining biron jarayon uchun yo'naltirilganligini va shu mablag'larning qaytib kelishida, xavf borligini ifodalaydi.

Lahzalilik ko'rsatkichi–balansning ekstremal vaziyatlarda tez sotilishi mumkin bo'lgan likvid shakldagi aktivlari bilan bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvarag'lar bo'yicha majburiyatlari summasi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

Likvidlik riski–Tijorat banklarining likvidligini pasayishi Bilan bog'liq risklardir.

Likvidlilik koeffitsiyenti–mavjud mablag'larni qanchalik qismi tez orada qoplash uchun yo'naltirilishi mumkinligini ifodalovchi ko'rsatkich.

Likvidlilik–aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning asosan amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil

banklardagi naqd pul mablag‘laridan foydalanish likvid aktivlarni sotish imkoniyati va hokazolarni anglatadi.

Lizing–tomonlar o‘rtasidagi mulkiy va moliyaviy munosabatlarni tashkil etuvchi, asosiy vositalarni uzoq muddatli ijara asosida sotilishidir.

Makro darajadagi iqtisodiy risk– tashqi va ichki, oldindan aytib bo‘ladigan va aytib bo‘lmaydigan mamlakat miqyosida yuzaga keluvchi risklar majmui hisoblanadi.

Mamlakat xatari – bu mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy sharoitlarning hozirgi va kelajakdagi o‘zgarish xatari korxonalar tashkilot, firmalarning ta’sir ko‘rsatadi. Bu asosan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ulanuvchi, tovarni eksport qiluvchi mijozlar faoliyatiga katta ta’sir qiladi.

Marja – banklarning oladigan foizi bilan beradigan foizi o‘rtasidagi farqdir.

Markaziy bank–o‘z sarf–xarajatlarini o‘z daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa bo‘lib, u davlat gerbi tushirilgan va nomi yozilgan muhriga ega.

Mezo darajadagi iqtisodiy risk– sanoat, agrar va xizmat ko‘rsatish sohasi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar majmui.

Mikro darajadagi iqtisodiy risk– sanoat, firmaning xo‘jalik faoliyati — tadbirkorlik va investitsiyalash jarayonida yuzaga keluvchi risklar.

Mikrokredit – qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan pul mablag‘idir.

Moliyaviy bozor–hozirgi zamon tushunchasida moliyaviy bozorlar deganda moliyaviy aktivlarni savdosi tushunilib, unda savdoni aniq qoidalari, bozor ishtirokchilarini mahorati va rivojlangan bozor infratartibi, chiqim va bitishuvlarni amalga oshirishni mustahkamligi mavjud bo‘ladi.

Moliyaviy bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif qiluvchilarni va ularga ehtiyoj sezayotganlar odatda fond birjalariga o‘xshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmidir

Moliyaviy derivatlar(financial derivatives) – bozor narxiga ega bo‘lgan pulli dastak bo‘lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga opsionlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Muddati uzaytirilgan kredit – ayrim hollarda kreditni qaytarish muddati kelmasdan avval qarzdor tomonidan bankka taqdim etilgan iqtisodiy asoslangan yozma iltimosnoma asosida kreditni qaytarish muddatini keyinroqqa surilishi to‘g‘risida filial kredit komissiyalari qarorlari asosida Bosh bank kredit qo‘mitasi bilan kelishilgan holda ijobiy qaror qabul qilingan qarzlardir.

Muddatli kredit – kredit shartnomasiga ko‘ra to‘lov muddati hali yetib kelmagan ssudadir.

Miqdoriylik koeffitsiyenti–mijozning qanchalik kreditorlardan mustaqilligini ifodalaydi.

Noaniqlik– mo‘ljallangan loyihalarni, faoliyatni amalga oshirish shartlari haqida hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar va olingan natijadagi mavhumlikdir.

Nostro hisobvarag‘i–bir bankning boshqa bankdagi hisobvarag‘i.

Nota – (karz majburiyati) (note) – qisqa muddatli (3–6 oy) pulli dastak bo‘lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining uz nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta‘minlanadi.

Obligatsiya– “Obligo” – lotincha tilida “Qarz olish” mazmunini bildiradi. Emitentga obligatsiya egasi tomonidan ma‘lum bir pul mablag‘ini kiritganligi va unda ko‘rsatilgan muddatda nominal qiymatini hamda qo‘shimcha foiz to‘lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog‘ozdir. Obligatsiya uning egasiga emitentning ishini boshqarishda qatnashish huquqini bermaydi.

Obligatsiyalar – zayom oluvchilarni (emmitentini) va kreditlarni (investorni) munosabatlarini rasmiylashtiruvchi qimmatli kog‘oz bo‘lib, emmitentini belgilab pul summasini kelishilgan vaqtda to‘lash shartini ifoda qiladi.

Oilaviy tadbirkorlik – jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladigan birgalikdagi faoliyati bo‘lib, er–

xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan umumiy mol–mulk negizida amalga oshiriladi. Oilaviy tadbirkorlik er–xotinning va ularga ko'maklashadigan oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi

Opsion (option)– shartnoma (qimmatbaho qog'oz) bo'lib, xaridorga ma'lum bir qimmatbaho qog'oz yoki tovarni belgilangan muddatdan so'ng yoki ma'lum bir davr ichida qat'iy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi.

O'stirilmaydigan kreditlar–belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar.

Overdraft – kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli (qoplanmagan) qoldiq bo'lishiga ruxsat beradi. Overdraft hisob raqamidan foydalanish huquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

Pul aylanish tezligi – nominal yalpi ichki mahsulotning o'rtacha - yillik pul massasiga nisbati orqali aniqlaniladi.

Pul massasi – bank tizimining majburiyati bo'lib, qo'yidagi passivlarni o'z ichiga oladi:

Qimmatli qog'ozlar– moliyaviy bozorda savdo predmeti bo'lib hisoblanadi. qimmatli qog'ozlar bu me'yoriy huquqiy talablarga muvofik rasmiylashtirilgan, hujjat bo'lib, uning egasiga (yoki soxibiga) muayyan mulkiy huquqlarni ta'minlaydi va shu bilan birga kiymatga ega bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar hosilalari–foydasi yoki zarari bir necha bozor ko'rsatkichlari bilan, ya'ni bozor indeksleri bilan bog'liqdir.

Qimmatli qog'ozlar komissiyasi– qimmatli qog'ozlar mijozdan o'z mablag'lari hisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotishdir.

Qisman ta'minlangan kreditlar–“yaxshi ta'minlanmagan kreditlar” mezoniga muvofiq kelmaydigan ta'minotga ega kreditdir.

Qisqa muddatli likvidlilik–bankning so‘ndirish muddati 30 kundan 1 -yilgacha bo‘lgan aktivlar bilan 30 kundan 1 -yilgacha qabul qilingan depozitlar va resurslarga nisbati tushuniladi.

Qoplash koeffitsiyenti–mijozning barcha likvid mablag‘lari qanchalik uni barcha majburiyatlarini qoplashi mumkinligini anglatadi.

Real investitsiyalar (kapital qo‘-yilmalar) – pul mablag‘ larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Restruktizatsiya qilingan kreditlar–muayyan muammolari bor kreditlar.

Retrospektiv risk–bank faoliyatining o‘tgan davrdagi turli risklarga bog‘liqligini va joriy va istiqboldagi risklarni baholash imkonini beruvchi risklar majmui.

Risk koeffitsiyenti–mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarning maksimal summasini o‘z mablag‘lari nisbatini ifodalaydi.

Risk– bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko‘rish ehtimoli.

Risksiz zona–yo‘qotishlar darajasi “0” ga teng bo‘lgan zonasidir.

Shubhali kreditlar — bu ziyon qilish ehtimoli yuqori bo‘lgan, lekin ayrim ijobiy amallari mavjud bo‘lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha shubhali deb tasniflanadi. Shubhali deb tasniflangan kreditlarga asosiy to‘lanmagan summasini 50 foizini miqdorida zaxira tashkil etiladi.

Sindikatsiyalashtirilgan kredit – bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash.

Skoring usuli – bank mijozlarining kredit tarixlariga asoslangan matematik yoki statistik usul hisoblanadi.

Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan xolda bitta qarzni to‘lash bo‘yicha ma‘lum bir muddat o‘tgandan so‘ng shartlarni o‘zgartirish bo‘yicha bitim.

Ta‘lim kreditlari – tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta‘lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlariga to‘lov–kontrakt asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan talabalarning o‘qishi uchun talabalarning o‘zlariga, ularning ota–onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Ta'minlanmagan kreditlar–biror bir ta'minotsiz berilgan kreditlar.

Tasnifi baholash modeli– kreditni baholashning balli modeli (reyting uslubi) va bankrotlikni bashorat qilish (MDA – Multiple Discriminate Analysis ga asoslangan statistik baholash) modellariga asoslanadi.

Tijorat banki–tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlarni jalb qilish va ularni kreditga berish, to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

To'lovga layoqatlilik–bank zarur muddatlarda kredit–omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi.

Transformatsiya riski–banklar tomonidan berilgan kreditlar bilan ularning manbalarining muddati o'rtasidagi nomuvofiqlikning yuzaga kelishi tushuniladi.

Tranzaksiyon depozitlar– yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'lari ularni mablag'ini talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit turi.

Tranzit komission bitimlar–birjada ishtirok etish huquqi berilgan banklarning birjada ishtirok etish huquqi berilmagan kredit institutlari nomidan ishtirok etishi.

Trast operatsiyalari–bank mijoz topshirig'i bilan ma'lum mulkni, pul, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash, o'tkazish va boshqarishni o'z zimmasiga oladi.

Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Umidsiz kreditlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak.

Umumiy kapitalning yetarliligi–bankning umumiy kapitali miqdorini riska tortilgan aktivlarga nisbatini orqali aniqlovchi ko'rsatkich.

Umumiy usullar–bank risklaring miqdorini uni daromadlariga bog'liq ravishda baholash va bashorat qilish hamda bank likvidligiga nisbatan belgilangan iqtisodiy normativlarni bajarish kiradi.

Vakolatli bank – xorijiy valyutada operatsiyalarni o‘tkazishga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasiga ega bo‘lgan tijorat banki.

Vakolatxona – bankning xalqaro bozorlarda operatsiyalarni olib boradigan oddiy tashkiliy ko‘rinishi bo‘lgan vakolatxona taklif etiladigan xizmatlarning cheklangan to‘plami bo‘yicha ishlaydigan muassasadir.

Valyuta – italyanacha so‘zdan olingan bo‘lib, «qadrlanmoq, qiymat» degan ma’noni anglatadi. Baho, qiymat belgisi bo‘lib, mamlakatlarning milliy pul birligi hisoblanadi.

Valyuta – bu xalqaro hisob–kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to‘lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir.

Valyuta arbitraji – bu foyda olish maqsadida valyutani sotib olish – sotish bo‘yicha operatsiyalardir. Valyuta arbitraji – bu valyuta kurslari farqidan foyda olish maqsadida valyutani sotib olish va bir vaqtning o‘zida sotishdir.

Valyuta birjasi – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan birjasi.

Valyuta devalvatsiyasi – milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan rasmiy tarzda pasaytirish.

Valyuta fyucherslari – bu, birjada amalga oshiriladigan to‘lov muddati ko‘rsatilgan va standartlashtirilgan shartnoma hajmlari bilan xorijiy valyutalar bilan bo‘lgan muddatli valyuta operatsiyalaridir. Bunday operatsiyalarni asosiy maqsadi kurslar farqi sifatida daromad olishdir.

Valyuta hisob–kitoblar – bu banklarda yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi hisob– kitoblar.

Valyuta konvertatsiyasi – boshqa valyutalarga almasha olish xususiyati tushuniladi.

Valyuta kotirovkasi – joriy qonun asoslari va amaliy faoliyatidan kelib chiqqan holda banklarda chet el valyutasi kursining belgilanishi.

Valyuta kursi – bir pul birligi bahosining boshqa pul birligida ifodalanishi, bir mamlakat valyutasini ikkinchi mamlakat valyutasiga real almashish proporsiyasi (nisbati).

Valyuta kursi riski – valyuta kursidagi o‘zgarish natijasida valyuta pozitsiyasining ta’sirida bank foydasi miqdoridagi o‘zgarish.

Valyuta kursini egri kotirovkalash. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o‘rnatiladi, ya’ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko‘rsatiladi.

Valyuta operatsiyalari – chet el valyutalari va valyutali qimmatliklarga mulk huquqini almashinishi bilan bog‘liq operatsiyalari.

Valyuta opsioni uning xaridoriga ma’lum bir huquqni beradi, ayni paytda, uning zimmasiga kelajakdagi ma’lum muddatda belgilangan narx bo‘yicha xorijiy valyutaning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish majburiyatini yuklamaydi. Opsionni sotuvchi xaridor oldida kelajakdagi muayyan muddatda qat’iy belgilangan narx bo‘yicha muayyan miqdordagi xorijiy valyutalarini xarid qilish va sotish majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Valyuta qimmatliklari – naqd chet el valyutasi, chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlari, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar va sof quyma oltin.

Valyuta riski – kurslarning tebranishi oqibatida xalqaro iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining xalqaro iqtisodiy aloqalari va xo‘jalik faoliyati natijalarining o‘zgarish imkoniyatlaridir.

Valyuta spekulyatsiyasi – bu valyuta riskini oldindan bilib qabul qilish bilan bog‘liq operatsiyadir. Bunda daromad vaqt oralig‘ida yoki turli valyuta bozorlarida valyuta kurslarining o‘zgarishidan olinadi.

Valyuta svoplari – valyuta svopi ikki tomon o‘rtasida turli valyutalardagi to‘lovlarning almashinishi (albatta, kelajakda) haqidagi kelishuvdir.

Valyuta tizimi – bu xalqaro valyuta munosabatlarining davlat tomonidan shakllantiriladigan huquqiy–tashkiliy shaklidir. Valyuta tizimi quyidagi turlarga bo‘linadi: Milliy, hududiy va jahon valyuta tizimlari.

Valyuta tushumi – tovar va xizmatlarni eksport qilish, shuningdek, xalqaro kreditlar hisobiga xorijiy valyutalarning kelib tushishi.

Valyutalash sanasi – svop bitimi shartlarini bajarish sanasi.

Valyutali arbitraj – bu xarid qilingan valyutani shu vaqtning o‘zida sotib yuborishdir. Bunda foyda valyuta kurslari farqidan olinadi.

Valyutani sotib olish kursi – bu bank kotirovka qilingan valyutalarini kurs bo‘yicha sotib olish tushuniladi.

Valyutani sotish kursi – bu bank kotirovka qilgan valyutalarini kurs bo‘yicha sotish.

Valyutaning teskari kotirovkasi – milliy valyutaning chet el valyutasidagi ifodasi tushuniladi.

Valyutaning to‘g‘ri kotirovkasi – chet el valyutasini milliy valyutadagi ifodasi tushuniladi.

Veksel– qarz majburiyati bo‘lib, veksel beruvchining Ushbu vekselini ko‘rsatilgan muddatda taqdim etganda, veksel ushlovchiga uning nominal qiymatini to‘lab berish guvohini beruvchi qimmatli qog‘ozlar va to‘lov vositasidir.

Voris – meros olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs, merosxo‘r, bo‘lg‘usi meros egasi. Bobolardan meros qolgan moddiy va ma‘naviy boyliklarga egalik qiluvchilar.

Vorislik huquqi – meros qoldirilgan mol–mulkning vorislar qo‘liga o‘tishini ta‘minlaydigan huquqiy me‘yorlar majmui.

Xalqaro kredit – bir davlat, shu davlat banki, huquqiy tomondan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to‘lovlilik asosida beriladigan kreditdir.

Xazina majburiyatlari– uning egasi tomonidan ma‘lum bir pul mablag‘ini budjetga kiritganligi va uning butun aylanish davrida aniq chegaralangan foizni to‘lab berish majburiyatini guvoxlovchi qimmatli qog‘ozidir.

Xususiy usullar–har bir bank operatsiyasi bo‘yicha risk aniqlash va baholash usullari kiradi.

YaIM deflyatori – mamlakatda narxlar umumiy darajasining o‘shishini ifoda etuvchi umumlashtiruvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkich. U nominal YaIm hajmini real YaIM hajmiga bo‘lish orqali aniqlaniladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir.

Yalpi ichki mahsulot – ma’lum davr ichida mamlakat hududida rezidentlari va norezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlar yig‘indisidir.

Yetakchi bank – sindikatsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi–banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas’uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatuvchi bank.

Yirik investitsiya loyihasi – umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekistan, 30.04.2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019 -yil 07-noyabr, №O'RQ-580.
3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni. 22.10.2019, №O'RQ-573.
4. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni. 15.11.2019, №O'RQ-582.
5. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. 2019 -yil 07-noyabr, №O'RQ-578.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296 sonli Farmoni. 2018-yil 9-yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620 sonli Farmoni. 2018-yil 23-mart.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270 sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2344- sonli Qarori. 2015-yil 6-may.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2768-sonli Qarori. 2017-yil 10-fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2777-sonli Qarori. 2017-yil 15-fevral.

13. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

15. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

16. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 31.08.2020, №3281.

18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020 - yil 15-fevraldagi 3/12-son qaroriga ilova “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizomi 157

19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Qarori, 26.02.2019, №943-5.

20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Qarori, 19.03.2019, №2711-4.

21. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qarori, 06.03.2019, №2693-5.

22. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomi (ro‘yxat raqami 2709, 2015-yil 13-avgust).

23. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan

foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi (ro‘yxat raqami 2696, 2015-yil 14-iyul)

24. “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi (ro‘yxat raqami 2711, 2015-yil 26-avgust).

25. “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom (03.06.2013 y. № 2465).

26. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: Moliya. 2017-yil. 148-bet.

27. Azizov U.O‘., Qoraliyev T.M. va b. Bank ishi. Darslik. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2016-yil, 760 b.

28. О.И. Лаврушина. Банковское дело. Учебник.– М.: Кнорус, 2015. – 768 с.

29. Радюкова Я.Ю., Чернышова О.Н., Федорова А.Ю. [и др.]. Банковский менеджмент: учебник / Я.Ю. Радюкова, О.Н. Чернышова, А.Ю. Федорова [и др.]. – М.: ИНФРА-М, 2020. – 379 с

30. Деньги, кредит, банки. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: Кнорус, 2015. – 560 с.

31. Костерина Т.М. Банковское дело: учебник для бакалавров. М.: Юрайт-Издат, 2012. 345 с.

32. Алексеев П.В. Банковское дело: управление в современном банке. Учебное пособие для ВУЗов / П.В. Алексеев, сост. – М.: КноРус, 2018. – 304 с.

33. Банковское дело: Учебник / Под ред. Коробовой Г.Г. – М.: Магистр, 2018. –480 с.

34. Коробова Г.Г. Банковское дело: Учебник. – М.: Магистр, 2018.–480 с.

35. Кравцова Г.И. Деньги, кредит, банки. –Минск: БГЭУ, 2007.– 448 с.

36. Красавина Л.Н. Проблемы денег в экономической науке // Деньги и кредит. – М.: 2001. — № 10. — С.3–6.

37. Маркова О.М. и др. Банковские операции. – М.: Юрайт, 2017. –544 с.

38. Миллер Л.Р., Ван-Хуз Д.Д. Современные деньги и банковское дело. Пер. с англ. – М.: Инфра- М, 2020.

39. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: И.Д. ООО “Вильямс”, 2013.

40. Nafasov D.B. Tijorat banklari risklarini boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. –Т.: 2017, -49 b.

41. Kotler F., Keller K.L. Marketing, Management. 2006. 431 p.

42. Shelagh Hefferman. “Modern Banking”. John Wiley and Sons, Ltd. USA. 2012. 717p.

43. Kent Matthews and John Thompson. The economics of Banking, John Wiley and Sons, Ltd. USA. 2008. 295p.

44. Murray N. Rothbard. The Mystery of Banking second edition, Auburn, Alabama. 2008. 298-page.

45. Jean Dermine. Bank Valuation and Value Based Management: Deposit and Loan Pricing Performance evaluation and Risk. 2014. 514-page.

46. John Wiley and Sons. Banking Systems, Center for Financial Training. Ltd. USA 2012. 495-p.

Internet saytlari

47. www.cbu.uz-(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sayti).

48. www.lex.uz-(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi rasmiy veb sayti).

49. www.stat.uz-(O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy veb sayti).

50. www.uzse.uz-“Toshkent” Respublika fond birjasi rasmiy sayti ma’lumotlari.

51. www.bankinfo.uz- Banklar to‘g‘risidagi axborot beruvchi sayt.

52. www.finanse.uz-O‘zbekiston iqtisodiy, moliyaviy va texnologik yangiliklar sayti.

53. www.norma.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik bazasi rasmiy sayti.

KARIMOVA A.M., TURSUNOV F.M.

BANK SERVISI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: Z.N. Bobodustov

Musahhih: M.O. Mardiyeva

Texnik muharrir: N. Ergashev

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 27 - noyabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (4-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2024

ISBN: 978-9910-702-57-0

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)

Nashrga ruxsat etildi: 27.11. 2024 y.

© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84¹/₁₆, Ofset qog‘ozi.

“Times New Roman” garniturası.

Nashr bosma tabog‘i 17.37

Buyurtma № 0169A/24. Adadi 100 nusxa

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.**

LICENSE № 025316.

REESTR № X-119112.

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy.